O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

O‘ZBEKISTON HUNARMAND UYUSHMASI

“O‘ZBEK MILLIY CHOLG‘ULARI SOZGARLIGINING O‘ZIGA XOS ILMIY-TARIXIY EVOLYUTSIYASI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI TO‘PLAMI

Toshkent – 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON HUNARMAND UYUSHMASI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

“CHOLG‘U IJROCHILIGI” KAFEDRASI

“O‘ZBEK MILLIY CHOLG‘ULARI SOZGARLIGINING O‘ZIGA XOS ILMIY-TARIXIY EVOLYUTSIYASI”

mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari

TO‘PLAMI

24-aprel, 2025-yil

“Javohir-ilm-nashr”
Toshkent – 2025

UO‘K 780.6.01
KBK 85.315.32
O‘ 34

“O‘ZBEK MILLIY CHOLG‘ULARI SOZGARLIGINING O‘ZIGA XOS ILMIY-TARIXIY EVOLYUTSIYASI” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, Toshkent:, “Javohir-ilm-nashr” – 2025, 278 b.

ISBN 978-9910-9380-9-2

© “Javohir-ilm-nashr”

Nodirbek SAYFULLAYEV,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori, professor

O‘ZBEK CHOLG‘U IJROCHILIGI – MILLIY MUSIQA MADANIYATINING AJRALMAS BO‘LAGI

Barcha sohalar qatorida bugun Davlatimiz Rahbarining e’tibor va g‘amxo‘rligi natijasida san’at va madaniyat sohasida ham tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Sohalar amaliy jihatdan rivojlanishi bilan bir qatorda ilmiy-nazariy tomondan ham taraqqiy etayotgani ushbu **“O‘zbek milliy cholg‘ulari sozgarligining o‘ziga xos ilmiy-tarixiy evolyusiyasi”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanining o‘tkazilayotgani bilan ham izohlanadi.

Mustaqil O‘zbekiston tarixida ilk bora 2021-yil 23-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinib, madaniyat va san’at muassasalari, ijodiy uyushma va birlashmalarning huquqiy maqomi belgilandi, ijodkorlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy baza yaratildi.

Bugun mamlakatimizda ushbu sohalarga ulkan e’tibor qaratilar ekan, Yangi O‘zbekistonda bu sohaning o‘rni qanday bo‘lishi kerak? degan savol paydo bo‘ladi.

Ushbu savolga Muhtaram Yurtboshimizning **“Bizning ikkita o‘qtomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri – iqtisodiyot, biri – ma’naviyatdir. Ma’naviy buyuk xalq – iqtisodiy tomondan ham buyuk bo‘ladi”** degan so‘zlari bilan mukammal javob berish mumkin.

Sir emaski, yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda muhim omillaridan biri, shubhasiz, musiqa san’ati hisoblanadi.

Bu yo‘nalishda **“Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi Prezident qarorida **umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilariga milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahorati** o‘rgatilishi belgilanganining o‘zi ham musiqaning inson, ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida naqadar muhim ahamiyatga

ega ekanligidan dalolat. Ya’ni, ushbu band orqali har bir o‘quvchi musiqani shunchaki tinglovchisi emas, uni ijrochisiga aylanishi, provardida esa yetuk shaxs bo‘lib kamol topishi nazarda tutildi.

Bu ham mazkur soha vakillari zimmasiga juda katta mas’uliyatni yuklaydi.

Albatta, musiqa rivojlanar ekan musiqiy cholg‘ular ham takomillashib boradi. Bu ikki soha bir biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Musiqa aslida ikki xil ijro etilishi mumkin. Cholg‘uda va inson ovozida. Har ikkisini ham Al Xorazmiy, Al Farobiy, Abu Ali ibn Sino kabi allomalarimiz “musiqa cholg‘usi” deb atashgan va ular inson ovozini “eng mukammal musiqa cholg‘usi”, ya’ni “tabiiy cholg‘u” deyishgan. Qolgan barcha musiqa cholg‘ularini esa inson tomonidan yaratiladigan sun’iy cholg‘ular deyishgan.

Bizning yashab turgan hududimizda musiqa cholg‘ulari juda qadimdan paydo bo‘lgan hamda Buyuk Ipak Yo‘li sharofati bilan boshqa yurtlarga tarqalgan va ayrimlari esa bizgacha yetib kelgan. Hozirgi kunda, mutaxassislarning aytishicha, o‘zbek musiqa madaniyatida xalq cholg‘ularining 38 ta turi ishlatilayotgan ekan. Bu cholg‘ularning hammasi ham millatimiz mentalitetiga mos ohanglar yarata olmaganligini tarix ko‘rsatib turibdi.

Ilmiy anjumanda hozirgi kunda professional musiqiy ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan musiqa cholg‘ulari ana shu talabga javob bera olayaptimi, agar javob bermayotgan bo‘lsa shu cholg‘ularning nisbatan yaxshiroq variantini yaratish imkniyati bormi, degan savollarga javob topishimiz lozim.

Shu bilan bir qatorda anjumanda “Hunarmand” Respublika uyushmasi tomonidan taklif etilgan sozgarlarimizning ishtirokidan foydalanib, musiqa cholg‘ularining qadimiy turlarini qayta tiklash, mavjud musiqa cholg‘ularini yanada takomillashtirish kabi masalalarda ham munozaralar bo‘lishiga umid qilamiz.

Ushbu konferensiyaning to‘plamidan 50 ga yaqin tadqiqotchilarning sohaga oid ma’ruzalari o‘rin olgan bo‘lib, ularda bugun milliy cholg‘ulari sozgarligining oldida turgan muhim maqsadlar va vazifalar, sohaning tarixi chuqur tahlil etilgan.

Umid qilamizki, bu to‘plam kelgusida tadqiqotchilar uchun muhim manbaga aylanadi hamda o‘z o‘quvchisini topadi. Zeroki, biz konferensiya ma’ruzalarini to‘plam sifatida nashr etar ekanmiz, avvalo, uni tadqiqotchilar uchun foydali adabiyotga aylanishini maqsad qilganmiz.

ЎЗБЕКИСТОН МУСИҚА МАДАНИЯТИДА СОЗГАРЛИК САНЪАТИНИНГ АҲАМИЯТИ

Исламов Азамат Хайдарович
ЎзДК "Миллий чолғу ИИЧЭЛ" директори,
islamovazamat68@gmail.com

Жаҳон мусиқа маданияти ривожи бугунги кунда замонавий ёндашувлар ва индивидуал тажрибалар асосида рўй бермоқда. Бунда жаҳон халқларининг мусиқа маданиятининг илғор анъаналаридан ўзаро фойдаланиш ва у асосида миллий мусиқа маданиятларини ривожлантириш тенденцияси устувор аҳамият касб этмоқда. Европа мамлакатлари мусиқа марказлари ва Америка Қўшма Штатларининг АРТ – мусиқа амалий марказлари мусиқа маданиятини ривожлантиришнинг илмий асосларини кенг тадқиқ этиб, жаҳон мусиқа маданияти ривожига муносиб ҳисса қўшмоқда [1,4 -б]. Бу борада Органология, яъни созгарлик санъатининг ҳам бугунги кунда технологик ривожланиб бораётганлиги ва унинг жаҳон мусиқа маданияти ривожида муҳим асослардан бири бўлаётганлигини таъкидлаб зтиш лозим. Шу жиҳатдан жаҳон органологияшунослиги ҳозирги замон талаблари асосида такомиллашиб бораётганлиги ва бу профессионал созгарларнинг вояга етказиш ишининг долзарб бўлиб турганлигини кўрсатади.

Дунё мусиқа маданиятида ривожланишнинг таълим контекстига боғлиқ йўналиши муҳим ўрин тутмоқда. Шу сабабли дунё мусиқашунослари ва мусиқа санъатининг машҳур намоёндалари Органология, яъни созгарлик санъатининг имкониятлари ҳамда унинг мусиқа маданияти ривожида тутган ўрни масаласига алоҳида эътибор қаратмоқда. Бу ҳол дунё мусиқа маданиятида ўзига хос профессионал ва технологик ривожланишни таъминламоқда. Дунё мамлакатларида мусиқа маданияти ва унинг созгарлик санъати йўналиши бўйича ҳамкорликнинг янги босқичи таркиб топа бошлади. Чунки дунё халқлари маданий

ривожида бундай ҳамкорликнинг илмий ва амалий аҳамияти муҳимдир [2, 47 – 48 б].

Мамлакатимизда миллий мусиқа маданиятини ҳозирги замон талаблари ва эҳтиёжларига мос равишда ривожлантириш жараёни кечмоқда. Шу жиҳатдан мусиқа маданиятининг муҳим таркибий қисми бўлган созгарлик санъатини илмий тадқиқ этиш ва миллий мусиқа маданияти ривожида унинг имкониятларидан фойдаланишнинг механизмларини ишлаб чиқиш долзарб бўлиб турибди. Буларнинг барчаси Ўзбекистон мусиқа маданиятида созгарлик санъатининг аҳамияти муаммосини илмий тадқиқ этишни тақозо этади. Бу масала мусиқа ва санъатга оид барча таълим муассасаларининг мусиқа ўқитувчилари учун муҳим амалий аҳамиятга эга. Шу жиҳатдан бу борада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 21 июндаги ПФ-444- сон “Ўзбекистон - 2030” стратегияси тўғрисида”ги фармони, 2017 йил 8 августдаги ПҚ-3178-сон “Ўзбекистон давлат консерваторияси фаолиятини янада ривожлантириш ва такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисда”ги, 2017 йил 17 ноябрдаги “Ўзбек миллий мақом санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2018 йил 26 августдаги ПҚ-3920-сон “Ўзбекистон Республикаси маданият ва санъат соҳасини инновацион ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2022 йил 2 февраль, ПҚ-112-сон “Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорларида белгиланган вазифаларни амалга оширишда илмий асослардан бири бўлиб хизмат қилади.

Мусиқа ва санъатга оид барча таълим муассасаларининг мусиқа ўқитувчилари учун созгарлик санъати тўғрисида маълумот беришда манбалардан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эгадир. Бу борада Абу Наср Фаробийнинг (875-950) “Китоб ал-мусиқа ал-кабир” (Мусиқа ҳақида катта китоб), Абу Али Ибн Синонинг (980-1032) “Тиб қонунлари” қомусий

асарининг “Мусиқа маданияти” китобида, Алишер Навоийнинг (1441-1501) “Маҳбуб ул-қулуф” (Кўнгилларнинг севгани), Дарвеш Али Чангийнинг (1680-1740) “Рисолаи мусиқий”, Комил Хоразмийнинг (1842-1901) “Хоразм танбур чизиғи” ва Абдурауф Фитратнинг (1884-1938) “Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи” асарларида созгарлик санъати асосларига доир муҳим маълумотлар бериб ўтилганлигини эслатиб ўтиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Ўзбек мусиқашунос олимларидан Р.Абдуллаев, А.Джумаев, О.Иброҳимов. Т.Визго, Ф.Караматов, О.Матьёқубов, Т.Соломонова, Ю.Ражабий ва И.Ражабийларнинг тадқиқотларида созгарлик санъати ва унинг мусиқа маданияти тутган ўрни масалалари бўйича илмий-назарий қарашлар баён қилиб ўтилган. Шу сабабли мусиқа ва санъатга оид барча таълим муассасаларининг мусиқа ўқитувчиларини ушбу тадқиқотлардан фойдаланган ҳолда созгарлик санъати бўйича маълумотларни олишга йўналтириш муҳим аҳамиятга эгадир.

Мусиқа ва санъатга оид барча таълим муассасаларининг мусиқа ўқитувчиларига созгарлик санъати тўғрисида тушунча бериш билан уларда қуйидаги малакаларнинг таркиб топишига эришилади:

- Ўзбекистон мусиқа маданиятида созгарлик санъатининг ривожланиш эволюцияси;
- мусиқа маданияти ривожида созгарлик санъатининг тутган ўрни ҳамда унинг чолғулаштириш ва ижро маҳоратидаги роли ҳақида билим бериш;
- мусиқа маданиятида анъанавий ва технологик созгарлик санъати ҳамда профессионаллик истиқболли ривожланиш йўналишлари тўғрисида малака бериш;
- мусиқа ва санъатга оид барча таълим муассасаларининг мусиқа ўқитувчиларининг созгарлик санъати бўйича тушунчаларини таркиб топтириш воситасида уларни мактаб мусиқа чолғуларини

таъмирлаш ва улардан фойдаланишда амалий методикалар билан қуроллантириш.

Кези келганда, созгарлик санъати тўғрисида қисқача тарихий маълумот бериб ўтиш мақсадга мувофиқ бўлади. Ўзбекистон мусиқа маданиятида созгарлик санъатининг негизи бўлган “созгарлик” атамаси тарихий ривожланиш жараёнида бўлган. Махмуд Кошғарий (XI аср) “Девону луғотит турк” (Туркий сўзлар луғати) асарида қадим даврларда ўзбек маданиятида мусиқа “куг” деб аталгани (бу сўз кейинчалик “куй” шаклини олган) ва чолғу ясовчилар “*куггар*” (куй ускунасини ясовчи) деб юритилганлигини таъкидлайди[3]. Демак, ушбу атама қадимги даврлардаёқ созгарлар атамасининг ўзбекча муқобили сифатида ишлатиб келинганлигига дуч келамиз.

Ўзбекистонда мусиқа маданиятининг ривожланиш жараёнида мусиқа атамалари ҳам сайқалланиб, янги атамалар асосида такомиллашиб борди. Миллий мусиқа маданиятимизда *созгарлик* атамаси (бу сўз форс тилидан олинган) XIV асрдан бошлаб қўлланила бошланганлигини алоҳида таъкидлаш лозим. Бу борада машҳур сўз санъатининг вакилларидан бири Муҳаммад Хоразмий (XIV аср) 1353 йили ёзилган “Муҳаббатнома” асарида қуйидагича маълумот беради:

Хусайний пардаси узра тузуб *соз,*
Муғунний бу ғазални қилди овоз [4].

Демак, бу ўринда “соз” тушунчаси чолғу ва Хусайний мақомининг пардаси (лади) маъноларида келаётганлигига эътибор бериш керак. Шу маънода СОЗ атамаси XIV асрдан бошлаб мусиқа маданиятимизда қўлланиб келаётганлигини эътиборга олиш мақсадга мувофиқ бўлади. Бу атаманинг маъносида мусиқа маданиятининг хонандалиги асоси бўлган сўз тушунчасининг мавжудлигини идрок этамиз. Унга кўра ашула санъатини негизи бўлган сўз матни товуш ўзгариши натижасида мусиқа чолғусига нисбатан СОЗ атамасининг таркиб топишига таянч бўлган, бунда бу

атаманинг “тўғри”, “аниқ” маъноларига эгалигини қабул қилиш керак. Шу маънода сўз мусиқа маданиятининг хонандалик асосини, соз мусиқа маданиятининг чолғу ижрочилиги асосина ташкил қилади. Бундан хулоса қилиш мумкинки, СОЗ атамаси бугунги кунда илмий-амалий жиҳатдан тўғри ҳисобланади ва бу атамага форсча “гар” (ўзбекча “чи”) қўшимчаси қўшилиб, ***созгарлик*** атамаси пайдо бўлганлигига дуч келамиз. Демак, созгарлик XIV асрдан бошлаб миллий мусиқа маданиятимизда “мусиқа чолғуларини ясовчи уста” маъносида ишлатиб келинганлигини идрок этиш керак. Шу даврдан бошлаб бугунги кунга қадар созгарлик Органология фанининг муҳим йўналишларидан бири бўлиб келаётганлигини таъкидлаб ўтиш лозим. Бу фан Шарқ ва Ғарб мамлакатларида ўзининг индивидуал атамаларга эга бўлганлигини алоҳида таъкидлаш лозим.

Шу тариқа созгарлик санъати мазкур атаманинг жаҳон халқлари мусиқа маданиятида ривожланиб келганлигини кўрсатади. Янги Ўзбекистон тараққиёти шароитида созгарлик санъатининг мазкур маъноларидан хабардор бўлиш мусиқа маданиятини замонавий даражада ривожлантиришнинг амалий имкониятларини беради.

Ўзбекистон мусиқа маданиятида созгарлик санъати алоҳида қатлам ҳисобланади. Бунинг учун созгарлик санъатининг ривожланиш тадрижига алоҳида эътибор бериш лозим бўлади. Созгарлик санъатининг ривожланиш тадрижи (эволюцияси) ўзбек мусиқашунослигида белгиланган эмас. Шу маънода Ўзбекистон мусиқа маданияти ривожида созгарлик санъатининг тадрижида қуйидаги босқичларни ҳисобга олиш бизнингча, мақсадга мувофиқ бўлади:

А) биринчи босқич – қадимги даврларда VIII аср охирига қадар бўлган давр;

Б) иккинчи босқич – IX асрдан XX асрнинг 40- йилларигача бўлган давр;

В) XX асрнинг 40- йилларидан бугунги кунгача бўлган давр.

Ушбу қисқа маълумотлар мусиқа ва санъатга оид барча таълим муассасалари мусиқа ўқитувчиларининг созгарлик санъати бўйича касбий малакасини ривожлантиришга хизмат қилади. Шундай қилиб мусиқа ўқитувчиларининг созгарлик санъати бўйича касбий тушунчаларини таркиб топтириш долзарб бўлиб турибди. Бу борада илмий-методик тадқиқотларни амалга ошириш муҳим аҳамиятга эгадир.

АДАБИЁТЛАР

1. Қодиров Р. Оммабоп мусиқий глоссарий. – Тошкент, 2016
2. Лутфуллаев А. Халқ чолғулари ижрочилиги: манбалар, тажрибалар ва замонавий ёндашувлар. – Тошкент, 2023
3. Ўзбек мумтоз шеърияти антологияси. 1-жилд. – Тошкент, 1989
4. Муборак мактублар. Мумтоз матнлар тўплами. – Тошкент, 1987
5. www.Lex.uz

РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ И СОЗДАНИЕ НА ЭТОЙ ОСНОВЕ НОВЫХ ФОРМ ИСПОЛНИТЕЛЬСТВА

Абдурахимова Фируза Равшановна,
профессор кафедры оркестрового дирижирования
Государственной консерватории Узбекистана.
sogdi_orch@mail.ru

Annotatsiya: O‘zbekistonda ijrochilikning yangi shakllarining yaratilishi o‘tgan asrning 30-yillariga to‘g‘ri keladi. Bu davr o‘zbek musiqa madaniyati rivojlanish yo‘llaridagi ijodiy izlanishlar faolligi bilan tavsiflanadi.

Maqola o‘zbek xalq cholg‘ularining rivojlanish jarayonlari, O‘zbekiston jamoaviy ijrochiligida yangi shakllarining paydo bo‘lishiga bag‘ishlangan.

Аннотация: Создание новых форм исполнительства в Узбекистане приходится на 30-е годы прошлого столетия. Этот период характерен активностью творческих поисков путей развития в области узбекской музыкальной культуры.

Статья посвящена процессам развития узбекских народных музыкальных инструментов, появлению новых форм в коллективном исполнительстве Узбекистана

Annotation: The creation of new forms of performance in Uzbekistan dates back to the 1930. This period is characterized by the activity of creative searches for ways of development in the field of Uzbek musical culture.

The article is devoted to the processes of development of Uzbek folk musical instruments, emergence of new forms in collective performance of Uzbekistan.

Kalit so‘zlar: muntazamlik, takomillashtirish, rivojlanish, poliregister, monodiya, polifoniya, 12-zonali teng temperatsiya.

Ключевые слова: Закономерность, усовершенствование, развитие, полирегистровость, монодия, многоголосие, 12-зонная равномерная темперация.

Keywords: Pattern, improvement, development, polyregister, monody, polyphony, 12-zone equal temperatsiya.

Прогрессивные деятели Чулпон, Г.Зафари, Зиё Саид, Авлони в периодической печати тех лет неоднократно высказывали конкретные предложения по выбору путей развития узбекской музыкальной культуры.Примечательно, что мысли об изучении европейской музыкальной теории и практики, о синтезе музыкальных культур Востока и Запада красной нитью проходили в их статьях. В этом они видели будущее узбекской музыкальной культуры (1, 7-8).

Массовый характер искусства тех лет, расширение концертной практики в больших залах, многонациональная направленность программ подсказывали именно такой путь в решении проблем развития узбекского инструментария, который не мог остаться в стороне от этого процесса. Эмпирические поиски народных мастеров–изготовителей Ш.Шоумарова, М.Харратова, У.Зуфарова в этом направлении послужили подспорьем в решении данного вопроса.

Данная статья посвящена рассмотрению процессов развития узбекских народных музыкальных инструментов. Появление многоголосного оркестра народных инструментов в Узбекистане отнюдь не отменял древних традиций монодийного инструментального исполнительства, а «встал рядом с нею. Здесь происходит не смена стилей, а их сосуществование, взаимодействие» (2).

Вопрос развития узбекских народных музыкальных инструментов неразрывно связан с культурологической проблемой «Восток-Запад». Исследователи указывают, что в сущности, взаимообмен культурными ценностями между Востоком и Западом был еще в глубокой древности. В XX столетии он активизировался изменениями в социально–экономической и политической жизни народов. Коснулся данный вопрос и той части Средней Азии, которая вошла в состав бывшего СССР. В музыке это проявилось следующим образом: родилось новое музыкальное мышление – многоголосное, создана национальная композиторская школа и новые жанры в музыкальном творчестве. В отношении исполнительства – возникли оперы, многоголосные хоры и оркестры различных видов. Все эти явления родились на основе синтеза восточной и западной музыкальных традиций.

Вопрос о необходимости темперировать и хроматизировать строи народных инструментов возник в ходе исторического развития в странах Европы, когда обозначился переход к многоголосию как к новой системе музыкального мышления.

Ранние формы профессионального многоголосия возникли в Западной Европе (XI – XII вв.). Это было рождение новой системы музыкального мышления, которая принципиально отличалась от существовавшей до нее. Разумеется, это новшество не отменило слагавшихся веками и прочно устоявшихся норм монодического мышления. На первых порах новая система «далеко отстоит от народной практики - хотя бы потому, что требует профессиональной выучки и письменной фиксации» (3, 75).

Зародившись в условиях христианского культа, профессиональное многоголосие существовало первоначально как искусство хоровое. Параллельно возникает и многоголосная инструментальная музыка. На ее развитие большое влияние оказало распространение музыкальных инструментов с фиксированной частотой звука, в частности, предшественников фортепиано – клавикордов и органов. Важную роль сыграло и массовое использование в странах Европы лютни – щипкового инструмента (уда), пришедшего с Востока (4, 269-271).

Распространение многоголосия в самой музыкальной практике выдвинуло как одну из первейших проблему строя. Проблема эта не была новой. Она зародилась в глубокой древности и разрабатывалась музыкальными теоретиками разных стран. Исследования Пифагора (VI в. До н.э.), Дидима (II в.до н.э.), Аль -Фараби (IX в.), Абу Али Ибн-Сины (X в.) сыграли огромную роль в формировании музыкальной теории.

Итак, в развитие науки о музыкальных строях внесли свой вклад, как ученые Античной Греции, так и великие энциклопедисты средневекового Востока. И лишь в эпоху европейского Возрождения идеи восточных мыслителей нашли свое практическое продолжение в трудах музыкальных теоретиков.

Темперация – (лат. Temperatio - правильное соотношение, соразмерность) – выравнивание интервальных соотношений между ступенями звуковысотной системы в музыкальном строе. По выражению Ю.Н Тюлина, рождение 12-ступенной системы «явилось значительнейшим поворотным этапом в историческом развитии всего мирового музыкального искусства» (9, 63). И.С.Бах творчески доказал преимущество равномерно-темперированного строя; он прекрасно владел искусством настройки клавира или как тогда говорили, «искусством хорошего строя» (10, 80).

Широкое применение 12-ступенного темперированного строя в музыкально–исполнительской практике было обусловлено многими причинами: неограниченные возможности транспозиции и модуляции делали разнообразной гармоническую фактуру произведений, наличие в октаве 12 звуков упрощало конструкцию музыкальных инструментов с фиксированной высотой звука, что создало удобства для совершенствования исполнительской техники. Но, пожалуй, главным его достоинством явилось решение проблемы настройки в больших многоголосных коллективах, а также, инструментов с фиксированной высотой звука, таких, как фортепиано, орган, арфа, баян и т.д. (11, 76).

Развитие гармонического многоголосия привело к возникновению инструментов различной тесситуры, способных охватить широкий диапазон, а также различные регистры звучания. Эти группы получили наименование *семейств.*

Одним из важных элементов структурных черт многоголосия явилось движение музыки по вертикали*, полирегистровость* хоровых и инструментальных коллективов. Всё это было невозможно без фиксации, то есть *письменной традиции*. В её формирование вложили усилия многие народы Востока и Запада (12). Универсализм нотной письменности привел к её повсеместному распространению во всех уголках Земного Шара, способствовал взаимопроникновению различных музыкальных культур. Исторически нотная запись сыграла прогрессивную роль в развитии музыки, так как позволила фиксировать материал (звуковой – А.Ф.) и сделала возможным его воспроизведение, способствовала устойчивости творческих традиций…. (13, 163-164).

Таким образом, можно констатировать, что в результате процессов, происходивших в музыкальной практике, сформировались три главных явления:

а) *рождение 12 - зонного равномерно- темперированного хроматического строя;*

б) создание полирегистровости на этой основе-семейств инструментов,

в) возникновение письменной традиции.

Фундаментом появления симфонического оркестра – коллектива, вобравшего в себя национальные инструменты многих народов, становление русского оркестра народных инструментов явились именно эти факторы. Известный русский музыкант В.В.Андреев, изучив процессы развития европейских инструментов, как наиболее совершенных, начал работу над усовершенствованием балалайки и домры. 20 марта 1888 года состоялось первое выступление этого ансамбля. В. В. Андреев принципиально считал, что основой оркестра должны быть исконно русские инструменты, издавна распространенные в музыкальном быту русского народа.

В середине 30 – х годов XX века создаются многоголосные оркестры народных инструментов в среднеазиатских национальных республиках и Казахстане (17).

Работа, проведённая в 30 – 50 годы прошлого столетия в области узбекских народных инструментов, опиралась на два основных базиса: первый - традиции древних национальных культур Среднего Востока, второй –сложившиеся традиции нового времени. Узбекские народные мастера Ш. Шоумаров, У. Зуфаров, М. Харратов начали поиски, но они коснулись, в основном, попыток усиления звучности, размеров и форм инструментов. С 1935 года А.И. Петросянц с группой единомышленников начали работу совершенно в другом направлении. Главными задачами, которые должны были быть решены в первую очередь, он видели в следующем: 1)изменение звукорядов инструментов с фиксированной частотой звука в направлении 12 – ступенного равномерно–темперированного, зонного хроматического; 2) создание новых разновидностей инструментов на основе традиционных образцов; 3) улучшение звуковых качеств; 4) облегчение техники звукоизвлечения; 5) выработка новой технологии изготовления инструментов (18, 22).

Узбекистан в числе других национальных республик оказался в роли первопроходца в этой области, тем более, что «многоголосие возникло не в

результате саморазвития монодии, а приходит как бы извне вместе с социальной перестройкой общества, отнюдь не нарушая при этом традиционного пласта культуры» (19).

Как известно, первым инструментом, звукоряд которого был подвергнут 12–ступенной равномерной темперации, стал *дутар,* инструмент, очень любимый народом. В плане звукоряда, он оказался наиболее подготовленным к изменениям. Главная задача заключалась в изменении математического строя инструмента. Это требование, как увидим в дальнейшем, было обязательным не только для дутара, но и для всех узбекских инструментов с фиксированными ладами (танбура, рубаба, чанга). В 1935 году эта работа была осуществлена.



прим. страны указывают на отсутствующие звуки

Из приведённого примера видно, что в нижней октаве добавлена ув.4, а также заполнены расстояния в верхней октаве и расширен диапазон до двух октав на одной струне. Конструктивно изменения коснулись расположения ладов на инструменте в новом порядке, а также замены надвязных ладов закреплёнными на шейке инструмента (20).

Следующим инструментом, над которым была проведена работа в 1938 году по темперации и хроматизации звукоряда был кашгарский рубаб (21). Были изготовлены четыре рубаба по традиционному образцу, но уже с новым звукорядом (22, 18). Лады стали закрепленным и металлическими. Для сравнения приводим звукоряды традиционного и изменённого кашгарских рубабов:

Изменения коснулись темперации и добавления хроматических звуков (23) в недостающих промежутках: между 4 и 5 ладами, 14 и 15, 19 и 20

ладами. Последние верхние лады по признанию самого В.М. Беляева были обозначены недостаточно точно. Поэтому была проведена полная хроматизация звукоряда вплоть до 24 лада включительно.

Афганский рубаб (24), также как и кашгарский, представляет более позднюю стадию развития своего звукоряда. Но он имел четыре надвязных лада, расположенных в хроматическом порядке (25, 74):

После нескольких лет работы над инструментом был создан его вид с клепчатым корпусом, с удлиненной шейкой, без резонирующих струн, которые обязательно присутствовали у его традиционного вида.

Чанг - инструмент с диатонической последовательностью тонов. Звукоряд традиционного чанга следующий (26, 94):



Известный исполнитель на чанге и мастер музыкальных инструментов Матьюсуф Харратов работал над совершенствованием инструмента и добавил ряд звуков, но эта работа не дала надлежащего результата. В 1938 году в музыкальном техникуме в Ташкенте был изготовлен первый чанг с полным хроматическим темперированным звукорядом. Первым исполнителем на новом инструменте стал учащийся техникума Ш. Шоакрамов. Диапазон и звукоряд инструмента стал следующим:



В 1940 году объём звучания инструмента был расширен в верхнем и нижнем регистрах и приобрёл границы от «соль» малой до «ми» третьей октавы. Сегодня этот вид чанга наряду с кашгарским рубабом получил большое распространение в концертной практике: как в традиционной, так и в исполнительстве письменной традиции.

Судьба уда сложилась несколько по-иному в отличие от других инструментов. Широко распространенный на территории Узбекистана в средневековье, он к началу XX столетия не встречается в музыкальной практике узбекского народа (27). Появление уда в 1939 году в Узбекистане связано с именем Мурат–бейли, который в качестве исполнителя работал в Ташкенте в различных творческих организациях.

В начале 1968 года начинаются работы над реконструкцией уда. Основой послужил инструмент Мурата–бейли со следующей настройкой струн:

В апреле того же года создан ансамбль удистов из 12 человек - студентов консерватории под руководством доцента кафедры народных инструментов С.М. Тахалова В 70-е годы прошлого века ансамбль функционировал в рамках Узгосфилармонии им. Кари Якубова.

Таким образом, работа по темперации и хроматизации звукорядов узбекских народных инструментов явилась центральной задачей, которая была решена в первые же годы работы над инструментами. Установление единого математического строя приблизило создание многоголосного оркестра, способного играть любой репертуар. Постоянно закреплённые лады на грифах инструментов дали возможность сохранять и контролировать 12-зонный строй. Вместе с тем в целях создания оркестра народных инструментов предстояло решить еще один не менее серьёзный вопрос: создание **семейств** – групп однородных инструментов на основе типового вида, которые включали бы тесситурные разновидности от нижнего до высокого регистров, с обязательным условием охвата всего диапазона. Иными словами, нужен был кардинально новый подход решению данной проблемы. Как известно, узбекские традиционные инструменты объединяли, в основном, средний и верхний регистры звучания и в общем объёме охватывали до 4,5 октав (28). Обратившись непосредственно к самим инструментам, видим, что у смычковой отсутствовал низкий регистр, у щипковой – верхний и часть нижнего, у струнно –ударных - верхний и часть нижнего, у духовых – средний и часть верхнего. В связи с этим, правомерно говорить о создании новых инструментов, восполнявших с точки зрения оркестровой фактуры, регистр звучания. Это были инструменты, сохранившие или почти сохранившие

внешний облик своих прототипов. Но они отличались своими размерами, конструктивными чертами, количеством струн, приёмами игры. Вновь созданные инструменты сохранили названия своих прародителей, как например: семейства дутаров, рубабов и т.д.

Первым инструментом, к которому обратился А.И. Петросянц., был гиджак, позже проведены работы над кобызом.

СЕМЕЙСТВО ГИДЖАКОВ : В течение 1937 - 1939 годов появились – *гиджак прима (или сопрано), гиджак – альт, бас и контрабас.* Группа была создана на основе традиционного образца, который вошел в семейство под названием гиджак – прима. Вновь созданные инструменты сохранили форму традиционного образца, но были разной величины и соответственно, различной мензуры (29). Количество струн у всех стало одинаковое – по четыре. Это привело к значительному расширению диапазона семейства: от «МИ» контроктавы до «ЛЯ» четвёртой октавы. Появилась группа с однородным звучанием во всех регистрах. Важным моментом стало оформление басовой функции в гармоническом голосоведении. Несколько иной оказалась судьба другого смычкового инструмента – кобыза. Довольно распространенный в традиционной исполнительской практике в искусстве бахши (30). На основе типового вида кобыза были созданы басовая и контрабасовая разновидности, которые применяются в оркестре узбекских народных инструментов и сегодня.

Самую многочисленную и разнообразную группу узбекского инструментария представляют щипковые. При отборе инструментов для создания семейств выбор пал, в первую очередь, на кашгарский и афганский рубабы, дутар и танбур. В течение 30 – 50х годов XX века были созданы семейства этих инструментов. По–разному сложились их судьбы.

СЕМЕЙСТВО РУБАБОВ (КАШГАРСКИЙ). Первый усовершенствованный инструмент был создан в 1938 году (31). Сущность изменений коснулась в установлении ладов в порядке 12–ступенной равномерной темперации и хроматизации, несколько уменьшена мензура инструмента, лады стали закреплёнными вместо надвязных. Изменились функции струн по сравнению с традиционным прототипом, у которого 1-я струна была мелодическая, 2я и 3я – педальные. На усовершенствованном все струны стали мелодическими. Окончательно был установлен кварто–квинтовый строй, Установлена нотация в скрипичном ключе, инструмент был признан транспонирующим (фактическое звучание на октаву ниже написанного).

РУБАБ-ПРИМА - вновь созданный инструмент, расширивший диапазон всей плекторной группы узбекского оркестра. Первые его образцы

были сконструированы в 1939 году (32). Они сохранили все конструктивные черты своего прототипа: парные струны, их общее количество -пять, долблёный корпус, деревянные колки.

РУБАБ-АЛЬТ изготовлен в 1949 году, предназначенный для использования в обучении детей.

РУБАБ-МЕЦЦОСОПРАНОВЫЙ, инструмент более высокой настройки (1959), был рекомендован для применения в профессиональных коллективах, в художественной самодеятельности, детском исполнительстве.

РУБАБ АФГАНСКИЙ - в 1939 году на основе типового вида была создана группа афганских рубабов различной тесситур: типовая, пикколо, прима, альт, бас, контрабас., Группа афганских рубабов не прошла жизненной апробации. Но работы продолжались. В 1966 году был изготовлен рубаб с удлиненным грифом, дека частично стала деревянной, частично осталась кожаной. Тембр стал более глубоким, округлым.

СЕМЕЙСТВО ДУТАРОВ. На основе типовой разновидности дутара (тенорового регистра) в течение 1946 – 1951 годов были созданы разновидности дутаров, охватывающие различные регистры. Оно наиболее многочисленное и включает в себя различные виды: *прима, секунда, альт, типовая разновидность, бас, контрабас.*

СЕМЕЙСТВО ЧАНГОВ – работа велась на протяжении 1940–1950-х годов. В 1939 году усовершенствована типовая разновидность чанга, которая в регистровом значении была определена, как *прима,* чуть позже появляются чанг - пикколо, тенор №1, тенор №2, бас. А.И.Петросянцем были установлены ножки чанга, также разработан и установлен педальный механизм.

Появилась возможность создания оркестра из чангов с ярким и сильным звучанием.

ДУХОВАЯ ГРУППА - одной из самых сложных оказалась работа над ними. Конструкторы понимали, что использование механических приспособлений как клапанная или вентильная системы приведет к видам, схожим с усовершенствованным европейским инструментарием. С целью сохранения самобытности звучания духовых, конструкторы ограничились работой над некоторыми деталями, оставив их в основном такими, какими они использовались в традиционном исполнительстве. Стремясь расширить верхний регистр данной группы, в 1939 году ими был создан най – пикколо (33), звучащий на кварту выше типового образца. Группа духовых в узбекском оркестре считается одной из самых интонационно неустойчивых.

От исполнителей требуется очень высокий уровень мастерства владения инструментом.

УДАРНЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ – создание группы было осуществлено на основе традиционного *ногора*. Появились три разновидности: большие, средние, малые. Практика показала, что этот путь, как и у духовых, может привести к европейским образцам. Но традиционная разновидность ногора сегодня активно применяется в ударной группе узбекского оркестра.

Для полноты картины надо сказать, что создавались и детские разновидности инструментов. В 1950–е годы созданы гиджаки различных размеров: 1/4, 1/2, 3/4, детский квинтет дутаров (34): прима, секунда, альт, бас, контрабас.

Решение главных вопросов (темперация и хроматизация, создание семейств), касавшихся конструктивных сторон инструментария), создали условия для приобщения его к многоголосному исполнительству. Но оставался еще один нерешенный вопрос – это введение письменной традиции – игры по нотам. В 1936 году был осуществлён перевод обучения и исполнительства на узбекских народных инструментах на нотную систему (35). Была также произведена нотация узбекских народных инструментов по реальному звучанию. Еще один важный вопрос – стандартизация строя. Создатели узбекского оркестра исходили из общепринятого стандарта, который в качестве эталона принял звук «ля» 1й октавы с частотой в 440 герц (440 колебаний в секунду).

Итак, в результате практического осуществления принципов темперации и хроматизации, создания семейств, введения стандартизации строя в Узбекистане, равно как и в других республиках постсоветского пространства, появилась новая форма исполнительства – *многоголосный оркестр народных инструментов письменной традиции.*

Подводя итоги, следует сделать следующие выводы:

- Работа, проведенная в области усовершенствования узбекских народных инструментов, явилась составной частью общего процесса эволюции музыкального инструментария и подчиняется его закономерностям.

- Работа шла поэтапно: в 1930–е годы проведена темперация на 12-зонной основе и хроматизация инструментов, созданы новые виды инструментов, заложена основа семейств;

в 1940 – 1950-е - шла работа над качественным совершенствованием исполнительских возможностей и конструктивных черт инструментальных

групп; в 60 – 70-е - продолжалось совершенствование технологических условий с целью улучшения промышленного производства инструментов.

Примечательно, что каждый новый музыкальный инструмент сразу же апробировался сначала на базе музыкального техникума – (с 1936 по 2010 годы музыкальное училище им. Хамзы (36)), затем с 1938 года – в оркестре народных инструментов Узбекской государственной филармонии (37).

Далее – открытие высшего звена в системе музыкального образования на узбекских народных инструментах – факультета народных инструментов в Ташкентской государственной консерватории. В 1948 году наряду с ведущими консерваториями Советского Союза, в Ташкентской консерватории было открыто отделение народных инструментов при оркестровом факультете (38). В сентябре 1949 года открывается специальная кафедра народных инструментов и первым её заведующим становится А. И. Петросянц (39). В 1976 году кафедра народных инструментов делится на две самостоятельные кафедры: исполнительства на узбекских народных инструментах и дирижирования оркестром народных инструментов.

Не менее важна роль начального и среднего этапов в обучении на узбекских народных инструментах. 326 школ музыки и искусств для детей, 26 специализированных школ искусств и культуры, 2 колледжа культуры и музыки охватывают большую армию учащихся и играют немалую роль не только в ликвидации музыкальной неграмотности, но и в эстетическом воспитании молодёжи.

Многоголосное профессиональное исполнительство письменной традиции на народных инструментах сосредоточилось в двух направлениях: а) коллективном и б) сольном.

Наряду с коллективным исполнительством с1940–х годов прошлого столетия стало развиваться сольное исполнительство на узбекских народных инструментах. Появление инструменталистов академической направленности было сопряжено со многими сложностями. На всемирных фестивалях и международных конкурсах они достойно проявили себя, показав всему миру, что Узбекистан становится одним из ведущих представителей академической исполнительской культуры.

Небольшие временные рамки в 90 лет, с точки зрения истории, охватили дело огромного культурного значения. Целостная система музыкального образования от дошкольного (ДДУ), школьного (ДШМИ) до высшего (консерватория, институт культуры) звеньев способствовала и способствует распространению музыкальной грамотности среди народа.

Наряду с традиционной народно – профессиональной культурой устной традиции у узбекского народа сформировалась новая - академическая письменная культура. Появление нового направления в композиторском творчестве – оригинальных произведений для узбекских народных инструментов и оркестров способствует дальнейшему развитию нового многоголосного мышления.

Очень важно констатировать, что в Новом Узбекистане уделяется огромное внимание приобщению подрастающего поколения к музицированию на узбекских народных инструментах, начиная с дошкольного возраста и на протяжении всех этапов обучения и воспитания в системе непрерывного образования страны. В соответствии с требованиями к современному процессу в общеобразовательных школах Узбекистана все учащиеся должны освоить элементарные навыки игры на одном и более узбекских народных инструментах.

Будучи частью общего процесса развития инструментальной культуры, эволюция узбекских инструментов показательна в контексте плодотворного взаимодействия двух систем музыкального мышления: восточного–монодического и западного–многоголосного. Этот опыт имеет межкультурное значение, он раздвинул границы национального искусства и создал условия для межнационального сотрудничества через музыкальное творчество.

Список литературы:

1. Касымходжаева С., Хамидова М.- Научные основы музыкальной критики, Изд-во «МУСИКА», Т., 2023.

2. Янов-Яновская Н. Национальное в творчестве композиторов Узбекистана-Доклад в Союзе композиторов Узбекистана от 21.06.1979. – Архив Союза композиторов и бастакоров Узбекистана.

3. Ливанова Т. История западно–европейской музыки, т.I. М. Изд-во Музыка, 1983.

4. Вызго Т. Афрасиабская лютня. Из истории искусства великого города, Т., Изд-во Гафура Гуляма, 1972.

5. Переверзев Н. Проблемы музыкального интонирования, М.Изд-во Музыка, 1966.

6. Шерман Н. Формирование равномерно–темперированного строя, М.,1964.

7. Шерман Н. Формирование равномерно–темперированного строя.

8. Цит.по: Баранова Т. Переход от модальности к тональной системе в западно–европейской музыке XVI-XVII веков. Дис. на соискание уч. степени кандидата искусствоведения, М.,1980.

9. Тюлин Ю. Учение о гармонии.М.,1939.

10. Шерман Н. Формирование равномерно – темперированного строя.

11. Переверзев Н. Проблемы музыкального интонирования.

12. Алексеев Э. Фольклор в контексте современной культуры. М., Советский композитор, 1988.

13. Орджоникидзе Г. Некоторые характерные особенности национального стиля в музыке. // Музыкальный современник, Выпуск 1, сост. Зив С., М.: Советский композитор. 1973.

14. Струве Б. Процесс формирования виол и скрипок. М.,1959.

15. Фомин В. – Старейший русский симфонический оркестр, Л., Музыка», 1982.

16. Преображенский Г. Автореферат канд. Дис. На тему: «Пути развития исполнительства на русских народных инструментах в Ленинграде 1917 – 1941 гг.». Л., 1983.

17. Оркестры народных инструментов созданы: в Туркменистане -1933 г., в Казахстане – 1934 г., в Кыргызстане – 1936 г., в Узбекистане – 1938 г., Таджикистане – 1938 г.

18. Вызго Т., Петросянц А. Узбекский оркестр народных инструментов., Т.,1962.

19. Янов -Яновская Н. Национальное в творчестве композиторов Узбекистана. Доклад ССКУз от 21.11.1979. Архив НИИИ им. Хамзы М/М/Я-54 №752.

20. Петросянц А. Итоги реконструкции узбекского дутара (доклад), Т., 1956, (рукопись) с.4., личный архив АИП.

21. Папка В – 51, личный архив А.И. Петросянца. Работа проделана В. Романченко, С. Диденко под руководством А. Петросянца.

22. Папка В – 51; Назаров А. Итоги реконструкции кашгарского рубаба и создание его разновидностей Экспериментальной лабораторией Министерства культуры УзССР, Т.,1958.

23. Исходя из звукоряда В.Беляева.

24. Беляев В. М. называет его индийским рабобом, инструмент был также популярен и в Бухаре, поэтому его часто называют *бухарским рубабом.*

25. Беляев В. Музыкальные инструменты Узбекистана, М., 1933.

26. Беляев В.. Музыкальные инструменты Узбекистана, М., 1933.

27. В книге В. М. Беляева «Музыкальные инструменты Узбекистана» не имеется сведений об уде.

28. Петросянц А. Значение реконструкции узбекских народных инструментов в развитии узбекской музыкальной культуры. Доклад на научно-теоретической сессии Ташкентской Государственной Консерватории от 18 марта 1949. Архив АИП, Т.

29. Мензура – рабочая часть струны.

30. Кобыз получил широкое распространение в Сурхандарье и Кашкадарье в исполнительстве сказителей -бахши, которые вели кочевой образ жизни (А.Ф.).

31. Первые инструменты были изготовлены С. Диденко, В. Романченко. См. Трудовое соглашение от 15 декабря 1938 г. Папка В-35, архив АИП.

32. Папка В-IV, архив АИП.

33. Работа была выполнена А.Кевхоянцем.

34. Папка -В-64-III, архив АИП.

35. Часто раздаются голоса, что игра по нотам испортила национальный колорит звучания музыкальных инструментов, что на инструментах нужно было оставить диатонический строй и просто улучшить качество изготовления инструментов. Но практика показывает: пропустив ступень освоения 12-зонного хроматического строя, мы закрыли бы путь новому музыкальному мышлению, связавшего нас со всем культурным миром (А.Ф.)

36. В 2010 году Музыкальное училище им. Хамзы присоединено к Республиканскому Специализированному музыкальному Академическому Лицею им. В.А. Успенского (Постановление Кабинета Министров РУз №175 от 11.08.2010).

37. Приказом №226-а по Государственной ордена Трудового Красного Знамени Узбекской филармонии от 13 ноября 1938 г. А. И. Петросянц и его группа были приглашены и началась работа по созданию оркестра.

38. Приказ Министерства высшего образования и Комитета по делам искусств при Сов. Мин. УзССР №884/ 381 от 25 июня1948 года.

39. Приказ № 653 /2 ГУУз, Архив ТГК (ныне Государственной консерватории Узбекистана).

ЯНГИ ИХТИРО ҚИЛИНГАН ЧОЛҒУ СОЗЛАРИ

Абдумалик Мадраимов
«Ғижжак Бобурий» оилавий
корхона тасисчиси. Созгар
Андижон шахар Ургенч 10 тел 93-389-69-10.
Илмий маслахатчи Рахимзода Фандоктори, професор.
Узбекистонда хизмат курсатган маданият ходими
Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси аъзоси.

Мусика чолгу созлари Ўзбкгистонимизнинг мумтоз мусиқий маданияти асосини ташкил қилади. Уларнинг куринишлари, нақш нигори ва жарангдорлиги, турли охангларини яратишга хизмат қилиши мухим ахамятга эга.

Шунинг учун мавжуд бўлган созларга кушимча янги созларни ихтиро килиш бугунги кунда созгар усталар олдидаги долзарб масаладир. Бу соха хақида устозлар ўрганган аммо янги чолгу созларни ихтиро қилинишига йўл берилмаган. Миллий чолгу созларимизнинг тарихий илдизини ўрганиш имкониятларини кенгайтириш, янгиларини ихтиро килиш ва махсус илмий татқиқотлар олиб бориш зарурдир.

Учинчи реансансга янги миллий чолгу созларни халқимиз биздан кутмоқдалар.

Даврлар ўтиши билан чолғуларнинг турлари ўзгарган, такомиллаштирилган. Айримлари ўз ўрнини бошқасига бўшатиб берган, айримлари изсиз йўқола борган. Тарихий чолғуларнинг жуда кўп қисми бизнинг давримизгача етиб келмаган, уларнинг шакл-шамойиллари фақатгина тарихий манбаларда баён қилинишича, баъзи чолғуларнинг шакл-шамойилларигина эмас, вақт ўтиши билан уларнинг товуш тебранишлари ҳам ўзгартирилган.

Ғижжакка ўхшаган соз 5000 йил аввал Цейлон шоҳи Раваной томонидан бизнинг асримизгача ихтиро этилган, деган тахминлар бор65. Бу чолғу, кўпроқ, Эрон, Ҳиндистон, Осиё халқлари орасида қўлланилган. Чолғунинг асл нусхаси Равастрон номи билан аталган. Равастрон чолғуси икки қулоқли бўлиб, тори иккита, дастаси ҳамда косахонаси мавжуд. Косахона устига тери қопланган. Косахона кокос ёнғоғи мевасидан ва бошқа дарахтлар ёғочидан ўйиб ишланган, унинг тори ҳайвон ичагидан ёки ипакдан тайёрланган. Товуш ҳосил бўлиши учун

отнинг думидан ёки ёлининг қилидан, камон бамбукдан тайёрланган ва у торларга ишқаланиш ва ҳаракатланиш асосида товуш куй садолари ҳосил бўлган.

IX-XIII асрларда бу чолғуни ғижжак деб атай бошлаганлар.

Дастлаб, ғижжакнинг икки торли тури қўлланилган (бу торлар-ни Зир ва хадд деб номлаганлар). XV-XVI асрларга келиб уч-торли ғижжак кашф қилинган. Бу ғижжак чолғусининг уч торли

намунаси мусиқачи олим Дарвиш Алининг далолат беришича,X асрда Абу Али ибн Сино томонидан ихтиро қилинган. Камон билан чалинадиган чолғуларнинг барчаси тарихий ғижжак Ра- ваностронасосида маълум ўзгартиришлар киритилган ҳолатда такомил-лаштирилган. Масалан, Шарқда ва Европада аста-се- кинлик билан Ребаб, Лира, Фидел ёки Лютна, Кобус, Виола,

Скрипка каби камонли чолғулар яратилган. Тарихий камонли чолғулар туркумигаребаб, ребек чолғусини мисол тариқасида келтириш мумкин.

Темурийлар сулоласи даврида яратилган чолғулар ҳақидаги маълумотлар Амир Хисрав Деҳлавий, Абдураҳмон Жомий, Алишер Навоий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур каби улуғ боболаримиз яратган асарларига ишланган миниатюралар ва рас-мларда сақланиб қолган.

Айниқса, XIV-XV асрларда яшаган улуғ рассом Камолиддин Беҳзод ва унинг шогирдлари томонидан чизилган кўплаб миниатю-раларда қўлларида чолғу ушлаган созандалар тўлақонли тасвирланган. XV аср мусиқа чолғулари ва созандалар ҳақидаги маълумотлар Темурийлар сулоласининг энг йирик намояндаларидан бири бўлган Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг «Бобурнома» асарида, шунингдек, унинг авлодлари Гулбаданбегим, Жалолиддин Муҳаммад Акбар давридаги асарларда кўплаб учрайди. Темурийлар сулоласи даврига мансуб чолғуларнинг айрим намуналари кўплаб расмларда ўз аксини топган.

Мусиқа маданияти ва унинг таркибий қисмларидан бири бўлган мумтоз чолғулари бой ва мураккаб тарихий йўлни босиб ўтган. Бу ҳақдаги маълумотлар ўрта асрлар олимлари Абу Наср Форобий, Абу Абдуллоҳ Хоразмий, Абу Али ибнСино, Аҳмадий, Абдураҳмон Жомий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва бошқа алло- маларнинг мусиқага оид асарларида баён этилган.

Ўрта асрларда кенг расм бўлган гижжак чолғусининг номлари улуғ ўзбек шоири ва мутафаккири Алишер Навоий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур асарларида ҳам қайд этилади. Уларнинг айримлари бизгача ўзгаришсиз етиб келган бўлса, айримларини юқорида таъкидлаганимиздек, мумтоз миниатюраларда, нафис расмлар орқалитасаввур этамиз, холос. 1923-1930 йиллардан бошлаб миллий чолғу созларнинг янги турларини яратиш ва такомиллаштириш ишлари усталар томонидан уста Усмон Зуфаров, Шораҳим Шоумаров, Матюсуф Ҳарратовлар билан биргаликда олиб борилган. 1934 йили В.А.Успенский томонидан Санъатшунослик илмий-тадқиқот институти қошида махсус тажриба лабораториясида 1936 йиллар Россия ва Украинадан келган конструктор В.А.Раманченко, А.А.Кевхоян, С.Е.Диденко бир нечта созгар усталар биргаликда мусиқа билим юртида махсус созгарлик устахонаси ташкил қилдилар ва бунинг натижасида кўплаб ижодий изланишлар олиб борилди. Кўп овозли ансамбль ва оркестрлар учун чолғу созлар оилалари Россия ва Украина чолғу созларига таққослаган ҳолатда такомиллаштирилди.

1936 йили илк мусиқа олийгоҳи- Тошкент Давлат консерваторияси ташкил этилди. Олийгоҳда 1949 йилимиллий чолғулардан сабоқ берадиган бўлим – Миллий чолғу созлар факуль-тети ташкил қилинди. 1943 йили мусиқа чолғуларини такомиллаштирадиган лаборатория ва кўп овозли оркестр тузилиб, уларга Ашот Иванович Петросянц раҳбарлик қилди. Аста-секин Россия,Украина чолғу созларига таққослаб, дутор, чанг, най, ғижжак оилалари устида такомиллаштириш ишлари олиб борилди. Ғижжак чолғусининг оиласи оркестр ва ансамбларда чалиш учун айрим ноқулайликлар сабабли қозоқ, қирғиз, қорақалпок

миллатларига мансуб бўлган қўбиз камонли чолғу оиласи билан такомиллаштириш ишлари олиб борилди ва оркестрга ғижжак оиласининг ғижжак бас, ғижжак контрабас чолғуларининг ўрнига қўбиз бас ва қўбиз контрабас чолғу созлари қўшилди.

Абдулқодир Марогийнинг асарида ёзилишича, ғижжак ва каманча аслида бир хил чолғу сози бўлиб, ғижжакнинг косахонаси каттароқ ва каманчанинг икосахонаси кичикроқ.

IX-XIII асрларда Мовароуннаҳрда соз «Ғижжак» деб атай бошланган. Дастлабғижжак икки торли бўлган, торлари Зир ва Хадд деб номланган. XV-XVI асрларгакелиб уч торли ғижжак кашф қилинган. Бу ғижжак чолғусини уч торли нусхаси мусиқачи олим Дарвиш Алининг

далолат беришича, X асрда Абу Али ибн Сино томонидан ихтиро қилинган. Ғижжак ва ғижжакка ўхшаш чолғу созлари Озарбайжон, Туркманистон, Арманистон, Тожикистон, Кошғар, Арабистон, Мўғулистон,Корея, Хитой ва бошқа мамлакатлар халқларида ҳам учрайди.

Ўзбек халқи орасида ҳозирги кунда фойдаланилаётган анъанавий ғижжак Шарқ ва бошқа халқларда қўлланилаётган ғижжакдан фарқ қилади. Баъзи чолғу созларнинг шакл-шамойилларигина эмас, вақт ўтиши билан уларнинг товуш теб- ранишлари ҳам ўзгартирилган. Масалан, Уста Усмон Зуфаров, ўз вақтида, катта ва кичик ғижжак чолғуларини кўшимча овоз кучайтиргич, карнай ўрнатиб такомил-лаштирган.

Соз яратувчи усталар ва уларнинг XIX асргача қолдирган маънавий мероси ҳақида маълумотлар бизгача тўлиқ етиб келмаган. Ғижжак чолғуси ҳозирда тўрт торли бўлиб, торлари ичак, кумуш, мис, металл симлардан тайёрланган

1950-55 йиллардан бошлаб устозим уста Абдунаби Абдуғофуров томонидан ҳозирги кунда қўлланилаётган ғижжак чолғусини анъанавий ва академик ижро этиш учун мензураси, дастаси, косахонаси такомиллаштирилган. 1974 йили ғижжак чолғусининг катта давраларда чалишга қулай бўлмаган томонларини Ғ.Ҳожиқулов, О.Холмуҳаммедов, М.Тошмуҳаммедов, Ш.Юлдашев ва бошқа кўплаб устозларнинг таклифига асосан устозим билан терилик қисмини иссиқда ва совуқ намликларда талабга жавоб берадиган қилиб тажрибалар ўтказдик. Терили қисми пластик ва юпқа тахтачадан қоплаб синаб кўрилди. Қадимдан ғижжак хонаки чолғу бўлганлиги ва иқлимий шароитларда қўлланилганлиги бўйича тажриба ўтказмасдан бошқа янги камонли чолғу устида илмий ва амалий иш бошладик.

Темурийлар давридаги чолғулар асосида ихтиро қилинган «Ғижжак Бобурий»камонли соз ўзбек халқининг ҳаётида мустаҳкам ўрин эгаллаб бормоқда. «Ғижжак Бобурий» чолғу созининг биринчи нусхасини 1980 йили устозим Абдунаби Абдуғофуров билан, 1985-1986 йилларда иккинчи нусхасини яратдик ва 1990 йили учинчи нусхаси такомиллаштирилган ҳолда ясалди. Андижон, Наманган, Фарғона, Қорақалпоғистон маданият ходимлари ва тарихчи бобуршунос олимлар иштирокида чолғу созининг тақдимотлари бўлиб ўтди 1991 йили декабрь ойида Тошкентдавлат Консерваториясининг катта залида профессорлар Ахмад Одилов, Анвар Лутфуллаев, Мурод Тошмуҳаммедов, Отаназар

Матёқубовларнинг таклифига биноан тарихчи, шарқшунос, Бобурий-шунос, мусиқашунос олимлар иштирокида ва жамоатчилик олдида сознинг тақдимоти ўтказилди. 1991 йил 25 декабрда 18 нафар ҳайъат аъзолари томонидан ихтиро деб тан олинган баённомага имзо қўйилди. Баённома нусхаси қуйида илова қилинади. Созга «Ғижжак Бобурий» деб ном берилди. Чолғу намуналари ҳозирда Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Темурийлар тарихи Давлат музейи, Заҳириддин Муҳаммад Бобур халқаро жамоат фонди музейи, Андижон вилояти тарихи ва маданияти давлат музейи адабиёт бўлимида, «Ғижжак Бобурий» оилавий корхонаси коллекциясида ва бошқа жойларда сақланмоқда. Мумтоз мақом асарларини ва жаҳон классик асарларини ижро этиш учун бу чолғунинг янада мукаммалнусхасини яратиш учун 2005-2014 йиллари жаҳон стандартларига кўра янги компьютерлашган дастгоҳда фарзандларим Сардорбек, Сарварбек ва шогирдим Насибуллолар билан барча қулайликларга эга бўлган янги такомиллашган намунасиниихтиро қилдик ва ишлаб чиқара бошладик. Бу чолғу мусиқа мактаблари, маданий ва маърифий дам олиш уйлари, олий ва ўрта махсус ўқув билим юртларида, яккахон созандалар мақом ансамбли ва оркестрларида фойдаланиш учун барча имкониятларга эга.

Мустақил Ўзбекистонимизнинг ҳозирги кунида Р. Глиэр номидаги ихтисослашган мусиқа мактаби, махсус ансамбл ҳамда оркестр квинтетларда бу создан фойдаланиб келинмоқда. Ўзбекистон халқ артисти Ғуломжон Ҳожиқулов ва унинг фарзандлари «Ғижжак Бобурий» чолғусида 20 дан ортиқ мумтоз мақомларимизни Ўзбекистон радиоси олтин фондига ёзиб қолдирганлар. Дунёнинг кўплаб давлатларида, «Ўзбегим ёшлари» ва Ўзбекистон ашула ва рақс ансамбли созандалари «Ғижжак Бобурий» чолғу созида барча иқлимий шароитларда ўзларининг маҳоратларини кўрсатиб олий ўринларни эгаллаб келмоқдалар. Р.Глиэр номидаги ихтисослашган мусиқа мактаби ўқувчилари халқаро кўрик-танловларда қатнашиб олий Гран при ва биринчи ўринларни эгалламоқдалар. Булар учун махсус дарсликлар ва репертуарлар тайёрланди. Темурийлар даврида саройларда катта байрамларда, нуфузли кишилар қабулларида ўзига хос чолғучилар ансамбллари меҳмонлар шарафига бетакрор миллий мақом, куй ва қўшиқлар ижро этганлар. Биз тарихий манбаларни ўрганиб миллий мақом куйларимиз ва жаҳон классик мусиқа асарларини ижро этадиган янгича чолғулар устида 1980 йилдан 2014 йилгача тўпланган тажриба ва чизма ҳужжатларга асосланиб ихтиро қилинган «Ғижжак Бобурий»

камонли чолғусинингянги оиласини ихтиро қилиш устида амалий ишлар олиб бордик. Чолғунинг оиласи «Ғижжак Бобурий», «Ғижжак Бобурий» альт, «Ғижжак Бобурий» бас, «ҒижжакБобурий» контрабас созларидан иборат.

Созларимиз мақом ансамбларида, миллий оркестрларда, квинтет ва квартет ансамбларида, яккахон ижрочи сифатида барча иқлимий шароитларда ижро этиш хусусиятига эга. Ҳозирги кунгача қўлланилаётган барча камонли чолғуларидан тубдан фарқ килади.

1991 йилнинг 25 декабридан бошлаб катта саҳналарда, Ўзбекистон радио ва телевидение каналларида, Ўзбекистон халқ артисти Ғуломжон Ҳожиқулов, уларнинг фарзандлари Равшанбек, Улуғбек Ҳожиқуловлар, Салоҳиддин Азизбоев, Ўлмас Расулов, Ўзбекистон Ашула ва рақс ансамбли, Мусиқа раҳбари Авазбек Холмирзаев, «Ўзбегим ёшлари» ансамбли созандаси Дониёр Абдураҳимов, Ўзбекистон Мақомансамбли созандаси Алишер Каримжоновлар Ўзбекистонимиздагина эмас, балки дунёнинг катта саҳналарида «Ғижжак Бобурий» ва «Ғижжак Бобурий» бас чолғуларида маҳоратларини кўрсатиб келмоқдалар. 2018 йилдан бошлаб Р.Глиэр номидаги ихтисослашган мусиқа мактабининг етакчи ўқитувчиси Воҳиджон Мирзаалиев Раималиевич бошчилигида таълим олган 20 нафардан ортиқ ёш ижрочи «Ғижжак Бобурий» чолғусида Халқаро танловларда Ўзбекистон байроғини юқори поғоналаргакўтариб олий Гран при мукофотларини олдилар. Мазкур ўқув юртини битирган ўқувчилар Ўзбекистон давлат консерваториясида «Ғижжак Бобурий» созида ижро этиш имкониятлари нақадар юқори даражада эканлигини намоён этмоқдалар.

«Ғижжак Бобурий» Альт «Ғижжак Бобурий» бас«Ғижжак Бобурий» Контрабас созларини 2014-2015 йиллари ихтиро қилинган бўлиб,мақсадимиз мусиқий товуш тембрларининг баланд ва пастлигини, барчаиқлимий шароитларда ижро этиш қулайликларига эга эканлигини кўрсатиш эди.

«Ғижжак Бобурий» альт «Ғижжак Бобурий» бас«Ғижжак Бобурий» Контрабас Ушбу чолғу барча миллий ва мақом куйлари ҳамда жаҳон классикасарларини ижро этиш имкониятига эга. Бу созларда ўрта, пастки ва юқори товушларнинг мавжудлиги чолғуларнинг катта имкониятга эга эканлигидан далолат беради.

Бу чолғларни ихтиро қилгунимизча оркестрларда 30-50 йилгача такомиллаштирилган «Ғижжак Бас» (Кобиз бас) Ғижжак Контрабас ёки

Қўбиз Контрабас чолғуси амалиётда қўлланилган эди. Аммо бошқа такомиллаштирилган сози кўпроқ қозоқ, қирғиз халқларига мансуб бўлгани учун биз «Ғижжак Бобурий» бас «Ғижжак Бобурий» контра бас чолғуларини ихтиро қилишни лозимтопдик.

Бизнинг мақсадимиз ҳар бир соҳада жадал равишда ислоҳотлар ва ривожланиш бўлаётганлиги юртимизда санъат ва маданият жабҳасида ҳам юксалишни ўзига хос тарзда намоён этиш эди. Шунга кўра Ансамбль ва оркестрларда катта имкониятга эга бўлган миллий оҳангларни ифодаловчи «Ғижжак Бобурий» созлар оиласини ихтиро қилдик.

«Ғижжак Бобурий» бас чолғусида оркестр, ансамбль ва яккахон тарзда миллий мақом куйларини ҳамда бастакорлар ва жаҳон классик асарларини ҳам ижро этиш имконияти катта.

Янгидан ихтиро қилинган «Ғижжак Бобурий» Контрабас камонли чолғуси пастки мусиқа товушларини берадиган создир. Бу чолғуда ижро этиладиган куйлар ёзилишига нисбатан бир октава паст эшитилади. Чолғу созининг имконияти шундан иборатки, яккахон, ансамбль ҳамда оркестрларни салобатли, мунгли оҳанглари билан тўлдириб боради. Мақсадимиз, ўтган асрнинг 30-50 йилларида қўлланилган Ғижжак Контрабас ёки Қўбиз Контрабас созларидан тубдан фарқ қиладиган қадимий чолғунинг шакл-шамойилларига ўхшаган, қолаверса, ўтмишни эслатувчи салобатли товушлар берадиган чолғуни ихтиро қилиш эди. Бу чолғу камон билан ёки чертиш (писикато) услубида чалинади. Устозларнинг берган таклифлари асосида 2024-2025 йил давомида келажагимиз бўлган 3-синифдан 5-синифгача бўлган ёшлар учун «Ғижжак Бобурий» чолгу созларни кичик намунасини ва ўқув қўлланмаси таёрланди ва Р.Глиэр номидаги ихтисослашган мусиқа мактабида синов ишлари олиб борилмоқда.

Ушбу юқорида амалга оширилган барча татқиқотлар асосида шундай амалий ва назарий хулосага келиш мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР

1. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб / Матнни изоҳлар билан нашрга тайёрлов-чи С. Ғаниева, Мукаммал асарлар тўплами, 14 том, – Тошкент: Фан, 1998, – Б. 304;

2. Алишер Навоий. Хамса / Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. –

Тошкент: Фан, 1960. – Б. 854;

3. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр / nasriy bayon bilan, nasriy bayon Sh. Sharipovniki. – Тошкент, 2005, – Б. 472.

4. Алишер Навоий асарларига ишланган расмлар (XV-XIX асрлар). ЎзССР ФА академиги Э. Ю. Юсупов таҳрири остида. Филология фанлари доктори, профес- сор Ҳамид Сулаймон, филология фанлари кандидати Фозила Сулаймонова тайёр-лаган.Тошкент:«Фан»,1982.

5. Алломий, Абулфозил. Ойини Акбарий. Лакхнау.1893. УзРФА ШИ тошбосма китоб .Тартиб раками5245(форс тилида).

6. Восифий Зайниддин. Бадойеъ ул-вақоеъ (Нодир воқеалар) / Форсийдан Н. Норқулов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979, – Б. 2

2. Адабиётлар.

1. Амир Темур жаҳон тарихида / Масъул муҳаррир Р. Қосимов. Муаллифлар жамоаси С. Саидқосимов (раҳбар) ва бошқ. – Тошкент: «Шарқ», 2006;

2. Мадраимов А. Амир Темур ва Темурийлар давридаги чолгулар – 2022 Андижон

3. Вызго Т. С. Музыкальные инструменты Средней Азии. – Москва: 1980.

4. Вызго Т. С. Петросянц А. И. Узбекистан народных инструментов – Ташкент:1962

5. Верма С. П. Акбар саройи расмларида моддий маданият ва санъат. Янги Деҳли, 1978, Б. 150 (инглиз тилида).

6. Горлив А .М.,Леонов А.н. Производство и ремонт смычковых музыкальных инструментов. М., 1975.

7. Мадраимов А. А. Темурий ва Бобурийлар даври маданияти, китоботи ва рангтасвир санъати тарихига чизгилар. – Тошкент: «San’at» журнали нашриёти, 2015, – Б. 416, 120 та расм.

8. Мадраимов А. А. АмирТемурий ва Бобурийлар даври миниатюра санъати риво-жи. – Тошкент: «Фан», 2019. – Б. 296, 80 та расм.

9. Миниатюры к Бабурнаме. Альбом /сост. Х.Сулейман. – Ташкент: 1970.

10. Миниатюры к поэмам Алишера Навои /сост. Х.Сулейман. – Ташкент: 1970.

11. Петросянц А. И. Инструментоведение. Узбекский оркестр реконструиро- ванных народных инструментов. – Ташкент: 195.

12. Расулов Ш., Бехзод ижодида чолғулар талқини/ San’at, 2 –

13. Семёнов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвиша Али. – Таш-кент: 1
14. Шамсутдинов Р., Абдуллаев Ф., Абдуллаев М. Буюк Бобурийлар салтанати. Андижон: «Мерос», 1995. 307 б.
15. Тошматов Ў., Туратов С. Кўҳна чолғулар. – Тошкент: 2012.
16. Зуфаров.Т .Соз ва созгарлик тарихи.- Тошкент.2014.Б. 3
17. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: «ЎМЭ» ДИН, 2000 – 2004.
18. Низомий Ганжавий Хусрав ва Ширин / Тарж. О. Бўриев, – Теҳрон: «Ал-Ху-до» Халқаро нашриёти, 2005.

УСТА ХОЛДОР СОЗГАРЛИК САНЪАТИНИНГ ЕТУК НАМОЁНДАСИ

Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган артист,
Ўзбекистон давлат консерваторияси профессори
О.Ф.Назаров

Аннотация: Ушбу мақолада ўзбек созгарлик санъатининг йирик вакилларидан бири Уста Холдор Олимжонов фаолияти ҳақида сўз боради. Унда устанинг ўзига хос созгарлик жиҳатлари ўрганилган бўлиб, созгарлик тараққиётига қўшган ҳиссаси таҳлил этилган.

Аннотация: В данной статье речь идёт о деятельности мастера Холдор Олимжонова, одного из ведущих представителей узбекского музыкального искусства. В нем были изучены уникальные музыкальные аспекты творчества мастера и проанализирован его вклад в развитие музыки.

Annotation: This article discusses the activities of Master Kholdor Olimjanov, one of the leading representatives of Uzbek musical art. It studies the unique aspects of the master's musical style and analyzes his contribution to the development of musical art.

Калит сўзлар: созгарлик, қашқар рубоб, уста, устоз, миллий чолғулар, шогирд, ҳунармандчилик, устахона, соз.

Ключевые слова: изготовление музыкальных инструментов, кашкарский рубаб, наставник, мастер, ремесленничество, ученик, национальные музыкальные инструменты, музыкальный инструмент, мастерская музыкальных инструментов, инструмент

Key words: production of instruments, kashkar rubob, master, teacher, national instruments, apprentice, handicraft, workshop, musical instrument.

Дунёнинг кўплаб халқлари каби ўзбек халқида ҳам миллий ҳунармандчилик азал-азалдан мавжуд бўлиб, бу соҳанинг барча турлари яхши ривожланган. Миллий ҳунармандчиликда алоҳида ўринга эга бўлган созгарлик касби ҳам қадимдан устоздан-шогирдга ўтиб тараққий этиб келаётган амалий санъат турларидан биридир. Ўтган асрнинг бошларидан бу ҳунар билан шуғулланишни бошлаб кейинчалик уни камолотга етазган ва миллий созларни ясаш бўйича катта мактаб яратган уста Усмон Зуфаров ва унинг ўнлаб шогирдлари ҳозиргача ушбу касбни қадрлаб, созгарлик санъатини янада такомиллаштириб келмоқдалар. Ўтган йил охирида миллий созгарликнинг айнан рубоб чолғуси созгарлиги ва ижрочилиги санъати Юнесконинг номоддий мероси рўйхатига киритилганлиги созгар усталарнинг узоқ йиллар давомидаги шарафли меҳнати натижаси десак хато бўлмаса керак. Бундай усталар орасида том маънодаги УСТА номига мушарраф бўлганлари ҳам талайгина.

Моҳир ҳунарманд, ўз ишининг етук устаси, шунингдек эл-юрт орасида ҳурматга сазовор бўлиши учун фақатгина муайян ҳунар сир-асрорларини пухта эгаллашнинг ўзигина кифоя қилмайди, балки кишидан яхши хислатлар, эзгу фазилатлар соҳиби бўлиш талаб этилади. Зеро, Ўзбекистон Республикасининг Биринчи президенти И.А.Каримов таъкидлаганларидек “Инсон маънавий оламининг юксалиши билан боғлиқ ҳолда турли ҳолатлар ҳақида кўп гапириш мумкин. Лекин мухтасар қилиб айтганда, Аллоҳнинг ўзи бизга буюрган комил инсон бўлиш, ҳалоллик ва адолат билан ҳаёт кечириш каби олийжаноб фазилатларни маъно-мазмунини нафақат чуқур англаш, балки ана шундай ҳусусиятларга эга бўлиш, уларга амал қилиб яшаш - одамзотнинг маънавий бойлигини белгилаб берадиган асосий мезондир”.[1]

Бизнинг бағрикенг халқимиз орасида бундай инсонларни кўплаб учратиш мумкин. Шундай инсонлардан бири машҳур созгар уста Усмон Зуфаровнинг шогирди – Уста Холдор (Холмуҳаммад Олимжонов)дир. 1939 йил 23 августда Фарғона вилояти Учкўприк туманининг тарихий Бачқир қишлоғида яшовчи ўймакор уста Олимжон ака оиласида таваллуд топган Холмуҳаммад ёшлигидан ўзининг ўткир зеҳни ва уқуви билан отасининг ёнида ёрдамчи вазифасида ҳунармандчилик сирлари билан танишиб тарбия топди.

1964 йилда Тошкент маданият техникумида ўқишни тамомлагач, шу ерда ўқитувчи лавозимида ишга таклиф қилинди. Кейинроқ Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика институти (ҳозирги ТДПУ) мусиқа

[1] И.К.Каримов “Юксак маънавият енгилмас куч” Т.,”Ўзбекистон” нашриёти 2008

факултетини тамомлаб, 1970 йилдан Д.Зокиров номидаги халқ чолғулари оркестрида танбурчи созанда сифатида иш фаолиятини давом эттирди. 21 йиллик созандалик фаолиятидан сўнг бир қанча давлат корхоналарида ижодий ишлар билан машғул бўлган. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлигида, Абу Райҳон Беруний номидаги шарқшунослик илмий-текшириш институтида, А.Навоий номидаги давлат адабиёт музейида фаолият олиб бориб нафақага чиқди.

Оилада олган дастлабки ҳунармандчилик кўникмалари сабабми, ёки чолғуга бўлган қизиқиши туфайлими 1960 йилда дуторчи Абдусамад Илёсов уни уста Усмон Зуфаров билан таништирганда Холдор ака дарҳол устанинг назарига тушади ва “устачиликдан хабаринг борми?” деб сўрайди. Шундан сўнг бир мунча вақт Уста Усмон Зуфаров ёрдамчиси вазифасида чолғулар тайёрлашда ёрдамлашиб юргач, устоз Холдор акани ўзларига шогирд қилиб олади. Ўша пайтда Уста Усмоннинг шогирдлари шофайзлик Ҳусан Зокиров, қатортоллик Қаҳҳор ака, қоратошлик Жаббор ака, эски шаҳарлик Раҳим акалар билан Холдор ака биргаликда Қоратошдаги миллий чолғулар фабрикасида фаолият олиб боришади.[1] Кейнчалик 1962 йилда фабрика кўчирилгандан кейин Уста Холдор Тошкент маданият техникуми қошидаги устахонада созгарлик фаолиятини давом эттиради. Холдор ака ўзининг дастлабки танбурларидан бирини халқимизнинг ардоқли ҳофизи Расул қори Мамадалиевга ясаб беради. Кейинроқ эса тақдир тақозоси билан Уста Усмоннинг тавсиясига биноан Расул қори Мамадалиев қизларини Холдор акага турмушга берадилар.

Аста секин Холдор ака ясаган чолғулар созандалар томонидан эътироф этила бошланади. Ҳам созанда, ҳофиз ва созгар уста бўлганлиги қолаверса катта даргоҳ, Ўзтелерадио ижодий жамоалари дирекцияси таркибида Ўзбекистоннинг мусиқа санъати дарғалари билан ёнма-ён ишлашлари сабабли ҳам халқимизнинг кўзга кўринган санъаткорлари билан ижодий ҳамкорликда бўлдилар. Ўша пайтларни эслар экан Уста Холдор шундай дейди: “Барча ҳукумат тадбирларидан, концертларидан олдин чолғулар ҳолатини устозлар билан бирга синчиклаб кўриб, текшириб чиқардик”.[2]

Ўша пайтларда Уста Ўзбекистон халқ артисти М.Мирзаевга дастлабки рубобларидан бирини ясаб берган, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Т.Ражабийга атаб махсус рубоб ясаб, ўзлари устоз Ю.Ражабий уйларига олиб бориб берадилар.

---

[1] О.Назаров “Сози жаранг топган созгар”.“Умрбоқий созлар”. Уста Усмон Зуфаров таваллудининг 120 йиллигига бағишланган “Умрбоқий созлар” Республика илмий-амалий конференцияси материалларидан. Т., 2014 й.

[2] Уста Холдор билан бўлган суҳбатдан

Шунингдек, Д.Зокиров ва Ю.Ражабий тавсиясига кўра Ф.Содиқов билан бирга у кишининг чангини реконструкция қилиб таъмирлайди. “Элимизнинг таниқли санъаткорлари Орифхон Ҳотамов, Комилжон Жабборов, Турғун Алиматов, Жўрабек Сайдалиевдек инсонлар билан бирга ижод қилганимдан бахтлиман”-- дейди уста. Бир неча бор Маъмуржон Узоқовнинг дутори, Жўрахон Султоновнинг танбурларини таъмирлаб берган.

Д.Зокиров номидаги Х.Ч.О рубобчи созандаларининг деярли барчаси фақат Уста Холдор рубобини маъқул кўришган. Улардан Аббос Бахромов, Адҳам Худойқулов, Тоҳир Ражабий, Қобил Усмонов, Эргаш Шукруллаев, Қобил Орипов, Сулаймон Тахалов, Ари Бобохонов, Холмурод Зарипов, Шамсиддин Нуриддинов, Одилжон Назаров, Рустам Каримов каби жуда кўп созандалар қўлида Уста Холдорнинг рубоби жаранглайди.

Устанинг рубоблари Ўзбекистоннинг барча вилоятларига тарқалиб созанадаларнинг севимли чолғусига айланган. Нафақат Ўзбекистон, балки кўп чет мамлакатларида ҳам Уста ясаган рубоблар мутахассислар томонидан қадрланади. 1984 йилда Уста Холдор Ҳакимжон Файзуллаев билан Ҳиндистонга ижодий сафарга борганда Бомбей шаҳрида Раж Капур студиясига ташриф буюришган. Ўша ерда уста ўзи ясаган сато чолғусини Ҳиндистонлик мусиқачилар ҳоҳлаган ҳинд мусиқа чолғусига алмаштиришни таклиф қилишади. Лекин уста бунга рози бўлмайди. Яна Ари Бобохоновнинг парижлик шогирди, Мюнхен консерваторияси талабаси Севан Рой 2007 йилда атайлаб Тошкентга келиб Уста Холдорнинг устахонасига ташриф буюрган, иш жараёнлари билан қизиқиб, рубоб харид қилиб кетган.

Шундай унутилмас воқеалардан бири Уста Хитойга ижодий сафарга борганларида Урумчидаги Санъат тарихи музейида ўзининг рубоби сақланаётганлигига гувоҳ бўлганлигидир. Албатта бундай кутилмаган ҳолат ҳар қандай инсон учун ҳам ҳаяжонли, ҳам шарафли. Машҳур рубобчи Ари Бобохонов охирги марта Тошкентга келганида ҳам яна устадан янги рубоб харид қилар экан, ҳазил аралаш “Холдор ака ўзбек Страдивариси” деб баҳо беради.

Хитойнинг Уйғурлар диёридан келиб Ўзбекистон давлат консерваториясида таҳсил олган Абдували Абдуқаюм, Давронжон Олим каби шогирдларим ушбу рубобнинг ортиқча безакларсиз, содда, оддийгина ясалган бўлсада садосининг тўлиқлигига қайта-қайта иқрор бўлганини таъкидлаган эди.

Хўш, Уста Холдор ясаган рубобларининг бошқа усталар рубобидан нима фарқи бор, нима учун машҳур рубобчи созандалар айнан ушбу рубобни танлайдилар? Сабаби рубобнинг жарангида, унинг садоларининг тўлиқлигида ва созланишининг мукаммаллигида, ҳамда товушининг ёркинлигидадир. Бундай сифатлар бошқа рубобларда ҳам мавжуд, лекин Холдор ака рубобида ушбу сифатлар даражаси юқори. Бизнинг фикримизча уста Холдор рубоблари созанданинг юрагидаги дарди, нола-қочиримларини тўлиқ акс эттира олиш имкониятини бериш билан фарқли. Бунинг сири, Устанинг ўз ишига бўлган муҳаббатида, унинг ҳалоллигида, ўзининг санъаткор-ижрочи бўлганлигидадир балки.

Камтарин ва олийжаноб инсон Уста Холдор Олимжонов фаолияти давомида аввало фарзандлари Равшан, Бахтиёр, Азиз Олимжоновлар, қўқонлик Содиқжон Расулов, андижонлик Неъматжон, тошкентлик Раҳматилла, бухоролик Ўлмас каби шогирдлари, ўз ишининг давомчилари созгар усталарни етиштириб чиқарди.

Бугунги кунда ўзининг Уста Холдор нафақада, ўз оиласи бағрида фарзандлари, набиралари, шогирдлари ардоғида умргузаронлик қилмоқда.

Миллий қадриятларимиз асосинининг бир бўлагини ташкил қиладиган ҳунарманд усталаримиз, хусусан созгар усталар мисолида созлари созандалар қўлида том маънода жаранг топган, эл ардоғидаги созгар Уста Холдорга ҳамиша бор бўлинг дея барча эзгуликларни тилаб қоламиз.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. И.К.Каримов. “Юксак маънавият енгилмас куч” Т.,”Ўзбекистон” нашриёти 2008
2. О.Назаров. “Сози жаранг топган созгар”. Уста Усмон Зуфаров таваллудининг 120 йиллигига бағишланган “Умрбоқий созлар” Республика илмий-амалий конференцияси материалларидан. Т., 2014 й.
3. Уста Холдор билан бўлган суҳбатдан

ХАЛҚ ЧОЛҒУЛАРИ ВА УЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Ўрозали Тошматов,
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори, Халқаро эртакчилик санъати қўмитасининг аъзоси, ЮНЕСКОнинг Номоддий маданий мерос масалалари бўйича халқаро эксперти, II даражали "Соғлом авлод учун" ордени соҳиби

Аннотация

Ушбу мақолада Ўзбекистон ҳудудида ўзбек халқ чолғулари номи остида фойдаланилаётган мусиқа чолғуларининг миллий мусиқа маданиятимиздаги ўрни ва уларни янада такомиллаштириш масалалари муҳокама этилади.

Аннотация

В данной статье обсуждаются вопросы связанные, с использованием музыкальных инструментов, именуюмых узбекскими народными инструментами, роль и место их в национальной музыкальной культуре, а также дальнейшее совершествование их.

Annotation

This article discusses issues related to the use of musical instruments called Uzbek folk instruments, their role and place in the national musical culture, as well as their further celebration.

Калит сўзлар

Созгарлик, реконструкция, миллий чолғу, анъанавий чолғу, халқ чолғулари, торли чолғу, дамли чолғу, камонли чолғу, менталитет, миллий мусиқа, замонавий мусиқа, қардош халқлар чолғулари, таълим тизими, мусиқий таълим, қорақалпоқ халқ чолғулари, оркестр, ансамбль, кўп овозли мусиқа.

Ключевые слова

Изготовительство музыкальных интсрументов, реконструкция, национальный инструмент, традиционные инструмент, народные инструменты, струнные инструменты, духовые инстрцменты, смычковые инструменты, менталитет, национальная музыка, современная музыка,

музыкальные инструменты родственных народов, образовательная система, музыкальное образование, каракалпакские народные инструменты, оркетср, ансамбль, многоголосная музыка.

Keywords

Production of musical instruments, reconstruction, national instrument, traditional instrument, folk instruments, string instruments, wind instruments, bowed instruments, mentality, national music, modern music, musical instruments of related peoples, educational system, musical education, Karakalpak folk instruments, orchestra, ensemble, polyphonic music.

Мусиқа ҳеч қандай чегарани тан олмаганидек, мусиқа чолғулари ҳам бир ҳудудда яратилган бўлса ҳам, қўшни ҳудудларга жуда тез тарқалиб, такомиллашиш хусусиятига эга. Мусиқа чолғуларини тадқиқ қилиш давомида шунга амин бўлдимки, хеч бир мусиқа чолғуси битта халқ ёки миллатга тегишли эмас экан. Ўзбек мусиқа маданияти ҳозирги кунда “ўзбек миллий чолғулари” ва уларнинг такомиллаштирилган ва реконструкция қилинган чолғуларининг сони 38 тани ташкил этар экан. Шу чолғулардан бирортаси ҳам фақат Ўзбекистон ҳудудида учрайди, деб айтиш мумкин эмас экан. Чунки, шу номдаги ёки бошқачароқ номланишдаги шунга ўхшаш мусиқа чолғуси бошқа давлат, миллат ва халқларда учрашини кўриб, мен шундай хулосага келдим. Айниқса, қадимий, яъни кўҳна чолғуларнинг бир-бирига ўхшашлиги, мусиқа чолғуларининг миллат, ирқ ва чегара билмаслигини яна бир бор исботлайди.

Бироқ бир ҳудуда яратилган мусиқа чолғуси бошқа жойда ўз хаётини давом эттириш учун ўша миллат, халқнинг менталитети, мусиқа маданиятига мослашиши ва ўзгариши кузатилади. Шунинг учун ҳам айрим мусиқа чолғулари бир қатор халқлардагина, яна бошқаси эса дунёнинг деярли барча халқларида учрайди. Масалан, чанқўбиз чолғуси (ёки чанқўбизсимон чолғулар) дунёнинг деярли ҳаммма қисмида, турлича кўринишларда ва номларда учрайди. Мбира деб номланадиган чолғу эса фақат Африка қитъасининг ўрта қисми ва жанубида яшайдиган халқларда учрайди.

Баъзи чолғулар узоқ давр маълум бир халқнинг севимли чолғуси бўлиб, кейинчалик эса умуман унутилиб кетиши ҳам мумкин. Масалан, уд ва қонун чолғулари Ўрта асрларда бизнинг ҳудудимизда жуда машхур бўлган ва ҳаттор олимларнинг тадқиқотларида энг кенг тарқалган ва севимли чолғу сифатида эътироф этилган. Бироқ, кейинги икки юк йилликда бу чолғулар унутилган эди. Ўтган асрнинг сўнгги чорагида

мамлакатимизга қайта олиб келинган бу мусиқа чолғуларилари тез орада оммалашди ва яна севимли чолғуларимизга айланди. Тахминан шу вақтларда мусиқа маданиятимизга кириб келган туркланинг “соз” чолғуси қонун ва уддан ҳам кенгроқ оммалашишга улгурди. Яъни ундан ансамбллар, оркестрлар ва ҳатто тўйларда хизмат қиладиган гуруҳларда ҳам жуда кенг фойдаланила бошланди. Бироқ, ҳозирги кунга келиб, бу чолғудан деярли фойдаланилмаяпти.

Ҳозирда Қорақалпоғистон жировлари чаладиган қўбиз чолғуси мамлакатимиз худудида жуда кенг тарқалган ўтган асрда Фитрат томонидан битилган рисолада, ғижжак чолғуси билан солиштирилиб, товуши ёқимлилиги ва миллий куйларни ифодалашдаги имкониятлари билан ғижжакдан афзал кўрилган. Лекин, кейинги 70-80 йил давомида у барча ҳудудларда истеъмолдан чиқарилиб, унутилган.

Ўтган асрнинг ўрталарида А.Петросянцнинг раҳбарлигида амалга оширилган ўзбек халқ чолғуларини қайта ишлаш ва такомиллаштириш тажрибаси бизнинг ҳудудимидга фойдаланиладиган мусиқа чолғуларида жахон халқлари, хусусан Европа классик мусиқаси намуналарини ижро этиш имконини берган бўлсада, ҳали-ҳануз халқамиз (оддий халқ) томонидан умуман қабул қилинмаган мусиқа чолғуларини ҳам дунёга келтирди. Ҳар кандай халқ чолғуси миллий мусиқа чолғусига айланиши учун ўша миллатнинг мусиқасини тўла қонли ижро этиш имконини бериши керак. Акс ҳолда, уни миллат қабул қила олмайди. Биз юқорида қайд этган мусиқа чолғуларининг қисматини ҳам ана шу қоида белгиламоқда. Ундан ташқари, бизнинг мутахассисларимизда худди алломаларимизни қардош халқлар билан талашгандай, мусиқа чолғуларини ҳам сеники-меники қилиш одати бор. Аслида эса бизнинг энг севимли чолғуларимиз сифатида эътироф этиладиган қашқар рубоби, афғон рубоби, танбур, дутор, най, ғижжак, чанг, дойра, карнай, сурнай, ноғора ва бошқа чолғуларимизнинг номланишининг ўзидан аслида бу чолғулар қаердан келиб қолганлигини кузатиш мумкин. Шунинг учун ҳам биз мусиқа чолғуларини “миллий чолғу”, “анъанавий чолғу” деган атамалардан қочган ҳолда “халқ чолғулари” деган умумий ном билан аташимиз, тўғри бўлади.

Энди, ҳозирда кўп овозли ижрода қўлланилаётган мусиқа чолғуларимизнинг қай бири мусиқа маданиятимизда ўз ўрнини топа олганлиги ва қай бири зўрма-зўраки сунъий равишда ўргатилиб ва оддий тингловчилар қабул қила олмаётганлигини таҳлил қилишга ўтамиз.

Таҳлилни ҳозирги кунда ўзбек халқ чолғулари оркестрининг таълим муассасаларида ўқитилаётган партитураси ва ундаги номлари бору, ўзи йўқ чолғулардан бошлаймиз.

1. Дамли чолғулар гуруҳида 4 та чолғунинг номи ёзилади. Улардан, най пикколо, най ва қўшнай мавжуд. Лекин, сурнай номи мен талабалик давримдан бошлаб то шу кунгача партитурада кўрсатилган бўлади, бироқ ўзи ишлатилмайди. Боиси, сурнайнинг товуш тембри жуда баланд ва аксарият ноталар аниқ ҳосил қилинмайди.

2. Урма жарангли торли чолғулар гуруҳида чанглар ёзилади. Бироқ, шу чангларнинг оиласи сифатида яратилган ва чолғушунослик фани маълумотларида учрайдиган чанг пикколо, чанг тенор, бас ва контрабас чангларни деярли ҳеч ким кўрмаган. Прима чанги ҳам 1900 йилда дунган миллатига мансуб сайёр созанданинг чолғусини такомиллаштириш натижасида ҳосил қилинган чолғу. Бу чолғунинг нисбатан мукаммал, яхши соз берадиган вариантлари турли ҳалқларда учрайди ва уларнинг товуши жуда майин ва ёқимли. Балки, ана шу чолғуларни ўрганиш асосида чанг чолғусини янада такомиллаштириш керакдир. Яна бир варианти, уйғурлар фойдаланадиган чангни ўрганиб, маъқул бўлса ундан андаза олиб қўяқолиш керак. Ахир, қашқар рубоби андазасини улардан олиб, уларнинг рубобидан хам жарангдорроқ чолғу ясалганку!

3. Тирнаб чалинадиган ва мезробли чолғулар гуруҳи қашқар рубоби оиласидан бошланади. Бу оила учун 5 та рубоблар ишлаб чиқилган (прима рубоби, меццо сопрано рубоби, альт рубоби, қашқар рубоби), шундан 2 таси оркестрда ишлатилади. Булар, прима рубоби ва қашқар рубоб. Қолган 3 турдаги рубоблар умуман унутиб бўлинган. Прима рубобини миллий ижрочиликдаги имкониятлари ўта чегараланганлиги учун на якка чолғу, на миллий ансамбль таркибида ишлатилганини кўрмаганмиз. Ваҳоланки, бу чолғу болалар мусиқа мактабидан бошлаб то олий таълим муассасаларигача ўқитилади. Ҳозирда Ўзбекистоннинг профессионал оркестрларида ҳам бу чолғудан воз кечишган, леки ўқитиш ҳали давом этмоқда.

Навбатдаги чолғу афғон рубоби. Афғон рубобининг ҳозирги реконструкция қилинган вариантини анъанавий афғон рубоби билан солиштирсангиз, унинг товуши анъанавий афғон рубоби билан, дутор бас чолғусининг оралиғидаги тембрни беради. Унинг диапазонини кенгайтириш мақсадида аввал биринчи тор диапазонини бир ярим октавага келтиришди, тажриба давом эттириб яна қўшимча пардалар қўшилди ва ... Бу чолғу репертуаридаги асарлар қашқар рубоби ва дутор бас репертуари

аралашмасидан иборат. Яъни гоҳ қашқар рубоби, гоҳ дутор бас бўлгиси келади ва аксарият ҳолатларда ижро фақат биринчи торда бўлади. Аслида эса, анъанавий афғон рубобида учинчи, иккинчи ва биринчи торлардан унумли фойдаланиш эвазига чолғунинг асл таровати намоён бўлишига ва биринчи торда фақат 2 ёки 3 позициядан баланд ноталар чалиш шарт эмаслигига эътибор қаратсак, бу чолғу ўз моҳиятини йўқотганлигини, бунинг устига ҳеч қачон биринчи ва иккинчи, учинчи торлари соз бўлмаслигини кузатишимиз мумкин. Яхшиямки, унинг оиласи яратилмаган экан.

Энди навбат дутор оиласига. Бу оилага жами 6 та чолғу киритилган. Булардан фақат тенор номи билан аталадиган дуторга тегилмаган ва унинг асосида қолган 5 та чолғу ишлаб чиқилган. Альт дутори анъанавий дуторга нисбатан кичикроқ бўлганлиги учун болалар мусиқа мактабларида ўқитилса самара бериши мумкиндирку, бироқ ҳамма даражадаги танловларда дуторчилар учта (прима, альт ва тенор) дуторалрида асар ижро этишлари талаб этилади. Прима дутори балалайка ва домра чолғуларига тақлид холос. Унда бирор ўзбек мусиқасини маромига етказиб чалиб бўлмайди. Фақат классик еки Европа композиторлари асарларини чалиш учун зарур бўлган чолғунинг ўзи нима керакги бор, деган савол туғилади. Бу борада анъанавий дуторнинг ўзини қолдирган ҳолда кичик дутор номи билан ундан бир октава юқори садо берадиган ипак торли дуторлар ишлаб чиқилгани маъқул эмасмикин. Бу оиладаги дутор бас ва дутор контрабас чолғулари ҳам шундай аҳволда. Уларнинг қоринлари шунчалик каттаки, чолғуни тутиб туриш ва чалишда катта қийинчиликлар туғдиради. Бундан ташқари, бу чолғуларда нола, қочиримлардан фойдаланиб куйчалиш имконияти ўта чегараланган. Чунки, торларнинг жуда таранглиги ва бармоқ билан босишдаги катта куч талаб этилиши уларда ҳосил қилинадиган товушларнинг чўзимини таъминлай олмайди ва оқибатда товуш тебраниши жуда қисқа бўлиб қолади. Бу чолғулар фақат оркестрда чалиш учун ва унинг диапазонини кенгайтириш учун керак бўладиган бўлса, уларни ёки қайта рекострукция қилиш, ёки бошқа оркестрларда ишлатиладиган чолғулар (масалан уйғурлар ишлатаётган 3 торли бас рурбоб ёки русларнинг домра ёки балалайка басини ишлатиб қўяқолган маъқул. Бундан ташқари бу чолғуларда мусиқий таъим муассасаларида асосий чолғу сифатида ўқитишни тугатиш керак. Зарур бўлса, ўрта махсус ва олий таълим муассасаларида оркестр чолғуларини ўрганиш фанини киритиб, қўшимча чолғу сифатида ўрганилса, етарли бўлади.

4. Навбатдаги гуруҳ – урма зарбли чолғулар. Бу гуруҳга киритиладиган оркестр чолғуларининг кўламини кенгайтириш зарур деб, ҳисоблаймиз ва бу чолғулар юқорида тавсия этилган услубда қўшимча чолғу сифатида ўрганилса етарли бўлади. Доимий партитурада келтириладиган дойра, ноғора, сафоил чолғулари қаторига занг, қайроқ, от туёғи, ёғоч калтак ва ҳоказо урма чолғулар ўрганилса, мақсадга мувофиқ бўлади.

5. Камонли торли чолғулар гуруҳидаги ғижжак ва унинг оиласида ҳам кўриб чиқиш лозим бўлган қатор муаммолар мавжуд. Аввало, ғижжак чолғусининг такомиллашган прима ва альт ғижжакларидаги соз ва тембр масаласи. Уларда камонни ушлашнинг ўзи жуда ноқулай. Чунки, камонни бундай тутиб туриш скрипкадан олинган. Скрипка иякка тиралиб, елка баробар турганда камонни бундай тутиш қулай, бироқ, чолғунинг торлари тахминан киндик даражасида бўлганда яхшиси анъанавий ғижжакни чалишдаги камонни тутишдан фойдаланилгани маъқул. Гуруҳдаги бас ғижжак ва конрабас ғижжакларнинг ўзини шахсан мен фақат расмларда кўрганман. Бироқ то ҳозирги кунгача партитураларда бу номлар сақланиб қолган. Баъзан уларнинг ўрнига қўбиз бас ва қўбиз контрабаслар ишлатилади. Бу жуда яхши. Балки, прима ва альт ғижжаклари ўрнига қўбиз оиласидан тўлиқ фойдаланилса, қалай бўлакан. Ахир қўбиз чолғусини бизнинг аждодларимиз чалишганку! Уларнинг замонавий оиласини қозоқлар қратган бўлса, нима бўлибди. Ахир биз шундай қилсак, қозоқ биродарларимиз эътироз билдиришмаса керак.

Бундан ташқарияна бир вариант бор. Яъни сўнгги йилларда қайта тикланган ва айрим таълим муассасаларида қўлланилаётган, қолаверса анъанавий мақом ансамблларида ҳам тажрибадан ўтказилаётган Ғижжаки Бобурий ва унинг оиласидан тўлиқ фойдаланилса қалай бўлади. Фикримизча, мутахассислар бу чолғу оиласида яратилаётган чолғуларни яхшилаб ўрганиб чиқиб, ўз таклифларини бериши орқали уларни янада такомиллаштириш мумкинку.

Яна бир масала, шу пайтгача Қорақалпоғистонда фаолият олиб бораётган профессонал халқ чолғулари оркестрлари ҳам, талабалар оркестрлари ҳам ўзбек халқ чолғулари партитураси бўйича фаолият олиб борган. Ўзбекистон давлат консерваториясининг Нукус филиали ўз фаолиятини бошлаган пайтда бизнинг ҳамкасбимиз – Ҳикмат Ражабов у ерга ишга таклиф этилдилар ва у ерда оркестр синфини олиб боришни топширишди. Улар билан суҳбат жараёнида нима учун қорақалпоқ халқ чолғулари бўлатуриб, улар оркестр таркибига киритилмаган ва қорақалпоқ

халқ чолғулари оркестри ташкил этилмаган, деган мавзуда суҳбатлашдик. Шундан кейин Қорақалпоғистоннинг отахон композитори Нажмиддин Мухаметдинов қўбиз ва оркестр учун махсус асар ёзиб бердилар. Шундан кейин қорақалпоқ халқ чолғулари – уч торли анъанавий ғижжак, оламўйноқ дутори, буламан, қўбиз ва унинг рекострукция қилинган вариантларини оркестр таркибига киритиш бўйича тажрибаларни бошладик.

Бу ишлар узоқ ва машаққатли меҳнат натижасидагина эришиладиган маррага эришиш борасидаги ҳаракатлардир. Мақсадимиз ўзбек мусиқа маданиятидаги мусиқа чолғуларини янада такомиллаштириш ва шу билан бирга ушбу чолғуларни ҳақиқий “миллий чолғулар”га айлантириш, токи уларни оддий халқ ҳам севиб тингласин ва болаларимиз ушбу чолғуларни чин дилдан ўргансин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ў.Тошматов, С.Туратов Кўҳна чолғулар ижрочилиги. Тошкент, 2015
2. Ў.Тошматов, Х.Бекназаров Чолғушунослик (дарслик). Тошкент, 2018
3. А.Мадраимов Ғижжаки Бобурий. Тошкент, 2023

I SHU’BA

O‘ZBEK SOZGARLIK SAN’ATI TARIXI VA EVOLYUTSIYASI

O‘ZBEK MILLIY CHOLGULARNI TAKOMILLASHTIRISH

Omonov Hasanxon Sulaymonovich JDPU musiqa ta’limi kafedrasi dotsenti tel: +99899-014-66-15 Omonovxasan354@gmail.com
2-kurs magistratura “Musiqa ta’lim va san’at” yo’nalishi talabasi Abdullayev Shomurot G‘oyibovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq cholg'ulari modernizatsiyasi ishlari ijrochilik amaliyotida ulkan ijobiy burulish yasagani, cholg'ular oilasi yaratilib ko'p ovozli ansambl va orkestrlarga asos solindi. Takomillashgan cholg'ularda ham milliy ham yevropa kuylarini bemalol ijro etishimiz mumkin. Bu albatta yaxshi!. Ammo modernizatsiya jarayonidagi xato va kamchiliklar ham yetarlicha bo'lganligini hozirgi kundagi ijrochilik amaliyotlaridan kuzatishimiz mumkin. Ijrochilikning zamonaviy talab darajasigacha moslashtirishga ya'ni modernizatsiyalashtirishga kirishilgani to’grisidagi fikrlar bayon etilgan.

Tayanch so’zlar: Modernizatsiya, Soz, Xalq cholgulari, Kompozitor, Kuy, Qo’shiq, Radio, Chang,Dutor, Milliy soz.

Annotation: in this article, the work of the modernization of Uzbek folk instruments made a huge positive twist in performance practice, a family of instruments was created and multi-voice ensembles and orchestras were founded. On refined instruments, we can easily play both national and European tunes. It's definitely good!. But we can observe from current enforcement practices that there are also enough errors and shortcomings in the modernization process. It has been suggested that the modern adaptation of performance up to the level of demand is the introduction of modernisation.

Lyrics: modernization, sound, Folk Instruments, composer, melody, song, Radio,dust, Dutor, National sound.

Аннотация: В этой статье рассказывается о том, как работа по модернизации узбекских народных инструментов сделала огромный положительный поворот в исполнительской практике, было создано

семейство инструментов и заложены основы многоголосных ансамблей и оркестров. Мы можем свободно играть как национальные, так и европейские мелодии на усовершенствованных инструментах. Это определенно хорошо!. Но мы можем наблюдать из современной практики исполнения, что ошибок и недостатков в процессе модернизации также было достаточно. Высказываются мнения о том, что производительность была доведена до уровня современного спроса, т. е. модернизирована.

Базовые слова: модернизм, слово, народный инструмент, композитор, мелодия, песня, Радио, пыль,Дутор, Народное слово.

Xalq cholg‘u asboblarini yaxshilashga urinish, ma’lumki, har qanday musiqiy madaniyatda bo'lgan va bo‘lajak olimlar ham , xalq sozandalari ham barcha davrlarda o‘z davri musiqa san’ati darajasiga muvofiq bo‘lish uchun milliy cholg‘u asboblari sozini tartibga solishga, diapazonini (ko‘lamini) kengaytirishga, registrini (pardasini) oshirishga intilganlar. O‘zbek sozandalari dutor va boshqa cholg'u asboblarining ijro imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida azal-azaldan «xas parda» (qo'shimcha parda) deb atalmish vositani qo'llaganlar. Ushbu talablarni hayotning o‘zi yangi ijtimoiy badiiy vazifalar bilan birga olg‘a surgan. Bu jarayon ma’lum darajada stixiyali bo‘lib, davrning o‘zgarib borayotgan talablariga javob bergan holda, evolutsion tarzda rivojlangan. O'zbek xalq cholg‘u asboblarining takomillashtirilishi to‘g‘risida ilk bor V. M. Belyayevning «Узбекские народные инструменты» (« o‘zbek xalqi cholg‘u asboblari», 1933- yil) kitobida eslatib o‘tilgandi. So‘ng boshqa ayrim asarlarda ham bu masalaga to‘xtab o‘tilgan. Mualliflar ushbu cholg'u asboblarining sadosi sifatini yaxshilash, tovushini kuchaytirish, sozini tartibga solish, ya’ni mavjud asboblar negizida ularning birmuncha mukammal namunalarini yaratish, tarkibini kengaytirish zarurligi to‘g‘risidagi fikrlarni bayon etishgandi. Shu bilan birga, respublikada umuminsoniy tajribaga tayanib, o ‘zbek xalq takomillashgan cholg‘u orkestrini hamda turli ansambllarni tashkil qilish uchun bir turdagi cholg‘u asboblari oilasi tayyorlana boshladi. Shuning qatorida an’anaviy cholg‘u asboblari an’anaviy musiqiy amaliyotda taomilda bo'lishda davom etdi va hozir ham ular taomildadir. Ular ham takomillashtirilmoqda va ahamiyati hech qachon pasaytirilmagan. Har bir cholg‘u asbobi o‘z ma’nosiga, o ‘z tembriga va boshqa farqli xususiyatlariga ega. «Milliy sadosi bilan ajralib turadi», degan iboraga kelganda, bu borada shuni aytish zarurki, musiqaning milliy o ‘ziga xosligini (ijro usulini) cholg'u asbobidan ham ko'proq, qanday asbobda chalayotganidan qat’i nazar, ijrochi belgilaydi.

Rubob, chang singari cholg‘u asboblari faqat takomillashtirilgan Skripka O‘zbekistonda, Tojikistonda, jahonning boshqa mamlakatlarida an’anaviy kuy ijrochilari tomonidan chalinayotganini ko‘ramiz. Shu munosabat bilan xalq cholg‘u asboblari hamda ularda ijroning funksiyasini aniqlashda sozning konstruksiyasi va kelib chiqishi (milliy mansubligi)dan ko‘ra ko‘proq, unda ushbu ijro uslubiga xos tarzda ijro etilayotgan kuyni hisobga olish lozimligini ta ’kidlash zarur.

Torli cholgu sozlari: Chertma cholg‘u asboblari **Dutor.** 1920- yillar oxiri — 1930- yillar boshida dutomi takomillashtirishga kirishildi. Konstruktorlar (U. Zufarov va boshqalar) birinchi navbatda cholg'u tovushini yanada kuchaytirish haqida o‘ylay boshlashdi, ayni mahalda dutorning parda bog'lamlari, uzun dastasi, sozlanishi va torlar tovushqatori o'zgarishsiz qoldirildi. Dutorni takomillashtirish va bu cholg‘u oilasini yaratish ishlari 1930- yillarning oxirida A.I.Petrosyan va S.Y.Didenko tomonidan boshlandi. Dutorda xromatik tovushqatorli konstruksiyada bog'lama pardalar doimiy, o'yma pardalar bilan almashtirildi, tashqi jihatdan xalq cholg‘usidan birmuncha boshqacha ko‘rinish kasb etdi. Keyinchalik tipik namuna asosida prima, sekunda, alt, bas va kontrabas dutorlar yaratildi. Bas va kontrabas dutorlar qattiq charm noxun bilan chalinadi. Dutorlar oilasidan hozirgi o‘zbek xalq cholg‘u ansamblari va orkestrlarida foydalaniladi. A.I.Petrosyans va S.Y.Didenko orkestr dutorlardan tashqari xalq dutori kabi sozlanadigan va diapazonga ega kamer dutorni konstruksiyalashdi. Bu dutor xalq musiqa amaliyotida yakkanavoz va ansambl cholg'usi sifatida tarqaldi.

Tanbur. Tanbur ko‘pmarta takomillashtirilgan. Nim parda (xromatik) tovushqatorli so‘ngi ancha yaxshi chiqqan namunasining konstruksiyasi A.I.Petrosyans va S.Y.Didenko tomonidan yaratilgan, biroq torlari qisqartirilgani va dastasiga yaqinlashtirilgani bois u o‘z xususiyatidan birmuncha mahrum bo‘lgan.

Rubob. — O‘zbekistonda professional va havaskor xalq sozandalarida ikki tipdagi — afg‘on va qashqar rubobi uchraydi. Afg'on rubobi, qashqar rubobi 40-yillarda A.I.Petrosyans va Didenko tomonidan takomillashtirilib, o‘zbek xalq cholg'u orkestri tarkibiga kiritildi. Afg‘on rubobida yordamchi torlar olib tashlangan kosaxonasi ancha kichraytirilib, uslublashtirilgan. Bog‘lama 4 parda o‘rniga listaga 17 metall yoki yog‘och o'yma parda o'rnatilgan. Qashqar rubobi 1940- yillarda A.I.Petrosyans va S.Y.Didenko tomonidan takomillashtirildi. Qashqar ruboblari uch turli qilib konstruksiyalandi. Bular: prima, alt (bir tipdagi) va tenor. Ruboblarda xalq sozlarining umumiy shakli va teri qopqoq saqlab

qolingan. Afg‘on rubobi bir qadar ko‘p o‘zgardi: unda rezonans torlari olib tashlandi, kosaxonasi bir muncha kichraytirilib, uslublashtirildi.

G‘ijjak —Gijjak haqida ko‘plab afsonalar mavjud bo‘lib, ularda g'ijjakning yaratilishi turli buyuk olimlarga, shu jumladan al-Forobiyga nisbat beriladi. G'ijjak to‘g‘risida tasnif etilgan vaqti ko‘rsatilgan qo‘lyozmalar Temuriylar davridan buyon saqlanib qolgan. 1920- va 1930-yillarda sadosini kuchaytirish va past registrdagi soz yaratish maqsadida g‘ijjak bir necha bor takomillashtirildi. A.I.Petrosyans va S.Y.Didenko 1940- yillarda g‘ijjakni ancha muvaffaqiyatli takomillashtirishdi, ular g'ijjakning butun bir oilasini: prima, alt, bas va kontrabas turlarini yaratishdi. Bu sozlar yuqori pozitsiyalarda chalish imkonini beruvchi tekis grifga hamda skripka oilasiga oid sozlar menzurasiga muvofiq keluvchi qat’iy o‘rnatilgan menzuraga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 2 fevraldagi Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo’shimcha chora tadbirlar to’grisidagi 112-sonli qarori,da Aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko’rsatish darajasini oshirish,respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy – madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo’lga qo’yish,madaniyat va san’at sohasida iste’dodli yosh ijodkorlarni izlab toppish va qo’llab-quvvatlash,ta’lim myassasalarini milliy cholgular,musiqa darsliklari, notalar to’plamlari va o’quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek,2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasini <<Inson qadrini uluglash va faol mahalla yili >> da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq: 2022/2023 o’quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida o’quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko’nikmalarini oshirish,ularning qalbida milliy madaniyatga bo’lgan muhabbatini shakllantirish,yosh iste’dodlarni aniqlash va qo’llab-quvvatlashga qaratilgan qo’yidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilansin:

Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida: O’quvchilarga mazkur qarorga 1-ilovadagi ro’yxatga keltirilgan milliy musiqa cholgularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko’nikmalari o’rgatiladi hamda bu haqda ularning ta’lim to’grisidagi hujjatlar (shahodatnoma) tegishli qayd kiritiladi;

Mazkur qarorni 1-ilovasidagi royxatga keltirilgan milliy cholgulardan kamida bittasida,2023/2024 o’quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo’lish musiqa fani o’qituvchilari uchun majburiy hisoblanadi; O’quvchilarni darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida

ularning qiziqishlariga ko’ra milliy musiqa cholgularida kuy ijro etish, tasviriy va amaliy sah’at,hunarmandchilik yo’nalishlarida amaliy to’garaklartashkil etiladi deyilgan.Xalqimizning bebaho boyligi sanalmish - milliy cholg'ularimiz o'zining betakrorligi, jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining kengligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda yuksak ahamiyat kasb etadi. Bu cholg'ular ishtirokidagi kuy-qo'shiqlardan o'zbek millatining o'ziga xos bo'lgan milliyligi ufirib turadi.

Ushbu milliy cholg'ularimiz bizning davrimizga yetib kelgunga qadar juda ham ko'p marotaba o'zgarishlarga yuz tutgan. Bunga sabab O'zbek xalq cholg'ularini zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirish bo'lgan va bu takomillashuv o'tgan asrning 20-yillari va 30-yillarining boshlariga to'g'ri kelgan. Bu ishlar birinchilardan bo'lib, hofiz Shorahim Shoumarov, ustoz sozanda Matyusuf Xarratov, sozgar usta Usmon Zufarovlar tomonidan amalga oshirilgan. Ularning asosiy maqsadi - musiqiy cholg'ularning ovoz jarangdorligini oshirish hamda xas pardalar yordamida cholg'u diapazonini kengaytishdan iborat edi. Sh.Shoumarov O'zbekiston radiosi qoshidagi xalq cholg'ulari ansamblida ishlagan kezlari g'ijjak, dutor, tanbur kabi cholg'ularning tovushi hamda tembrini yaxshilashga doir ishlarni boshlab yubordi. Laboratoriyada o'zbek xalq cholg'ularini modernizatsiyalashtirish jarayonida u aynan g'ijjaklarning kosasini har xil xomashyodan, ya'ni kokos yong'og'i, qovoq, mis va yog'ochdan turli shakllarda yasadi. Tajriba natijasida aynan kosasi yog'ochdan yasalgan cholg'u maqsadga muvofiq deb topildi.

O'sha paytlarda amalda bo'lgan chang cholg'usi, diapazoni kichik va diatonik tovushqatorga ega bo'lib, unda professional kompozitorlar asarlarini ijro etish ancha qiyinchiliklar tug'dirgan. Aynan shu diatonik chang cholg'usini takomillashtirish ustida M.Xarratov bosh qotiradi. Tajribalar orqali changning yuqori registrini qo'shimcha torlar bilan boyitish evaziga kengaytiradi. Chang cholg'usining takomillashuvi jarayonlarida yana bir jonkuyar sozanda va sozgar Usta R.Isaboyev ham o'zining ulkan hissasini qo'shgan.

A.Tashmatovaning "Ijrochilik san'ati tarixi" darsligida yozilishicha "1902-yillarda Qashqardan kelgan sozanda Ramazonoxunning choyxonalarda chang chalishidan ilhomlanib, uning bu cholg'uga qiziqishi uyg'onadi. O'sha paytda bu cholg'uning hajmi ham, shakli ham boshqacharoq bo'lgan. Qashqarlik sozanda o'z cholg'usining tuzilishini sir ushlashiga qaramay, uddaburon Usta Ro'zimat aka bu cholg'uni yaqindan ko'rishga muyassar bo'ladi va o'ziga chang yasab oladi. Usta yasagan changning hajmi kattaroq bo'lib, u har bir tovush balandroq eshitilishi uchun to'rtadan tor taqadi bu urinish aynan cholg'uning ovoz jarangdorligini oshirish maqsadida qilingan. R.Isaboyev bir necha yarim xromatik changlar yasab,

birinchi bo'lib Namanganda bu cholg'uni ansambl jamoasiga qo'shgan inson edi." Usta Usmon Zufarov esa birinchilardan bo'lib, Y.Rajabiyning buyurtmasiga asosan ansambl jamoasining ovoz diapazonini kengaytirish maqsadida past registrli cholg'ular, ya'ni "Katta dutor, "Katta tanbur" va "Katta g'ijjak"larning bir necha turlarini yasaydi.

Ular 1934-1936- yillar davomida Y.Rajabiy rahbarligidagi ansambl tarkibida qo'llaniladi. Hozirda esa bu cholg'ular ijrochilikda qo'llanilmaydi va U.Zufarov ijodiy faoliyatining mahsuli sifatida O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Milliy cholg'u" ilmiy-ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasining "Davlat noyob ilmiyob'ekti"da nodir eksponat sifatida saqlanmoqda. Hozirgi kunga qadar bu cholg'ular barcha sozgar ustalarga namuna sifatida xizmat qilmoqda.

1936-yilda To'xtasin Jalilov rahbarligidagi 98 sozandadan iborat "etnografik" ansambl, ya'ni unison orkestr tarkibida Usta Usmon Zufarov yasagan katta g'ijjak, katta tanbur va katta dutorlardan foydalanildi va amaliyotdan o'tkazilgan. 1937-yili Moskvada bo'lib o'tgan o'zbek san'atining birinchi dekadasida U.Zufarov yasagan dutor, tanbur, doira va boshqa cholg'ular teatr sahnasida yangraydi. Shuningdek bu cholg'ular dekada ko'rgazmasida ham namoyish etiladi.

Keyinchalik xalq cholg'ularini tizimli ravishda modernizatsiyalashtirish ishlari jadal sur'atda boshlanib ketdi. Ashot Ivanovich Petrosyans rahbarligi ostida bir guruh musiqa ustalari ya'ni V.Romanchenko, A.Kevxosyans, S.Didenko va V.Andreyevlarning tajribasiga tayangan holda cholg'ularni 12 bosqichli teng temperatsiyalangan prinsip asosida ijrochilikning zamonaviy talab darajasigacha moslashtirishga ya'ni modernizatsiyalashtirishga kirishdilar.

Modernizatsiyalashtirishdan maqsad esa, ko'p ovozli orkestr va ansambl jamoalarini tuzish ko'zda tutilgan. Bunga qadar ansambl jamoalari faqatgina bir ovozli ya'ni unison tarzida ijro etishgan. Bu yo'lda o'z-o'zidan A.Petrosyansda cholg'ularning oilasini yaratish fikri paydo bo'ladi va natijada nota orqali ijro etadigan orkestrlar hamda ansambllarning shakllanishiga asos solindi.

1950-yillarning boshlarida bu tarkibga X.Muxitdinov, Abdug'ofurov, A.Tarasov, V.Shitikov, N.Ryuxin, M.Turdiyev va F.Bortniklar kelib qo'shilganlar. Modernizatsiyalashtirish jarayonlarida cholg'ularning oilalari yaratila boshladi. Bunda g'ijjak cholg'usining o'zi zamonaviy talablarga mos keladigan qilib takomillashtirilgan so'ng u asosida g'ijjak alt, g'ijjak bas va g'ijjak kontrabas cholg'ulari yaratildi. Ushbu oila asosida O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori Murod Toshmuhamedov "Sayqal" nomli g'ijjakchilar orkestrini tuzdi va unga rahbarlik qildi. Shu tariqa diatonik tovushqatorli an'anaviy dutor asosida 12

bosqichli teng temperatsiyalangan va xromatik tovushqatorga ega bo'lgan dutor tenor cholg'usi yaratildi. Dutor tenor asosida esa, dutorlar oilasiga kiruvchi dutor prima, dutor sekunda, dutor alt, dutor bas va dutor kontrabas cholg'ulari yaratildi. Diatonik tovushqatorga ega bo'lgan qashqar rubobi cholg'usi ham modernizatsiyadan so'ng xromatik tovushqatorga ega bo'lgan 12 bosqichli teng temperatsiyalangan, milliy va yevropa kuylarini bemalol ijro etsa bo'ladigan zamonaviy cholg'uga aylandi. Hozirgi qashqar rubobi asosida prima rubobi, metsosoprano rubobi, kichik rubob va alt rubobi yaratildi. Shularning qatorida an'anaviy afg'on rubobi ham xromatik tovushqatorga ega bo'lgan modernizatsiyalashtirilgan afg'on rubobiga aylandi va ruboblar oilasi bilan birgalikda xalq chog'ularidan tashkil topgan ansambl va orkestrlarda yakkanavoz va jo'rnavoz cholg'u sifatida qo'llanilib kelmoqda.

Tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan xalq cholg'ularining modernizatsiyasi jarayonlarida diatonik tovushqatorga ega bo'lgan va 37 ta torga ega an'anviy chang cholg'usi ham takomillashuvdan chetda qolmadi. Tajriba natijasida diatonik tovushqator, 12 bosqichli teng temperatsiyalangan xromatik tovushqatorga o'rin bo'shatdi. So'ngra torlarning soni 75 tagacha yetdi va diapazoni anchagina kengaytirildi. Avvalida ushbu chang cholg'usiga uchta kichik oyoqchalar o'rnatildi. Sozandalar esa tizzalarini bukkan holda ijro etdilar. Keyichalik cholg'uga uchta uzun oyoqlar va pedal mexanizimi o'rnatildi. Ijrochilar cholg'uni uzun oyoqlar evaziga bemalol qiyinchiliklarsiz stulga o'tirgan holda hamda ovoz jarangini va keraksiz tovushlarni vaqtida so'ndirish uchun pedal mexanizimidan unumli foydalangan holda ijro etib kelishmoqda. Ma'lumot o'rnida shuni aytish joizki ilgarigi an'anaviy chang cholg'usida oyoqlar hamda pedal mexanizmi ham mavjud bo'lmagan. Takomillashuvdan keyingi zamonaviy chang cholg'usida milliy kuylarimiz va jahon klassikasiga oid asarlarni maromiga yetkazib ijro etish imkoniyatlari mavjud. Boshqa cholg'ular singari chang oilasi ham yartildi: chang pikkolo, chang prima, chang tenor, chang alt, chang bas cholg'ulari ushbu oilaga mansub cholg'ulardandir. Keng diapazonga ega bo'lgan ushbu changlar oilasi cholg'ularidan o'z-o'zidan ko'p ovozli orkestr va ansambllar tuzish fikri paydo bo'ldi va bu imkoniyatdan O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasi dotsenti Fazilat Shukurova ijobiy foydalandi. Ammo jamoa o'z ijodiy faoliyatini qisqa muddat ichida yakunladi.

Xulosa: qilib aytganda o'zbek xalq cholg'ulari modernizatsiyasi ishlari ijrochilik amaliyotida ulkan ijobiy burulish yasadi. Cholg'ular oilasi yaratilib ko'p ovozli ansambl va orkestrlarga asos solindi. Takomillashgan cholg'ularda ham milliy ham yevropa kuylarini bemalol ijro etishimiz mumkin. Bu albatta yaxshi!.

Ammo modernizatsiya jarayonidagi xato va kamchiliklar ham yetarlicha bo'lganligini hozirgi kundagi ijrochilik amaliyotlaridan kuzatishimiz mumkin. Masalan:

- O'n ikki bosqichli teng temperatsiyalashtirilgan xromatik tovushqatorga ega cholg'ularimiz kosasiga hayvon terisidan parda tortilganligi sababli ob-havo sharoitini o'zgarishi oqibatida cholg'u sozlari ham o'zgarib ketadi. Ya'ni issiq ob-havo sharoitida cholg'u kosasiga tortilgan parda taranglashadi va cholg'u sozi ko'tariladi. Yoki aksincha sovuq ob-havo sharoitida cholg'u kosasiga tortilgan teri boshashib qoladi va oqibatda cholg'uning sozi tushib ketadi;

- Cholg'ularni modernizatsiya qilishda ularning oilalari yaratildi lekin ushbu oiladagi cholg'ularning ayrimlaridan hozirgi kundagi orkestr va ansambllarda foydalanilmaydi. Umuman olganda yakka ijrochilikda ham metsosoprano rubobi, kichik rubob, alt rubobi, dutor sekunda, chang bas, chang alt, chang pikkolo, chang tenor kabi cholg'ular o'z o'rnini yo'qotib, cholg'u muzeylaridan qo'nim topgan.

Fikrimcha o'zbek xalq cholg'ulari modernizatsiyasini qayta ko'rib chiqish lozim. A.Petrosyans boshchiligidagi modernizatsiyadan so'ng o'tgan vaqt bizga anchagina tajriba vazifasini bajardi deyish mumkin. Modernizatsiya jarayonlarida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklardan yetarlicha xulosa chiqargan holda "Milliy cholg'ularimizni" bosqichma-bosqich takomillashtirib ularni milliylik bilan birgalikda davr talabiga mos qilib mukammal ijro imkoniyatlariga ega bo'lgan cholg'u sifatida qayta ishlab chiqarish lozim deb o’ylayman.

Milliy sozlami takomillashtirish jarayonidan so’ng ijro san’atida ikki yo’nalish vujudga keladi: an’anaviy va zamonaviy ijrochilik talablariga moslashtirilgan ijro. Ikki yo’nalishda ham o’ziga xos ijro ulublar mavjud bolib, ular milliy sozlarimizni keng ijro imkoniyatlarga ega ekanligini isbotlab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. PQ-112-son 02.02.2022 Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’grisida 1-ilova lex.uz./docs 5849580#5849796.

2.https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-xalq-cholg-ularining-takomillashuv-jarayonlari-hamda-ko-p-ovozli-orkestr-va-ansambllarning-tashkil-topishi

3. Choriyev, B. B. (2019). Ideological bases for the modernization of Uzbek folk instruments. ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (80), 83-87. URL: https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42657401.

DOI: 10.15863/TAS.2019.12.80.17

4. Boboramazonovich, K. O. (2022). Characterictics of the performance of people in allan,lapars,speech in thesurkhan volume. Ta’lim varivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali 95-102. URL: http://www.sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/1517

5. A.Tashmatova "Ijrochilik san'ati tarixi" darsligi "Musiqa" nashriyoti Toshkent - 2017y. 82-85-betlar.

6. Вызго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии. - М., 1980, 15-бет.

7. Садоков Р. Музыкальные инструменты древнего Хорезма в памятниках изобразительного искусства//Музыка народов Азии и Африки. - М., 1969, 21-бет..

8. A.Tashmatova "Ijrochilik san'ati tarixi" darsligi "Musiqa" nashriyoti Toshkent - 2017y. 82-85-betlar.

XX ASR BOSHLARIDA MILLIY MUSIQA NAMUNALARINING DAMLI CHOLG‘ULAR IJROSIGA KIRIB KELISHI. MUNOJOT KUYI MISOLIDA

Rasulova Dilafruz Sultanxonovna

Farg‘ona ixtisoslashtirilgan san’at maktabi

“Musiqa nazariyasi” bo‘limi bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘zbekiston hududida XX asr boshlarida nota yozuviga asoslangan musiqiy janlar, uslublar va G‘arb davlatlari cholg‘ulari kirib keldi. Ushbu o‘zgarishlar yangi cholg‘ular ansambl va orkestrlarning tashkil etilishiga va ularga milliy kuylardan tashkil topgan dasturlarni shakllanishiga olib keldi. Bunga yaqqol misol qilib ushbu maqolada V.V.Leysekning Damli cholg‘ularga moslagan “Munojot” kuyiga murojaat qilamiz va unga taxliliy nazar solamiz.

Kalit so‘z: Munojot, V.V.Leysek, Damli cholg‘ular orkestri, Marsh.

Аннотация: В начале XX века на территорию Узбекистана проникли музыкальные жанры и стили, основанные на нотах и инструментах западных стран. Эти изменения привели к образованию новых музыкальных ансамблей и оркестров, составлению программ, состоящих из национальных мелодий. В

качестве наглядного примера в данной статье мы обратимся к мелодии «Муноджот» В.В. Лейсека, адаптированной для Духовых инструментов, и дадим ей аналитический взгляд.

Ключевые слова: Муноджот, В.В. Лейсек, Оркестр духовых инструментов, Марш.

Abstract: At the beginning of the 20th century, musical genres and styles based on sheet music and instruments from Western countries entered the territory of Uzbekistan. These changes led to the formation of new musical ensembles and orchestras and the formation of programs consisting of national tunes. As a clear example of this, in this article we will turn to the tune "Munojot" by V.V. Leysek adapted for percussion instruments and take an analytical look at it.

Key word: Munojot, V.V. Leysek, Brass Orchestra, Marsh.

O‘zbek xalqi musiqa san'atining badiiy-ma’naviy go‘zalligi asrlar qa'ridan kelayotgan kuy-ohanglarda, ularning turfa ko‘rinishlarida o‘zining ajoyib, betakror ifodasini topgan. Milliy musiqa ijodiyoti asrlar davomida ajdodlarimiz boy madaniyati, tafakkuri, ruhiyatining sadolardagi jonli in'ikosi bo‘lgan holda xanuz kishilarning jon ozig‘i bo‘lib hizmat qilib kelmokda.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi rahbari I.Karimov asosli ravishda ta'kidlaganidek: “Mustaqillik yillarida mamlakatimizda musiqa san'atini keng rivojlantirishga qaratilgan dastur va rejalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mumtoz musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o‘rganish, uni yosh avlodlarga bezavol etkazish maqsadida ko‘plab ko‘rik-tanlovlar, nufuzli xalqaro musiqa anjumanlari muntazam ravishda o‘tkazib kelinmoqda.”[1]

Hukumat idoralari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, nufuzli xalqaro tashkilotlar yordamida ushbu dasturlar doirasida yurtimizda fol’klor va mumtoz kasbiy musiqa namunalarini avaylab-asrash, o‘rganish, ijodiy o‘zlashtirish, targ‘ib etish, ravnaq topdirishga qaratilgan bir qancha ibratli ishlar amalga oshirildi.

Milliy musiqamiz rivojiga, uning keng targ‘ibotiga davlat tomonidan alohida e'tibor berilayotganini 1997 yildan e'tiboran har ikki yilda Samarqand shahrida o‘tkazilayotgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Mazkur festival nafaqat o‘zbek milliy, balki butun Sharq mintakasi

[1] I.Karimov. yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. “Ma’naviyat” Toshkent, 2008 y, 140-bet

xalqlari musiqa madaniyatida ham tanishuv va ijodiy hamkorlikning yangi saxifalarini ochib berdi.

O‘zbekiston musiqa san'ati qadimiy va rang-barang, yangicha ijodiy an'analarni o‘zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda. Ularni avvalo xalq musiqasi janrlari - kuy, qo‘shiq, ashula, yalla, lapar, adabiy-musiqiy doston, mumtoz musiqa merosimizning muxtasham turkumlari: Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, ko‘p asrli bastakorlik ijodi tashkil etadi. Bu o‘lmas asarlar hamon sozandalar, xonandalar ijrolarida muntazam yangrab, takomillashib, qayta ishlanib, bizning davrimizgacha yashab keldi va xalqning bebaho mulkiga aylandi. Badiiy jihatdan barkamol bu asarlar bir-biridan kelib chiqishi, shakl qonuniyatlari, ifoda vositalari, ijodiy uslubi, ijroviy xususiyatlari bilan farqlanishi mumkin.

O‘zbek musiqa ijodiyotining durdona namunalaridan “Tanovar”, “Nasrulloyi”, “Cho‘li Iroq”, “Surnay Navosi”, “Girya” va boshqalar qatorida “Munojot” nomida yuritiluvchi ajoyib va mashxur kuylar xam bor. Ularning yuzaga kelgan ijodiy va ijroviy talqinlarini to‘plash va o‘rganish, qiyoslab taxlil etish xozirgi zamon musiqashunoslikning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Maqolada o‘zbek musiqa san'atidagi “Munojot” turkum cholg‘u kuylari, ashula yo‘li hamda ularning xozirga qadar ma'lum va e'tiborli bo‘lgan turli xil ijodiy va ijroviy talqinlari masalalarini yoritiladi.

O‘tgan asrning 20-30 yillarida taniqli olim-u ijodkorlardan N.N.Mironov, V.A.Uspenskiy va V.M.Belyaev qalamiga mansub “Munojot” kuylarining nota yozuvlari mavjud.

Kompozitorlik ijodiyotida xam “Munojot” kuyidan foydalanib bir qancha asarlar tayyorlangan. Bulardan, masalan, Frantishek Vaslav Leysekning damli cholg‘ular orkestri uchun moslashtirilgan “Munojot” kuyida, Dadaali Soatkulovning “Farg‘onacha kvarteti”da kompozitorlarning o‘ziga yarasha moxirona yondashuvi amalga oshganini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, o‘zbek simfonik musiqa ijodiyoti rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan atoqli kompozitor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san'at arbobi Mirsodik Tojiev o‘zining O‘n birinchi simfoniyasini “Munojot” asariga bag‘ishlagan va noyob badiiy natijaga erishgan. Ma'lum bo‘lishicha, tanqkli kompozitor Abdusaid Nabiev mumtoz o‘zbek kuylaridan bir nechtasini yakka fortepiano, fortepiano va kamer orkestri uchun moslagan. Shular jumlasilan o‘rganilayotgan “Munojot” kuyi xam munosib o‘rin egallaydi.

O‘tgan asr va hozirgi zamon o‘zbek bastakorlari va kompozitorlari xalq kuy va ko‘shiqlaridan, mumtoz musiqa namunalaridan, shu jumladan “Munojot”dan ham o‘z asarlarida xar xil janr, shakl va uslublarda foydalanib kelmoqdalar.

Ma'lumki, O‘rta Osiyoda XIX asr oxiri - XX asr boshlaridan musiqiy folklor namunalarini yozib olish, to‘plash, ijodiy kayta ishlash va saqlab qolish ustida muayyan ishlar olib borilgan. Bu sohada A.F.Eyxgorn, F.V.Leysek, N.N.Mironov, E.E.Romanovskaya kabi jonkuyar etnograf musiqachilarning ishlari e'tiborga loyiqdir.[1] Bulardan asli Chexiyalik kompozitor Frantishek Vaslav Leysek xalq qo‘shiq va kuylarini yozib olish, ularni turli xalq cholg‘ulariga hamda orkestrga moslashtirish bilan shug‘ullanadi. Mumtoz o‘zbek xalq kuylaridan “Rajabiy” va “Munojot” bunga yorqin misol bo‘la oladi.

1937 yilda O‘zbekiston davlat nashriyoti tomonidan “V.V.Leysek. Ozbek kujlaridan MUNAÇAT (duxovoy orkestr ucun)”[2] nomi bilan nashr qilingan.

O‘zbekiston hududida asosan ikki xildagi cholg‘u ansambllari keng tarqalgan bo‘lib, bulardan birisi damli va zarbli cholg‘ular (surnay, karnay, nog‘ora, doyra)lardan tashkil topgan va ikkinchisi torli cholg‘ular hamda nay, qo‘shnay, bulamon kabi damli cholg‘ular va doyra ishtirokidagi ansambllardir. Harbiy damli cholg‘ular orkestrlari tarkibida xizmatdagi askarlar farzandlari va yetim bolalar orkestr tarbiyalanuvchilari sifatida xizmat qilganlar. Ularni yetakchi sozandalar turli cholg‘u sozlarda chalishga o‘rgatganlar. Ba’zi orkestrlarda damli cholg‘ulardan tashqari torli sozlar ham o‘rgatilgan. Bu bilan, sozandalar ham damli, ham simfonik, orkestrlarda ijrochi sifatda qatnashishlari mumkin bo‘lgan. Turkiston o‘lkasida damlicholg‘ular ijrochiligirivojiga katta hissa qo‘shgan ma’lumotli sozandalar ichida A.F.Eyxgorn, F.V.Leysek, N.N.Mironovlar bor edi. A.F.Eyxgorn O‘zbek musiqa san’ati targ‘ibotining boshlovchilaridan hisoblanadi.

Turkistonda damli cholg‘ular ijrochiligini rivojlantirishda Chex sozandasi va etnografi, harbiy kapelmeyster V.V.Leysek faoliyatining ahamiyati kattadir. XIX asr oxirida Rus-Chex munosabatlarining yaxshilanishi natijasida, ko‘pgina chex sozandalari Rossiyaga keladi. Bular qatorida V.V.Leysek ham bor edi. Bu sozanda Turkistonda ma’rifiy jamoat va ijodiy faoliyat yurgizgan arboblardan hisoblanib, Xo‘jayli batalioni harbiy orkestri kapelmeysteri bo‘lgan. Bundan tashqari u «Lira» deb nomlangan xor jamoasini boshqarar, gimnaziyada musiqa va ashuladan dars berar, O‘rta Osiyo xalqlari musiqa folklorini o‘rganishga harakat qilar va asarlar

[1] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 12 jild. “[1]O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2006 y.
[2] V.V.Leysek. Ozbek kujlaridan MUNAÇAT (duxovoy orkestr ucun) “OzSSR Davlat nasrijati” Taskent,1937

yaratar edi. Toshkent musiqa jamiyati konsertlarida u o‘zini ijrochi sifatida namayon qilgan.

V.V.Leysek ko‘pgina harbiy marshlar yozib, harbiy orkestrlar bilan ishlash davomida ularning repertuarini milliy kuylarga asoslangan yangi asarlar bilan boyitishga harakat qildi. “Leysek o‘zbek kuylarini yig‘ish va orkestr cholg‘u asboblariga moslab qayta ishlash bilan ham, shug‘ullanardi” deb eslaydi, uning shogirdi sozanda va pedagog F.I.Negovelov Bunday kuylardan ko‘pchiligi orkestr yakkaxonlari tomonidan konsertlarda ijro etilar va nafaqat Ovro‘palik tinglovchilar balki, mahalliy aholi tomonidan ham, qizg‘in kutib olinar edi.

V.V.Leysek (1857-1935) ko‘zga ko‘ringan Chex sozandasi. 1878 yilda Praga konservatoriyasini tamomlagandan keyin Rossiyaga keladi va Turkiston saper brigadasi harbiy orkestrining kapelmeysteri sifatida ish boshlaydi. Oktabr to‘ntarishidan keyin O‘zbeksitonda yashab ijod qiladi va o‘zbek musiqa madaniyatini rivojlantirish ishida faol qatnashadi.

Bu partitura Leysek kuylarni damli cholg‘ular orkestriga moslashtirgan bo‘lib, “Munojot” kuyini qiyosiy taxlil kilganda, yozilishida o‘zaro farqlar borligi ayon bo‘ldi. Shuningdek, qo‘ygan maqsadlariga ko‘ra kompozitor cholg‘ularning imkoniyatlarini hisobga olib chog‘lu asari jarangini marsh sur'atiga yaqinlashtirib, yetakchi damli cholg‘ular uchun kulay bo‘lgan B-dur tonalligini tanlab oladi.

Asarning muqaddimasi tarzida yangraydigan to‘rt tgaktli tuzilma bosh kuy-ohanglar negizida ishlangan. Partiturada kuyning bayoni 4-taktdan e'tiboran Yunus Rajabiy nota yozuvidagi kuyning 13-taktiga qadar bir-biriga to‘g‘ri keladi. Orkestr kuyining o‘rta qismida esa f-moll tonalligiga og‘ishma (60-89 taktlar) qo‘llanilgan.

Misol № 1

Kuyning o‘lchovi yakuniy qismda to‘rt chorakdan uch nim chorak o‘lchoviga o‘tgani kuzatiladi. Bynday o‘zgarishlar kuyning shaklida variatsiyasimonlikni hosil qiladi, ya'ni A-A1-B-B1-C-A1-D-E. Ularni qismlarga bo‘lsak A-B 1-qism, xona bozgo‘y (1-64 taktlar),

Misol № 2

C 2-qism, avj (65-92 taktlar),

Misol № 3



Keyingi D belgili tuzilma furovard (113-137 taktlar) vazifasini bajaradi. Asar bosh tonallikda uch taktli koda bilan yakunlanadi.

Misol № 4

Asarda tenor ovozlar kuyni ritmik qolipga solib turadi.

Misol № 4

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki o‘zbek milliy kuylari har qanday cholg‘u ansambllarida va orkestrlarida o‘z qadr qimmatini yo‘qotmagan holda bugungi kunga qadar yetib kelmoqda. O‘tgan asrning birinchi yarmida yaratilgan yuqoridagi kabi asarlarni toppish, tahlil va targ‘ib qilish zamonamizning yosh musiqashunoslarining yetakchi maqsad va vazifalari bo‘lishi maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. “Ma'naviyat”, Toshkent,2008

2. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. “G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti”, Toshkent, 1987

3. Veksler C. Ocherk istorii uzbekskoy muzikalnoy kul’turi.“O‘qituvchi”, Tashkent, 1965

4. Vizgo T. Simfonicheskaya muzika Uzbekistana// Muzika narodov Aziii Afriki. vipusk 3. “Sov kompozitor”, Moskva, 1980

5. Gafurbekov T. Folklornie istoki uzbekskogo professionalnogo muzikalnogo tvorchestva. “O‘kituvchi”, Tashkent,1984

6. Djabbarov A., Solomonova T. Kompozitorii Muzikovedi Uzbekistana. “G‘.Gulyama”, Tashkent, 1975

7. Leysek V.Ozbek kujlaridan MUNAÇAT (duxovoy orkestr ucun). “OzSSR Davlat nasrijati", Taskent, 1937

8. Muzikalnaya folklaristika v Uzbekistane. “Izdatelstvo akademii nauk uzbekskoy SSR”, Tashkent, 1963

9. Munojot. // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6 jild.“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2003

10.Yunusov R.O‘zbek xalk musika ijodi. 2 kism Toshkent, 2000

DUTOR CHOLG‘U IJROCHILIGI TARIXIDAN

Toshkent viloyati ixtisoslashtirilgan
madaniyat maktabi “Xalq cholg‘ulari
ijrochiligi” bo‘limi o‘qituvchisi Reymova
Ziyuar
Ilmiy rahbar: Pedagogika fanlari nomzodi,
professor S.S.Malikova

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalqining qadimiy cholg‘u asbobi bo‘lgan dutorning kelib chiqishi, tuzilishi, sozlanishi, ijrochilik uslublari va tarixiy takomillashuv bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, dutorning O‘zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatidagi o‘rni, uning orkestr ijrochiligiga moslashtirilgan shakllari va chalish texnikalari tizimli tarzda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Xalq cholg‘ulari, ko‘p ovozli ijrochilik, orkestr tarkibi, ansambl, optimallashtirish, repertuar, dutor, ijrochilik, cholg‘u, an’anaviy musiqa, sozlash, zarb, pedagogika, jo‘rnavozlik, yakkanavozlik, kompozitor.

Аннотация: В данной статье рассматривается история, конструкция, настройка и исполнительские особенности древнего узбекского струнного инструмента — дутар. Освещены этапы его эволюции и усовершенствования, а также значение дутара в музыкальной культуре Узбекистана и других народов Центральной Азии. Отдельное внимание уделено техникам игры и адаптации инструмента к оркестровому исполнению.

Ключевые слова: Народные музыкальные инструменты, многоголосное исполнение, состав оркестра, ансамбль, оптимизация, репертуар, дутор, исполнительство, инструмент, традиционная музыка, настройка, штрих (удар), педагогика, аккомпанемент, соло-исполнение, композитор.

Annotation: This article explores the history, structure, tuning, and performance techniques of the dutor — an ancient Uzbek string instrument. It discusses the instrument’s evolution, its cultural significance in Uzbekistan and other Central Asian nations, and its adaptation for orchestral performance. The article also provides a systematic analysis of various playing techniques and the modernization processes initiated by A.I. Petrosyans.

Keywords: Folk musical instruments, polyphonic performance, orchestral composition, ensemble, optimization, repertoire, dutar, performance, instrument, traditional music, tuning, stroke (strumming technique), pedagogy, accompaniment, solo performance, composer.

Dutor – o‘zbek an’anaviy chertma cholg‘u sozlaridan biri. Uzoq o‘tmishdan xalq ijrochilik amaliyotidan munosib o‘rin egallagab kelayotgan dutor, ayni paytga kelib an’anaviy ijro uslubiga xos barcha guruhlar tarkibidan joy oldi. An’anaviy yakanavoz cholg‘u sifatida shakllandi va yetakchi cholg‘ular qatoriga kirdi.

Dutor O‘rta Osiyoning o‘zbek, turkman, tojik, qoraqalpoq xalqlari orasida keng ommalashgan cholg‘udir. Qayd etish joizki, har bir xalq dutorining oz bo‘lsada o‘ziga xoslik jihatlari mavjuddir.

Dutor – ikki torli cholg‘u asbobidir. Odatda, tut daraxtidan tayyorlanadi. Cholg‘u ikki asosiy qismlarga bo‘linadi: a) kosaxona (rezonator); b) dasta. Cholg‘uning kosasi 10-12 ta yupqa qovurg‘achalarning bir-biriga birlashtirib yopishtirish orqali hosil qilinadi va uning ustidan ustki qism maxsus qopqoq bilan qoplanadi.

Dutor o‘zbek xalq cholg‘ulari orasida o‘zgaruvchan xususiyatli cholg‘ular tarkibiga kiradi. Shu bois, bu toifadagi cholg‘ularning sozlari (torlari) ijro uchun kerakli parda (tovush)ga sozlanib olinadi. Dutor ijrochilik amaliyotida ijro etilayotgan asarga qarab turlicha, ya’ni kvarta, kvinta, qo‘shtor (unison), oktava va sekunda intervallariga sozlanadi. Ijrochilik amaliyotida, an’anaviy ijro uslubida kvinta sozi keng qo‘llaniladi. Kvarta – Tanovar sozi, unison – Qo‘shtor, oktava – Bayot sozi nomlari bilan ham yuritiladi.

Sekunda va tersiya intervali asosida sozlash zamonaviy jarayonda juda kam qo‘llaniladi.

Dutor an’anaviy cholg‘ular orasida turli va rang-barang zarblarga boy, nafis va nazokatli, falsafafiy ovozga boy cholg‘u soz sifatida turli yoshdagi ijrochilar amaliyotida keng qo‘llaniladi.

Ijrochilik amaliyotida mohirlik darajasiga erishgan xalq dutorchi sozandalardan Maxmud Yunusov, G‘ulomjon Qo‘chqorov, Faxriddin Sodiqov kabilar doimo xalqimiz e’zozida bo‘lib kelganlar.

30-yillarning ikkinchi yarmiga kelib, O‘rta Osiyo xalqlari o‘rtasida musiqa madaniyati katta o‘zgarishlarga yuz tutdi. Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston va Tojikistonda ko‘povozli, milliy cholg‘ular orkestrlari tashkil etila boshlandi. O‘zbekistonda A.I.Petrosyans bir guruh sozanda va cholg‘u ustalari

bilan birgalikda, rus cholg‘ushunosi V.V.Andreevning bu borada yaratgan ishlaridan andoza olib, o‘zbek xalq cholg‘u sozlari ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib bordi.

XIX asrgacha saqlanib, bizgacha yetib kelgan xalq cholg‘u sozlari milliy musiqa asarlarimizni ijro etishga mo‘ljallangan edi. O‘zbekistonda ko‘povozli ijrochilikni shakllantirish va kompozitor asarlarini chalish uchun xalq sozlariga ma’lum darajada o‘zgarishlar kiritish talab qilindi. Chunki ushbu sozlar sof yarim ton hosil qiluvchi, o‘n ikki bosqichli, ravon sur’atlarda bo‘lingan tovushqatorga ega emas edi.

Dutor qayta ishlovga yuz tutgan birinchi xalq cholg‘usidir. Dutorning birinchi takomillashtirish obekti qilib olinishi tasodifiy hol emas.

- Birinchidan, dutor xalq orasida eng keng tarqalgan cholg‘u.
- Ikkinchidan, dutorning tovushqatori boshqa soz tovushqatori bilan solishtirilganda, dutorning tovushqatori 12 bosqichli tovushqatorga eng yaqin hisoblanadi.

Ashot Ivanovich ishni dutor tovushqatorining pastki oktavasini to‘ldirish bilan boshladi (ochiq tordan 6-pardani orttirilgan kvarta yoki kamaytirilgan kvinta). Pastki oktavada o‘n ikki bosqichli xromatik gammani hosil qilgach, u shu qatorning o‘zini ikkinchi oktavaga o‘tkazdi. Yetishmagan pardalar o‘rnini yangi bog‘langan pardalar egalladi. Petrosyans hali o‘z oldiga sof yarim ton hosil qiluvchi teng bosqichli ravon sur’atlarga bo‘lingan tovushqatorni yaratishni maqsad qilib qo‘ygan emas edi.

Cholg‘ushunoslikdagi bunday yangilik faqat dutor tovushqatorigagina emas, balki rubob, tanbur, chng, afg‘on rubobi tovushqatorlarini takomillashtirishga ham sabab bo‘ldi.

Keyingi muammo ochiq torlarning sozlanishida edi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, xonandalar qo‘shiq aytishda dutorda jo‘rnavozlik qilishgan. Shuning uchun ham dutor torlarining tovush balandligi qo‘shiqchi ovozining imkoniyatlariga ham bog‘liq bo‘lgan .

Cholg‘uning ko‘povozli orkestr ijrochiligi talablariga javob berish maqsadida takomillashtirish jarayoni hali ham tugamagan edi.

Keyingi bosqich – dutor dastasidagi bog‘langan, vaqt o‘tishi sayin surilib, tovushning sofligiga salbiy ta’sir etadigan pardalarni, doimiy yopishtirilgan taxtachalar bilan ajratish bo‘ladi. Ijro jarayonini yengillashtirish uchun ustalar ba’zi

pardalarni dumaloq belgilar bilan belgilashdi. Bu chizmada Petrosyans taqqoslagan milliy dutor va rus xalq cholg‘usi balalayka ko‘rsatilgan.

Cholg‘u nomi	Tortilgan sim uzunligi	Sim soni	Sim sifati	Asbob shakli	Tovush qator	Matematik soz
O‘zbek milliy dutori (takomillashgan)	120-135	2	Ipak	Tuxumsimon,	Diatonik	temperatsiya siz
Rus balalaykasi (takomillashmagan)	120-135	2	Ipak	Tuxumsimon, uchburchak	Diatonik	temperatsiya siz
Rus balalaykasi (takomillashgan)	55-60	3	Metal	Uchburchak	Xromatik	12 bosqichli ravon sur’atlarga bo‘lingan tovushqator

Chizma yordamida rus balalaykasi, takomillashgan balalayka va milliy dutorimizni har tomonlama taqqoslab ko‘rish mumkin. Bunday solishtirish dutorni takomillashtirish maqsadidagi keyingi vazifalarga qanday o‘tish kerakligini ko‘rsatadi. Bunda asosiy e’tibor cholg‘uning o‘lchamiga qaratildi. O‘zbek xalq cholg‘u sozlarini takomillashtirish bo‘yicha tajriba ustaxonasida o‘z o‘lchami (menzurasi) bilan milliy dutorimizdan farqlanadigan cholg‘u yaratiladi. Bu cholg‘u esa alt dutor deb nom oldi.

Tovush chiqarish

Dutorda ovoz asosan o‘ng qo‘l panjasi bilan torlarni pastga va yuqoriga qarab urish bilan hosil qilinadi. Barmoqlar erkin va bir maromda harakatlanishi kerak. Pastga ko‘rsatkich barmoq bilan va yuqoriga bosh barmoq bilan zarb beriladi, bu ikki barmoq bir-biri bilan oz yopishgan bo‘lib, yuqoriga qarab urganda bosh barmoq ko‘rsatkich barmoqdan biroz chap tomonga qochadi. Bunday chalish usuli yakka zarb deb ataladi va quyidagi belgilar bilan ifodalanadi:

K – panja va o‘ng qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘i bilan pastga qarab chalish

B – panja va o‘ng qo‘lning bosh barmog‘i bilan yuqoriga qarab chalinadi.

Notalarning dutorda joylashuvini o‘rganib olib, turli cho‘zimga ega bo‘lgan notalar, takt o‘lchovlari va sanoq bilan tanishib chiqqach, birinchi mashq ikki notadan – yuqorigi LYa va pastki MIdan iboratdir. LYa notasi dutorda birinchi

ochiq torda, MI notasi ikkinchi ochiq torda olinadi. Notalarning bir-biri ustiga yozilganligi bu ikki notani bir vaqtda olish kerakligini ko‘rsatadi. Ularning cho‘zimi nimchorak bilan yozilganligi uchun quyidagicha sanash mumkin. “bir” deganda bir nimchorak K-zarbida pastga, “i” deganda ikkinchi nimchorak B-zarbida yuqoriga urish kerak.

Dutor zarblari va ularning yozilish belgilari

1. **Yakka zarb** – ko‘rsatkich barmoq bilan pastga urib chalinadi:

2. **Terma zarb** – bunda ko‘rsatkich va bosh barmoq pastga hamda bosh va ko‘rsatkich barmoqlar tekis yuqoriga harakatlanadi:

3. **Oddiy zarb** – panja 4, 3, 2, 1 – barmoqlar bilan pastga va bosh barmoq bilan yuqoriga chalinadi:

4. **Bilak zarb** – o‘n barmoq, bosh barmoq va jimjiloq bilan pastga urib chalinadi:

5. **Pitsikato** – chimdib chalish – dutor cholg‘usida bittalik va ikkitalik chimdib chalish ishlatiladi. Bittalik – bosh barmoq bilan pastga chimdib chalinadi. Ikkitalik – pastga va yuqoriga bosh va ko‘rsatkich barmoqlar bilan chimdib chalinadi.

6. **Teskari zarb** – bilak bilan pastga, bosh va ko‘rsatkich barmoqlar bilan yuqoriga, yana bilak pastga bosh va ko‘rsatkich barmoqlar bilan yuqoriga chalinadi:



Teskari zarblarni, terma zarb yoki pirranglar bilan boyitish mumkin:



va h.k.

7. **Rez** – Dutor ijrosida ikki xil rezdan foydalanish mumkin. Birinchisi, ko‘rsatkich barmoqning o‘zida pastga-yuqoriga bir tekisda chalish bilan hosil qilinadi. Ikkinchisi, terma zarbni tezlashtirib, rez chalish mumkin:

tremolo

8. **Qo‘sh zarb** – Bunda pastga zarb urish bosh barmoq bilan yuqoriga chalib o‘tiladi – sanog‘i o‘zidan avvalgi takt hisobiga bo‘ladi:

9. **Ufori zarb** – Bu zarblar guruhi o‘zbek musiqasida juda xilma-xil va keng qo‘llaniladi. Yozilishi quyidagicha bo‘lib, oddiy zarblar guruhi ufori zarb usulini beradi:



va hokazo.

Ko‘rib turganimizdek, bu zarblarni ham pirranglar bilan boyitish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Asilov M.A., Vasilev F.N.. Dutor darsligi. Toshkent: 1977.
2. Dutor taronalari. – Toshkent: 2010
3. Ziyaeva M. Dutor. – Toshkent: 2011.
4. Qodirov R. Ommabop musiqiy glossariy. – Toshkent: 2014.
5. Qo‘chqorov G‘., Umarov A. Ansambl cholg‘ulari. – Toshkent: 2003
6. Muzыkalnaya ensiklopediya. 3-tom.
7. Muxamedova G. Dutor darsligi. – Toshkent: 2005.
8. Muxamedova G. Dutor. – Toshkent: 2010.
9. Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. – Toshkent: 1995
10. Raximjonov B. Dutorchilar ansambli.
11. Toshmatova A. Milliy cholg‘u muzeyi katalogi. – Toshkent: 2012.
12. Turatov s. Significance of the student’s orchestra of uzbek national instruments in the educational process of state institute arts and culture of uzbekistan //Culture and Arts of Central Asia. – 2019. – T. 11. – №. 1. – C. 55-59.
13. Turatov J. et al. Musiqiy ta’lim jarayonlarida innavatsion va pedagogik texnologiyalaridan foydalanish //Oriental Art and Culture. – 2024. – T. 5. – №. 3. – C. 143-146

XORAZM MUSIQA IJROCHILIGIDA GARMON CHOLG‘USINI O‘RNI VA AHAMIYATI

(Xalfalar ijrochiligi misolida)

Umida Kurbanova Shakirovna

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Folklor va etnografiya” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm xalfachilik an’analari va ijro uslublarining o‘ziga xosligi, ijro maktabi va xalfalar ijodida tutgan o‘rni xususida atroflicha tahlillar berilgan.

Kalit so‘zlar: Xalfa, doston, ijod, ijrochilik, cholg‘u, qo‘shiq, an’ana.

Аннотация: В данной статье дан подробный анализ Хорезмийских традиций халфы, своеобразия стилей исполнения, исполнительской школы и ее роли в творчестве халфы.

Ключевые слова: Халфа, эпос, творчество, исполнения, инструмент, песня, традиция

Annotation: This article provides a detailed analysis of the peculiarities of the Khorezm khalfa crescent traditions and methods of performance, the school of performance and its role in the work of khalfas.

Key words: Khalfa, epic, creation, performance, instrument, song, tradition.

Millatimiz musiqa san’ati qadimiy bo‘lib uning boy o‘tmishi bor. Misiqiy sozlari ham juda rang-barang. Ibtidoiy davrlarda avvalo urma cholg‘ular paydo bo‘lgan bo‘lsa keyinchalik puflama cholg‘ular yaratilgan. Vaqt o‘tib bu cholg‘ular qatoriga torli va kamonli sozlar qo‘shilgan. Inson ovozi esa ilk musiqiy asbob bo‘lib, hozirgi barcha musiqiy cholg‘ular inson ovoziga taqlid etuvchi sun’iy ovozlar sanaladi.

Farobiyning ta’kidlashicha, musiqada ikki hil ovoz mavjud, tabiiy va sun’iy. Tabiiy ovoz inson xalqumidan taraladigan ovoz bo‘lib, u rivojlanish va so‘nish xususiyatiga ega. Dunyoda neshta odam bo‘lsa ularning ovozi bir-birinikiga

o‘xshamaydi. Sun’iy ovoz esa tabiiy ovozning taqlidchisi bo‘lib, tovush sifati o‘zgarmaydi. Cholg‘ulardan taraladigan bu ovoz esa bir-biriga o‘xshaydi.

Xalq ijodiyoti tubsiz bir ummondir. Uning bag‘rida behisob meros mavjudki, uning sarhadlari keng hamda xususiyatlarga va janrlarga boydir. Xalq qo‘shiqchiligida yalla, lapar, allalar, terma, qo‘shiq, dostonlar kabi hayot so‘qmoqlarida insoniyatning umrini mazmuniga aylangan musiqiy meros shakllangan.

O‘zbek xalqi boy musiqiy me’rosga ega. Millatimiz musiqa san’atida qadimiy bo‘lib, uning boy o‘tmishi bor. Musiqiy so‘zlari ham juda rang barang. Ibtidoiy davrlarda avvalo urma cholg‘ular paydo bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik puflama cholg‘ular yaratilgan. Vaqt o‘tib bu cholg‘ular qatoriga torli va kamonli sozlar qo‘shilgan. Inson ovozi esa ilk musiqiy asbob bo‘lib, xozirgi barcha musiqiy cholg‘ular inson ovoziga taqlid etuvchi sun’iy ovozlar sanaladi.

Ma’lumki, qadimda dostonlarni qiz baxshilar ham ijro etganligi to‘g‘risida ma’lumotlar bor. Masalan, “Ko‘r qiz”, “Hurilamon” va boshqalar. Islom dini madaniyati kirib kelishi bilan ichkari va tashqari ijrochilik madaniyati vujudga keldi. Oqibatda dostonchilik san’atiga ayro holda ayollarga xos xalfachilik san’ati vujudga kelgan. Xalfalar o‘z san’atini turli yo‘nalishlarda xalqqa taqdim eta olgan. Ba’zan dutor chalib kuylashgan bo‘lsa, ba’zan doira cholg‘usida, kichikroq davralarda esa qo‘l barmoqlarini shaqillatib, piyolalarni bir-biriga urishtirib, chanqovuz, qayroq chalib, barmoqlariga angishvonalar, likopchalarni chalib,, bilakka taqiladigan zahg ritmlaridan chiqqan ovozga jo‘r bo‘lib kuylaganlar va raqsga tushib qo‘shiqlar ijro etganlar. (1.45).

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Xorazmga garmon sozi kirib keldi va u san’at ahli uchun yangilik bo‘ldi. Uning ovozi kuchli va yoqimli bo‘lganligi uchin katta davralarda ishlatish juda ham qulay bo‘lgan. Shunga ko‘ra garmon cholg‘usi sozanda va xonandalar orasida keng tarqalib ketdi.

Garmonning o‘ynoqi ohangi, piyolaning mayin jarangi, angishvonalar, zanglarning ohangi, raqqosalarning nozik, sho‘x raqslari, qayroq usulining shiddati xalfa raqqosalarining ijodiga orginallik bag‘ishlagan. Xalfa qo‘shiqlar “garmon” sozida o‘zgacha musiqiylik kasb etgan. Xalfalarning ovoz chiqarish uslublari rang-barang bo‘lib, yorqin, jarangdor, lirik tusga ega. Ijro dasturlarida nisbatan keng ko‘lamli asarlari bo‘lmagani sabab asosan o‘rta registrlarda kuylashadi. Garmon sozi diatonik pardatuzikka ega bo‘lib, ayollarning o‘rta pardalarida kuylashi uchun moslangan. Xalfalar ijro vositalari ularning ijro etadigan asarlariga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Masalan, garmon sozi diatonik bo‘lgani uchun ba’zi pardalar garmon

sozi diatonikasiga moslashtirilgan va xonandalik ovozlarini ham garmon soziga hamohang holda namoyon qilishgan. Ayol xalfa hamda erkak sozchilarning o‘xshashligi nafaqat umumiy cholg‘u asbob sozda emas, ularning dasturlarida, ijro uslubida ham bir – biriga tutashgan. Ularning ijodida mushtarak jihatlarni kuzatish mumkin.

Xotin-qizlar uchun bazmlar ichkarida o‘kazilgan. Ana shu ichkaridagi bazmlarda xizmat qilgan ayol san’atkorlar, ya’ni xalfalarning ham diqqatini yangi musiqiy soz, garmon sozi o‘ziga jalb eta boshladi. Barcha musiqiy sanatda ijro vositalari o‘sha san’atning yo‘nalishini o‘zgartir-gan va o‘ziga moslashtirgan. Misol uch voha maqom san’atida tanbur sozi yetakchi hisoblanib, undagi parda tuzilishlari tanburning parda tuzilishlariga asoslangan.

Zumrad xalfa va Dilorom xalfa Madrahimovalar

I.Yuldashevning ta’kidlashicha, baxshichilik san’atida ijro pardalari dutor soziga moslashtirilgan. Baxshilar dastlab o‘z dostonlarini dutor cholg‘usida ijro etishgan. Xalfachilik san’atida esa dastlab dutor sozi, keyinchalik garmon soziga moslashtirilgan. (7. 26).

Xozirgi kunda Estrada xonandalari xalfalar musiqalarini zamon talabiga moslab yangi oranjirovkalar bilan kuylashmoqda. Bunda ham ko‘rinib turibdiki, parda asoslari garmon diatonikasi bilan bir xildir.

Garmon cholg‘u asbobining birinchi ixtirochisi germaniyalik Fridrix Bushman hisoblanadi. 1828 yilda u garmon asbobini ixtiro qiladi, lekin unga cholg‘u asbob sifatida qaramaydi Bushman yasagan bu o‘yinchoq musiqa asbobi 1929 yilda Kirill Demian qo‘liga tushadi va u garmonni takomillashtiradi. 1830 yilda Ivan Sizov tomonidan qayta takomillashtirilib Tula garmoni nomi bilan keng

tarqaladi. Natijada Rossiyaning barcha shaharlari shuningdek Qozon, Ozarbayjon va boshqa joylarga tarqalib ketadi Xorazmga garmon cholg‘u asbobi rus savdogarlari orqali kirib kelgan. Xorazmga garmon cholg’u sozini XIX asr oxirida kirib kelishi san’at ahli uchun yangilik kashf etadi. Uning ovozi kuchli bo‘lgani tufayli katta davralarda sozanda xonandalar orasida keng tarqab ketdi. Garmon chalib qo‘shiq, doston, ashula aytuvchilar asosan erkak san’atkorlar bo‘lgan. Ularni sozchi, talqinchi deb ataganlar. Xorazmda birinchi bo‘lib garmon jo‘rligida ashula aytgan sozchilar Qurbon sozchi (shoir Qurbon ota Ismailov) Safo sozchi (Safo Mug‘anniy) Madrahim Yokubov Sheroziy, Jummi Shix, Kuryozov Abdusharif va boshqalar. (5. 32).

“Garmon” cholg‘usi Xorazm musiqa san’atiga kirib kelgandan so‘ng, xal-falar “garmon” cholg‘usini yaxshi o‘zlashtirib, o‘z faoliyatlarida ishlata boshlaganlar. Jumladan, Xonimjon xalfa, Bibijon Qosim Devon qizi Shoira, Onajon Sobirova, Onabibi Otajonova (Ojiza), Yoqut xalfa, Nazira xalfa Sobirova, O‘g‘iljon xalfa, Anabibi xalfa, Ro‘zibika xalfa, Sora xalfa va boshqa xalfalar garmonni chalib, o‘z

yalla, lapar, xalq termalarini, dostonlarini kuylashgan. (3.12).

Natijada, Xorazmda deyarli yarim oktavaga diatonik tovush qatorli “garmon” cholg‘usi “soz” deb nom oldi.

1936 yilda Xivada garmonchi qizlar ansambli tuzildi uni tuzishda O‘zbekiston xalq artisti Gavharxonim Rahimova Toshkentdan kelib tashabbus ko‘rsatdi. Unda Onajon Sabirova (Anash xalfa) va Madraxim Sheroziylar hamkorlik qiladilar. Xalfachi qizlar ansambli 1939 yilda Toshkent va respublikamiz bo‘ylab gastrol safarda bo‘ladi Bu ansamblda Onajon Sabirova (Anash xalfa) Saraxon Ollaberganova, Roviya Otajanova, Reyma Xakimova, O‘g‘iljon Masharipova, Poshshaxon Matchanova kabi iste’dodli xalfalar xizmati katta. Bundan 50 yil keyin Gavharxonim Rahimova tashabbusi bilan Xivaga kelib Ozod Zaripov rahbarligidagi Xiva shahar musiqa maktabida garmonchi qizlar ansambli tashkil qilindi. (2.15).

Xorazm vohasining bulbuligo‘yo xalfalarining bugungi kunda davomchilari ko‘p. San’at maktablarida maxsus xalfachilik sinfi tashkil qilingan.

Garmon va doira jo‘rligida ijro qilinayotgan xalfa qo‘shiqlari qadim Xivaga tashrif buyurayotgan sayyohlar ko‘nglini rom etayotir. Istiqlol va istiqbolni, qadim qadriyatlarimizni, insoniy fazilarlarni jo‘shib-jo‘shib kuylayotgan xalfa xonishlari ezgulikka, yaxshilikka, go‘zallikka chorlayveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ravshan Yunusov - “Olti xalfa”. Urganch. - 1994.

2. Internet saytlar: www.lex.uz, vikipediya.uz.

3. Umida Kurbanova – Folklor qo‘shiq ijrochiligi. Toshkent. “Turon iqbol”, 2018.

4. Saparvoy Ro‘zimboyev S -“Ojiza”. – Toshkent. - 2003.

5. Umida Kurbanova –Yakkaxon qo‘shiqchilik.Toshkent. “Donishmand ziyosi, 2023.

6. https// inlibrary. uz/ index. php/ dllseteg…

7. Izzat Yuldashev Ikramovich. “Antik davr olimlarining sinkretik qarashlari.” Oriental art and Cuiture 3.2 (2022): 26-31.

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA BOLALAR FOLKLOR IJODINI SHAKLLANTIRISHNING PEDADOGIK YONALISHLARI

Xatamova Irodaxon

Sirdaryo viloyati Guliston tumani

15-maktabning musiqa madaniyati

fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada musiqa madaniyati darslari orqali ma’naviyatimizni, madaniyatimizni yanada boyitish, bolalar folklor ijodini rivojlantirish yo’llari bayon etilgan.

Аннотация: В статье описаны пути дальнейшего обогащения нашей духовности и культуры через уроки музыкальной культуры, развитие детского фольклора.

Annotation: The article describes the ways of further enrichment of our spirituality and culture through the lessons of musical culture, the development of children's folklore.

Kalit so‘zlar: folklor, musiqa madaniyati, alla, maktab, o’quvchi

Ключевые слова: фольклор, музыкальная культура, алла, школа, ученик

Key words: folklore, musical culture, alla, school, ученик.

Folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib keladi. Shuning uchun ham, insoniyat alla, qo’shiqlar, afsonalar, ertaklar va dostonlarda o’zining yuksak orzu-umidlari, zavq-shavqi-yu kurashlarini ifodalagan. Xalq og’zaki ijodi o’zining mazmunan rang-barangligi, yuksak g’oyalar bilan yo’g’rilganligi, halqturmushi, mehnati, xullas xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog’liqligi bilan ham g’oyatda e’tiborlidir.Bolalar folklori ko’pincha kattalar tomonidan ijod qilinadi (alla), ba’zi hollarda bolalar o’z o’yinchoqlari asosida o’zlari ham alla, qo’shiq va ovutmachoqlar to’qiydilar. Bularning hammasi bir bo’lib faqat yaxshi tarbiyani targ’ib qiladi. Bolalar xalq og’zaki ijodining pedagogika bilan bog’lanishi alladan boshlanadi.

Alla - onajonlarimizning jajji farzandlariga, xotin-qizlarning o’z bolalari, singil yoki ukalarini uxlatish uchun beshik yoki belanchakni tebratib aytadigan qo’shig’i. Alla aytish odatda xotin-qizlarga xos, o’zbek bastakorlari va kompozitorlari bir talay yangi allalar yaratdilar. Ba’zan cholg’u allalar ham uchraydi.

Taniqli o’zbek musiqashunosi Ilyos Akbarovning “Musiqa lug’ati” (1987) kitobidan bejizga misol keltirmadik. Alla haqida so’ yuritar ekanmiz, eng avvalo ko’z o’ngimizda mo’’tabar, munis, mehribon onalarimiz siymosi gavdalanadi.

Farzandlarni tarbiyalashda, ona allani faqat chaqaloqning orom olishi uchun aytmaydi, balki uning ta’sirida bolaning ichki dunyosiga milliy ruh kiradi. Urf-odatlarimizga nazar tashlaydigan bo’lsak, chaqaloq tug’ilganda qulog’iga azon aytiladi keyin esa har bir ona o’zi bilgancha alla aytadi.

Ona allasi zamirida milliy madaniyat, milliy mafkura, milliy ma’naviyat yotadi, chaqaloq ruhiga u asta-sekin singdirib boriladi.

Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug’bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Al-Farobiy, Ibn-Sino, Al-Beruniy singari buyuk allomalar ham onajonlarimizning allalaridan bahramand bo’lganlar. Tarixchilarning yozib qoldirishlaricha o’sha davrda onalar allalari quyidagicha aytilgan:

Jonimga darmon bolam,

Alla qilgin jonim bolam,

Allayo alla.

Farzand onaning dilbandi, jigarbandidur. Dunyoga kelgan birinchi kundan boshlab ota-ona uning odobli, ahloqli va mehnatsevar bo'lishini istaydi.

Donishmandlar ta'biri bilan aytganda: Ota-onaning muqaddas byrchi farzandlarining dunyoga keltirganligi emas, balki yaxshi fazilatlarni singdirib, yahshi farzand tarbiyalay olganligidadir. Xalq pedagogikasida onalik eng yuksak ijtimoiy qadtiyat, inson zotining voyaga etishishida bo'lgan tabiiy ehtiyoj sifatida ulug'langan.

Onalar insoniyatning bosh me'moridir. Bolalar bog'chalariga borsangiz, jajji qizaloqlarning qo'g'irchoqlariga alla aytayotganini ko'rasiz.

Katta yoshdagi, ya'ni erta-indin turmushga chiqadigan qizlarimizning ko'pchiligi esa hali alla aytolmaydilar. Shuni onajonlarimiz e'tiborga olib qo'yishsa yomon bo'lmaydi.

Umumta'lim maktablari musiqa darslarida olib borilgan tajriba-sinovlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar orasida alla aytishni biladiganlari ozchilikni tashkil etar ekan. Dars jarayonida o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojat qildik:

1.Onangizning uka-singillaringizga aytga allasini tinglaganmisiz?

2.O'zingiz alla aytishni bilasizmi?

Ushbu savollarga o'quvchilardan to'liq javob olmadik. So'ngra o'quvchilarga uyga vazifa sifatida onalaridan alla o'rganib kelishini topshirdik. Onalari alla o'rgata olmaga ba'zi o'quvchilarimiz o'zlari quyidagi allalarni yozib kelishdi.

Alla aytadi oyim

Qo'shiqlari muloyim

Alla bolam deydilar

Guli lolam deydilar.

Alla jonim singlim-a

Orom olgin alla.

Kipriklaring namlig-a

Uxlay qolgin alla

Oyim kelar uxlab tursang

Jonim singlim-a alla

Shrinliklar olib kelar

Uxlab tursang alla

Allayo alla, allayo alla.

Yoki:

Alla bolam, alla

Jonim bolam alla

Ikki ko’zim alla

Shirin so’zim alla

Alla bolam bazti bor

Har narsaning, vaqti bor

Jonim bolam alla

Shirin bolam alla

Ikki ko’zim alla

Uxlay qolgin alla

Yoki:

Yot bolam, uxla qo’zim

Uylarda o’chdi chiroq

Uxlar asalarilar

Uxlar baliqlar tinchroq

Ko’kda oy yarqiraydi

Derazadan qaraydi

Ko’zlaring yumgin qo’zim

Yot quvonchim qunduzim

Alla, alla, alla-yo

Uxlab qolgin bola-yo

Xulosa qilib aytganda, yetuklik balog’at arafasida turgan qizlarimizni, bo’lg’usi onalarni alla aytishga undash foydadan holi emas. Oliy va o’rta ta’lim muassasalari o’quvchi qizlari orasida “Alla” ko’rik tanlovlari o’tkazilib borlishi maqsadga mufofiq. Ma’naviyatimiz, madaniyatimizni yanada boyitishda, yosh qizlar tarbiyasida alla qo’shiqlarining o’z o’rni bor, bu bilan kichkintoylarni ham odobli, ahloqli, el-yurtiga sadoqatli qilib voyaga etkazish, oldimizga qo’yilga maqsadlarni amalga oshirishda muhim deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O. Ibrohimov 4-sinf musiqa darsligi 2015-yil

2. A.Mansurov. D.Karimova. 5-sinf darsligi 2015-yil

6. M.Jumaboyev.”Bolalar adabiyoti” Toshkent.”O’qituvchi”.1994-yil 7-9 betlar.

7. R. Qodirov «Musiqa pedagogikasi»-T.»Musiqa» 2009 y.

8. Tolipov U.K., Usmonboeva M., Pedagogik texnologiyalarning tarkibiy asoslari. T., «Fan» 2006

AFG‘ON RUBOBI CHOLG‘USINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ZAMONAVIY SAN’ATGA INTEGRATSIYASI

Ozodbek Berdiyev Xudoyshukur o‘g‘li
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat

instituti talabasi
ozodiyberdiyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada afg‘on rubobi cholg‘usining O‘zbekiston milliy musiqa san’atidagi o‘rni va uning rivojlanish tarixi keng yoritilgan. Cholg‘uning texnik tuzilishi, ijrochilik imkoniyatlari va uning boshqa milliy cholg‘ular bilan uyg‘unlashuvi tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu cholg‘uning zamonaviy san’at janrlarida qo‘llanilishi, yangicha ijrochilik usullari hamda innovatsion imkoniyatlari ochib berilgan. Afg‘on rubobining turli ijrochilik

maktablari va musiqiy an’analardagi o‘rni tahlil qilinib, uning bugungi kundagi ahamiyati va xalqaro miqyosdagi nufuzi yoritilgan. Mazkur maqola milliy cholg‘u ijrochiligining rivojlanish istiqbollari hamda uning zamonaviy madaniyatga moslashuvi bo‘yicha ilmiy xulosalar beradi.

Kalit so‘zlar: afg‘on rubobi, milliy cholg‘ular, an’anaviy va zamonaviy ijrochilik, innovatsion texnologiyalar, milliy musiqa merosi, musiqiy integratsiya.

Аннотация: В данной статье широко освещено место афганского инструмента рубоби в национальном музыкальном искусстве Узбекистана и история его развития. Анализируется техническая структура инструмента, возможности его работы и его совместимость с другими национальными инструментами. Также раскрывается использование этого инструмента в жанрах современного искусства, новые методы исполнения и инновационные возможности. Проанализирована роль афганского рубоби в различных школах исполнительства и музыкальных традициях, выделены его значение и международное влияние. В данной статье приводятся научные выводы о перспективах развития национального музыкального исполнительства и его адаптации к современной культуре.

Ключевые слова: афганский рубоби, национальные инструменты, традиционное и современное исполнение, инновационные технологии, национальное музыкальное наследие, музыкальная интеграция.

Abstract: In this article, the place of the Afghan rubobi instrument in the national music art of Uzbekistan and its history of development are widely covered. The technical structure of the instrument, performance possibilities and its compatibility with other national instruments are analyzed. Also, the use of this instrument in modern art genres, new performance methods and innovative possibilities are revealed. The role of the Afghan rubobi in various schools of performance and musical traditions is analyzed, and its significance and international influence are highlighted. This article provides scientific conclusions on the development prospects of the national musical performance and its adaptation to modern culture.

Key words: Afghan rubobi, national instruments, traditional and modern performance, innovative technologies, national musical heritage, musical integration.

O‘zbek milliy cholg‘ulari asrlar davomida shakllanib, milliy musiqiy madaniyatimizning ajralmas qismi sifatida rivojlanib kelmoqda. O‘zbekiston

Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “San’at va madaniyat millatning ruhiy boyligi, uning ma’naviyatini yuksaltiruvchi eng muhim omillardan biridir”. Shu boisdan milliy cholg‘ularimizni asrab-avaylash, rivojlantirish va ularni zamonaviy san’at bilan uyg‘unlashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Milliy musiqa madaniyatimizda alohida o‘rin tutgan cholg‘ular qatorida afg‘on rubobi o‘ziga xos ovoz va tuzilishga ega bo‘lib, hozirgi kunda ham ko‘plab sozanda va ijrochilar tomonidan keng foydalanilmoqda. Uning ohanglari milliy kuy-qo‘shiqlarimiz bilan uyg‘unlashib, san’atimizni yanada boyitib kelmoqda. Shu bilan birga, afg‘on rubobi ijrochilik san’atining texnik va estetik jihatlari, uning zamonaviy musiqiy oqimlarga integratsiyasi ilmiy nuqtayi nazardan ham chuqur o‘rganilishi zarur.

Ushbu maqolamizda afg‘on rubobi cholg‘usining o‘zbek musiqa san’atidagi o‘rni, uning tarixi va hozirgi kundagi ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, cholg‘u ijrochiligining rivojlanish yo‘nalishlari, milliy va zamonaviy ijrochilik an’analari bilan uyg‘unligi yoritilib, innovatsion yondashuvlar orqali uning kelajakdagi istiqbollari haqida so‘z yuritilgan.

Afg‘on rubobining texnik imkoniyatlari va ijrochilik an’analari. Afg‘on rubobi – Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mintaqalarida keng tarqalgan torli cholg‘u bo‘lib, uning nomi forscha روبا (“rubob”) so‘zidan kelib chiqqan. Lug‘aviy jihatdan u “ovoz chiqaruvchi” yoki “cholg‘u asbobi” ma’nolarini anglatadi (manba: Dehxo‘do lug‘ati, Eron akademik lug‘ati). Afg‘on rubobining 2 ta nomi bor: tojik rubobi va buxoro rubobi. Ushbu cholg‘u yog‘ochdan tayyorlanib, o‘ziga xos shaklga ega, metall va tabiiy ichak torlari bilan jihozlanadi. Afg‘on rubobi asosan plektrum (mediator) yoki barmoqlar yordamida chalinadi. Uning tuzilishi tufayli u bir vaqtning o‘zida ham melodik, ham ritmik funksiyalarni bajarishi mumkin.

Tarixiy jihatdan afg‘on rubobi Hindiston, Eron va O‘rta Osiyo musiqa madaniyatlari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlovchi cholg‘u sifatida rivojlangan. U ko‘pincha klassik musiqa hamda xalq kuylarini ijro etishda asosiy cholg‘u sifatida qo‘llanilgan. Mazkur cholg‘u asosan, maqom san’ati hamda folklor ansambllarida keng foydalanilib kelgan.

O‘zbekiston hududida esa rubobning turli variantlari, jumladan, temir torli va ichak torli turlari uchraydi. O‘zbek maqom ijrochiligida afg‘on rubobining o‘rnini temir torli rubob egallagan bo‘lsa-da, ichak torli versiyasi asosan an’anaviy ijrochilikda ishlatilgan.

Ijrochilik an’analari. Afg‘on rubobi qadimdan ustoz-shogird an’anasi asosida o‘rgatilgan bo‘lib, ijrochilik mahorati avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Ushbu cholg‘u ijrochiligida bir nechta muhim an’analar shakllangan:

Improvizatsiya san’ati – Rubob ijrochilari kuy ijro etish jarayonida erkin improvizatsiya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishlari lozim.

Murakkab tor texnikasi – Rubobda ijro etiladigan kuylar bir vaqtning o‘zida bir necha torlarda parallel ravishda chalib, boy tembr hosil qilishni talab qiladi.

Dinamik ijro usullari – Rubob ijrochiligida yumshoq, lirik ohanglardan keskin va kuchli zarbalargacha bo‘lgan dinamik diapazon qo‘llaniladi.

Zamonaviy rubob ijrochiligi. Bugungi kunda afg‘on rubobi an’anaviy ijrochilik doirasidan chiqib, turli zamonaviy janrlarga uyg‘unlashtirilmoqda. Xususan, jazz, fusion va eksperimental musiqalarda rubob yangi ovoz effektlari bilan boyitilib, innovatsion usullarda ishlatilmoqda. O‘zbekiston, Afg‘oniston va Hindistonda taniqli rubobchilar ushbu cholg‘uni elektron musiqa bilan uyg‘unlashtirib, multijangrov kompozitsiyalar yaratmoqda. Bu esa rubobning imkoniyatlarini yanada kengaytirib, uning xalqaro miqyosdagi mavqeini oshirmoqda.

Quyida sizlarga foydali bo‘lishi uchun bir qator aniq saytlar va manbalar tavsiya etaman, o‘ylaymanki ushbu manabalar orqali afg‘on rubobi, musiqa ijrochiligi haqida yanada keng, batafsil ma’lumotlar olasiz:

Dehxo‘do lug‘ati (Eron akademik lug‘ati) – Rubobning lug‘aviy ma’nosi va kelib chiqishi bo‘yicha.

Harvard University Music Department – Afg‘on rubobining tarixi va texnik imkoniyatlari haqida ilmiy maqolalar mavjud.

Smithsonian Folkways Recordings – Rubobning maqom va xalq ijrochiligidagi o‘rni haqida.

British Library Sound Archive – Afg‘on rubobi bilan bog‘liq qadimiy yozuvlar va tasniflar.

O‘zbekiston maqom markazi – Rubobning o‘zbek maqom san’atidagi o‘rni va turlari haqida.

Afg‘on rubobi va zamonaviy san’at. Bugungi kunda afg‘on rubobi nafaqat an’anaviy musiqa doirasida, balki zamonaviy ijrochilik va kompozitorlik

amaliyotida ham keng qo‘llanilmoqda. Uning keng diapazoni va texnik imkoniyatlari turli janrlarda, jumladan, jazz, fusion, eksperimental va elektron musiqalarda qo‘llanilishiga imkon yaratadi. Rubobning chuqur va jarangdor ovozi, o‘ziga xos barxanli tembri unga zamonaviy san’atda yangi yo‘nalishlarda o‘z o‘rnini topish imkonini bermoqda.

Zamonaviy kompozitor va ijrochilar afg‘on rubobini yangi ovoz effektlari bilan boyitib, uni innovatsion usullarda ishlatmoqdalar. Masalan, rubob ovozini elektron ishlov berish, reverberatsiya va delay kabi tovush effektlari bilan boyitish orqali yanada jozibador ijro uslublari shakllanmoqda. Xususan, Yevropa va Osiyo mamlakatlarida rubobning elektron versiyalari ishlab chiqilib, yangi musiqa asboblari bilan uyg‘unlashgan holda ijro etilmoqda.

Shuningdek, rubobning turli orkestr va ansambllardagi roli ham o‘zgarib bormoqda. An’anaviy yakkanavoz ijrochilik bilan cheklanmay, u ko‘p ovozli cholg‘ular jamoalarida, simfonik orkestr va zamonaviy guruhlarda ham faol qo‘llanilmoqda. Ayrim ijrochilar rubobni bass gitara va elektro-gitaraga moslashtirib, yangi uslubda taqdim etmoqdalar. Bu esa, o‘z navbatida, rubobning imkoniyatlarini yanada kengaytirib, uni xalqaro miqyosdagi san’at maydonlariga olib chiqmoqda.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ham afg‘on rubobini zamonaviy san’atga integratsiya qilish bo‘yicha qator tashabbuslar ilgari surilmoqda. Yosh bastakorlar rubob uchun yangi asarlar yaratib, uni estrada, kinomusiqa va teatr sahnalari uchun ham moslashtirmoqdalar. Shu bilan birga, rubobning raqamli shakllari ishlab chiqilib, virtual cholg‘u sifatida turli ovozli dasturlarda ham foydalanish imkoniyati paydo bo‘lmoqda.

Xulosa va takliflar. Afg‘on rubobi o‘zbek milliy cholg‘ulari orasida alohida o‘ringa ega bo‘lib, uning tarixi, texnik imkoniyatlari va ijrochilik an’analari milliy va jahon musiqasiga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Ushbu maqolada rubobning nafaqat an’anaviy musiqa doirasidagi roli, balki zamonaviy san’at bilan uyg‘unlashuvi ham tahlil qilindi. Bugungi kunda rubob ijrochiligi klassik va xalq musiqasi bilan cheklanib qolmay, zamonaviy janrlarga integratsiyalashib, innovatsion yondashuvlar orqali rivojlanmoqda.

Shaxsan men san’at va madaniyat sohasiga bo‘lgan chuqur qiziqishim tufayli Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyida aynan afg‘on rubobi yo‘nalishida tahsil olganman. Bu jarayon davomida milliy cholg‘ular, xususan, rubobning texnik imkoniyatlari, ijrochilik an’analari va zamonaviy musiqada tutgan o‘rni bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘ldim. Hozirgi kunda

O‘zbekiston san’atkorlari bilan hamkorlikda qo‘shiqlarga kuy bastalash, ijodiy eksperimentlar o‘tkazish va rubobning imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha faoliyat olib bormoqdaman. Bu esa milliy cholg‘ularimizni zamonaviy musiqiy yo‘nalishlarga muvaffaqiyatli integratsiya qilishga xizmat qiladi.

Kelgusida afg‘on rubobi ijrochiligini yanada rivojlantirish va yosh avlodga o‘rgatish bo‘yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Metodik qo‘llanmalar yaratish – Afg‘on rubobi ijrochiligi bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari, darsliklar va interaktiv qo‘llanmalar ishlab chiqish lozim. Bu yosh musiqachilar uchun ilmiy va amaliy asos yaratadi.

Ijrochilik an’analarini chuqur o‘rganish – Rubobning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, u bilan bog‘liq musiqiy asarlar va uslublarni chuqur o‘rganish orqali milliy musiqiy merosni saqlab qolish va targ‘ib qilish muhimdir.

Zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish – Rubob ijrochiligida elektron effektlar, ovoz yozish texnologiyalari va musiqa dasturlaridan foydalanish orqali uning imkoniyatlarini kengaytirish. Ayniqsa, raqamli rubob yaratish va uning virtual versiyalarini ishlab chiqish sohada yangi qadam bo‘lishi mumkin.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish – Afg‘on rubobi ijrochiligini jahon miqyosida targ‘ib qilish, xalqaro festivallar va anjumanlarda qatnashish, xorijiy musiqachilar bilan hamkorlikda yangi ijodiy loyihalarni amalga oshirish.

Rubob ansambllarini tashkil etish – O‘zbekistonda maxsus rubob ansambllarini shakllantirish, bu orqali cholg‘uning turli imkoniyatlarini yoritish va yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash.

Afg‘on rubobining zamonaviy san’at bilan uyg‘unlashuvi milliy musiqa rivojida yangi bosqichni boshlab beradi. Ushbu jarayonda ijodiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlikda ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, kelgusida afg‘on rubobi ijrochiligini yangi bosqichga olib chiqish, uni turli janrlarga moslashtirish va xalqaro maydonda targ‘ib qilish soha vakillari oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, afg‘on rubobi zamonaviy san’at olamida tobora keng o‘rin egallab, milliy musiqiy meros va innovatsion texnologiyalar sintezining yorqin namunalaridan biriga aylanmoqda. Bu esa rubobning kelajakda yanada ko‘p qirrali ijrochilik imkoniyatlarini ochib berishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Mirziyoyev Sh. M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Musiqashunoslik asoslari. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, 2020.
4. Rashidova N. O‘zbek xalq cholg‘ulari va ularning ijrochilik an’analari. Toshkent, 2019.
5. Aliyev B. Markaziy Osiyo musiqa san’ati tarixi. Toshkent, 2018.
6. Karimov T. O‘zbek milliy cholg‘ularining tarixi va rivojlanishi. Toshkent, 2022.
7. www.culture.uz – O‘zbekiston madaniyat vazirligi rasmiy sayti.
8. www.musicology.uz – Musiqashunoslik va ijrochilik san’ati bo‘yicha ilmiy maqolalar.
9. Izoh.uz sayti
10. Vikilug‘at
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati
12. Qomus.info ensiklopediyasi

O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI IJROCHILIGI VA MADANIY HAYOTIMIZDA QAROR TOPA BOSHLAGAN YANGI IJROCHILIK SHAKLLARI

Shakarov Sardor Abdimannonovich

O‘zDSMI “Registrator ofisi”

xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: O‘zbek xalq cholg‘ularining va madaniy hayotimizda qaror topa boshlagan yangi ijrochilik shakllari – ansambl, orkestr guruhlari o‘rganiladi. An’anaviy ijrochilik bilan bir qatorda so‘nggi yuz yil davomida madaniy hayotimizda qaror topa boshlagan yangi ijrochilik shakllari – ansambl, orkestr, estrada guruhlari va h.k. mubohasa qilinadi.

Kalit so‘zlar: xalq cholg‘ulari, ansambl, orkestr, qonun, nay, tanbur, dutor, tembr, “So‘g‘diyona” xalq cholg‘ulari kamer orkestri, arfa.

Аннотация: В исследовании будут рассмотрены узбекские народные инструменты и новые формы исполнительства, которые начали укореняться в нашей культурной жизни, — ансамбли и оркестровые коллективы. Наряду с традиционным исполнительством в нашей культурной жизни за последние сто лет начали укореняться новые формы исполнительства — ансамбли, оркестры, эстрадные коллективы и т. д.

Ключевые слова: народные инструменты, ансамбль, оркестр, қонун, флейта, танбур, дутар, тембр, камерный оркестр народных инструментов «Согдиана», арфа.

Annotation: The Uzbek folk instruments and new forms of performance that have begun to take root in our cultural life - ensembles, orchestral groups - are studied. Along with traditional performance, new forms of performance that have begun to take root in our cultural life over the past hundred years - ensembles, orchestras, pop groups, etc. are discussed.

Keywords: folk instruments, ensemble, orchestra, qonun, flute, tanbur, dutar, timbre, "Sogdiana" folk instrument chamber orchestra, harp.

Bugungi kunda tanbur, dutor, sato, doyra, qonun, nay kabi yana ko‘plab milliy cholg‘ularimizni turli ansambl va ijodiy jamoalar (orkestrlar) tarkibida, hatto estrada guruhlari tomonidan yangicha talqinlarda qo‘llanilishini ko‘rishimiz mumkin. Bularning barchasi milliy cholg‘ularimizning boy tembr-tarovati va texnik imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi.

Ajdodlarimizning musiqa madaniyatiga oid eng qadimiy ma’lumotlar qoyatoshlardagi tasvirlarda, arxeologik qazilmalar paytida topilgan ashyolardir. Qolaversa, turli bosma nashrlarga ishlangan rasm va miniatyuralarda o‘z aksini topgan. Bizning nazarimizda musiqa cholg‘ularining tavsifini so‘zlar vositasida uzatilishi bir tomonlama tasavvurni hosil qilsa, ularning surat yoki haykalcha shaklidagi tasviri uni to‘ldirishi mumkin. Chunki, qadimiy manbalar birinchidan, arab yoki fors tilida yozilganligi, ikkinchidan, ushbu tillarning rivojlanishi natijasida ayrim eski so‘z va iboralarni zamonaviy tilga o‘girishda uchraydigan muammolar ma’lumotlarning to‘la yetkazilishiga o‘z ta’sir kuchini o‘tkazadi. Tasvir esa tegishli obyektning o‘z davrida musavvir tomonidan qanday tasavvur etilganligini to‘liq uzatish imkoniga ega. Shuning uchun ham keyingi yillarda arxeologik ekspedisiyalar natijasida topilgan va topilayotgan turli ashyolar va tasvirlar ajdodlarimizning musiqa madaniyati, xususan, musiqa cholg‘ulari to‘g‘risidagi tasavvurimizni yanada boyitmoqda.

O‘rta Osiyo hududida juda qadimgi zamonlardan boshlangan tarixiy jarayon eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning yarmidan boshlab o‘z o‘rnini boshqa turmush tarziga, ya’ni davlatchilikning shakllanishiga bo‘shatib berdi. Buning natijasida ushbu hudud va Eron zaminida eramizdan avvalgi IV-III asrlardayoq bir nechta davlat paydo bo‘ldi. Ushbu davlatlardagi shahar madaniyati asosan o‘troq dehqonchilik va hunarmandchilikka asoslangan bo‘lib, aholining boshqa bir qismi ko‘chmanchilik turmush tarzini saqlab qoldi hamda ularning asosiy faoliyati chorvachilik bilan bog‘liq bo‘lganligini tarixdan bilamiz. Bu yerda yashagan aholining musiqa madaniyati, cholg‘ular va cholg‘uchilik bilan bog‘liq tomonlari turmush tarzi bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligini isbotlab o‘tirishning hojati yo‘q. Chunki Afrosiyob (Samarqand) xarobalaridan topilgan jang qurollari, maishiy va badiiy sopol buyumlar, tangalar va boshqa ashyolar qatorida topilgan sopol terrakotalarda (loydan yasalgan, keyin olovda qizdirib pishirilgan, orqa tomoni yassi, yuza qismi esa bo‘rttirilgan ko‘rinishdagi, bo‘yi va eni taxminan 9-10 sm bo‘lgan sopol) aks ettirilgan musiqachi erkak va ayollarning tasvirlari o‘sha davr musiqa cholg‘ulari haqida judda qimmatli ma’lumotlarni beradi. Ularning taxminiy yoshi eramizdan avvalgi III-I asrlarga oidligi aniqlangan.

Afrosiyob terrakotalarida eng ko‘p tasvirlangan musiqiy cholg‘u – “Ud” hisoblanadi. Bu esa ushbu cholg‘uning o‘sha davrda juda keng tarqalgan sevimli cholg‘u ekanligidan dalolat beradi. Tasvirlarda udning uch yoki to‘rt torli ko‘rinishda ifodalanganligi kuzatiladi. Terrakotalar yaratilgan keyingi o‘tgan VII-VIII asrlar davomida ham bu cholg‘uning ko‘rinishi va torlarining sonida deyarli o‘zgarish bo‘lmagan. Abu Nasr Farobiy tomonidan yaratilgan “Musiqa haqida katta kitob”da ham ud cholg‘usi xuddi shunga yaqin tarzda tasvirlangan. Farobiydan keyin yaratilgan musiqiy risolalarda esa udning toriga qo‘shimcha ravishda, Farobiy tomonidan 5-tor kiritilganligi va uning sozi kvarta intervali oralig‘ida sozlana boshlaganligi bayon etilgan.

Afrosiyob xarobalaridan topilgan cholg‘ular (terrakota shaklida) orasida “Arfa” cholg‘usi ham o‘z aksini topgan bo‘lib, uning vatani Misr hisoblanib kelgan. Biroq O‘rta Osiyoda olib borilgan qazilmalar natijasida Urdinasiyasining (hukumronlik davri) birinchi bo‘g‘ini bo‘lgan Shumer malikasi xilxonasidan (eramizdan oldingi 3-ming yil) 11 torli nafis bezakli arfaning topilishi, bu cholg‘uning tarqalish hududining (geografiyasining) kengligini, u nafaqat Misrga, balki O‘rta Osiyoga ham tegishli ekanligini anglatadi. Manbalarda qayd etilishicha, burchakli arfa yoysimon arfadan keyin paydo bo‘lgan va u Misrga Osiyodan keltirilgan. Shuning uchun ham uni “Misr arfasi” deb atashgan [1, 10].

Musiqiy cholg‘ular o‘zbek xalqi ma’naviyatining muhim qismidir. Bugungi kunda ushbu san’at turi qadimiy ijrochilik an’analarini o‘zida saqlab va rivojlantirib, ular andozasida yangishakillar yarataib zamonaviy ma’rifatning ajralmas bo‘lagiga aylangan.

«Ansambl» iborasi hayotda barcha ijodiyot sohasiga, ayniqsa san’at yo‘nalishiga xosdir. Musiqada «ansambl» iborasini qo‘llash azaldan keng ommalashgan.

Aslida, «ansambl» fransuzcha «ensemble» so‘zidan olingan bo‘lib, birlik, uyg‘unlik, ohangdoshlik ma’nolarini bildiradi. Musiqa san’atida ansambl ko‘p ma’noga va turlarga egadir. Jumladan: a) muayyan musiqa asarlarini bir nechta ijrochilar tomonidan birgalikda ijro etish; b) sozanda va xonandalarning kichikroq to‘dasi va ularga mo‘ljallangan asari, yirik janrlar tarkibida uchraydigan ansambllar. Opera, oratoriya, kantata janrlarida kichik ansambllar keng qo‘llaniladi. Ijrochilar soniga qarab ular – duet, trio, kvartet, kvintet, sekstet, septol yoki oktet deb nomlanadi.

Tarixdan ma’lumki, ijrochilikda cholg‘ular jo‘rligida qo‘shiq ijro etish, raqsga jo‘r bo‘lish xalqimizning ommaviy bayram va marosimlarida keng

qo‘llanilgan. XX asrning o‘rtalariga kelib cholg‘ulardan turli guruhlarda va qo‘shiqlarni ham to‘da bo‘lib ijro etishga e’tibor kuchaydi. Xalq og‘zaki ijodiyoti tarmog‘idan tortib to professional san’at yo‘nalishlarida bu jarayon keng qo‘llanila boshlandi. Xalq musiqasi ijrochiligi amaliyotida turli tarkibdagi xalq cholg‘u va raqs ansambllari faoliyati keng ommalashdi. Madaniyat rivojida vokal-cholg‘u ansambllari, alohida cholg‘u hamda vokal cholg‘u ansambllari tuzilib, faoliyat olib bordi. Ayniqsa, turli tarkibdagi vokal (bir ovozli, ko‘p ovozli) ansambllar yosh o‘smirlar faoliyatida keng ommalashdi.

Ta’lim muassasalarida, ijrochilik amaliyotida alohida cholg‘ulardan o‘ziga mutanosib va nomdosh to‘dalar tuzish tendensiyasi avj ola boshladi. Dutorchilar ansambli, changchilar ansambli, doyrachilar ansambli hattoki 1960 yilda Sulaymon Taxalov boshchiligida 12 ta cholg‘uchilardan iborat – udchilar ansambli yoki ustoz sozanda Turg‘un Alimatov sinfida tanburchilar ansambli ham ijrochilikning yangi-yangi qirralarini namoyish etishga muyassar bo‘ldi. O‘zbekiston davlat konservatoriyasida kamonli cholg‘ular, faqat g‘ijjakchilar kamer ansambli yoki mezrobli cholg‘ular kamer ansambli tashkil etilib, ko‘p yillardan beri o‘z faoliyatini munosib tarzda olib bormoqdalar. Bunga yorqin misol qilib, o‘z davrida mashhur bo‘lgan professor A.Odilov rahbarligidagi changchilar ansamblini, hozirgi davrga kelib juda katta muvaffaqiyatlar bilan o‘z faoliyatini davom ettirib kelayotgan professor F.Abdurahimova rahbarligidagi «So‘g‘diyona» xalq cholg‘ulari kamer orkestrini ko‘rsatish o‘rinlidir. Har bir jamoa o‘z ijro uslubi hamda faoliyati bilan yetakchi jamoalar sifatida qayd etiladi.

“Orkestr”–jamoa ijrochiligi ko‘nikmalarini o‘quvchi, talabalar, professional sozandalarni jamoa bo‘lib ijro etish, shakillantirish va rivojlantirishdan iborat bo‘ladi.

O‘qish davrida ta’lim oluvchilar ko‘p ovozli ansambl va orkestrlarda ijro yullarini,shu yunalishdagi tanlangan repertuarlarni o‘zlashtirish lozim buladi.

Ko‘p ovozli musiqa targ‘ibotchisi, o‘zbek xalq cholg‘ulari professional orkestrlari respublikamizda o‘tgan asrning o‘ttizinchi yillari oxiridan boshlab shakllana boshlagan. Tarixdan ma’lumki 1928 yili Samarqand shahridagi musiqa va xoreografiya ilmiy-tadqiqot institutida milliy cholg‘ularni yasash uslublari, mahoratlari, tembrlari, tovush qatorlari, diapazonlari, ijrochilik texnik imkoniyatlar va boshqa ko‘rsatkichlari atroflicha ilmiy asosda o‘rganila boshlangan edi. V.A.Uspenskiy, N.N.Mironovlar boshchiligidagi bir guruh soha mutaxassislari, sozandalar shuningdek milliy cholg‘ular ustalari bu ishga jalb qilingandilar. Guruhga keyinchalik taklif etilgan A.I.Petrosyans o‘n ikki qatorli bir xil

temperasiya asosida o‘zbek milliy cholg‘ularini rekonstruksiya qilish guruhiga rahbarlik qila boshlaydi.

U rus xalq cholg‘ulari orkestrining tashkilotchisi (birinchi orkestr 1888 yili faoliyatini boshlagan) V.Andreyev g‘oyalari va tajribasiga tayangan holda o‘z izlanishlarini olib bordi. Ashot Ivanovich Petrosyans va guruhdagi hamfikr-mutaxassislar bu boradagi ilk izlanishlari, tajriba-sinovlari muvaffaqiyatli chiqdi. Undan ilhomlangan guruh a’zolari endi yangi qayta yaratilgan cholg‘ular asosida ularning oiladosh cholg‘u asboblarini barpo etish ustida ilmiy asoslangan izlanishlar olib borishdi.

Shuning barobarida o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida taniqli mohir xalq cholg‘ulari ustalaridan Shorahim Shoumarov, Usmon Zufarov (keyinchalik O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi) Matyusuf Xarratov, èsh iste’dodli ustalardan Sirojiddin Muxitdinov, Abdunabi Abdug‘ofurov (keyinchalik O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimlari) va boshqalar ham jalb qilindilar. Natijalar ijobiy bo‘lgach endi xalq cholg‘ulari orkestri tuzish asosiy maqsadlardan biriga aylandi. 1936 yili o‘zbek davlat filarmoniyasiga asos solinib, ko‘plab tuzilinayottgan badiiy jamoalar (ular «цех» deb nomlanardi) qatori, 98 kishilik katta ashula va raqs ansambli ham, san’at ustasi, bastakor keyinchalik O‘zbekiston xalq artisti To‘xtasin Jalilov rahbarligida o‘z faoliyatin boshlaydi.

O‘zbekiston kompozitorlari, rus va G‘arbiy Yevropa musiqa san’ati klassiklari asarlarini orkestr ijrosida tinglaganimizda beixtièr «dil torini chertgan jamoa bu!» degimiz keladi. Xalqimizning ma’naviy boyligini orttirishdagi, èshlarni nafosat ruhida tarbiyalashdagi ishlarida yangi zafarlar tilaymiz. O‘zbekiston radiosi qoshida 1927 yili Yunus Rajabiy boshchiligida milliy xalq cholg‘ulari ansambli tuzildi. Bu ijodiy jamoaning faoliyat yuritishi respublikada musiqa madaniyati va ijrochilik san’atini yuksaltirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘zbekiston radiosi qoshidagi xalq cholg‘ulari ansambli asosida yangi orkestr tuzildi va o‘z faoliyatini muvaffaqiyat bilan boshladi.

Orkestrning ijrochilik yo‘lini shakillantirishda, dasturni boyitishda O‘zbekiston xalq artisti, kompozitor Dona Zokirovning xizmatlari beqiyosdir. Kompozitorolardan Muxtor Ashrafiy, Sulaymon Yudakov, Sobir Boboyev, Mutal Burxonov, Sayfi Jamil, Fattoh Nazarov, Boris Giyenko, Sergey Varelas, Baris Zeydman, Xayri Izomov, Mardon Nasimov, Telman Xasanov, To‘lqin Toshmatov, Mustafo Bafoyev, Farxod Alimov, Xabibulla Raximov va boshqa ko‘pgina ijodkorlarning asarlarini radio ohangrabo magnit tasmasiga èzishga erishildi. Bugungi kunda bu asarlar radio oltin fondida saqlanmoqda. Orkestrning kundalik

ish faoliyatini boshqarishda dirijèr O‘zbekiston halq artisti R.Murodov, san’at arboblari, Xayri Izomov, Jo‘ra Shukurov, respublikada xizmat ko‘rsatgan artistlar Ubaydulla Abdullayev, Telman Xasanov, Abdusalom Mutalov, shuningdek Nikolay Savinov, Sotvoldi Karimov, Fazliddin Yunusov, Dilshod Mutalov va boshqalar turli davrlarda faoliyat olib borganlar va bugunda ham èrdam berib kelmoqdalar. O‘zbekiston san’at arbobi, Mustafo Bafoyev bosh dirijèr va badiiy rahbar bo‘lib ishlagan davrda orkestr ijrochilik mahorati juda yuksak darajaga ko‘tarilib, «TELE OPERA DOSTON», «TELE BALET» va boshqa yirik janrlardagi asarlarni zo‘r mahorat bilan ijro etib, haqli ravishda respublikamizdagi yetakchi musiqiy jamoalar safidan o‘rin olishga erishdi.

Xulosa qilib aytganda hamyurtlarimizning ijrochilik san’ati yuksak baxolanganligi quvonarli xoldir. Shubxasiz Respublikamizdagi bu ijodiy jamoalar, Orkestrlar dasturlariga kiritilgan musiqiy asarlar markazida ezgulik, pok insoniy muxabbat, yurtga sadoqat, insonni ijobiy fazilatlarini ulug‘lash,tinchlikka, totuvlikka, vijdon erkinligi singari ulug‘ g‘oyalar turishi bilan ham tinglovchilar mexrini qozonib kelmoqdalar. Mustaqillik davrida yurtimizda musiqa san’atini keng rivojlanishiga yo‘naltirilgan dastur va rejalar amalga oshmoqda, nufuzli xalqaro hamda respublika anjumanlari, tanlovlar muntazam o‘tayotgani, mumtoz musiqiy merosimizni yosh avlodlarga bezavol yetkazib berish maqsadida amalga oshirilayotgan qator tadbirlar quvonarlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. [1] O‘.Toshmatov S.Turatov “Ko‘hna cholg’ular ijrochiligi” 5I51600 - Xalq ijodiyoti (turlari bo‘yicha) o‘quv-qo‘llanma “Tafakkur” nashriyoti Toshkent-2016.
2. A.Toshmatova “Ijrochilik san’ati tarixi” Musiqa oliy ta’lim muassasalari uchun darslik «Musiqa» nashriyoti Toshkent 2017.
3. Тўхтамурод Зуфаров “Соз ва созгарлик тарихи” ўқув қулланма. Тошкент, 2014.
4. Turatov J. et al. MUSIQIY TA’LIM JARAYONLARIDA INNAVATSION VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH //Oriental Art and Culture. – 2024. – Т. 5. – №. 3. – С. 143-146.
5. Sobirjon Turdibekovich Turatov. "CHOLG‘U IJROCHILIGI TA’LIM YO‘NALISHIDA MAXSUS FANLARINING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN INTEGRATSIYALASHUVI" Oriental Art and Culture, vol. 4, no. 3, 2023, pp. 676-680.

CHANG CHOLG‘USINING RIVOJLANISH TARIXIGA BIR NAZAR

Sevinch QANOATOVA

O‘zDSMI Xalq ijodiyoti (cholg‘u ijrochiligi)

ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar:

Nilufar XUDOYQULOVA,

O‘zDSMI “Cholg‘u ijrochiligi”

kafedrasi o‘qituvchisi

Annotasiya:*Ushbu maqolada chang cholg‘usining kelib chiqishi va rivojlanish tarixi haqida qisqacha bayon etilgan. Shuningdek, maqolada chang cholg‘usini qadimgi davrlardan boshlab bugungi kungacha bo‘lgan evolyutsiyasi, uning tuzilishi, ijro uslublari va o‘zbek musiqasidagi o‘rni xususida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar:*chang, musiqa cholg‘usi, o‘zbek musiqasi, cholg‘u tarixi, changning rivojlanishi.*

ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ РАЗВИТИЯ ИНСТРУМЕНТА ЧАНГ

Севинч КАНААТОВА

студентка 1-го курса ГИИКУз

направления Народное творчество

(инструментальное исполнение)

Научный руководитель:

Нилуфар ХУДОЙКУЛОВА,

преподаватель ГИИКУз кафедры

«Инструментальное исполнительство»

Аннотация: *В данной статье кратко изложено происхождение и история развития чанга. В статье также рассматривается эволюция чанга с древнейших времен до наших дней, его структура, исполнительские стили и роль в узбекской музыке.*

Ключевые слова: *чанг, музыкальный инструмент, узбекская музыка, история инструмента, развитие чанг***.**

OVERVIEW OF THE HISTORY OF CHANG INSTRUMENT DEVELOPMENT

Sevinch KANAATOVA

1st year student of the State Institute of

Cultureand Arts of theDirections of folk art

(instrumental performance)

Scientific supervisor:

Nilufar KHUDOYKULOVA,

lecturer of the State Institute of Culture

and Arts of the department

"Instrumental performance"

Abstract: *This article briefly outlines the origins and developmental history of the chang. The article also explores the evolution of the chang from ancient times to the present day, its structure, performance styles, and its role in Uzbek music.*

Keywords: *chang, musical instrument, Uzbek music, instrument history, chang development***.**

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti va havaskorlik san’atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, madaniyat va san’at soxasini innavatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”

tasdiqlandi. Ushbu qaror ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi 264-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga binoan, madaniyat markazlarining asosiy maqsadi va vazifalari belgilandi, jumladan, aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish va bo‘sh vaqtlarining mazmunli o‘tishni ta’minlash, ijodiy jamoalarning milliy qadriyat, urf-odat va an’analarni o‘zida mujassam etgan namunali dasturlarini shakllantirish, xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san’atini saqlab qolish va rivojlantirish, turli xil to‘garaklar, studiyalar, kurslar, qiziquvchilar klublari, badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish. Shuningdek, qarorda madaniyat markazlarining huquq va majburiyatlari, xodimlarning kasb etiketi va ularga qo‘yiladigan talablar ham belgilangan. Bu esa madaniyat muassasalarining faoliyati yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari xilma-xil bo‘lib, xalqimiz tomonidan ardoqlab kelinadi. Ular damli, urma-torli, mezrobli, zarbli, kamonli cholg‘ulardir.

O‘zbek an’anaviy cholg‘ulari orasida urma xususiyat kasb etuvchi cholg‘ulardan biri chang hisoblanadi. Chang o‘zining qadimiyligi, har bir xalqning o‘ziga xos an’analariga moslanganligi va tabiatan ochiq ovozga egaligi bilan boshqa sozlar orasida alohida o‘rin tutadi.

Chang qadimda va O‘rta asr Sharq madaniyatida keng qo‘llanilgan. O‘rta asrlarda Noqus Changiy, Mavlono Mirek Changiy Buxoriy, Xoja Bobo Changiy kabi mashhur chang ijrochilari bo‘lgan. Changning qadimgi shakllari burchakli yoki yoysimon bo‘lib, 13 va undan ortiq torlarga ega edi.

O‘rta asr allomalari chang haqida o‘z asarlarida ma’lumotlar bergan. Masalan, musiqashunoslik fanining asoschisi Abu Nasr Muhammad al-Farobiy bu cholg‘uning So‘g‘dda ixtiro etilgani haqida “Kitab al-Musiqa al-Kabir” asarida o‘z davrining musiqiy asboblari, jumladan, chang cholg‘usi haqida ham batafsil ma’lumot beradi. U changning tuzilishi, ijro usullari va musiqa tizimidagi o‘rnini tahlil qiladi. Farobiy changni torli cholg‘ular qatoriga kiritib, uning ovoz chiqarish mexanizmi va boshqa cholg‘ular bilan solishtirishlarini bayon etadi. Shuningdek, u changning musiqa ijrosidagi ahamiyati va imkoniyatlarini ham ta’kidlaydi.

Hozirgi chang trapetsiya shaklidagi tovushxonaga ega bo‘lib, 14 ta asosiy simdan tashkil topgan. Ularning 13 tasi uchtadan, eng yo‘g‘on sim esa yakkadir, jami 40 ta tor mavjud. Simlar o‘ng va chap xaraklar orqali past va yuqori registrlarda ovoz chiqaradi. Chang bambukdan ishlangan ikki cho‘p yordamida urib chalinadi.

1930-yillarda changning yangi xromatik tovushqatorga ega turlari (prima, tenor, bas) yaratildi. Jarangdor tembr va keng dinamik imkoniyatlari tufayli chang turli ansambllar, xalq cholg‘ulari orkestri tarkibida hamda yakkanavoz cholg‘u sifatida keng tarqalgan. Torlarning mahkam tortilishishini ta’minlash maqsadida cholg‘uning o‘ng tomoniga metal quloqchalar, chap tomonida esa torlarning ikkinchi uchini ilib turuvchi ilmoqlar o‘rnatiladi. Chang torlarini o‘rnatishda maxsus xarraklarni terib, ustki tomoniga metall sim o‘rnatiladi.

An’anaviy chang sozining 40 simli va diatonik tovushqator tarkibiga ega ekanligi haqida rus musiqashunosi V.Belyayev “O‘zbek xalq cholg‘ulari” nomli risolasida bayon etgan[3.35]. Ushbu asarda V.Belyayev o‘zbek xalq cholg‘ularining tarixi, tuzilishi va o‘ziga xos xususiyatlarini batafsil tahlil qilgan. Chang takomillashish jarayonida ko‘p o‘zgarishlarga uchragan. Takomillashishning asosiy maqsadi changning ovoz imkoniyatlarini oshirish va ijroviy diapazonini kengaytirishdan iborat bo‘lgan. Qilingan ijodiy harakatlar davomida chang 70 torli (har bir tovush ikkilangan va uchlangan) va 38 tarzda joylashgan xromatik tovushqatorga ega bo‘lgan. Changga maxsus o‘ralgan 0,8-0,7-0,6-0,5-0,4 mm hajmli po‘lat torlar tortiladi. Hattoki tovush so‘ndirgich ham o‘rnatilgan (an’anaviy namunasida bu uskuna deyarli ishlatilmaydi) va akademik uslubda keng qo‘llaniladi.

Zamonaviy ijod jarayonda chang cholg‘uchilari takomillashgan chang sozidan foydalanadilar. Uning diapazoni 3 oktavani to‘la qamrab olgan.

Qayd etish joizki, changning sozlanishida muayyan tartibga binoan sozlash lozimdir. Chang maxsus kalit yordamida sozlanadi va bambukdan tayyorlangan cho‘plarining ustki (simga uriladigan joyiga) tomoniga rezina yoki fils kiygiziladi. Chang ijrosiga chap qo‘l va o‘ng qo‘llarning cho‘plari bilan harakati (simlarga urish) natijasida erishiladi.

Hozirgi kunda chang cholg‘usining sir asrorlarini o‘rganishda ustozlarning o‘rni beqiyos deb o‘ylayman. Ulardan O‘zbekistondagi birinchi ayol changchi Fazilat Shukurovalarning o‘rni betakror. U 1946-yilda Samarqand viloyati, Kattaqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgan. Otasi Shukrullo Abdullayev puflama cholg‘ular ijrochisi bo‘lib, onasi esa mehnatkash va irodali ayol edi. Fazilat musiqaga bo‘lgan qiziqishini erta namoyon etib, Samarqand musiqa bilim yurtida boshlang‘ich ta’lim

oldi. 1960–1961-yillarda Toshkent davlat konservatoriyasi rektori, bastakor Muxtor Ashrafiy boshchiligidagi ijodiy jamoa tomonidan iqtidorli yoshlarni izlash jarayonida 14 yoshli Fazilat ham tanlab olinib, konservatoriyaning tayyorgarlik kurslariga qabul qilindi. U yerda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Fozil Xarratovdan chang ijrochiligi sirlarini o‘rgandi.

1980-yildan boshlab Toshkent davlat konservatoriyasida dirijyorlik va chang ijrochiligi bo‘yicha talabalarga saboq bera boshladi. 1988-yilda changchi, dirijyor, professor Rustam Ne’matov bilan birgalikda mumtoz kuylardan tashkil topgan “Yangra sozim” to‘plamini yaratdi. Shuningdek, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, “Kompozitorlarning e’tibori nega kam”, “Ustozni eslab”, “Xarratovlar sulolasi” kabi maqolalar muallifi. 40 yildan ortiq vaqt davomida “Xalq cholg‘ulari ijrochiligi” kafedrasida ustozlik qilib, ko‘plab shogirdlar tayyorladi. Jumladan, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, dotsent Komiljon Shermatov ham buyuk ustozning shogirdlaridandir.

Komiljon Shermatov — O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist, tajribali chang va qonun ijrochisi hamda pedagog. U 1964 yilda tug‘ilgan. 1983-1988 yillarda Toshkent davlat konservatoriyasida tahsil olgan. 1988 yilda Yosh ijrochilarning V Respublika tanlovi laureati, I o‘rin mukofoti sovrindori bo‘lgan. 1988-2000 yillarda O‘zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi D.Zokirov nomli xalq cholg‘ulari orkestrida sozanda sifatida faoliyat yuritgan. 2000-2006 yillarda “So‘g‘diyona” O‘zbek davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestrida oliy toifali sozanda bo‘lib ishlagan. 2005 yildan boshlab O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “Xalq cholg‘ulari” kafedrasida faoliyat yuritdi. 2012-yildan hozirgi kunga qadar O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi dotsenti sifatida talabalarga ta’lim bermoqda. Bundan tashqari, institutda tashkil etilgan “Sado” ansamblining badiiy rahbari lavozimida ham faoliyat yuritadi.

Komiljon Shermatov xalqaro miqyosda ham faol ishtirok etib, AQSh (2002), Germaniya (1999) kabi davlatlarda o‘tkazilgan xalqaro festivallarda qatnashgan. Shuningdek, Hindiston, Koreya, Yaponiya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarning musiqachilari bilan O‘zbekistonda o‘tkazilgan xalqaro loyihalarida ishtirok etgan[1].

Chang cholg‘usi asrlar davomida shakllanib, o‘zbek musiqa madaniyatining ajralmas qismiga aylandi. U qadimdan turli shakllarda qo‘llanilib, o‘rta asrlarda mashhur ijrochilar tomonidan keng targ‘ib etilgan. Vaqt o‘tishi bilan uning tuzilishi

[1] Ushbu ma’lumot uz.registan-group.uzRegistan saytidan olingan.

takomillashib, ijrochilik imkoniyatlari kengaydi. Bugungi kunda chang yakkanavoz cholg‘u sifatida ham, ansambllar va orkestrlar tarkibida ham faol qo‘llanilmoqda.

Ustoz-shogird an’anasi asosida rivojlangan chang san’ati Fazilat Shukurova, Rustam Ne’matov va Komiljon Shermatov kabi ustozlar ijodi orqali yuksaldi. Ularning hissasi tufayli chang cholg‘usining ijrochilik madaniyati rivojlanib, yangi avlod sozandalariga yetkazilmoqda. Kelajakda chang san’atini yanada rivojlantirish, texnik imkoniyatlarini oshirish va uning jahon musiqasida tutgan o‘rnini mustahkamlash biz, yosh avlod oldida muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.OJS Nordic. “Fazilat Shukurovaning hayoti va ijodi.” Nordic Journal of Humanities and Social Sciences ojs.nordicun.uz. , 2024-yil.

2. ShermatovK. “O‘zbek xalq cholg‘ulari”. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1998-yil.

3.BegmatovS.O‘zbek an’anaviy cholg‘ulari, M.Matyoqubov Toshkent 2008 (Yangi nashr)

4.SodiqovF. “Chang cholg‘usi va uning rivojlanishi”. Toshkent: San'at nashriyoti. 2015-yil.

5.TuratovJ. “Musiqa asboblari tarixi”. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.2005-yil.

6. Academic Journal. “Fazilat Shukurova – chang san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi.” Western Journal of Arts and Humanities,wjau.academicjournal.io, 2023-yil.

7. Registan Grouphttps://uz.registan-group.uzRegistan Group

MUSIQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Xolmo‘minova Zulnigor Tog‘aymurod qizi.
O‘zDSMI “Folklor va etnografiya” kafedrasi 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Yuldashev Izzat Ikramovich.
O‘zDSMI “Folklor va etnografiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqiy madaniyatni rivojlantirishning ruhiy-tarbiyaviy hamda ta’limiy asoslariga urg‘u aratilgan bo‘lib, unda musiqiy tafakkur, musiqiy tasavvur, musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash kabi tushuncha va holatlarning shakllantirilishi va uning inson kreativligi va ijodkorligini yuksakltirishdagi roli ham ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa, musiqiy his-tuyg‘u, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok.

Annotation. This article focuses on the spiritual, educational and educational foundations of the development of musical culture, and also reveals the formation of concepts and states such as musical thinking, musical imagination, musical perception, musical worldview, and its role in enhancing human creativity and ingenuity.

Keywords: music, musical feeling, musical thinking, musical perception.

Аннотация. В данной статье рассматриваются духовные, образовательные и воспитательные основы развития музыкальной культуры, а также раскрывается формирование таких понятий и состояний, как музыкальное мышление, музыкальное воображение, музыкальное восприятие, музыкальное мировоззрение, и его роль в повышении творческой активности и изобретательности человека.

Ключевые слова: музыка, музыкальное чувство, музыкальное мышление, музыкальное восприятие.

Inson musiqiy faoliyatga sinkretik tarzda yondashadi. Sinkretiklik ba’zida inson ong-tafakkuriga xos ruhiy-ma’naviy yaxlitlikni ham ifodalaydi. Tadqiqotchi Yuldashev Izzat “Tarixiy jarayonlar silsilasi shuni anglatadiki, insonlarning munosabatlari qolipida ba’zan eklektik qarashlardan chiqib, kritik-analitik va argumental-kreativ to‘xtamga kelish, sinkretik qarashlar tomon tartibga tushish, tizimlashib borish, garmoniya, birlashish (hatto nihoyasiga

yetmagan tarzda ham) amalga oshgan bo‘lsa, ba’zan obyektga munosabat qilishda notekis-nomutanosib, abstraktiv-nohaqqoniy tarzda sinkretik qarashlardan chetga chiqib, eklektik qarashlarga moyilliklar kuzatilganiga ham ishora etadi” deya ta’kidlagan edi [1:30]. Ya’ni, musiqa san’ati ta’limida ham eklektik qarashlardan sinkretik qarashlar tomon tartibli va tizimli tarzda musiqiy tarbiya va musiqiy tafakkur yuritish holatlari uchraydi.

Shu bilan birga, Yuldashev Izzat “…etnogumanizm etnos bilan bog‘liq barcha jarayonlar bilan yaxlitlik va uyg‘unlikni aks ettirib, sinkretik tarzda namoyon bo‘ladi” deya ta’kidlagan edi [2:543]. Etnos bilan bog‘liq jarayonlarda etnomusiqiy va musiqiy folklor amaliyoti ham muhim rol o‘ynaydi. Lekin etnohududiy joylarda musiqiy ta’limni kuchaytirish dolzarbligini alohida ta’kidlab o‘tish ham lozim. chunki, etnohududlarda musiqiy ta’lim va musiqiy tarbiya hali professional ta’limiy-psixologik darajadagi amaliyotga yetarlicha chiqa olgani yo‘q. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov “…agar insonning qulog‘i yengil-yelpi, tumtaroq ohanglarga o‘rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma’naviy olamine soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas” deya ta’kidlagan edi [3:143]. Tadqiqotchi F.Asqar “Musiqa – ulkan ta’sirchan kuchga ega bo‘lgan tarbiya vositasi, inson ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bera oladigan jon ozig‘idir” deydi [4:6].

Maktabgacha ta’lim muassasalari bolalari uchun musiqiy bilimlar mazmunini belgilash bir qator psixologik xususiyatlarni e’tiborga olishni talab etadi. Zeroki, musiqiy bilimlarni egallash avvalo shaxsning ruhiy olami bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun ham, B.M.Teplov tomonidan berilgan tezislarni bu jarayonda yo‘naltiruvchi deb idrok etish mumkin. Unda quyidagilarga e’tibor qaratilgan:

1. Musiqiy kechinmalar tabiatdan olingan kechinmalardir... Musiqani tushunish, agarda musiqiy asarning ichki tuzilishini nazarda tutmasak, doimo his-hayajon tushunchalaridir.

2. Musiqiy kechinmalar faqat his-hayajondan iborat bo‘lishi kerak emas. U his-hayajondan boshlanadi, lekin tugamaydi. His-tuyg‘ular orqali biz hayotni anglaymiz. Musiqa – dunyoni his-tuyg‘ular orqali anglashdir.

3. Musiqaning asl mazmunini chuqur anglash qiyin. Uni bilishning boshqa vositalari orqali o‘rganish mumkin. Musiqiy obrazlar olami “o‘z- o‘zidan oxirigacha tushunarli bo‘lmaydi”.

B.M.Teplovning nuqtayi nazari insonning estetik ongi shakllanishini ilk bora o‘rgangan buyuk yunon faylasufi Arastuning fikri bilan hamohangdir: “Paydo bo‘lgan narsalarning biri oddiy yo‘l bilan paydo bo‘lsa, boshqasi san’at orqali

yuzaga keladi, uchinchisi o‘z-o‘zidan yaraladi… San’at orqali inson ruhidagi mavjud hissiyot shakllanadi”. Inson ruhiyatida mavjud bo‘lgan narsalarga Arastu quyidagilarni kiritadi:

1. o‘sish qobiliyati,
2. intilish qobiliyati,
3. his qilish qobiliyati,
4. harakatlanish qobiliyati,
5. fikrlash qobiliyati.

“Shaxsning musiqiy madaniyati”ni shakllantirish tushunchasiga A.N.Soxor murojaat etib quyidagilarni tavsiya etgan:

Shaxsning musiqiy madaniyati (A.N.Soxor konsepsiyasi)

Musiqiy qadriyatlar

Faoliyatning barcha turlari

Faoliyat subyektlari

Maxsus muassasalar (jamoada yaralgan va saqlanadigan) (qadriyatlarni yaratish, asrash va targ‘ib qilishga qaratilgan) (Ushbu faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchilar) (ushbu faoliyatni ta’minlovchi) elementlaridan iborat.

Musiqashunos olimlar tomonidan tavsiya etilgan konsepsiyalarga tayanib, biz musiqiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida bola shaxsining qanday faoliyat turida qaysi shaxsiy xususiyatlari shakllanishini chizma yordamida ko‘rsatib berdik.

Musiqiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida bola shaxsini shakllantirishda musiqa ta’limining ahamiyatini musiqa mashg‘ulotlarini tahlil qilish orqali ko‘rishimiz mumkin.

Demak, musiqiy mashg‘ulotlar davomida:

1. Qo‘shiq kuylash faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqiy bilimlarga asoslangan holda qo‘shiq kuylaydilar. Buning uchun ular musiqiy asarga taalluqli bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zlashtiradilar. Shu jarayonda ularda musiqiy dunyoqarash va musiqiy did shakllanadi.

Musiqa savodi faoliyatida musiqiy tafakkur, tasavvur va musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqaning yaratilish tarixi, musiqaning ifoda vositalari – ritm, metr, registr, o‘lchov, lad, temp, nota yo‘li va yozuvi, tovushlar uzunligi va balandligi, musiqa ijodkorlari, ijrochilari haqida bilimga ega bo‘lish bilan birga, ularning musiqiy tafakkurlari shakllana boradi. Bu o‘z navbatida bolalarni musiqa olamiga olib kiradi va musiqiy dunyoqarashlarini shakllantiradi.

2. Musiqa tinglash faoliyatida musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyatda bolalar musiqa tinglab, uni bevosita idrok eta boshlaydilar. Bu esa ularning musiqiy tafakkurlarini shakllantiradi

Bolalar musiqa cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish, qo‘shiq kuylash, musiqa ostida ritmik harakatlar bajarish va musiqa tinglash kabi faoliyatlarni bajarar ekanlar ularda musiqiy tafakkur, musiqiy dunyoqarash, musiqiy tasavvur, musiqiy qobiliyatlar, musiqiy his-tuyg‘u, musiqiy idrok rivojlanib boradi, shuningdek, ularda musiqiy madaniyat va dunyoqarash ham shakllanib boradi. Tinglangan musiqiy asar haqida mulohaza yurita boshlaydilar.

3. Musiqa ostida ritmik harakat bajarish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Bu faoliyat turida o‘quvchilarda deyarli barcha musiqiy psixologik xususiyatlar shakllanadi. Chunki bu faoliyatda ular o‘zlari bevosita musiqiy asarga jo‘r bo‘ladilar. Avval ular musiqiy asarni tinglab ko‘radilar (musiqiy idrok), bu esa musiqaning ritmik ko‘rinishini eslab qolishni (musiqiy xotira), qaysi asbobda jo‘r bo‘lsa yaxshiroq jaranglashini (musiqiy did) tanlashni taqozo etadi. O‘quvchi bu faoliyatda mustaqil fikrlaydi (musiqiy tafakkur), natijada uning musiqiy dunyoqarashi shakllanib boradi.

4. Bolalarda cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalarda deyarli barcha musiqiy psixologik xususiyatlar shakllanadi. Chunki bu faoliyatda ular o‘zlari bevosita musiqiy asarga jo‘r bo‘ladilar. Avval ular musiqiy asarni tinglab ko‘radilar (musiqiy idrok), bu esa musiqaning ritmik ko‘rinishini eslab qolishni (musiqiy xotira), qaysi asbobda jo‘r bo‘lsa yaxshiroq jaranglashini (musiqiy did) tanlashni taqozo etadi. Bola bu faoliyatda mustaqil fikrlaydi (musiqiy tafakkur), natijada uning musiqiy dunyoqarashi shakllanib boradi.

Ayni vaqtda shuni aytish joizki, musiqaning qanday faoliyat turi bo‘lmasin, u shaxsning barcha psixologik jihatlari shakllanishiga yordam beradi. Shuni ta’kidlashimiz kerakki, musiqiy faoliyatlarning har biri barcha sanab o‘tilgan psixologik xususiyatlarni shakllanishiga qisman bo‘lsa ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. Jumladan, musiqiy his-tuyg‘ular, musiqiy dunyoqarash, musiqiy idrok, musiqiy tafakkur, musiqiy tasavvur va musiqiy qobiliyatni shakllantiradi.

Muxtasar qilib aytganda, insonda musiqiy tasavvur, musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash, musiqiy tafakkur, musiqiy his-tuyg‘u hamda musiqiy qobiliyat kabi holat va hodisalar bir-biriga uyg‘unlashib kelgan holda ijodkorlik, yaratuvchanlik va eskini yangi asosida o‘zgartirish amaliyotini kuchaytiradi. Inson ijodkorlik

holatiga kirganida, unda, albatta musiqiy tafakkur, badiiy xayolotlar, musiqiy tasavvur va musiqiy idrok holatlari yaxlitlashib keladi. Bunday yaxlitlashuv insonni ijodkor fenomeniga yetaklaydi. Inson ijodkorlik asosida o‘zini ijtimoiy-madaniy shaxs sifatida ham qaytadan shakllantirib boradi.

FOYDADLANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yuldashev, Izzat Ikramovich. "ANTIK DAVR OLIMLARINING SINKRETIK QARASHLARI." Oriental Art and Culture 3.2 (2022): 26-31.

2. Юлдашев, Иззат. "O‘zbek etnomadaniy sinkretikligida etnogumanizmning namoyon bo‘lishi." Новый Узбекистан: наука, образование и инновации 1.1 (2024): 541-544.

3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. – 176 b.

4. Asqar F. Musiq ava inson ma’naviyati. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2000. – 96 b.

“CHANG CHOLG‘USI REPERTUARINI BOYITISH”

Rizboyeva Xilola Ergashboy qizi
O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Cholg`u ijrochiligi” mutaxasissligi yo`nalishi 1 bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: **v.b professor K.Shermatov**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek milliy musiqa cholg‘ularidan biri bo`lmish chang cholg‘usining tarixi hamda hozirgi kunga qadar rekanstruksiya qilingan holati, hozirgi chang cholg`usining ijro imkoniyatlari va chang cholg`usi uchun repertuarlarni yanada boyitish masalalari haqida ma`lumot berilgan.

**Kalit so`zlari:** chang, arfa, repertuar, lad, maqom, cholg`u, musiqa

Аннотация: В данной статье представлены сведения об истории одного из узбекских национальных музыкальных инструментов – духового инструмента, состоянии его реконструкции до настоящего времени, исполнительских возможностях нынешнего духового инструмента, а также вопросах дальнейшего обогащения репертуара духового инструмента.

Ключевые слова: чанг, арфа, репертуар, лад, маком, инструмент, музыка.

Abstract: This article provides information on the history of the chang, one of the Uzbek national musical instruments, and its reconstructed state to date, the

performance capabilities of the current chang instrument, and the issues of further enriching the repertoire for the chang instrument.

Keywords: chang, harp, repertoire, lad, maqom, instrument, music

Kirish: O‘zbek xalqining qadriyatlaridan hisoblangan milliy cholg‘ular hamisha xalqning ma’naviyati va ma’rifatining ajralmas qismi bo‘lib kelgan.

O‘zbek xalq cholg‘ulari uzoq o‘tmishda paydo bo‘lgan. Ma’lumotlarga qaraganda, dastlabki musiqa cholg‘ulari eramizdan avvalgi 8 ming yillikda dunyoga kelgan. Tarixdan ma’lumki, o‘zbek xalq cholg‘ulari musiqaning barcha tarmoqlariga mos shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. Milliy cholg‘ular tarixi va hozirgi kungacha bosqichma-bosqich rivojlanib kelayotganligini ajdodlarimizning musiqa madaniyatiga oid eng qadimiy ma’lumotlarda, xususan, hududimizdagi qoyatoshlarda chizilgan tasvirlarda, arxeologik qazilmalar paytida topilgan ashyolarda qolaversa, turli bosma nashrlarga ishlangan rasm va miniatyura shaklida berilgan tasvirlarda ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek milliy cholg‘ularida ijrochilik tarixini o‘rganishda o‘rta asrlar musiqa ilmiga oid asarlar asosiy manbalardan hisoblanadi. Milliy cholg‘ularimizning tarixiy jarayonini bilish aynan o‘sha davrda yashab ijod qilgan olimlarning asarlarida keltirilgan.

O'tmishda musiqiy cholg'ularining barcha qismlari yaxlit daraxt yog'ochidan, kosasi esa o'yib yasalgan. Inson tafakkuri, dunyoqarashi rivojlanishi natijasida cholg'ularning yasalish jarayoni ham o'zgaradi, ya'ni musiqiy sozlardagi qismlari (dasta, quloqlar, kosa, xarrak) uchun turli daraxt yog'ochlar xususiyatiga ko'ra tanlanadi. Cholg'u torlari ham o'zining tadrijiy rivojlanish jarayonini bosib o'tadi. Avvaliga ichak torlar taqilib, so'ngra ular o'rnini ipak, kumush, mis, po'lat simlar egallaydi. Tadrijiy ishlar olib borilgan cholg`ularning barchasi ham hozirgi kunga qadar yetib kelmagan. Ko`plab cholg`ular esa yanada rivojlanib, zamon talabiga ko`ra moslashib, butun dunyo bo`yicha tarqala boshlagan. Ana shunday cholg`ulardan biri bu – Chang cholg`usi xisoblanadi.

Chang deb - dastavval bugungi qutisimon shakldagi chang cholg'umiz emas, balki o'z davrida ijrochilik amaliyotida qo'llanilgan O'rta Osiyo arfasi shu nom bilan atalgan. Arfa cholg'usi jahonning deyarli barcha xalqlarida bir qancha ko'rinishlarda mavjud bo'lgan, biroq ular orasida egik shakldagi arfa «chang» deb atalib, olimlar fikriga ko'ra, eng mashhur turi bo'lgan. Arfasimon chang Sharq xalqlarining qadimiy cholg'ulari sirasiga kirib, asrlar davomida noma`lum ijodkor xunarmandlar tomonidan yaratib kelingan.

“Chang” pahlaviy va forsiy tillarga mansub atama bo‘lib, u asrlar davomida bir necha ma’nolarni anglatgan. Ma’ishiy hayotda “chang“ so‘zi ostida “gard, to‘zon” tushunilgan. To‘zon deganda tasavvurimizda shamol natijasida

hosil bo‘lgan aylana, shoxlari egilgan daraxtlar, qaddi bukilgan o‘t-o‘lanlar gavdalanadi ya’ni egik shaklda bo‘lgan ko‘rinish namoyon bo‘ladi. Arfaning rezonatori, ya'ni tovushni jaranglantiruvchi moslamasi egikroq bo'lganligi sababli chang deb atalgan.

Asrlar davomida arfa shaklida bo'lgan chang cholg'usi XIX asrga kelib qutisimon shaklda namoyon bo'ladi. Torli-urma cholg'ular guruhining yagona namoyandasi bo'lgan chang cholg'usi ilmiy-nazariy tasnifiga ko'ra tovush manbai bo'yicha torli cholg'u, tovushni hosil qilish uslubi bo'yicha urma cholg'usi hisoblanadi.

Chang burchakli yoki yoysimon shaklda bo‘lib, unga 13 va undan ortiq torlar taqilgan. Avvalgi changlar tut daraxtidan yasalib, hozirgi ko'rinishiga nisbatan ancha katta bo'lgan va ingichka mis torlar taqilgan. Cholg'u torlarini taqish uchun mo'ljallangan quloqlar uzun uchli mixga o'xshash sariq misdan bo'lgan. Chang torlari bolg'achaga o'xshash kalitda kerakli balandlikda sozlab olinib, kalitning dasta qismidagi bolg'acha tomoni bilan urib qo'yilgan. Hozirgi changlarda torlaming tortilish kuchi oshganligi sababli cholg'u quloqlari po'latdan yasaladi. 1930-yillardayoq changning tuzulishiga qator o‘zgartirishlar kiritildi: uning hajmi ixchamlashtirilib diapazoni oshirildi. Ayrim xalq sozandalari chang tovushlariga qo‘shimcha tovushlar kiritishdi

Musiqa san’atimizda hozirgi kunda amalda bo‘lgan Chang chog‘usi 1938-1943-yillar davomida V.Romanchenko, A.Kevxayans, S.Didenko va A.Petrosyans tomonidan takomillashtirilgan Pikollo – Chang, Tenor-Chang va Bas-Chang turlariga ega. Hozirgi kunda asosan foydalaniladigan chang bu chang prima xisoblanadi.

Chang o‘zbek xalq cholg‘u asboblaridan bo‘lib, O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmanistonda keng tarqalgan. Ko‘pchilik xalqlarda chang turlicha nomlanadi:

Avstriya – Hackbrett
Norvegiya – Hakkebrett
Portugaliya – Saltério
Rossiya - Tsimbali, Dulsimer
Slovakia – Cimbal
Ispaniya - Salterio, dulcémele
Shveysariya – Hackbrett
Tatariston – Çimbal
Ukraina – Tsimbali
Vietnam - Dàn tam thập lục
Belarus – Tsimbali
Niderlandlar - Hakkebord
Polsha - Cymbały
Ruminiya - Tambal
Serbia - Tsimbal
Slovenia - Cimbale
Shvetsiya - Hackbräde
Tailand - Khim
Turkiya - Santur
AQSh - Hammered
Isroil - Tsimbl
Belgiya - Hakkebord

Braziliya – Saltério	Cambodia - Khim
Xitoy – Yangqin	Xorvatiya - Cimbal,
Chexiya – Cimbál	Daniya - Hakkebræt
Fransiya – Tympanon	Germaniya - Hackbrett
Gretsiya – santouri	Vengriya - Cimbalom
Hindiston – Santoor	Eron - Santur
Iroq - Iraq Santuri	Irlandiya - Tiompan
Italiya – Salterio	Koreya - Yanggeum
Meksika – Salterio	Mongoliya – Joochin

Asosiy qism: Hozirgi kunda chang cholg`usidan juda keng qo`llanilib kelmoqda. O`zbek xalq cholg`ulari orkestrlari va ansambillarida chang cholg`usi doimiy ravishda qo`llanilib kelinmoqda. Musiqa maktablari, san`at litseylari va oliy ta`lim muassasalarida chang cholg`usi darslari keng qamrovli tarzda olib boriladi. Musiqa maktablarda chang cholg`usi murakkab cholg`u turlaridan biri ekanligini inobatga olgan xolda kichik sinflar uchun asosan gamma va etyudlar, keyinchalik esa asosan o`zbekcha kuylar o`rgatiladi. San`at litseylari va oliy yurtlarda yirik shakldagi asarlar o`rgatiladi. Biz hozirgacha chalib kelayotgan va o`quvchi yoshlarga o`rgatib kelayotgan asarlarimizning aksariyati yevropa xalqlariga tegishli asarlar xisoblanadi. Bu albatta qaysidir manoda juda yaxshi, bu chang cholg`usining ijro imkoniyatlari qanchalar keng ekanligiga bir isbot bo`la oladi desak mubolag`a bo`lmaydi. Lekin tanganing ikki tomoni bo`lganidek bu masalaning ham ikkinchi tarafi bor. Biz yevropa yirik asarlarini o`rganish va cholg`u ijro imkoniyatlarini yanada boyitish bilan bir qatorda cholg`uning o`z ijro moxiyatini yo`qotuvchi asarlar bilan xalq san`atni qabul qilishini biroz qiyinlashtirib qo`ymayapmizmikin degan savol ko`ndalang qo`yiladi. Yuqorida aytib o`tganimizdek oldingi changlarning diapazoni qisqa bo`lgan va undan ham maqom asarlarini maromiga yetkazib ijro etishgan

Darvesh Ali Changiy changning qadimiy o‘tmishi haqida ma’lumot beradi. Uning aytishicha changda 26 ta tor va 7 ta lad bo‘lgan. Bu changning 7 ladida 7 maqomni ijro etishgan:

1-laddan “Rost” maqomi boshlangan.
2-laddan “Navo” maqomi boshlangan.
3-laddan “Xijoz” maqomi boshlangan.
4-laddan “Zangura” maqomi boshlangan.
5-laddan “Xusayni” maqomi boshlangan.
6-laddan “Kuchek” maqomi boshlangan.
7-laddan “Iroq” maqomi boshlangan.

Hozirgi kunda qo`llaniladigan chang primasining ijro imkoniyatlari judayam keng, lekin, chang cholg`usi uchun yozilgan yirik shakldagi asarlar soni biroz qisqa. O`quvchilar o`rtasida takrorlanish ya`ni asar kamligi sababli oldin ijro etgan asarni qayta ijro etish kabi xodisalar sababli hozirgi kunda juda ko`p changchilar skripka uchun yoki rus xalq cholg`usi bo`lgan balalayka uchun yozilgan asarlardan foydalanishmoqda. Bilamizki mazkur cholg`ularda asosan yevropa kuylari ijro etiladi va cholg`ularning ijro imkoniyati ham aynan yevropa kuylar uchun moslashtirilgan. Yevropa kuylarini chang cholg`usida ijro etish bilan biz qaysidir manoda cholg`uning o`z moxiyatini yo`qolishiga va xalqimiz qabul qilishi qiyin bo`lgan asarlar ijrosi bilan beixtiyor xalqimizning cholg`uga nisbatan qiziqishining kamayishiga sababchi bo`lmoqdamiz.

Chang cholg`usi o`zbek milliy cholg`usi hisoblanadi va eng avvalo o`zbek milliy madaniyatini targ`ib etishi lozim bo`ladi. O`zbek milliy kuylarimizni, xalq og`zaki ijodidan xalqimiz sevib tinglaydigan folklor musiqalarini chang va fortopiano uchun yoki chang va doia uchun moslashtirsak bu bilan biz ham o`z milliy madaniyatimizni saqlab qolgan bo`lamiz va chang cholg`usi repertuarlarini yanada boyitgan bo`lamiz.

Misol uchun Musiqa maktablari uchun J.Sultanovning “Raqqosasidan” asari, S.Yudakovning “Temirchilar qo`shig`i” asari, o`zbek xalq kuylaridan “Oromijon” “Aliqambar” “Yolg`iz” “Cho`li iroq” va xokozo.

Yirik shakldagi asarlar sifatida kirib kelgan yevropa asarlar o`rniga chang cholg`usi repertuariga Turk, Eron, Ozorboyjon asarlari, o`rta osiyo xalqlari asarlari, Rumin xalqlari asari chang cholg`usi uchun moslashtirilsa ham cholg`u moxiyati saqlanadi, va o`rganuvchilar juda yaxshi qabul qilishadi bunday musiqalarni.

Xulosa: Ushbu maqolada chang cholg`usining tarixi, kelib chiqishi haqida qisqacha bayon berib o`tdik. Chang cholg`usida xalq qabul qilish darajasidagi kuylar ijro etilmayotgani bevosita asarlardagi o`zbekona milliy ruxning kam ekanligi, qardosh xalqlar kuylari, o`zbek xalqi madaniyatiga o`xshash xalqlar musiqa asarlari kamligi bilan bog`liqdir. Ko`plab o`zbek xalq kuylarini chang cholg`usi uchun moslashtirish, maqom, xalq og`zaki ijodi kuylarini chang uchun moslashtirish, O`rta Osiyo, Turk, Eron, Rumin, Ozorboyjon xalqlari yirik shakldagi kuylarini olib kelish natijasida biz nafaqat chang cholg`usi repertuarini boyitgan bo`lamiz, balki chang cholg`usini asl moxiyatini saqlab qolgan va xalqimiz yahshi qabul qiladigan kuylar bilan o`zbek milliy madaniyatini asrab qolgan bo`lamiz.

O‘ylaymizki, ushbu maqola bilan tanishib chiqqan har bir kishida oz bo‘lsada, chang cholg`usi repertuarlariga qiziqish paydo bo`ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Ergasheva.G “Chang cholg`usida ijrochilik san`ati” “Musiqa” nashriyoti Toshkent 2012- yil
2. Lutfullayev.A “Xalq cholg`ularida ijrochilik {Chang}” Toshkent 2017 -yil
3. Yusupova. Z “Chang cholg`usining tadrijiy rivojlanishi jarayoni” international scientific journal 2022
4. Abdugapparova.D “Maktab repertuarini o`rganish {Chang}” 2024-yil 12-bet
5. Mamadaliyev.A “Xalq cholg`ularida ijrochilik. Chang” 2023-yil 8-bet
6. Lutfullayev.A “Xalq cholg`ularida ijrochilik. Chang” 2017-yil
7. Turatov s. Significance of the student’s orchestra of uzbek national instruments in the educational process of state institute arts and culture of uzbekistan //Culture and Arts of Central Asia. – 2019. – T. 11. – №. 1. – C. 55-59.

O‘ZBEK BAXSHICHILIK SAN’ATI VA DO‘MBIRA CHOLG‘USI SOZGARLIGI USTALARI

Rashidov Qaxromon Yuldosh o‘g‘li
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqimizning baxshichilik san’atiga oid bo‘lgan do‘mbira cholg‘usi tuzilishi, ijro uslublari, hamda ularda ijro etiladigan milliy kuy va nag‘malarning bugungi kundagi tutgan o‘rni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, do‘mbira cholg‘usi sozgarligi va cholg‘uning yasalishi masalasi ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Baxshichilik san’ati, do‘mbira cholg‘usi, sozgarlik, usta, ustoz-shogird an’analari, milliy musiqa, maktab, sozanda, madaniy meros.

Аннотация: В данной статье рассматривается строение инструмента домбры, входящего в искусство бахши нашего народа, стили его исполнения, а также роль исполняемых на нем в наши дни национальных мелодий и песен. Также поднимается вопрос настройки инструмента домбры и изготовления инструмента.

Ключевые слова: Искусство бахши, инструмент домбра, гармония, мастер, традиции мастер-ученик, национальная музыка, школа, музыкант, культурное наследие.

Abstract: This article discusses the structure of the dombira instrument, which is part of the Bakhshi art of our people, its performance styles, and the role of the national melodies and songs performed on it today. The issue of the tuning of the dombira instrument and the manufacture of the instrument are also raised.

Keywords: The art of bakhshi, dombira instrument, harmony, master, master-student traditions, national music, school, musician, cultural heritage.

Do‘mbira cholg‘usi professional cholg‘u ijrochiligida qo‘llanilmasada, xalqimizga tanish musiqa cholg‘usidir. Baxshilarning eng yaqin hamrohi, tinglovchi bilan muloqotda eng yaqin yordamchisi bo‘lgan do‘mbira juda qadimiy cholg‘ulardan hisoblanadi. Uning zaminimizdagi eng qadimiy torli cholg‘ulardan biri ekanligini tarixiy malumotlar va qazilma boyliklardagi tasvirlar isbotlaydi. Hozirda bizda qo‘llanilayotgan do‘mbiralar juda kam o‘zgarishga uchragan. Dastlabki davrlarda ichakdan, keyinchalik ipakdan eshilgan torlar hozirda plastik iplar bilan almashtirilgan, xolos.

“Do‘mbira asosan o‘rik (zardoli), pista, archa, tut, tol, olmurt (nok) daraxtlarining yog‘ochidan tayyorlanadi. Do‘mbiraning aniq o‘lchamlari yo‘q. U aksariyat hollarda mahalliy ustalar tomonidan tayyorlanganligi, bundan tashqari buyurtma beruvchining bo‘yi-basti, istagi inobatga olingani munosabati bilan turli kattalikda tayyorlanib kelinadi. Xalq baxshilari Shomurod Tog‘ayev, Shoberdi Boltayev va Surxondaryolik do‘mbira ustasi Shafoat boboning fikricha eng sadosi zo‘r do‘mbiralar olmurt (nok) daraxtining yog‘ochidan bo‘lar ekan. Hozirda do‘mbiraga tortiladigan plastik torlar o‘rnida avval echki ichagidan eshilgan tor ishlatilgan, Yoshi ulug‘ do‘mbira ijrochilari va baxshilar bergan ma’lumotlarga ko‘ra qadimda eng yaxshi tor sifatida «chumchuq pay» torlar ishlatilgan va ular haqiqatan ham chumchuqning oyog‘idagi pay qismidan eshilgan. Hozirda bunday torlami eshib tayyorlash texnologiyasi unutilgan. Do‘mbira cholg‘usi boshqa folklor cholg‘ulariga nisbatan ko‘proq o‘rganilgan va hatto unda ijro etilgan kuylar notalashtirilgan. Musiqashunos olim F.Karomatovning 1962-yilda nashr etilgan «Do‘mbira musiqasi» kitobi to‘liq mazkur cholg‘uga bag‘ishlangan”[1].

Asrlar davomida milliy qadryatlarimizni va madaniyatimizni ijro etuvchi, Surxondaryo va Qashqadaryo baxshilari tomonidan ijro etiladigan doston-u termalarga jo‘r bo‘lib, musiqiy sayqal beradigan bu do‘mbira cholg‘usi sozgarligi ko‘p yillardan buyon ustoz va shogird an’anasida, avloddan avlodga meros bo‘lib kelmoqda. Ana shunday noyob kasb egalaridan “Usta Shafoat Mamatqulov 1927-

[1] O‘.Toshmatov S.Turatov “Ko‘hna cholg‘ular ijrochiligi” “Tafakkur” nashriyoti Toshkent-2016 66-68-betlar

yil Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumanida tug‘ilgan. Uzoq yillar qishloq xo‘jaligida xizmat qilgan. Shu bilan birga, do‘mbira yasash bilan ham shug‘ullangan. Usta yasagan do‘mbira sozi jo‘rligida O‘zbekiston xalq baxshilari Shomurod baxshi Tog‘ayev, Abdunazar baxshi Poyonov, Egamberdi bobo Xolliyev mashhur doston va termalarini maroq va ilhom bilan ijro etib kelishadi. Usta Shafoat boboning o‘zi ham do‘mbirada 50 dan ortiq do‘mbira nag‘malarini qoyillatib ijro etgan. U kishi ijro etgan nag‘malardan ko‘pi “O‘zbekiston” radiosi tomonidan yozib olingan. Ustaning do‘mbirasozlik hunarini o‘g‘li Doniyor baxshi sadoqat va ixlos bilan davom ettirmoqda.

Usta Husan Haydarov 1928-yil Surxondaryo viloyatida tug‘ilgan. Do‘mbira yasash sirlarini 12 yoshligida otasi Haydar bobo To‘rayevdan o‘rgangan. Uning o‘zi ham bu sohada bir qancha shogirdlar tayyorladi. Masalan, mashhur do‘mbira ustasi Shafoat bobo Mamatqulov, Doniyor baxshi Mamatqulov usta Husan boboni shogirdlari hisoblashadi. 1983-yili Shahrisabz shahrida o‘tkazilgan hunarmandlar ko‘rgazmasida do‘mbira ustalari ichida usta Usmon Haydarov birinchi o‘ringa loyiq ko‘rilgan edi. Husan bobo yasagan do‘mbiralarda bugungi kunda O‘zbekiston xalq baxshisi Abdunazar Poyonov, Xushvaqt baxshi Mardonaqulov va boshqalar o‘z doston va termalarini, do‘mbira nag‘malarini sevib ijro etib kelishadi.

Usta Ibrohim Ernazarov 1938-yilda Surxondaryo viloyati Uzun tumanida tug‘ilgan. Ma’lumoti oliy. Fizika- matematika fanidan Uzun tumanidagi Oq ostona qishlog‘ida yigirma yil muallimlik qilgan. Ustachilikka qiziqishi 1983-yildan boshlangan. U o‘rik, tug‘dona, gilos, yong‘oq, tut daraxtlari yog‘ochlaridan do‘mbira yasaydi. Usta Ibrohimning do‘mbira yasash an’anasini shogirdlari, jumladan, Uzun tumani Qo‘rg‘oncha qishlog‘ida yashovchi usta Abdug‘affor Ismoilov davom ettirib kelmoqda. Ibrohim usta baxshilardan Boboraim baxshi Mamatmurodov, Xurram baxshi Eshbo‘riyev, Husan baxshi, Zulxumor baxshi va Ravshan baxshi Mamatmurodovlar usta yasagan do‘mbira cholg‘usidan foydalanib kelmoqda. O‘zi ham do‘mbirada nag‘malar chaladi. Ustaning nabiralari Dinmuhammad, Bunyod, Mansur va Erkinjonlar oilaviy an’analarni davom ettirgan holda do‘mbira sozgarlihi ustachiligi bilan shug‘illanib kelmoqda.

Usta Normurod Shoydilov 1950-yil Tojikiston Respublikasi Qo‘rg‘ontepa viloyatida tug‘ilgan. 1991-yili O‘zbekistonga ko‘chib kelgan. U 1994-1997-yillarda Gulbog‘ mahallasi oqsoqoli vazifasida ishlaydi. Ayni chog‘da, do‘mbira yasashga qiziqib, bu hunarning sir-asrorlarini o‘rgandi va o‘z uslubini yaratdi. U do‘mbira yasash uchun tanlagan yog‘ochni bir-bir yarim yil mobaynida loyli tuproqqa ko‘mib qo‘yadi. So‘ngra vaqti-vaqti bilan ko‘milgan shox ustiga suv

quyib turadi. Keyin ularni qazib olib, ishlov berishni boshlaydi. “Bir oyda bitta do‘mbira yo‘naman, deydi u. Birinchi do‘mbiramni Muzrabod tumanidagi usta Toji Ollayorov boboning O‘zbekiston xalq baxshisi Shoberdi baxshi Boltayevga yasab bergan do‘mbirasiga qarab yasaganman. Usta Toji boboni o‘zimning g‘oyibona ustozim deb bilaman. Chunki shu ustaning do‘mbirasidan ulgu va o‘lcham olganman”. Usta Normurod Shoydilov yasagan do‘mbira sozlarida bir necha yillardan beri O‘zbekiston xalq baxshisi Shoberdi baxshi Boltayev, Shodmon baxshi Xo‘jamberdiyev, Ismoil baxshi Anvarov, Mahmud baxshi Choriyev, Ilhom baxshi Norov, Safar baxshi Shoydilov foydalanib o‘z doston va termalari bilan, turfa xil nag‘malari bilan xalqimizga xizmat qilib kelmoqdalar.

Usta Doniyor Mamatqulov 1970-yili Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumani usta Shafoat Mamatqulov oilasida dunyoga keldi. U otasi yonida yurib do‘mbira yasash hunarini egallagan bo‘lsa, O‘zbekiston xalq baxshisi Boboraim Maxmamurodovga shogird tushib, undan ko‘plab doston va termalar o‘rganadi.

Usta Doniyor Respublikamizning turli hududlarida o‘tkaziladigan tadbirlarda faol qatnashib keladi. Jumladan, Ahmad al-Farg‘oniy tavalludining 1200 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan anjuman ishtirokchisi, Termiz shahrida bo‘lib o‘tgan “Alpomish” dostonining 1000 yilligida ham o‘z dasturi bilan ishtirok etdi. 2006-yili YUNESKO tomonidan o‘tkazilgan milliy cholg‘ular ko‘rgazmasida o‘z do‘mbiralari bilan qatnashib, YUNESKOning faxriy diplomi bilan taqdirlandi.

Usta Bahodir Boboqulov 1972-yil Surxondaryo viloyati Boysun tumani Omonxona qishlog‘ida chorvador oilasida tug‘ilgan.

U bolaligidan ustachilik bilan shug‘ullanib keladi, bu kasbga qiziqishiga otasi Norboy aka sababchi bo‘lgan. Do‘mbira, tor, doira, dutor, chanqovuz kabi cholg‘ularini yasab, xalqimizga xizmat qilayotgan san’atkorlarga taqdim etmoqda. Xorazm, Toshkent, Farg‘ona, Andijon, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ijod qilayotgan san’atkorlar usta Bahodir yasagan sozlar jo‘rligida xalqimizga xizmat qilib kelishmoqda. Ammo usta Bahodir uchun eng quvonchlisi el ardog‘idagi baxshilar Shoberdi baxshi Boltayev, Abdunazar baxshi Poyonov, Baxshiqul baxshi Tog‘ayev, Ismoil baxshi Anvarov, O‘rol baxshi Rahimov, Qahhor baxshi Rahimov aynan uning do‘mbiralariga ixlos qo‘yishgani, uning do‘mbiralari bilan xalq ko‘nglini chog‘lab kelishayotganidir[1]”.

Vohalarda doston ijrochiligining takomillashib borishi natijasida baxshichilik san’atida turli dostonchilik maktablari vujudga kelgan bo‘lib, bu

[1] O‘.Hakimov “Yuragimning jo‘ri bo‘lgan do‘mbiram” Toshkent “Akademnashr” 2019-yil. 188-193-betlar

dostonchilik maktablari vohalarning o‘ziga xos an’analari, shevalari va urf-odatlari bilan uyg‘unlashib ketgan.

O‘zbek baxshichilik san’atida Surxondaryo - Qashqadaryo ijro yo‘llarida baxshilar tomonidan chertib ijro qilinadigan do‘mbira sozi torli chertma xalq musiqa cholg‘usi bo‘lib, O‘zbek va Qozoq baxshichilik san’atida do‘mbira turlari mavjud: O‘zbek do‘mbirasining dastasi silliq, pardalari belgilanmagan bo‘ladi. Cholg‘uning asosiy qismi kosaxonasi dasta va torlaridir. Asosan o‘zbek baxshichilik san’atining Surxondaryo, Qashqadaryo Samarqand vohalari Bulung‘ur, Qo‘rg‘on, Qamay, Shahrisabz, Chiroqchi, Kofirun, Sherobod dotinchilik maktablarida keng foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” Toshkent 2008-yil
2. Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi” “O‘zbekiston” Toshkent 2023-yil
3. O‘.Toshmatov S.Turatov “Ko‘hna cholg‘ular ijrochiligi” “Tafakkur” nashriyoti Toshkent-2016
4. O‘.Hakimov “Yuragimning jo‘ri bo‘lgan do‘mbiram” Toshkent “Akademnashr” 2019-yil
5. Rashidov Q. THE ROLE OF THE DOMBIRA IN THE PERFORMANCE OF THE UZBEK SCHOOLS OF THE ART OF PENITY (SURKHONDARYA AND KASHKADARYA) //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 129-135.
6. Qizi, Xolmo‘Minova Saodat Muzaffar, and Beknazarov Xurshid. "BOLALAR MUSIQA VA SAN’AT MAKTABLARIDA AN’ANAVIY IJROCHILIK YO ‘LINI O ‘RGATILISHI (DUTOR CHOLG ‘USI MISOLIDA)." *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)* 1.Conference DSMI (2022): 92-95.
7. Toshmatov, O., and X. Beknazarov. "Cholg‘ushunoslik” darslik." Toshkent:“Turon-Iqbol” nashriyoti (2018).

O‘ZBEK MILLIY MUSIQASIDA AN’ANAVIY DUTOR IJROCHILIGI VA SOZGARLIK AN’ANALARI

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Xalq ijodiyoti (cholg‘u ijrochiligi) mutaxasissligi
2-bosqich magistranti
Rashidova Saodat
Ilmiy rahbar dotsent S.Turatov

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek milliy musiqa ijrochiligida dutor cholg‘usining kelib chiqish tarixi, ijro uslublari, tuzilishi hamda dutor cholg‘usi ustalari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: milliy cholg‘ular, dutor, dutor ijrochiligi, milliy musiqa, sozgarlik, ijod, sozanda, an’analar.

Аннотация: В данной статье представлены история возникновения дутарского инструмента в узбекском национальном музыкальном исполнительстве, стили исполнения, структура, а также мастера игры на дутарском инструменте.

Ключевые слова: национальные инструменты, дутор, дуторное исполнительство, национальная музыка, музыкальность, творчество, музыкант, традиции.

Abstract: This article presents the history of the emergence of the dutar instrument in Uzbek national musical performance, performance styles, structure, as well as masters of playing the dutar instrument.

Key words: national instruments, dutor, dutor performance, national music, musicality, creativity, musician, traditions.

Sharqning musiqiy cholg‘u sozlari – eng qadimiy o‘ziga xos va jonli san’atdir. Bizgacha yetib kelgan qadimiy tasvirlar, arxeologik topilmalar va o‘rta asrlardagi cholg‘u sozlarining tavsiflari ularning qadim-qadimlardan buyon mavjud ekanligini tasavvur qilish imkonini beribgina qolmay, shu bilan birga u yoki bu musiqiy sozlarning o‘zbek xalqi ajdodlari orasida azaldan foydalanib kelinganligi xususida ham ma’lumotlar beradi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari ijro amaliyotida tanbur, rubob, dutor, g‘ijjak, chang, nay, surnay, qonun, doyra sozlari kabi har tomonlama mukammal sozlar mavjud. Har bir musiqa cholg‘usining sozgarligi va o‘ziga xos ilmiy-tarixiy evolutsiyasiga ega. Sozgarlik takomillashish jarayonlarida cholg‘ularning shakli, ovozi, ovoz diapazoni kabi jihatlariga asoslangan.

Ana shunday cholg‘u sozlaridan biri – dutor o‘zbek xalqining musiqiy madaniyati bilan tarixan chambarchas bog‘liq san’at ramzidir. An’anaviy dutor cholg‘usi, manbalarda yozilishiga ko‘ra shakliy jihatdan o‘zgarmagan.



“Dutor - fors tilidan olingan bo‘lib, ikki tor degan ma’noni anglatadi. Ushbu cholg‘u o‘zbek, tojik, uyg‘ur, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalgan. O‘zbek dutori mayin, nafis va shirali ovozi bilan boshqa cholg‘ulardan ajralib turadi. U asosan tut, o‘rik yog‘ochlaridan yasaladi. Cholg‘uning kosaxonasi (rezonatori) 8-12 ta yupqa, bir-biriga yonma-yon yopishtirilgan taxtacha (qovurg‘a)dan ishlanadi. Kosaxonaning ustki, ochiq qismiga yupqa qopqoq yopiladi va kosaxona bo‘g‘oz orqali dastaga ulanadi. Dutorning uzun va ingichka dastasiga 15-17 ta parda boglanadi. Kosaxona va dastaga suyak va sadafdan ishlangan bezak naqshlar o‘yib yopishtiriladi. Torlari ipak iplaridan eshiladi”[1].

Qo‘sh torli cholg‘u dutor haqidagi ilk ma’lumotlar Mavlono Zaynulobidin Al-Husaynining Alisher Navoiyga bag‘ishlangan “Musiqiy ilm va amaliyot qonuni” risolasida ham uchraydi. XV asrning ikkinchi yarmida bitilgan bu risolada o‘sha zamonda kvarta intervali oralig‘ida sozlanuvchi, o‘n bir pardaga ega bo‘lgan dutor tavsiflanadi. Pardalar arab alifbosi harflari sirasi bilan belgilangan bo‘lib, an’anaviy musiqiy ohanglar yaratish meyyorlariga asoslangan hamda pardalarning hozirgi ovropacha nomlari va belgilaridan tubdan farq qilgan. Dutor O‘rta Osiyoda keng ommallashgan cholg‘u sozlaridan biri bo‘lib, hanuzgacha ijrochilik amaliyotida keng qo‘llanib kelinmoqda.

An’anaviy dutorning sozlanishi asosan uch xil bo‘ladi. Bu sozlarning nomlari xalq orasida Munojot, Tanavor va Qo‘shtor sozlari deb atalardi. Nota usulida esa Kvarta (Munojot) sozida birinchi tor “re” tovushiga sozlanadi. ikkinchi tor esa “sol” tovushiga sozlanadi. Kvinta (Tanavor) sozida birinchi tor “re” tovushiga sozlanadi. ikkinchi tor esa “lya” tovushiga sozlanadi. Unison (Qo'shtor) sozida ikkala tor ham “re” tovushiga sozlanadi.sozi deb yuritiladi.

Munojot (kvarta)



Tanavor (kvinta)

Qo‘shtor (unison)

[1] Ilyos Arabov “An’anaviy dutor” o‘quv qo‘llanma Toshkent “Tafakkur avlodi” 2022

O‘tmish davomida dutor ijrochiligining turli yo‘nalishlari yuzaga kelgan. Xalq ijodiyoti amaliyotida, yakkanavoz va jo‘rnavoz soz, hattoki an’anaviy uslubda o‘zining maxsus maqom yo‘llarini yaratishiga ham sabab bo‘lgan. Bunga yorqin misol Xorazm dutor maqomlaridir.

“Asrlar davomida dutorda ijro etilib kelinayotan ohanglarning sayqallashuvi, ularning shaklan rang- barangligi, usul va uslublari doirasining kengligi ijroning o‘ziga xos nafisligi va ta’sirchanligi an’anaviy ijrochilik san’atining mukammallashishiga, an’anaviy ijrochilik maktablarining paydo bo‘lishiga olib keldiki, bu omillarning barchasi o‘zbek milliy madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lmish dutor chalish san’atining ko‘lamini yetarlicha tasvirlaydi.

XIX-XX asrlarga kelib, mashhur dutorchilarning mustaqil ijro yo‘llari zamirida an’anaviy maktablar yuzaga keldi. O‘zbek milliy musiqa san’atida o‘zining betakror ijro yo‘llari bilan hamda, dutor cholg‘usi bo‘yicha o‘z maktablariga ega bo‘lgan mohir sozanda va ijodkorlar juda ko‘p. Shu o‘rinda biz Samarqandlik Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Xorazmlik Nurmuhammad Boltaev, Pahlavon Rasulov, Yusuf Jabborov, Toshkentlik Orif Qosimov, Mahmud Yunusov, Sayfiddin Yo‘ldoshev, Zokirjon Obidov, Faxriddin Sodiqov, Turg‘un Alimatov, G‘ulomjon Qo‘chqorov, Andijonlik Muhiddin Hoshim, Qo‘zixon Madraximov kabi o‘ziga xos dutor ijro yo‘llariga ega bo‘lgan ko‘plab san‘atkorlar ijrochilik maktablarini e’tirof etishimiz muhimdir.

Ayni paytda bizning Respublikamizda dutor ijrochiligi to‘rt voha uslublariga bo‘linadi. Bular: Xorazm, Samarqand-Buxoro, Qashqadaryo-Surxondaryo va Farg'ona-Toshkent uslublaridir. Bu uslublar ichida Xorazm va Fargona-Toshkent mahalliy yo‘llari alohida ajralib turadi. Nafaqat folklor va mumtoz san’atda, balki ijrochilikda shu vohalar cholg‘u sozining tuzilishi va ijro etilishida o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi”[1].

Vohalar ijro uslublarining takomillashib borishi natijasida dutor ijrochiligida turli maktablar vujudga keldi. Bu ijro maktablari vohalarning o‘ziga xos an’analari, shevalari va urf-odatlari bilan uyg‘unlashib ketgan. Bu avvalo cholg‘u sozi ko‘rinishida gavdalanadi.

Dutorlar oilasida olti xil dutor turi mavjud bo‘lib, bugunga kunda dutor sinflarida shulardan uch xil ko‘rinishdagi, ya’ni an’anaviy dutor (dutor tenor), dutor alt va dutor primalar ommalashib ijrochilikda keng qo‘llanilmoqda.

1938-yilda O‘zbekiston filormoniyasi qoshida mashhur san’atkor Ashot Petrosyan rahbarligida o‘zbek xalq cholg‘ularini qayta ishlash ustaxonasi tuzilib, boshqa cholg‘ular bilan bir qatorda dutor ham qayta ishlandi va dutorlar oilasi

[1] T.Suvonov “Dutor” ijrochilik uslubi o‘quv qo‘llanma

tashkil qilindi. Bularga: Dutor prima, Dutor sekunda, Dutor alt, Dutor tenor, Dutor bas va Dutor kontrabaslar kiradi. Dutor prima, Dutor sekunda, Dutor alt, Dutor tenorlar barmoqlar orqali, Dutor bas va Dutor kontrabaslar esa mizrob yordamida chalinadi.

Sharq musiqa milliy cholg‘ulari ustasi dutor, tanbur, g‘ijjak va ko‘plab cholg‘ular sozgarligi bo‘yicha an’anaviy tartibda avloddan avlodga meros bo‘lib kelayotgan, ana shunday noyob iste’dod sohiblari usta Usmon Zufarov o‘ymakor naqqosh, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi haqida so‘z yuritsak uning benazir iste’dodi, yaratgan cholg‘ulari va ko‘plab ijobiy hislatlari beixtiyor ko‘z oldimizga keladi.

“Usta Usmon ustozi Usta Toshboy Sulton o‘g‘lidan asosan an’anaviy sozgarlik sirlarini o‘rganib, 1922-yillarda yog‘och o‘ymakorlik sirlarini Toshkentlik mohir usta Abdumutal Tursunboev hamda uning o‘g‘li Nabijonlardan o‘rgangan. Milliy cholg‘ularimizning barcha turlarini risoladagidek ishlash malakasini hosil qilgan, ammo dolg‘ali inqilobiy davrning keskin talablari Usta Usmonni an’anaviy sozgarlikda misli ko‘rilmagan amallarga qo‘l urishga majbur etadi. Oqibatda, Usta Usmon yigirmanchi yillarning boshida an’anaviy sozgarligimiz tarixida shu vaqtga qadar ko‘rilmagan ajoyib bir cholg‘u-karnayli katta g‘ijjak ham yaratgan”[1].

Usta Usmon yog‘och o‘ymakorligi san’atini (o‘yib yasash usulini) birinchilardan bo‘lib qo‘llagan ustalardan hisoblanadi. Dutor bo‘g‘iziga ornamental bezaklar berib, quloqlari va xarragiga turli xil ko‘rinishlardagi bezaklarni o‘ylab topgan va aynan shunday uslubda bezak berishni o‘zi yasagan dutor, tanbur va sato cholg‘ularida yo‘lga qo‘ygan.

Usta Usmonning aytishicha, dutor cholg‘usining kosaxonasi qanchalik yupqa bo‘lsa, cholg‘uning tovushi shunchalik jarangli bo‘ladi. Aksincha, qanchalik qalin bo‘lsa, uning tovushi jarangsiz bo‘ladi. U dutor tovushining jarangli chiqishi uchun yillar davomida yaxshi quritilgan xomashyoni to‘g‘ri tanlash, dastani yong‘oq, o‘rik daraxtidan yasash, torlarini esa toza ipakdan tayyorlash kerakligini ta’kidlab o‘tadi. Usta Usmon juda didli, nozik tabiatli inson bo‘lganligi tufayli, yasagan cholg‘ulari ijrochini ruhlantirib ijro saviyasiga ham ta’sir ko‘rsatar edi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda O‘zbekistonda dutor san’ati o‘z rivojlanishining ma’lum bosqichini o‘tayabdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Dutor sozining sozshunoslar, sozgarlar tomonidan bir necha turlari yaratilganligi va ularning sifatli yasalishi bu san’atga o‘zining ma’lum ta’sirini ko‘rsatmoqda.

[1] Iqbol Tashpulatova "Oriental Art and Culture" Volume 4 Issue 3 / June 2023

Yurtimizda dutor san’ati sohasi bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislarning tarbiyalab yetishtirilganligi dutor ijrochilik san’atiga, cholg‘uda ijro etish va o‘rganish uslubiyoti yo‘nalishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi globallashuv davrida faqat Respublikamizda, balki turli xorijiy davlatlarda ham dutor ijrochilik san’atini targ'ib qilayotgan ijrochilarimiz bor. Ular o‘zbek musiqa san’atini yuqori pog‘onalarga ko‘tarib yuksak natijalarga erishib kelmoqdalar.

So‘z so‘ngida shuni aytish joizki dutor cholg‘ulari bugungi kunga kelib orkestr va ansambllarda o‘z o‘rniga ega cholg‘ulardan biridir. Bu cholg‘ularimiz yillar, asrlar osha o‘z tarovatini yo‘qotmay saqlab qoladi degan fikrdaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” Toshkent 2008-yil
2. Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi” “O‘zbekiston” Toshkent 2023-yil
3. T.Suvonov “Dutor” ijrochilik uslubi o‘quv qo‘llanma Toshkent “Bookmany print” 2022-yil
4. X.Beknazarov Maxsus cholg‘u Toshkent “Tamaddun” 2023-yil
5. Rashidov Q. Ancient and modern performance styles of changkovuz //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 5 SPECIAL. – C. 55-57.
6. Rashidov Q. The role of the dombira in the performance of the uzbek schools of the art of penity (surkhondarya and kashkadarya) //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 129-135.
7. Yuldashev, Izzat. "xorazm dutor ijrochiligi va unda ot jonzoti xususiyatlarining badiiy ifodasi." Academic research in educational sciences 2.4 (2021): 260-266.
8. Qizi, Xolmo‘Minova Saodat Muzaffar, and Beknazarov Xurshid. "Bolalar musiqa va san’at maktablarida an’anaviy ijrochilik yo ‘lini o ‘rgatilishi (dutor cholg ‘usi misolida)." *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)* 1.Conference DSMI (2022): 92-95.
9. Turatov s. Significance of the student’s orchestra of uzbek national instruments in the educational process of state institute arts and culture of uzbekistan //Culture and Arts of Central Asia. – 2019. – T. 11. – №. 1. – C. 55-59.

DOIRA CHOLG‘USINING O‘ZBEK MUSIQA MADANIYATIDAGI O‘RNI

Islomov Dilmurod Muxutovich
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist,
O‘zDSMI “Cholg‘u ijrochiligi”
kafedrasi professori

Annotatsiya: Doira cholg‘usi o‘zbek milliy musiqasida ritm beruvchi asosiy cholg‘u hisoblanadi. Doira usuli orqali musiqiy asarning tempi, ritmi ma’lum bo‘ladi. Mazkur maqolada doira cholg‘usining o‘zbek musiqasidagi o‘rni hamda ushbu cholg‘uga doir tarixiy ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa madaniyati, doira ijrochiligi, ijrochilik uslublari, ustoz-shogird tizimi, musiqiy meros.

Аннотация: Дойра основной ритмический инструмент в узбекской национальной музыке. Темп и ритм музыкального произведения определяются ритмом дойра. В статье представлена информация о роли инструмента дойра в узбекской музыке и исторические сведения об этом инструменте.

Ключевые слова: музыкальная культура, исполнительство дойры, стили исполнительства, система наставник-ученик, музыкальное наследие.

Annotation: Doyra is the main rhythmic instrument in Uzbek national music. The tempo and rhythm of a musical piece are determined by the rhythm of the doyra. The article provides information about the role of the doyra instrument in Uzbek music and historical information about this instrument.

Key words: musical culture, doyra performance, performance styles, teacher-student system, musical heritage.

Doira xalqimizning ma’naviy boyligi, undagi ijrochilik uslublari esa asrlar osha shakllanib, rivojlanib kelgan urma zarbli cholg‘u turi hisoblanadi. O‘rta asrlar kitob bezaklarida (miniatyuralarida) turli cholg‘ularda ijro etayotgan sozandalarga jo‘r bo‘lib ijro qilayotgan doirachilarni ko‘rishimiz mumkin.

Doira – aniq tovush balandligiga ega bo‘lmagan urma zarbli cholg‘ulardan biridir. Uning asosi tut, o‘rik, yong‘oq, tok daraxtlarining yog‘ochidan aylana shaklida yoki bo‘laklarga bo‘lib yasaladi. Bugungi kunda akatsiya, klyon daraxtlaridan ham xomashyo sifatida foydalanilmoqda. Doira gardishining diametri avvallari 39 sm. dan, 42 sm. gacha kattalikda yasalgan bo‘lsa, hozirda esa uning diametri 36-38 sm. ni tashkil etadi. Uning bir tomoniga teri qoplanadi. Gardishning teriga tutashgan ichki tomoni tovushni bo‘g‘masligi uchun biroz

yo’nilgan bo‘lishi lozim. Doira cholg‘usi uchun asosan, buzoq, tuya, toychoq terilaridan foydalaniladi. Bunda avvaldan ishlov berilgan va ivitilgan teri gardishga maxsus yelim (sirach) yordamida yopishtiriladi. Doira gardishning ichki tomoniga 50 tadan 75 tagacha maxsus metall halqachalar (shing‘iroqlar) o‘rnatiladi. Cholg‘u silkitib ijro qilinganda ushbu halqachalar yoqimli tovush hosil qiladi. Doirani quruq joyda saqlash tavsiya etiladi. Sababi, unga qoplangan teri namlik ta’sirida bo‘shashib, o‘zining jarangdor tovushini yo‘qotadi. Bu holatda, doirani oftobda, olovda yoki maxsus prajektorlarda ehtiyotkorlik bilan toblab, quritish zarur. Doira cholg‘usi qadimdan xalqimizning madaniy hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Tarixga nazar tashlasak, xoh u harbiy yurishlar bo‘lsin, xoh xonlar saroyidagi bazmlar, to‘y-tomoshalar, bayramlar, turli tantana va marosimlar bo‘lsin, ularning hech biri doira ishtirokisiz o‘tmagan. Bu davrlarda doiraning asosiy vazifasi raqsga melodik cholg‘ular va ovozga jo‘r bo‘lishdan iborat bo‘lgan. Odatda ansambllarda bir yoki bir necha doirachilar qatnashishgan.

Doira cholg‘usi XX asrning o‘rtalarigacha cholg‘u yasovchi ustalar tomonidan butun yog‘ochni egib, dumaloq shaklga keltirish orqali yasalgan. Shu bois bu doiralar ijrochilar orasida “egma doira” nomini olgan. Doira yasovchi ustalar vazifasiga ko‘ra, ikki alohida yo‘nalishga ajratiladi. Bular gardish yasovchi va teri qoplovchi ustalar. Ular bu vazifani alohida tarzda kasb sifatida rivojlantirgan desak, adashmagan bo‘lamiz.

Keyinchalik texnika va texnologiyalar rivojlanishi natijasida doirani zavod va fabrikalarda maxsus dastgohlar (stanoklar) da yasash imkoniyati yaratildi. Yana bir jihatga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, XX asrning o‘rtalariga kelib, yurtimizda doira ijrochiligini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yuqori darajaga ko‘tarildi. Ko‘plab yoshlar aynan doira cholg‘usiga mehr qo‘ydi. Sababi, o‘sha davrga kelib o‘zbek doira san’atida o‘ziga xos ijrochilik maktablari shakllana boshladi. Barcha tantanalar, to‘y-tomoshalarda doirachilar ansambl bo‘lib o‘z mahoratlarini namoyish eta boshladilar. Shu bois doira ijrochiligini o‘rganish va bu cholg‘uga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortdi. Shundan kelib chiqib doiralarni zavod va fabrikalarda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Ularda tayyorlangan doira gardishlari bir necha bo‘laklarga bo‘lingan yog‘ochlarni bir-biriga dumaloq shaklda yelimlash uslubida yasalgan. Teriga ishlov berish va qoplashda ham farq bor. Fabrika va zavodlarda yasalgan doiralarga asosan sun’iy ishlov berilgan teridan foydalaniladi. Ammo sun’iy teri qo‘lda ishlov berilgan terichalik pishiq sifatga ega bo‘lmaydi. Boisi, teriga ishlov berishda kimyoviy vositalar qo‘shiladi. Bu holat terining chidamlilik darajasini pasaytiradi va tez orada ishdan chiqadi,

yoriladi. Asosiysi, doira ustalari tomonidan qo‘lda ishlov berilgan (oshlangan) terilardek kuchli, yorqin sadoga ega emas. Fabrika va zavodlarda yasaladigan doiralar terisining ichki qismiga mohir rassomlar, hattotlar tomonidan turli xil miniatyuralar tasviri tushiriladi. Shuningdek, gardishning old (yuz) qismiga ustalar tomonidan sadafdan naqshli geometrik shakllar bilan bezak beriladi. Bu ko‘rinishdagi doiralar asosan, havaskor ijrochilar uchun mo‘ljallangan. Shu bilan birga hunarmandchilik san’atining bir ko‘rinishi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Maxsus doira yasovchi ustalar tomonidan yasalgan doiralar professional ijrochilikda qo‘llaniladi. Doiralar ijrochining yoshi, gavda tuzilishiga qarab turli o‘lchamda va og‘irlikda yasaladi. Doiralarning vaznidagi farqlanishga e’tibor qaratidagan bo‘lsak, ustalar tomonidan yasaladigan standart doiralarning vazni 2000 (ikki ming) grammdan 3000 (uch ming) gramm oralig‘ida bo‘lsa, fabrika va zavodlarda yasaladigan doiralar 1000 (ming) grammdan 1500 (bir yarim ming) gramm og‘irlikda tayyorlanadi.

Markaziy Osiyo xalqlari musiqa madaniyatida ko‘plab doirasimon cholg‘ularni uchratishimiz mumkin. Masalan, turk doirasi 2 xil ko‘rinishda bo‘ladi. Bular: gardish atrofida halqalar joylashgan doira va gardishiga faqat teri tortilgan doira. Ikkinchi ko‘rinishi o‘zbek doiralariga yaqindir. Biroq uning gardishi ichida milliy doiramiz singari temir halqachalari yo‘q. Turklarning birinchi ko‘rinishdagi bubenlari esa slovyan, Kavkaz xalqlarida, shamanlar ijodida keng tarqalgan.

Jo‘rnavoz va yakka zarbli soz sifatida ommalashgan doira o‘zining rivojlanib kelayotgan milliy ohanglarga boy zarb va usullari bilan xalqning hurmat-e’tiborini qozongan.

Ma’lumki doira va barcha zarbli cholg‘ular ijrochiligi vujudga kelishi va ravnaqi jarayonida Markaziy Osiyo miqyosida har bir vohada o‘ziga xos mahalliy ijrochilik uslublari shakllangan. Mazkur uslublarda har bir vohaning o‘ziga xos xususiyatlari, ahamiyatga molik tomonlari hamon o‘z mohiyatini saqlab kelmoqda. Bularga Xorazm doira ijrochiligi, Buxoro-Samarqand, Farg‘ona vodiysi hamda Toshkent doira ijrochiligini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Musiqaga oid manbalardan ma’lum bo‘lishicha, qadimdan barcha vohalar musiqiy dastalarining ijro faoliyatida doira doim ishtirok etgan. Odatda bir doirada chalish keng ommalashgan, lekin ayrim hollarda ikki, uch doira ham chalinganligi ma’lum. Biroq, barcha ma’lumotlarda birdek, doira yakkanavozligi to‘g‘risida so‘z yuritilmagan. Ushbu holat XX asrning dastlabki yillariga ham

taalluqlidir. Ammo, doira cholg‘usining butun ijroviy xususiyatlari yakkanavozlik, raqsga jo‘r bo‘lish jarayonida to‘la namoyon bo‘ladi.

Markaziy Osiyo hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida olingan malumotlarda oldingi zamonlarda doiraga asosan ayollar jo‘r bo‘lganligi haqida so‘z yuritdik. Ularning doira usullariga mos qo‘shiq aytish va raqsga tushishi o‘sha davrlarda shakllanib, asrlar osha rivojlanib, takomillashib kelmoqda.

Farg‘ona vodiysi, Toshkent va boshqa hududlarda qaror topgan nikoh to‘yi marosimida esa ayollar kelinni kuyovnikiga uzatib borish jarayonida mungli “Yor-yor” qo‘shig‘ini raqsbop doira usuliga bog‘lab aytganlar. Hozirda ko‘proq badiiy farahbaxshlik tusini olayotgan bu an’ana mazmunida o‘tmishda yangi (Sharqda doim muqaddas hisoblangan) oila hayotiga “qadam” qo‘yayotgan kelinni ko‘zga ko‘rinmas yovuz ins-jinslardan muhofaza qilish ham ko‘zda tutilgan edi [10; 23-b.].

Doira cholg‘usida yakka ijrochilik rivojlanishida raqs san’atining ta’siri katta bo‘lganligini e’tirof etish lozim. Mazkur jarayon raqslarga xos harakat, lutf, joziba, imo-ishoralar kabi xalqimizning o‘ziga xos go‘zal an’analarini doira usullarida to‘la ifodalash bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, bu holat xilma-xil, rang-barang usullar majmuasini tuzish va ularni mohirona chalish bilan chegaralanib qolmay, balki milliy raqs san’ati sirlarini ham tushuntirish, tinglovchilariga yetkazib berish, yurakdan his etishni talab qiladi.

Ohang va vazn jihatdan tarkib topgan xilma-xil murakkab raqslar majmuasida bir usuldan ikkinchi usulga o‘tishning tabiiy va mantiqiy asoslangan yo‘lini topish doira ijrochisining mahoratiga bevosita bog‘liqdir. Bundan tashqari, yangi-yangi raqslarni (doira jo‘rligida) yaratish, ularni o‘zlashtirish kabi bir qator tadbirlarda doirachi g‘oyat muhim rol o‘ynaydi. Zero raqsni erkin rivojlantirishning asosiy mezonlaridan biri usullar majmuasidir. Buning isbotini biz atoqli sozanda, baletmeyster Usta Olim Komilov va taniqli raqqosa Tamaraxonim doira raqslarini ilk bora ijro etib, ulkan olqishlarga sazovor bo‘lganliklarida ko‘ramiz.

Usta Olim Komilovning boy merosi avlodlar uchun katta maktab vazifasini o‘tamoqda. Mashhur doirachilar To‘ychi Inog‘omov, G‘ofur Azimov, Raxim Isaxo‘jayev, Anver Barayev, Dadaxo‘ja Sottixo‘jayevlar ustaning an’analarini davom ettirganlar.

Ularning yetuk shogirdlari ham o‘z navbatida bugungi kunda yangi avlodga doira chalish sirlarini o‘rgatish bilan bir qatorda ularni yuksak saviyali, nafosatli

qilib tarbiyalash, dunyoqarashini boyitishda xizmat qilishmoqda. O‘quvchi-yoshlarni milliy xalq san’atidan bilim olishlari uchun Respublikamiz tuman, shaharlaridagi maktablar, ijodiyot markazlarida doira to‘garaklari tashkil etilgan.

Doira to‘garaklariga o‘quvchilarni qabul qilish ishiga alohida e’tiborni qaratish lozim. Musiqaviy xotira, eshitish va qaytarish, usul eshitish qobiliyati mustahkam o‘quvchilar to‘garakka jalb etiladilar. Mashg‘ulotning birinchi kunidan boshlab, har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy doirasiga ega bo‘lishi shart.

Doira musiqasi ilgari nota yozuviga ega bo‘lmagan, shu sababli og‘zaki ravishda avlodlardan-avlodlarga o‘tib kelgan.

Bugungi kunda o‘zbek an’anaviy musiqasiga e’tibor yanada kuchaydi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlarning tiklanishi musiqa sohasida ancha o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Qadimiy milliy musiqamizdagi boy badiiy tasviriy vositalar bilan bir qatorda, yangi janr va turlarini o‘zlashtirish natijasida o‘zbek musiqa san’ati yana ham yuksak darajaga ko‘tarildi. Shu boisdan respublika miqyosida ko‘plab ko‘rik-tanlovlar tashkil qilinmoqda. Bu esa yosh ijrochilarning o‘z san’atlarini namoyish etishlarida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Akbarov I. “Doiraning zarblari” O‘zbekcha usullar to‘plami – Toshkent, 1952 y.
2. Islomov D. “Maxsus cholg‘u ” – Toshkent: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2015 y.
3. Islomov D. “Doira san’ati darg‘alari” – Toshkent: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2019 y.
4. Islomov D. “Moziydan sado” – Toshkent: “Ekstremum press” nashriyoti, 2015 y.
5. Vizgo T.S. “Музыкальние инструменты Среднее Азии” – Moskva, 1980
6. Qobilqoriyev Q. “Doira cholg‘usining o‘zbek milliy musiqa mada-niyatidagi o‘rni” Magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent: 2020-y. 116 b.
7. Ugli K. K. B. “Development of performance skills of future music teachers using percussion instruments” //European International Journal of Pedagogics. – 2023. – T. 3. – №. 06. – C. 53-56.
8. Qobilqoriyev Q. “Doira ijrochiligi rivojida ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviy-likni ta’minlash”. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary, 2022.
9. Кобилкориев К. Musiqiy ta’lim jarayonida doira ijrochiligini rivojlantirish //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 2/S. – С. 447-451.
10. Turg‘unova N. Farg‘ona vodiysi yallachilik san’ati: Diss. San.fan.fal.dok. – Namangan, 2016-y. – 23-b.

СОЗГАРЛИК САЛОҲИЯТИ

Эргашева Гулчехра Туробовна
Ўзбекистон давлат консерваторияси
“Миллий чолғу” Илмий ишлаб чиқариш
экспериментал лабораторияси
катта илмий ходими, санъатшунослик фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD)
ergasheva.g.t@mail.ru

Аннотация: Созгарлик - бевосита ижрочилик амалиёти билан боғлиқ ҳолда тараққий этиб келган соҳадир. Дастлаб мусиқий чолғулар пардасига замонасининг етук ижрочилари ҳамда мусиқа илмидан хабардор бўлган олиму фузалолари турли ўзгартишлар киритиб келган бўлса, кейинги даврларда соз ясаш ҳунари алоҳида ажралиб чиқиб, тараққий этди. Пировардида, созгарлик устоз-шогирд анъаналари шаклланди.

Аннотация: Прогресс развития ремесла по изготовлению музыкальных инструментов был непосредственно связан с исполнительской практикой. Если изначально новшество в конструкцию музыкальных инструментов вносили искусные исполнители и ученые своего времени, то в более поздние периоды это сфера стала развиваться самостоятельно. В процессе которого сформировались своеобразные традиции по этому ремеслу.

Annotation: The progress of the development of the craft of making musical instruments was directly related to performance practice. If initially innovations in the design of musical instruments were introduced by skilled performers and scientists of their time, then in later periods this area began to develop independently. During this process, unique traditions of this craft were formed.

Калит сўзлари: ҳунар, мусиқий чолғу, парда, қазма, созгар, бастакор, салоҳият.

Ключевые слова: ремесло, музыкальный инструмент, лад, долбленный, мастер по изготовлению музыкальных инструментов, композитор, способность.

Keywords: skill craft, musical instrument, fret, dugout, musical instrument maker, composer, ability.

Соз ясаш ҳунари аждодларимизнинг бадиий тафаккурининг маҳсули бўлиб, бу соҳа бевосита ижрочилик амалиёти билан боғлиқ ҳолда тараққий этиб келган. Ўтмиш саҳифаларини варақлар эканмиз, мусиқий чолғулар қурилмасига, шакли ёки пардаларига киритилган ҳар қандай ўзгартишлар, ўз даврининг етук ижрочилари ҳамда мусиқа илмидан хабардор бўлган олиму фузалолари томонидан амалга оширилганлигини гувоҳи бўламиз. Масалан, уд чолғуси тадрижиётини кузатадиган бўлсак, унинг “барбат” деб юритилган қадимий кўринишини адабий асарларга ишланган миниатюралар орқали тасаввур этишимиз мумкин. Мусиқа амалиётини ривож топиши жараёнида созандалар бу чолғунинг қурилмаси ва пардаларига янгича ёндашиб бордилар. Хусусан, араб машҳур қўшиқчиси ва мусиқачи Мансур Залзал (721-791) калта дастали удни кашф этиб, ясаб, ундаги пардалар ўрнини белгилайди. Шу сабаб бўлса керак, араб манбаларида “Залзал пардалари” деган ибора мавжуд (2,30).

Яна бир эътиборли томони, Залзал удни ясашда анъанавий “қазма” услубидан чекиниб, чолғу косахонасини “қовурға” услубида, яъни ёғоч бўлакчаларини бир-бирига елимлаб ёпиштириш кўринишида тайёрлайди (Кейинги даврларда ушбу “қовурға” услуби европа мусиқа чолғулари, шунингдек, ўзбек халқ чолғулари косахоналарини ясашда кенг қўлланилган). IX асрга келиб ўрта аср алломаси Абу Наср Форобий тўрт торли удга бешинчи торни қўшиб, унинг товуш кўламини кенгайтиришга муяссар бўлди. Шундан сунг, бу чолғу “уд-и комил” (“такомиллашган уд”) номи билан юритилган. XV асрларга келиб чолғу торлари ўн иккитага етказилган ва бир неча асрлар ижро амалиётида ҳамда мусиқа назариясини тушунтириб беришда етакчи чолғу вазифасини ўтаган.

X асрларда Форобий туфайли “мусиқа илми” алоҳида назарий соҳа сифатида майдонга келганидан сўнг, ўрта аср мутаффакирлари яратиб кетган “Мусиқий рисола”ларда бир қатор мавжуд чолғуларнинг тузилиши ва уларга киритилган ўзгартиришлар ҳақида муҳим маълумотлар баён этилган. Хусусан, X асрда Самарқандлик шоир ва чолғучи Хаким Абу Хафсом ибн Ахвас ас-Суғди Боғдодда “шохруд” чолғусини яратгани, чолғучи ва бастакор Қулмуҳаммад Уддий (XVa.) икки торли ғижжак

чолғусига учинчи торни қўшгани, XVII асрда яшаб ижод қилган созанда, бастакор, аллома Дарвеш Али ва унинг падару бузруквори замонасининг моҳир чангнавози, созгар уста Мирзо Али Чангийлар чанг(арфа) торларини ўттиз иккитага етказгани ва ҳ.к. Ушбу маълумотлар шундан далолат беради, ўша давр моҳир ижрочилари "мусиқа илми"ни чуқур эгаллаган. Шунингдек, уларда мусиқий товушни ҳис этиш кўникмалари юқори бўлганлиги сабабли, ўз чолғуси пардаларини ижро талабларига мослаштириб борган. Аниқроғи, машшоқ нафақат *мусиқачи*, балки *бастакор* ва *созгар* ҳам бўлган.

Инсоният тарихида меҳнат тақсимоти, ишлаб чиқариш фаолияти вужудга келганидан сўнг, дурадгорлик, бинокорлик, кўнчилик, тикувчилик, заргарлик каби кўплаб ҳунарлар жадал тараққий этиб боради. Бироқ соз ясаш ҳунари ошкора эмас, балки пинҳона амалга оширилиб, санъатга ихлосманд бўлган дурадгорларгина яширинча соз ясаб турганлар. Айрим маълумотларга кўра, ўша кезлари "соз ясаш" жиддий ҳунар ҳисобланмаган. Хусусан, ўз даврида дутор чолғусини маромига етказиб ясаган Уста Умарали (тахм.1850й.) номдор иморатсоз устанинг ўғли бўлган. Отаси Умаралини "Дутор ясама! Бу бачкана ҳунар", -деб койир экан. Аммо Умарали дутор ясашни хумор қилар экан. Шунинг учун у отасидан яширинча дутор ясаб юраркан. Шу аҳволда, Уста Умарали дуторни жуда етилтириб ясаркан"(1, 56).

Уста Умаралининг шогирди Уста Тошбой (Уста Усмонннинг устози) ҳам ром, эшиклар ясайдиган моҳир дурадгор бўлган. Айниқса, ўн қутили шкафлар ясаш борасида ном таратган. Уста Тошбойнинг соз ясашга бўлган қизиқиши, уни Уста Умаралидан созгарлик сирларини мукаммал ўрганишга ундайди. Уста Умарали ўзи ясаган дуторларидан бирини зеҳнли шогирдига совға қилади. Уста Тошбой бу дутор андазаси асосида кўплаб бежирим дуторларни ясайди. Созгарлик ҳунарида беқиёс аҳамиятга молик бўлган бу анъанан давом этди, яъни устозидан бу чолғу Уста Усмон қўлига ўтди. Аниқроғи, Уста Тошбой зукко шогирди ёш Усмонга мустақил фаолият олиб бориши учун "фотиҳа" бериши жараёнида удумга кўра, янги сарпо билан кузатиши лозим бўлган. Шунда Уста Усмон устозидан унга қадрли бўлган Уста Умаралининг дуторини беришини сўрайди.

"Кейинчалик, бу дутор Уста Усмон учун бир умр ўзига хос мезон (эталон), қолаверса, Уста Усмон сўзлари билан айтганда "ноёб китоб" – қўлланма вазифасини ўтади", - деб ёзади ўғиллари Тўхтамурод Зуфаров (1,55).

Машҳур қўли гул уста дутор чолғусининг сифати билан чегараланиб қолмай, уларнинг ташқи кўринишига ҳам эътибор қаратади ва ясаётган дуторларини турли безаклар билан сайқаллаштиради. Чолғунинг даста қисмига туширилган бежирим ҳашамлар, ўзгача шаклда ясалган қулоқ ва харраклар, чолғу бўғзига ўйиб тушурилган “дарахт шоҳида сайраётган булбул”[1] рамзи бундан далолат беради. Алқисса, замонавий ижро амалиётида кенг қулланиб келинаётган анъанавий дуторнинг асл нусҳаси XIX асрда яшаган созгар Уста Умаралининг меҳнат маҳсули бўлиб, созгарлик соҳасида шаклланган устоз-шогирд анъанаси ёрдамида ушбу дутор андаза сифатида бизнинг даврмизгача етиб келди.

Уста Усмон созгарлик ҳунарини устозидан мукаммал ўрганган бўлсада, у бу соҳани забардаст ижрочиларнинг маслахати ва таклифлари билан янада ривожлантириб борди. Тўхтамурод Зуфаровнинг айтишларича, оталари Уста Усмон чолғунинг “хос овоз”и (тембр) тушунчасини машҳур чимкентлик танбурчи Султонхон Хакимовдан ўзлаштирган экан. XX аср бошларида Тошкентда танбур чертиш билан шуҳрат қозонган Султонхоннинг танбурига Уста Усмон бир неча бор қопқоқ солиб берган. Созгар ҳар гал янги қопқоқни тайёрлаб, танбурга ёпиштиргач, Султонхон диққат билан созлаб, бир оз чертиб кўрарканда: “Узр дўстим, қопқоқ тушмади”, - дер экан. Шу зайилда беш-олти қопқоқ тайёрланган ва охиргиси созандага маъқул бўлиб “Мана шуниси рисоладагидей чиқди. Бу танбурнинг хос овози”, - дея, ҳузурланиб куй чалган. У.Зуфаров дарҳол ясаган қопқоғининг ўлчовини, юпқа қалинлигини эслаб, хотирасига сақлаб қуяди. Уста Усмон олиб борган изланишлари, олган мусиқий билмлари, уни етук созгар бўлиб етишувида муҳим аҳамият касб этди.

Хулоса ўрнида айтиш жоизки, созгарлик соҳаси – бу жонли жараён. Унга изланувчанлик ва яратувчанлик ҳосдир. Созгар ижодий камолотга етиши учун ўз касби бўйича етарли билим ва тажрибага эга бўлиши, тайёр бўлган чолғусининг овоз мукаммаллигини синаш учун куй чалиш кўникмаси бўлиши лозим. Шу боисдан, бу учлик “*созгар - мусиқий чолғу - ижрочи*” даврлар оша яхлит бир бутунликда тараққий этиб келган ноёб феномендир.

[1] Айтишларича, У.Зуфаров ясаган дуторларига “булбул” сиймосини тушириш учун, уста бир неча ойлаб анор дарахти тагида ётиб, булбул сайрашини кузатган экан.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Зуфаров Т. Соз ва созгарлик тарихи. (Миллий мусиқа асбоблари устасиУсмон Зуфаровнинг ҳаёти ва фаолияти). “MERIYUS” T.:-2014.

2. Орипов З. Шарқ мусиқий манбашунослиги (X-XIасрлар) -Т.: 2008.

O‘ZBEK MILLIY CHOLG‘ULARINI IJRO ETA OLADIGAN MALAKALI KADRLARNI TAYORLASH METOD VA TEXNOLOGIYALARI

Rustamov Davron
Namangan davlat universiteti
San’atshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqola O‘zbek milliy cholg‘ularini ijro etadigan malakali kadrlarni tayyorlashning zamonaviy metod va texnologiyalarini tahlil qiladi. An’anaviy ustoz-shogird an’anasini saqlab qolish bilan birga, zamonaviy musiqa ta’limi tizimini qo‘llash, kompyuter texnologiyalarini integratsiya qilish, ijro texnikasini takomillashtirish, repertuarni kengaytirish, musiqa tarixi va nazariyasini o‘rganish, sozgarlik san’atini rivojlantirish va ijrochilik an’analarini saqlab qolish kabi muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: *Madaniyat, san’at ,ijodiyot,ta’lim-tarbiya, metod, estetika, etika, texnologiya, integratsiya, texnika, qobilyat, obraz, ijro, ustoz-shogirt,an’ana*

МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ ПОДГОТОВКИ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ ДЛЯ ИГРЫ НА УЗБЕКСКИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТАХ

Аннотация: В данной статье анализируются современные методы и технологии подготовки квалифицированных кадров для игры на узбекских национальных инструментах. Сохраняя традиции традиционного педагога-ученика, оно включает в себя такие важные аспекты, как применение современной системы музыкального образования, интеграция компьютерных технологий, совершенствование исполнительской техники, расширение репертуара, изучение истории и теории музыки, развитие музыкального искусства, сохранение исполнительских традиций.

Ключевые слова: *Культура, искусство, творчество, образование, метод, эстетика, этика, технология, интеграция, техника, способность, образ, результативность, учитель-ученик, традиция.*

METHODS AND TECHNOLOGIES FOR TRAINING QUALIFIED PERSONNEL WHO CAN PLAY UZBEKISTAN NATIONAL INSTRUMENTS

Abstract: This article analyzes modern methods and technologies for training qualified personnel to play Uzbek national musical instruments. While preserving the traditional tradition of teacher-student, it includes such important aspects as the use of a modern music education system, the integration of computer technologies, the improvement of performance techniques, the expansion of the repertoire, the study of music history and theory, the development of the art of speech, and the preservation of performing traditions.

Keywords: *Culture, art, creativity, education, method, aesthetics, ethics, technology, integration, technique, ability, image, performance, teacher-student, tradition.*

Oliy o‘quv yurtidagi ta’lim va tarbiya, zamon talablariga javob beradigan va amaliy faoliyatni boshlashdanoq, uning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan sifatlarga ega bo‘lgan mutaxassislarni yetishtirishi lozim. Hozirgi kunda oliy o‘quv yurtlaridagi ta’lim jarayoni o‘z vazifasi va jadalligiga ko‘ra ancha murakkablashdi. Shuning uchun uning yo‘nalishi, mazmuni va uslubiyati masalalarini ilmiy asosda hal qilmay turib, jamiyatning doimiy ortib borayotgan talablariga mos mutaxassislar tayyorlash samaradorligini ta’minlash mumkin emas.

Mutaxassis tayyorlashning maqsadi, vazifalari va xususiyatlarini o‘rganish talablarni o‘qitish hamda tarbiyalashning mazmuni, tamoyillari va usullarini to‘g‘ri belgilashning eng muhim shartidir. Qolaversa, prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning musiqa san’ati uchun bir qator qarorlar qabul qilgani ham barchamizga ma’lum. 2017 yil 3 avgustda ijodkor ziyolilar bilan bo‘lgan uchrashuvida bildirgan fikrlaridan biri – “Ayni vaqtda O‘zbekiston yoshlarini haqiqiy san’atni anglashga o‘rgatish ularni estetik olamining sog‘lom asosda shakllantirish” kabi muhim vazifalar turganini aytdilar.Yana bir muhim jihati, 2022-yil 2 fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga binoan turli joylarda qaror yuzasidan yig‘ilishlar o‘tkazilyapti [1.1].

Mazkur qarorning 1- ilovasida maktab o‘quvchilariga milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahorati o’rgatilishi belgilangan. 4-ilovasida keltirilishicha, O‘zbek va jahon adabiyotining sara namunalari asosida maxsus ovoz yozish studiyalarida taniqli san’atkorlarga o‘qitgan holda “Siz sevgan ijodkordan tuhfa” turkumida audiokitoblar tayyorlash, madaniyat va san’at sohasida ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-uslubiy manbalarni yaratishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ham ko‘zda tutilgan. Bu esa butun san’at ahli, cholg‘u ijrochilari uchun alohida e’tibordir. [2.86-90].

Mashxur rus musiqachisi Genrix Gustavovich Neygauzning taxminan bir asr oldin musiqa olamini qayg‘urib “Menga qolsa, o‘rta maktabda biron cholg‘u orqali majburiy musiqa ta’limini joriy qilar edim” degan fikri bugungi kunda o‘z isboti va tasdig‘ini topdi deya bemalol ayta olamiz. Ijrochilik - bu qanday sohada bo‘lmasin, u xoh teatr yoki kino sohasida, xoh sozandalik yoki xonandalik sohasida bo‘lmasin kundan-kun rivojlanib, takomillashib boradigan jarayon ekanligi hammaga ayon. Xususan, cholg‘u ijrochiligi sohasida juda ko‘p ijobiy va ijodiy rivojlanishlar yuz berdi. Bu masalaga pedogogik yondoshishning samarali uslublari azaldan kelayotgan ustoz-shogird an’analari bilan bevosita bog‘langan holda davom etib kelyapti. Bunda o‘quvchini bosqichma bosqich uzviy ta’lim asosida o‘qitilib, ta’lim asosi sifatida birinchi navbatda musiqa maktablari, keyin kollej va oliy ta’lim muassasalarida tahsil olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

O‘zbek xalqining boy musiqa merosini o‘rganish va uni kelajak avlodga yetkazish, targ‘ib qilish ishlari san’atimizning jonkuyar tashabbuskorlari va mohir ijrochilari zimmasida bo‘lmog‘i zarur. Chunki bizning davrimizgacha yetib kelgan ulkan musiqiy merosimiz ustozdan – shogirdga bevosita o‘tishda tabarruk zotlar ko‘prik vazifasini o‘tash bilan birgalikda, o‘zlarining ijodlari bilan ham namuna bo‘lganlar. Bugun esa san’at dargohiga ilk bor qadam qo‘ygan yosh yigit va qizlar o‘z qiziqishlari bilan musiqa san’ati sirlarini astoydil o‘rganyaptilar. B.M. Teplovning fikricha, - “shunisi muhimki, badiiy tarbiyada biron bir san’at turi bilan shug‘ullanish, san’atning boshqa turlaridagi badiiy qobiliyatlarning shakllanishiga katta yordam berishi mumkin[3.122-125]. O‘quvchi va talabalarda badiiy bilimlar qancha ko‘p bo‘lsa, ular har xil sanэat asaridagi obrazlarni shuncha to‘la va chuqur tushunishlari va anglashlari mumkin”. San’at bilan bevosita amaliy shug‘ullanishning o‘ziyoq juda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Ijro etilayotgan obrazlarga va ular orqali voqeiylikdagi hodisalarga, hissiyot va kechinmalarga estetik munosabat,o‘quvchilarni estetik tarbiyalashning bevosita va faol yo‘lidir.

O‘zbek milliy cholg‘ularini ijro eta oladigan malakali kadrlarni tayyorlashda zamonaviy metod va texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Bu

jarayon nafaqat ijrochilik mahoratini oshirish, balki an’anaviy musiqa merosini saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazishni o‘z ichiga oladi.

An’anaviy usullarni zamonaviy texnologiyalar bilan birlashtirish:

An’anaviy ustoz-shogird an’anasini saqlab qolish: Bu an’ana orqali ijrochilik mahorati va musiqa nazariyasi chuqur o‘rganiladi.

Zamonaviy musiqa ta'limi tizimini qo‘llash: Musiqa nazariyasi, notalarni o‘qish, ijro texnikasini o‘rganish uchun zamonaviy usullarni qo‘llash.

Kompyuter texnologiyalarini qo‘llash: Musiqiy dasturlar, virtual cholg‘ular, audio va video materiallarni qo‘llash orqali o‘quv jarayonini yanada samarali qilish.

Ijrochilik ma'lumotlarini oshirish:

Ijro texnikasini takomillashtirish: Ijrochilik mahoratini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar, mashg‘ulotlar va master-klasslar tashkil etish.

Repertuarni kengaytirish: Turli janrdagi musiqa asarlarini o‘rganish, an’anaviy va zamonaviy ijro uslublarini o‘zlashtirish.

Musiqa tarixi va nazariyasini o‘rganish: O‘zbek milliy musiqasi tarixi, an’analari va nazariyasini chuqur o‘rganish.

Sozgarlik ma’lumotlarini rivojlantirish:

Sozgarlik san’ati bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish: Sozlarni tuzatish, sozlash va ta’mirlash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish.

Sozgarlik bo‘yicha seminarlar va master-klasslar tashkil etish: Sozlarni tuzatish, sozlash va ta'mirlash bo‘yicha tajribali mutaxassislar tomonidan o‘tkaziladigan seminarlar va master-klasslar tashkil etish.

Sozlarni ishlab chiqarish va ta’mirlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish: Sozlarni ishlab chiqarish va ta’mirlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, an’anaviy usullarni qo‘llash

Ijrochilik an’analarini saqlash va rivojlantirish:

An’anaviy ijro uslublarini o‘rganish: O‘zbek milliy musiqa an’analarini o‘rganish, an’anaviy ijro uslublarini o‘zlashtirish.

Ijrochilik an’analarini hujjatlashtirish: Ijro uslublarini, musiqa asarlarini va cholg‘ularni hujjatlashtirish, ularni saqlab qolish.

Ijrochilik an’analarini ommaviylashtirish: Ijro uslublarini, musiqa asarlarini va cholg‘ularni ommaga tanishtirish, ularga qiziqishni oshirish.

O‘zbek milliy cholg‘ularini ijro eta oladigan malakali kadrlarni tayyorlashda an’anaviy usullarni zamonaviy texnologiyalar bilan birlashtirish, ijrochilik mahoratini oshirish, sozgarlik san’atini rivojlantirish va ijrochilik an’analarini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon milliy musiqa merosini saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazishga yordam beradi.Talabalarda xalq

cholg‘ularini ijro etish ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalar va an’anaviy usullarni birlashtirish, individual yondashuvni qo‘llash, ijodkorlikni rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalar talabalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularning ijro ko‘nikmalarini takomillashtirishga va xalq musiqasiga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Xalq cholg‘ularida kuyni ijro etishda ko‘plab jihatlarga e’tibor berish kerak. Bu nafaqat texnik mahoratni, balki musiqiy tuyg‘u, ijodkorlik va madaniy tushunchani ham o‘z ichiga oladi.

Musiqiy asarning tushunilishi: Kuyning tarixi va kelib chiqishi: Kuyning qaysi mintaqaga, qaysi davrga tegishli ekanligini bilish, uning madaniy kontekstini tushunish ijro uslubini shakllantirishga yordam beradi.

Kuyning ritmi va melodiyasi: Kuyning ritmik tuzilishi, melodiyasi, o‘ziga xos xususiyatlari, ohanglari va intervalllari haqida chuqur tushunchaga ega bo‘lish. Kuyning hissiy mazmuni: Kuyning qanday his-tuyg‘ularni ifodalayotganini tushunish, uni ijro etishda bu his-tuyg‘ularni to‘g‘ri etkazish.

Texnik ma’lumotlar: Cholg‘u asbobining tuzilishi va o‘ynash texnikasi: Cholg‘u asbobining tuzilishi, torlari, naychasi, kaliti, o‘ynash texnikasi, barmoq qo‘yish usullari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish.

Tovush chiqarish: Tovushni to‘g‘ri va chiroyli chiqarish, cholg‘u asbobining tovush imkoniyatlarini to‘liq ochib berish.

Musiqa notalarini o‘qish va yozish: Musiqa notalarini to‘g‘ri o‘qish va yozish, kuyning ritmik va melodik tuzilishini tushunish.

Ijro uslubi: Kuyning xususiyatlariga mos ijro: Kuyning xususiyatlariga mos ravishda ijro uslubini tanlash, uning ritmini, melodiyasini, ohangini to‘g‘ri ifodalash.

Hissiy ifoda: Ijro etishda his-tuyg‘ularni to‘g‘ri etkazish, kuyning mazmunini tinglovchiga yetkazish.

Improvizatsiya: Ijro etishda o‘ziga xos improvizatsiyalarni qo‘llash, kuyga o‘ziga xoslik va jozibadorlik qo‘shish.

Qo‘shimcha ma’lumotlar:

To‘g‘ri holat: Cholg‘u asbobini to‘g‘ri ushlab turish, to‘g‘ri holatda o‘tirish yoki turish, bu ijro etishni osonlashtiradi va tananing charchamasligiga yordam beradi.

Nafas olish: Nafasni to‘g‘ri olish, cholg‘u asbobini o‘ynashda tovushni uzluksiz chiqarishga yordam beradi.

Musiqiy guruhlarda o‘ynash: Boshqa musiqachilar bilan birgalikda o‘ynash, bir-birlarini tinglash, bir-birlariga moslashish[4.135-138].

Xalq cholg‘ularida kuyni ijro etish nafaqat texnik mahoratni, balki musiqiy tuyg‘u, ijodkorlik, madaniy tushuncha va ijro uslubini ham o‘z ichiga oladi. Ushbu jihatlarga e’tibor berish kuyni to‘g‘ri va chiroyli ijro etishga yordam beradi.

O‘zbek milliy cholg‘ularini ijro etish - bu o‘ziga xos tarixga ega bo‘lgan va o‘zbek madaniyatining muhim qismini tashkil etuvchi san’atdir. Bu cholg‘ularning har biri o‘ziga xos ohang va ritm bilan ajralib turadi, ular o‘zbek xalqining ruhi va his-tuyg‘ularini aks ettiradi.

O‘zbek milliy cholg‘ularini ijro etishda bir nechta muhim jihatlarni ta’kidlash mumkin:

Ijro texnikasi: Har bir cholg‘u o‘ziga xos ijro texnikasiga ega. Masalan, dutorni ijro etishda barmoqlarning harakati, nayni ijro etishda nafas olish va chiqarishning to‘g‘ri usuli muhim ahamiyatga ega.

Musiqa nazariyasi: Musiqa nazariyasini bilish ijrochini cholg‘u ohangini to‘g‘ri tushunishga, musiqa asarini to‘g‘ri ijro etishga yordam beradi.

An’anaviy ijro uslublari: O‘zbek milliy cholg‘ularini ijro etishda an’anaviy ijro uslublarini bilish va qo‘llash muhimdir. Bu uslublar asrlar davomida shakllangan va o‘zbek musiqasining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

His-tuyg‘ular: O‘zbek milliy cholg‘ularini ijro etishda his-tuyg‘ularni ifoda etish muhim ahamiyatga ega. Ijrochi musiqa asarini ijro etishda o‘zining his-tuyg‘ularini tinglovchilarga yetkazishi kerak.

O‘zbek milliy cholg‘ularini ijro etish nafaqat san’at, balki o‘zbek madaniyatini saqlash va rivojlantirishning muhim qismidir. Bu cholg‘ular orqali biz o‘zbek xalqining tarixi, madaniyati va ruhi bilan bog‘lanamiz[5.156-158].

O‘zbek milliy cholg‘ularini ijro eta oladigan malakali kadrlarni tayyorlash - bu o‘zbek musiqa madaniyatini saqlab qolish va rivojlantirishning muhim qismi. Buning uchun turli usullar va vositalarni qo‘llash kerak.

An’anaviy ustoz-shogird an’anasini saqlab qolish:

Ustozlarning tajribasini o‘rganish: Tajribali ustozlarning ijro texnikasi, musiqa nazariyasi, an’anaviy ijro uslublari bo‘yicha bilimlarini o‘rganish.

Ustoz-shogird munosabatlarini rivojlantirish: Ustozlar va shogirdlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirish.

An’anaviy musiqa maktablari va guruhlarini qo‘llab-quvvatlash: An’anaviy musiqa maktablari va guruhlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyatini rivojlantirish.

Zamonaviy musiqa ta’limi tizimini qo‘llash:

Musiqa nazariyasi va notalarni o‘qish: Musiqa nazariyasi, notalarni o‘qish, musiqa asarlarini tahlil qilish bo‘yicha bilimlarni berish.

Ijro texnikasini o‘rganish: Cholg‘ularni to‘g‘ri ushlab turish, barmoqlarni harakatlantirish, nafas olish va chiqarish texnikasini o‘rganish.

Zamonaviy musiqa ta'limi dasturlarini qo‘llash: Zamonaviy musiqa ta'limi dasturlarini qo‘llash, ularni o‘zbek milliy musiqa an’analariga moslashtirish.

Kompyuter texnologiyalarini qo‘llash:

Musiqiy dasturlar: Musiqiy dasturlarni qo‘llash orqali musiqa asarlarini yaratish, ijro etish, tahlil qilish.

Virtual cholg‘ular: Virtual cholg‘ularni qo‘llash orqali ijro texnikasini o‘rganish, yangi ijro uslublarini sinab ko‘rish.

Audio va video materiallar: Audio va video materiallarni qo‘llash orqali ijro texnikasini o‘rganish, an’anaviy ijro uslublarini tahlil qilish.

Ijrochilik ma’lumotlarini mshirish:

Ijro texnikasini takomillashtirish: Ijro texnikasini takomillashtirishga qaratilgan mashqlar, mashg‘ulotlar va master-klasslar tashkil etish.

Repertuarni kengaytirish: Turli janrdagi musiqa asarlarini o‘rganish, an’anaviy va zamonaviy ijro uslublarini o‘zlashtirish.

Musiqa tarixi va nazariyasini o‘rganish: O‘zbek milliy musiqasi tarixi, an’analari va nazariyasini chuqur o‘rganish.

Sozgarlik ma’lumotlarini rivojlantirish:

Sozlarni tuzatish, sozlash va ta'mirlash: Sozlarni tuzatish, sozlash va ta'mirlash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish.

Sozlarni ishlab chiqarish: Sozlarni ishlab chiqarish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, an’anaviy usullarni qo‘llash.

Ijrochilik an’analarini saqlash va rivojlantirish:

An’anaviy ijro uslublarini o‘rganish: O‘zbek milliy musiqa an’analarini o‘rganish, an’anaviy ijro uslublarini o‘zlashtirish.Ijro uslublarini, musiqa asarlarini va cholg‘ularni hujjatlashtirish, ularni saqlab qolish.Ijro uslublarini, musiqa asarlarini va cholg‘ularni ommaga tanishtirish, ularga qiziqishni oshirish[6.45-56].

Xulosa: O‘zbek milliy cholg‘ularini ijro eta oladigan malakali kadrlarni tayyorlashda an’anaviy usullarni zamonaviy texnologiyalar bilan birlashtirish, ijrochilik mahoratini oshirish, sozgarlik san’atini rivojlantirish va ijrochilik an’analarini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon milliy musiqa merosini saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli qarori. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022-y., 07/22/112/0099-son; 04.12.2024-y., 07/24/399/1000-son
2. Г. Г. Нейгауза на развитие пианистического мастерства, в сб.: Мастера советской пианистической школы, – Москва., 1954. – Ст.86-90.
3. B.M. Teplov. Психология музыкальных способностей. – Москва., 1947. – Ст.122-125.
4. Abdurauf Fitrat. Ozbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T., 1993.B.135-138.
5. Вызго Т.С. “Музикальные инструменты Средней Азии” (Исторические очерки) – Москва., 1980 г. – Ст.156-158.
6. Irgashev G‘. “Afg‘on rubobi”. Darslik. – Toshkent: “San’at” nashriyoti. 2004. – B.45-56.

CHOLG‘U JAMOASI RAHBARINING IJODIY SAMARADORLIGI

Vahidov Yusufjon Kadirovich
O‘zDSMI “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi dostenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada rahbarlik, uning yuksak aql-farosati, kuch-g‘ayrati, izlanishi va topqirligi, o‘z ustida tinmay ishlashi kabi sifatlari hamda mustaqil qaror qabul qilishi, yangi g‘oya, yangi tashabbus, yangi texnologiya va innovatsiyalarni qo‘llash orqali ijodiy samaradorlikka erishish kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: boshqaruv, rahbar ma’naviyati, mas’uliyat, ansambl, jamoa, xarakter, xususiyat, qaror, g‘oya, texnologiya, innovatsiya.

Аннотация: В данной статье речь ведется о таких приобретаемых качествах руководителя, как высокий ум, сила воли, изыскательская способность и находчивость, постоянная работа над своей эрудицией, рассматриваются такие вопросы, как самостоятельно принимать решения,

дать новые идеи, новые инициативы, поддержать новых технологий, достигать эффективности труда и другие.

Ключевые слова: управление, духовность руководителя, ответственность, ансамбль, коллектив, характер, качество, решение, идея, технология, инновация.

Annotation: The present article highlights such managerial qualities as high intelligence, strength of will, exploration and resourcefulness, contact work on their erudition. Consider such questions as decide independently, giving new ideas, new initiatives, supporting new technologies and innovations, achieving work efficiency and others.

Key words: management, spirituality leader, responsibility, ensemble, team, character, quality, decision, idea, technology, innovation.

“Boshqaruv madaniyati xodimlar faoliyati, maqsad-muddaolari va ularning qadriyatlarini hisobga olgan holda boshqaruvni amalga oshirishdir” [1]. Har bir rahbar kasb va mehnat malakalariga ega bo‘lish bilan bir qatorda, muayyan xarakter hislatlariga ham ega bo‘ladi. Unda ehtiyoj, manfaat, intilish, odat, kayfiyat, hissiyot kabilarning butun bir majmuasi mavjuddir. Bulardan ayrimlari uni ilhomlantiradi, zavq-shavq uyg‘otadi, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shib ishlashga undaydi, boshqalari esa uni qiynab mehnat faolligini oshirishga halaqit beradi. Demak, kishi xarakterini va uning psixologik xususiyatlarini puxta va sinchiklab o‘rganmay turib, rahbarlik faoliyatini muvaffaqiyatli olib borib bo‘lmaydi.

Kishining xarakteri tug‘ma yoki hayot jarayonida o‘z-o‘zidan vujudga kelgan tasodifiy bir narsa emas. Xarakterning shakllanishiga insonni qurshab turgan ijtimoiy muhit va jamoa katta ta’sir o‘tkazadi. Ko‘pincha bir badiiy jamoada kishilar vijdonli, mehnatsevar bo‘lgan bir vaqtda, boshqa badiiy jamoaning aksariyat a’zolari ishga sovuqqonlik bilan qaraydigan hollarni ham kuzatish mumkin.

Kishilar jamoada o‘zlarini qanday tutishga odatlangan bo‘lsalar, jamoaning har bir a’zosi ham o‘zini shunday tutishga harakat qiladi. Kishi o‘z tevarak-atrofidagi odamlarning ta’siri ostida bo‘ladi. Biror-bir darajada taqlid qiladi, umum qabul qilgan hulq-atvor meyorlariga bo‘ysunadi. Bu esa o‘z navbatida jamoaning ichki muhitiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ijrochining ijodiy jamoa bilan o‘zaro ta’siri natijasida alohida munosabatlar vujudga keladi. Jamoa rahbari va ijrochilar faoliyati jarayonida o‘z qo‘l ostida ishlovchilarning xarakteri va psixologik xususiyatlarini, o‘zlari rahbarlik qilib turgan jamoaning ijtimoiy-

psixologik tomonlarini hisobga olishlari kerak. Shu bilan birga rahbar shunday ijodiy muhitni vujudga keltirishi kerakki, badiiy jamoada biror-bir faoliyatni amalga oshirish jamoa a'zosining shaxsiy ehtiyojiga aylanishi shart. Rahbar ko'proq shaxsiy namuna ko'rsatish, ma'naviy rag'batlantirish, ishontirish, tushuntirish va tashviqot qilish yo'llari bilan bevosita yoki ijtimoiy munosabatlar orqali o'z qo'l ostida ishlovchi har bir kadrga va butun jamoaga ta'sir ko'rsatadi. Jamoaning ba'zi a'zolarini boshqa bir xil a'zolariga o'zaro psixologik ta'siridan foydalanadi. Doimiy ravishda tarbiyaviy ishlarni olib boradi.

Albatta rahbar insonning ehtiyojlari va qiziqishlarining o'zgarib borishini ham hisobga olmog'i kerak. Hozirgi ijrochilar va badiiy jamoa a'zolari moddiy jihatdan yaxshi ta'minlangan bo'lib, ularning ehtiyojlari va qiziqishlari sezilarli darajada kengayib bormoqda. Unda shakllanayotgan talablar birinchi o'ringa qo'yilmoqda. Shu munosabat bilan esa ijrochilarning badiiy jamoa va jamiyatdagi faoliyatlarini rag'batlantiruvchi asoslari ham o'zgarmoqda. Agar yaqindagina mehnat faolligining asosiy sharti ish haqini miqdoridan, so'ngra esa qulay moddiy ish sharoitini ta'minlashdan iborat bo'lgan bo'lsa, endilikda mehnatga moddiy rag'batlantirishning muhim ahamiyati saqlanib qolgan holda ma'naviy, ijtimoiy va psixologik omillarga ham ko'proq bog'liq bo'lib qolmoqda.

Rahbarlar mehnati – mehnatning ijtimoiy fazilati, mazmuniga bog'liq. Har qanday jamoa boshqarilishga muhtojdir. Boshqarish esa rahbar mehnatidir [2]. Rahbar mehnatining psixologik mohiyati shundan iboratki, rahbar o'z jamoasi a'zolaridan birmuncha faolroq, ijtimoiy muhitda toblangan bo'lib, o'spirinlik chog'ida shakllangan munosabatlarni keskin o'zgartirib, rahbarlikning yangi muhiti talab etgan tashkilotchilik va ishbilarmonlik fazilatlari bilan tevarak-atrofdagi odamlar o'rtasida o'z shaxsini hamda obro'sini oshirishga harakat qiladi. Tashkilotchilik faoliyatiga qiziqqan yosh rahbarlarning aksariyati g'ayratlarini qayoqqa yo'naltirishni hamma vaqt ham bilavermaydilar. Ularni bevosita ijodiy sohadagi yoki boshqa sohalardagi natijalari bilan o'zini va jamoani xursand qiladigan xilma-xil foydali hamda qiziqarli ishlarni bajarishga yo'naltirish lozim.

Ayniqsa, yosh badiiy jamoa rahbarlari garchi hamma vaqt ham bunga tayyor bo'lmasliklariga qaramay mustaqillikka intiladilar. Shu tariqa o'zi bilan jamoasi o'rtasidagi munosabatlarini yaxshi yo'lga qo'yishga amaliy sharoit yaratishlari zarur bo'ladi.

Rahbar - ishning ko'zini biladigan, o'z kasbiga qalb qo'ri va butun mehrini berib, o'zi, oilasi va butun el–yurtini o'ylab mehnat qiladigan shaxsdir. Bu atama boshqaruv faoliyatini jon dildan seva olgan kishiga nisbatan ishlatilishi mumkin.

Rahbarlik yuksak aql-farosat, ko‘p kuch-g‘ayrat, izlanish va topqirlikni, o‘z ustida tinmay ishlashni, o‘rni kelganda zaruriy tadbirkorlikni talab qiladi. Rahbarlik tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin:

1.Rahbar ijtimoiy shaxs sifatida ijrochilar va ijro uchun zarur resurslarini birlashtirib, ijod jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchini boshqaruvchi sifatida omilkorlik bilan ish yurituvchi shaxsdir.

2.Rahbar har qanday ishni amalga oshirish uchun avvalo, mustaqil qaror qabul qiladi.

3.Rahbar o‘z sohasiga yangi g‘oya, yangi tashabbus, yangi texnologiya va innovatsiyalarni joriy etuvchi ijodkor shaxs hisoblanadi.

4.Rahbarning mehnati ijodkorlikka asoslangan mashaqqatli faoliyat hisoblanadi. Unga sarflangan kuch va vaqt ba’zan foyda keltirmasligi, ansambl ijodiy o‘sishi jihatidan foyda o‘rniga zarar ko‘rishi ham mumkin. U bunday holatlarni oldindan ko‘ra olishi va bunga tayyor turishi, zarur bo‘lganda faoliyatini qayta boshlashi, o‘zida bunga iroda va kuch-g‘ayrat topa olishi lozim.Yuqorida aytilganlar rahbarlik faoliyatining bir tomonini tashkil etadi.Ikkinchi tomoni rahbarlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kishining yuksak insoniy fazilatlari bilan bog‘liqdir. Rahbar halol, pok, vijdonli, iymonli, qattiqqo‘l, diyonatli, mehr-shavqatli bo‘lishi kerak.

Rahbar mustaqil bo‘lishi, ijodiy faoliyatning qonuniy taqiqlanmagan barcha sohalar bilan shug‘ullana olishi lozim. Shu bilan birga u o‘zi boshqarayotgan jamoa orasida obro‘-e’tiborga ega bo‘lishi, o‘zini kamtar tutishi zarur. U ona tilini chuqur egallashdan tashqari, bir yoki ikkita xorijiy tilni yaxshi bilsa, faoliyatida ulardan erkin foydalana olsa, boshqaruv faoliyati yanada samarali bo‘ladi. O‘zbekiston mustaqillikka erishishi va xususiy mulkchilikning huquqiy jihatdan to‘liq kafolatlanishi munosabati bilan rahbarlik faoliyatida ham jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Rahbarlar ijro va ijod vositalariga shaxsan egalik qilishlari tufayli manfaatdorlik ortib bormoqda. Shu sababli mashg‘ulotlar va ijro jarayoniga yangi texnologiyalarni olib kirish avj ola boshladi. Natijada ijro namunalarining miqdori ortishi bilan bir qatorda ularning sifati darajasi ham yaxshilanib bormoqda.

Hozirgi kunda xususiy ansambllar iqtisodiy jihatdan oyoqqa turib oldi. Lekin shuni ham aytib o‘tish kerakki, ularning soni ko‘paygani sari sifat jihatidan ular ijro etayotgan asarlar turlari aytarli maqtagulik darajada emas. Buning uchun rahbarlarning va rahbarlikning ma’naviy saviyasini ko‘tarish, ularni ma’naviy jihatdan yuksak saviyali, madaniyatli qilib tarbiyalash, rahbarlik madaniyatiga oid

bilimlarini oshirib borish muhim vazifalardan biri sanaladi. Bugungi kunda rahbarlik faoliyati uchun umuminsoniy ma’naviy fazilatlarning roli juda katta. Bunday fazilatlar rahbar va ansambl a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zaro ishonch, halollik, haqqoniylik, adolatlilik va albatta ijodiy yakdillikdan iborat bo‘lishi kerak. Sanab o‘tilgan fazilatlardan tashqari, rahbar psixologiyasini ma’naviy jihatdan shakllantirish hamda ijodiy samaradorlikka erishishi uchun quyidagi maxsus fazilatlar ham zarur:

-tashabbuskorlik, doimo yangi imkoniyatlarni izlab topish;

-vaqtdan, shuningdek, vaziyatdan hamisha unumli foydalana olish;

-hayotda har doim boshqalardan bir qadam oldinda yurish;

-bo‘ladigan o‘zgarishlarni oldindan ko‘ra bilish;

-qat’iyatli, tirishqoq, sabr-bardoshli bo‘lish;

-uchraydigan turli to‘siq va qiyinchiliklarga tayyor turish, ularni iroda va qat’iyat bilan yengish;

-maqsadni aniq belgilab, unga erishishga harakat qilish;

-har bir ishda mas’uliyatni chuqur his etish;

-san’at sohasi bo‘yicha yetarli darajada ilmiy-amaliy va albatta ijodiy axborotlarga ega bo‘lish;

-muntazam ravishda rahbarlik faoliyatini oldindan qat’iy rejalashtirish va unga amal qilish;

-ansambl a’zolarini o‘zi ilgari surgan yangi g‘oyalarni amalga oshirishga ishontirish va yo‘naltirish;

-ish yuritishda mustaqil bo‘lish;

-zarur hollarda vaziyatdan kelib chiqib, tavakkalchilikka qo‘l urish va uning natijasini tasavvur qila olishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy rahbar shu tariqa yuksak ijodiy samaradorlikka erishishi mumkin deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati” 108-bet, Toshkent: 2009-yil.

2. N.Boymurodov “Rahbar psixologiyasi” o‘quv qo‘llanma, 20-bet, Toshkent: 2016-yil.

3. Toshmuhammedov M. “G‘ijjakda an’anaviy ijrochilikni o‘zlashtirish. Toshkent: 1999-y.

4. Xoltojiyev A. “An’anaviy qonun cholg‘usi ijrochiligi” Toshkent: Mashprint exkluziv MCHJ. 2005-y.

5. Lutfullayev A.“Xalq cholg‘ularida o‘qitish uslubiyoti” Toshkent: 2005-y.

6. H.Nurmatov, O.Nazarov, Sh.Janaydarov. Cholg‘uchilar ansambli. “ARNAPRINT” MCHJ. Toshkent: 2005-y.

7. Toshmatov E., Toshmatov O‘. “Ansambl sinfi” Toshkent: SNR 2006-y.

8. Abdullayeva O. “Ansambl cholg‘ularini o‘rganish” Musiqa. Toshkent: 2006-y.

9. Matyoqubov B. “Xorazm dostonlarining musiqiy xususiyatlari” Musiqa ijodiyoti masalalari. Toshkent: 1997-y.

10. Nosirov R. “Cholg‘u ijrochiligi” Toshkent: 2008-y.

11. Ishmuxamedov R. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” Toshkent: Istedod. 2008-y.

12. Qodirov N. “G‘ijjak ijrochiligi maktabi” Toshkent: 2011-y.

MILLIY MUSIQA VOSITASIDA YOSHLARNI TARBIYALASH

F.Xakimova
“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi mudiri,
dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada milliy musiqa va xalq qo‘shiqlari vositasida yosh avlodni tarbiyalash, ularning ma’naviyatini oshirish xususida fikr yuritilgan.*
Kalit so‘zlar: *Madaniyat, ma’naviyat, barkamol, ta’lim-tarbiya, avlod, meros, etnomadaniyat*
Аннотация: *Данная статья посвящена воспитанию подрастающего поколения через национальную музыку и народные песни, поднчтию их морального духа.*
Ключевые слова: *Культура, духовность, развитие, образование, поколение, наследство, этнокультура*
Annotation: The article is devoted to educating the younger generation through national music and folk songs , raising their morale
Keywords: *Culture, spirituality, competent, education, generation, heritage, ethnoculture*

Mustaqillik yillarida yurtimizda katta bunyodkorlik ishlari bilan bir qatorda, madaniyat va san’at sohalarida ham salmoqli o‘zgarishlar yaqqol ko‘zga tashlandi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni, yoshlarimizni har taraflama sog‘lom, bilimli, madaniyatli va barkamol shaxs bo‘lib yetishishlari, ma’naviy boy va keng dunyoqarashga ega bo‘lishlari davlatimizning doimo diqqat-markazidadir.

Yosh avlodni ta’lim-tarbiyasida, ma’naviy-ruhiy kamolotida an’anaviy musiqadan samarali foydalanish alohida o‘rin tutadi.

Musiqiy ta’lim-tarbiyaning maqsadi yosh avlodni milliy musiqa boyligimizni chuqur idrok eta oladigan va milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan, nafaqat o‘z milliy an’analarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan xabardor hamda ularni hurmat qiladigan komil inson bo‘lib voyaga yetkazishdan iboratdir.

O‘zbek xalqining har bir xonadonida dutor, doira yoki boshqa milliy cholg‘usi bo‘lishi, bu milliy musiqa merosimizga bo‘lgan e’tibordir.

Ma’lumki, kundalik hayotimizni bezaydigan milliy qo‘shiqlarimiz shu bilan birga serjilo kuylarimiz mavjud. Ularni tinglaganimizda dillarimiz zavqqa to‘ladi, hissiyotlarimiz yanada jo‘sh uradi. Musiqa insonga ma’naviy ozuqa berish bilan birga inson tarbiyasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun

inson dilining nozik torlarini chertuvchi ohanglar bejiz yangramaydi. Musiqiy merosimiz rivojini ustoz-shogirdlik maktabining o‘ziga xos uslubiyotlarini yaratgan ustozlarimiz hoji Abdulaziz Abdurasulov, usta Olim Komilov, o‘zbek musiqashunos olimi akademik Yunus Rajabiy kabi san’atimizning buyuk siymolarisiz tassavur eta olmaymiz. An’anaviy kuy-qo‘shiqlarimizni avloddan-avlodga o‘tishida ustoz murabbiylarning xizmatlari tahsinga loyiqdir. Bizning kelajagimiz bo‘lmish farzandlarimiz uchun yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanib, jamiyatimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shuvchi, yurt taraqqiyotiga fidoiy, barkamol farzandlar bo‘lib yetishishida ta’lim dargohlarining o‘rni beqiyosdir.

An’anaviy xalq qo‘shiqlarining umrboqiyligi, ulardagi ma’naviy-axloqiy niyatning pokligi, musiqiy ohanglarning uzviyligidadir.

Ularda insoniy kechinmalar, ma’no va iltijolar andishaga boy, hayotiy va samimiy, shuning uchun tinglovchiga zavq bag‘ishlaydi, ko‘nglini ko‘taradi. Bunday ma’naviy go‘zallik taronalari xalq musiqasining ajib va o‘lmas an’anasiga aylangan.

Shuningdek, an’anaviy xalq kuy-qo‘shiqlari soddaligi, xalqchil mo‘jaz shakli, obrazlarning serqirra ma’nodorligi va nafisligi bilan ajralib turadi.

An’anaviy xalq musiqasining inson ma’naviyatini shakllantirishdagi ahamiyatini tadqiq qilish quyidagi xulosalarga olib keladi. An’anaviy xalq, musiqasi asrlar osha avloddan-avlodga o‘tar ekan, bu jarayonda u boyib, xalqning fikri-o‘yi, dardi, orzusi-yu, donishmandligini o‘zida mujassamlashtiradi. O‘zining an’anaviyligi, oddiyligi va buyukligi, ta’sirchanligi, ko‘plab badiiy merosga boyligi bilan millatning nafaqat sevimli san’at turi balki etnomadaniyatshunoslikning muhim shakliga aylandi. An’anaviy musiqaning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish barkamol insonni shakllantirishda hozir ham muhim vazifa bo‘lib xizmat qiladi;

Xalq musiqasining tarixan sinalgan qamrovi ancha kengdir:

a) ruxiy,

b) estetik;

v) ma’rifiy;

g) tarbiyaviy imkoniyatlari insonni ma’naviy jihatdan kamol topishida muhim o‘rin tutadi yaxshi samaralar beradi;

Ma’naviy ta’sirning boy manbai hisoblangan marosim musiqasi ahloq-odob va milliy hayot tarzini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi beshik to‘yi, sochqi sochish, birinchi qadam, soch olish, sunnat to‘yi, muchal to‘yi, sovchilik, qiz oshi, nikox, to‘yi, turli o‘lanlar va yor-yorlar, laparlar, tortishmachoq, tanga sochish, oyna ko‘rsatar, yuz ochar, kelin va quyov salomlari kabilarda: Diniy

marosimlardan Bibi seshanba, Bibi mushkulkushod, qurbonlik qilish, iftorlik motam (marosimlari kabilarda katta ahamiyat kasb etadi;

Marosim musiqasi badiiy-estetik manba ham hisoblanadi. Marosimlar tarkibiga kiruvchi ko‘pgina folklor janrlari zamonaviy san’atning shakllanishi uchun benazir asos bo‘lib qolgan. Ijro etiladigan yoki foydalaniladigan barcha xalq san’ati asarlari tinglovchi, tomoshabin va ishtirokchilarning badiiy-estetik tafakkurini shakllantirishga yordam beradi; Marosimlar tarkibida ishtirok etuvchi musiqiy asarlar an’anaviy jarayonning tarbiyaviy usullaridan, buyruq, namuna, o‘rnak, nasihat, o‘git, murojat, kinoya, piching, kesatiq, tanqid, ma’qullash kabilarni, shuningdek, tarbiya vositalari sifatida badiiy-estetik manbalar, dramatik holatlar, tajriba almashish, ko‘nikma hosil qilish jarayonlarida zarur bo‘lgan g‘oyaviy jihatlarini birlashtiradi;

An’anaviy xalq musiqasida xalqning ma’naviy madaniyati durdonalari to‘plangan bo‘lib, hozirgi mustaqillik davrida o‘zlikni anglash va milliy ongni taraqqiy ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy musiqamizni, kuy-qo‘shiqlarimizni, an’ana va marosim, urf-odatlarimizni, o‘rganish hozirgi kunda alohida ahamiyatga egadir.

Ulardan namunalar maktablarda, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim maskanlarida kengroq va batafsilroq o‘rgatilsa, o‘quv dasturlariga ko‘proq kiritilsa, yoshlarni boy milliy musiqiy merosimizga qiziqtirishimiz bilan bir qatorda ularni asrab-avaylashga, kelgusi avlodga yetkazishga muvaffaq bo‘lar edik.

Xulosa qilib aytganda, milliy musiqa merosimizga bo‘lgan qiziqish va mehr-muhabbatni oshirish, musiqa amaliyotiga poydevor yaratish, yoshlarda milliy g‘ururni shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Shu bilan birga musiqiy ta’lim-tarbiya insoniy fazilatlarni tarbiyalab, yosh avlodda bir qator hayotiy malaka, jumladan, idrok va sezgirlik, chaqqonlik va shijoat, yaratuvchanlik va ijodkorlik kabi muhim sifatlarni rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch.T.: 2008, B.-29-30
2. Beknazarov X. Q. et al. Oilada musiqiy tarbiyaning ahamiyati //Oriental Art and Culture. – 2024. – Т. 5. – №. 2. – С. 643-646.
3. Shermatov K. Performance features of chang instrument and changsiman instruments //Теоретические аспекты становления педагогических наук. – 2024. – Т. 3. – №. 22. – С. 30-33.
4. Абдуллаев Ш. Б. Кашкарский Рубаб: История И Развитие //central asian journal of arts and design. – 2024. – Т. 5. – №. 1. – С. 13-15.
5. Berdimurodovich A. S. Tor san’ati //international conference on medicine, science, and education. – 2024. – Т. 1. – №. 5. – С. 67-69.
6. Vohidov Y. Q. et al. Nay cholg ‘usi va uning ijrochilari: qadimiy musiqiy risolalarda //Oriental Art and Culture. – 2024. – Т. 5. – №. 5. – С. 479-483.
7. Vahidov Y. Q. Puflama cholg ‘ular ijrochiligini o ‘rganishda nafas olishni shakllantirish //Oriental Art and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 724-727.
8. Abdumanabovna X. F. CORRECT REPRODUCTION OF MUSICAL TEXT IN INSTRUMENTAL PERFORMANCE //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. C3. – С. 108-112.
9. Ganisherovich T. J. Coverage of chang instruments in historical and musical sources //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 3. – С. 30-33.
10. Rashidov Q. ANCIENT AND MODERN PERFORMANCE STYLES OF CHANGKOVUZ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 5 SPECIAL. – С. 55-57.
11. Rashidov Q. THE ROLE OF THE DOMBIRA IN THE PERFORMANCE OF THE UZBEK SCHOOLS OF THE ART OF PENITY (SURKHONDARYA AND KASHKADARYA) //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 129-135.
12. Ugli K. K. B. Development of performance skills of future music teachers using percussion instruments //European International Journal of Pedagogics. – 2023. – Т. 3. – №. 06. – С. 53-56.
13. Tashmatov U. CHARACTERISTICS OF THE INVESTIGATION OF CRIMES DANGEROUS TO HUMAN LIFE AND HEALTH ARISING AS A RESULT OF MEDICAL SERVICES //INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH OF PROBLEMS OF SCIENCE AND EDUCATION. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 18-24.

MILLIY SOZLARNI YARATISH VA MODERNIZATSIYA QILISHDA INNOVATSIYA

Abdullayev Shohruh Berdimurodovich
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Cholg’u ijrochiligi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy cholg’u asboblarini yaratish va ularni zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilishda innovatsion yondashuvlarning o’rni tahlil etiladi. Milliy sozlarimiz orqali xalqimizning madaniy qadriyatlari, estetik dunyoqarashi va tarixiy merosi aks etgani qayd etiladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, konstruktiv yangiliklar va ta’lim sohasidagi innovatsiyalar orqali milliy sozgarlik san’atini rivojlantirish imkoniyatlari ochib beriladi. Maqolada milliy sozlarning xalqaro maydonda tanilishi uchun amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so’zlar: milliy sozlar, modernizatsiya, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, sozgarlik san’ati, milliy meros, ta’lim.

Аннотация: В статье анализируется роль инновационных подходов в создании национальных музыкальных инструментов и их модернизации на основе современных требований. Отмечено, что наши национальные песни отражают культурные ценности, эстетическое мировоззрение и историческое наследие нашего народа. Возможности для развития национального искусства общения открываются посредством современных цифровых технологий, конструктивных инноваций, инноваций в образовании. В статье выдвигаются практические предложения по признанию национальных слов на международной арене.

Ключевые слова: национальные слова, модернизация, инновации, цифровые технологии, искусство речи, национальное наследие, образование.

Abstract: This article analyzes the role of innovative approaches in the creation of national musical instruments and their modernization in accordance with modern requirements. It is noted that our national songs reflect the cultural values, aesthetic worldview and historical heritage of our people. The possibilities of developing national vocal art through modern digital technologies, constructive innovations and innovations in the field of education are revealed. The article puts

forward practical proposals for the recognition of national vocal art in the international arena.

Keywords: national songs, modernization, innovation, digital technologies, vocal art, national heritage, education.

Bugungi kunda mamlakatimiz poydevori bo'lgan yoshlarning iqtidorini yuzaga chiqarish, ma'naviy shakllantirish, ruhiy kamolotiga erishuvida esa musiqa san'ati alohida ahamiyatlidir. Xalqimiz musiqa madaniyatining barcha rivojlanish davrlarida qo'shiq bilan bir qatorda dutor, tanbur, doira, ud, g'ijjak, qonun, rubob kabi milliy cholg'ularimiz ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qilgan.

O'zbek xalqining madaniy merosi o'ta boy va rang-barang. Uning tarkibiy qismlaridan biri bu – amaliy san'at yo'nalishlaridan biri bo'lmish sozgarlik san'atidir. Bu san'at turi yuz yillar mobaynida shakllanib, turli tarixiy jarayonlar ta'sirida rivojlanib kelgan. U xalqning estetik qarashlari, dunyoqarashi va hayot tarzi bilan uzviy bog'liqdir.

Sozlar – ya'ni musiqiy asboblar – odamzod tarixida aloqa vositasi, madaniy ifoda va marosimiy amaliyot sifatida xizmat qilgan. O'zbekiston hududida topilgan arxeologik ma'lumotlar miloddan avvalgi davrlarda ham musiqiy asboblar bo'lganligini tasdiqlaydi.[1]

Masalan, Samarqand, Buxoro va Termiz atroflarida topilgan terrakota haykalchalarda doira, nay va tanburga o'xshash asboblar tasvirlangan. Bu sozlar nafaqat musiqiy ijro uchun, balki diniy marosimlarda ham qo'llanilgan.

O'zbekistonda soz yasash an'analari turli mintaqalarda shakllangan bo'lib, ular o'ziga xos xususiyatlarga ega. Eng mashhur maktablardan biri – Xiva sozgarlik maktabi. U yerda rubob, dutor va gijjak kabi milliy sozlar yuksak mahorati bilan tayyorlangan.

Shu bilan birga, Farg'ona vodiysida ham o'zining nozik va batafsil ishlangan dutorlari bilan tanilgan ustalar faoliyat yuritgan. Masalan, usto Quddusxon To'raev Farg'ona maktabining yirik vakillaridan biri hisoblanadi.[2]

Bugungi kunda ham sozgarlik san'ati O'zbekistonda rivojlanib, an'anaviy uslub bilan zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirishga harakat qilinmoqda. Davlat tomonidan ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha turli loyihalar amalga oshirilmoqda.

[1] Alimov,H. (2009). O'zbek xalq musiqiy madaniyati tarixi. Toshkent: Fan nashriyoti
[2] To'raev Q. (2003). Farg'ona sozgarlik maktabi: an'ana va davomiylik. Qo'qon: Istiqbol nashriyoti.

2021 yilda qabul qilingan "Madaniy merosni asrash va rivojlantirish" to’g’risidagi Qonunga asosan, milliy hunarmandchilik, jumladan sozgarlik ham qo’llab-quvvatlanmoqda.[1] Uzoq yillik tarixga ega, Markaziy Osiyo xalqlari orasida ma’lum va mashhur bo’lgan qashqar rubob cholg’usi 2024-yil 4-dekabr kuni Paragvay poytaxtida YUNESKOning Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo’yicha hukumatlararo qo’mitasining 19-sessiyasida “Rubob cholg’usi sozgarligi va ijrochiligi san’ati” Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro’yxatiga kiritildi.

Milliy cholg’u asboblari har bir xalqning madaniy hayotida, estetik tafakkuri va ijodiy o’zligini namoyon etishda muhim rolь o’ynaydi. O’zbek xalqining musiqiy madaniyatida dutor, rubob, nay, g’ijjak, sato, kamoncha kabi milliy sozlar yuksak o’rin tutadi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va axborot texnologiyalari davrida bu sozlarni yangilash, ularni xalqaro talablarga mos ravishda qayta ishlash — dolzarb vazifadir.

An’anaviy sozlarni yaratish va ularni tayyorlash jarayonida hozirgi kunda yuqori aniqlikdagi sanoat uskunalari, lazer kesuvchi texnologiyalar, kompyuterli proektlash vositalari (CAD) foydalanilmoqda. Bu sozlarning aniq sozlashini, yuza sifati va muqovasining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Masalan, dutor yoki rubobni tayyorlashda CNC uskunalar yordamida korpus qismlari aniq chizmalar asosida ishlab chiqilmoqda.

Milliy sozlarni raqamlashtirish — ya’ni, ularning ovoz yozuvlari, konstruktsiyalari va ijro uslublarini raqamli formatga o’tkazish — ularni kelajak avlodga saqlash va ommalashtirish uchun muhim qadamdir. Bugungi kunda virtual dutor yoki nay kabi dasturiy mahsulotlar yaratilmoqda. Bu orqali talabalar kompyuter yordamida sozlarni o’rganishlari, ijro etish texnikasini mashq qilishlari mumkin. Masalan, virtual rubob simulyatori orqali talabalar sozning turli qismi va uning chalish texnikasini vizual ravishda kuzatishlari mumkin. Bu o’quv jarayonini jonli, qiziqarli va tezkor o’rganishga aylantiradi.

Modernizatsiya sozgarlik san’atida — bu milliy sozlarning an’anaviy jihatlarini saqlagan holda, ularning texnik, estetik va ijro imkoniyatlarini zamonaviy talablarga muvofiq qayta ishlashdir. Innovatsiya esa, yangi texnologik yechimlar, materiallar va usullardan foydalangan holda milliy sozlarni takomillashtirishni nazarda tutadi.

[1] To’raev Q. (2003). Farg’ona sozgarlik maktabi: an’ana va davomiylik. Qo’qon: Istiqbol nashriyoti.

1. Konstruktiv o’zgarishlar:

- Yorug’, chidamli materiallardan foydalanish (karbon, fiberglass, sintetik terilar).

- Modulli soz tizimlari (soz qismlarini almashtirish imkoniyati).

- Qulay va ergonomik gabaritlar.

2. Raqamli texnologiyalar asosidagi innovatsiyalar:

- Elektron dutor va naylar (tsifrovizatsiya qilingan, MIDI chiqishli).

- Virtual soz simulyatorlari — ta’lim uchun.

- QR-kodli metodik qo’llanmalar va audio/video materiallar bilan bog’langan dasturlar.

3. Ta’lim jarayonida innovatsiyalarning o’rni

Milliy sozlarni zamonaviy usullarda o’rgatish, talabalarning qiziqishini oshiradi. Masofaviy ta’lim tizimlari, mulьtimediaviy platformalarda sozlarga oid darslar va amaliy mashg’ulotlar keng joriy etilmoqda. Bu jarayonda innovatsion vositalar — vizual trenajyorlar, mobilь ilovalar, 3D modeli ishlatilishi natijasida:

- Musiqa ta’limida raqamli metodika rivojlanmoqda.

- Milliy sozlarga bo’lgan qiziqish ortib bormoqda.

- Ta’lim jarayoni interaktiv va samarali tus olmoqda.

Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Hindiston va Yevropaning qator davlatlarida milliy cholg’u asboblariga bo’lgan qiziqish ortib bormoqda, o’z milliy sozlarini asrab-avaylash bilan birga, ularni zamonaviylashtirish va dunyo sahnalariga olib chiqish bo’yicha katta yutuqlarga erishgan. Masalan, sitar yoki syamisen kabi sozlarning elektron turlari yaratilgan. Milliy sozlarni raqslar, opera va simfonik musiqa bilan uyg’unlashtirgan holda xalqaro sahnalarga olib chiqish mumkin. O’zbekistonda ham bu borada ijobiy ishlar qilinmoqda. Bir qator milliy sozlar YUNESKO ruyxatiga kiritilgan. Ammo ularni jahon miqyosida musiqa bozorida faol ishtirok ettirish uchun modernizatsiya va marketing jarayonlari yanada jadallashtirilishi lozim. Bu uchun zarur:

- Milliy sozlarni litsenziyalash va brending qilish;

- Sozgar ustalar uchun xalqaro sertifikatlash tizimi yaratish;

- Jahon festivallarida ishtirok etish va eksportbop modellarni ishlab chiqish.

Milliy sozlarni yaratish va modernizatsiya qilish – bu faqat texnik ish emas, balki milliy ma’naviyatni asrab-avaylash, uni zamonaviy avlodga yetkazish vazifasidir. Bu jarayonda innovatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish, ilmiy-tadqiqotlar, ijodiy ustaxonalar, davlat qo’llab-quvvati va ijtimoiy talabning uyg’unligi muhimdir.

Takliflar

1. Milliy sozlar modernizatsiyasi bo’yicha ixtisoslashgan laboratoriyalar tashkil etish.

2. Xalqaro tajribalarni o’rgangan holda innovatsion dizayn va materiallardan foydalanish.

3. Elektron milliy sozlar yaratish bo’yicha startaplarni qo’llab-quvvatlash.

4. Milliy sozlar asosidagi zamonaviy ansamblь va orkestrlar tashkil etish.

5. Oliy ta’lim muassasalarida “Milliy sozlar innovatsiyasi” yo’nalishini yo’lga qo’yish.

Milliy sozlarni yaratish va ularni modernizatsiya qilish jarayonida innovatsion yondashuvlar juda muhimdir. Bu jarayon milliylik va zamonaviylik uyg’unligini ta’minlaydi. Milliy cholg’u asboblarini innovatsion uslubda qayta ishlash, ta’lim, ijod va xalqaro munosabatlar sohalarida ulkan imkoniyatlar yaratadi. Mazkur masala yuzasidan ilmiy, amaliy va tashkilotchilik yo’nalishida kompleks yondashuv talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karomatov Yu. «O’zbek xalq musiqasi tarixi». — Toshkent: Fan, 1972.

2. Qurbonov A. «Innovatsion yondashuvlar va ularning musiqa ta’limidagi o’rni». — Toshkent: San’at, 2020.

3. Mamatqulov I. «O’zbek cholg’u asboblari va ularning ijro imkoniyatlari». — Toshkent: O’zRMMI, 2018.

4. Yunusova M. «Milliy sozlar va zamonaviy ijodkorlik». — «Madaniyat va san’at», №3, 2022.

5. UNESCO. “Safeguarding Musical Instrument Making Traditions”. — 2021.

6. IRCICA. “Traditional Musical Instruments in the Islamic World”. — Istanbul, 2019.

7. Madraximov Sh. «Sozgarlik san’ati va uning rivoji». — Toshkent: Madaniyat, 2011.

8. Abdullayev S. B. et al. QASHQAR RUBOB: TARIXI VA RIVOJLANISHI //Oriental Art and Culture. – 2024. – Т. 5. – №. 2. – С. 295-298.

9. Yuldashev, Izzat. "XORAZM DUTOR IJROCHILIGI VA UNDA OT JONZOTI XUSUSIYATLARINING BADIIY IFODASI." Academic research in educational sciences 2.4 (2021): 260-266.

10. Sobirjon Turdibekovich Turatov. "CHOLG‘U IJROCHILIGI TA’LIM YO‘NALISHIDA MAXSUS FANLARINING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN INTEGRATSIYALASHUVI" Oriental Art and Culture, vol. 4, no. 3, 2023, pp. 676-680.

11.Ganisherovich T. J. Use of methods and techniques in music education //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 7. – С. 44-47.

QONUN CHOLG‘USI SOZGARLIGI VA IJROCHILIK SAN’ATI

Xursanova Umida Ravshanovna
O‘zDSMI Xalq ijodiyoti (cholg‘u ijrochiligi)
mutaxassisligi magistranti
Ilmiy rahbar: “Cholg‘u ijrochiligi”
kafedrasi dotsenti **X.Beknazarov**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq cholg‘ularidan biri hisoblangan qonun cholg‘usi va uning yasalishi haqida, ijrochilik san’ati,shu bilan bir qatorda yoshlar orasida qonun cholg‘usini keng targ‘ib etish, sozgarlik san’ati haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Musiqa, qonun, deka (qopqoq), noxun, mediator, sozgarlik, ijrochilik.

Аннотация: В статье дается информация о кануне, одном из узбекских народных инструментов, его изготовлении, искусстве игры на нем, а также о широкой популяризации инструмента канун среди молодежи, изготовления инструменте.

Ключевые слова: Музыка, канун, дека (крышка), нахун, медиатор, изготовления инструменте, музыкальность.

Annotation: This article provides information about the qonun, one of the Uzbek folk instruments, and its making, as well as the art of performing it, as well

as the widespread promotion of the qonun instrument among young people, and the art of performing arts.

Keywords: Music, qanun, deck (lid), nahun, mediator, performing arts, musicianship.

Musiqa bu insonning hissiy kechinmalarni ifoda etuvchi ajoyib san’at turi hisobladi. Inson ichki kechinmalarini ifodalar ekan tabiatga uyg‘unlashib boradi. Anashunday tuyg‘u va kechinmalarni ifodalovchi musiqa cholg‘usi bu qonundir.

Qonun cholg‘usi xalqimizning qalbidan chuqur o‘rin egallab kelayotgan cholg‘ularimizdan biridir. O‘zining yoqimli va mayin ovozi bilan ajralib turuvchi ushbu musiqa cholg‘usi bugungi kunimizda o‘z o‘rniga egadir. Keng ijro imkoniyatiga ega bo‘lgan bu musiqa cholg‘usi jamoa ijrochiligida ham o‘z o‘rnini egallab bormoqda.

Qonun cholg‘usi o‘ziga xos, an’anaviy o‘zbek musiqasining ajralmas qismlaridan biri hisoblanadi. Bu cholg‘u milliy musiqamizda muhim rol o‘ynaydi va ko‘plab musiqa janrlari, ayniqsa, xalq musiqasida keng qo‘llaniladi. Qonun cholg‘usining tarixi va rivojlanishi o‘zbek musiqa madaniyatining bir qismi hisoblanadi.

Qonun cholg‘usi ko‘p asrlik tarixga ega musiqa cholg‘ularidan biri hisoblanib buyuk bobokalonlarim o‘z asarlarida ushbu cholg‘uga ta’rif berib o‘tishgan. Kelib chiqish tarixiga ko‘ra o‘rta Sharq musiqa cholg‘usi hisoblangan qonun chinor, tut, yong‘oq, o‘rik daraxtlari yog‘ochlaridan tayyorlanadi. Ko‘rinishi jihatidan trapetsiya shakliga ega uzunligi 800-900 mm eni 380-400 mm hisoblangan qonun urma torli cholg‘ular guruhiga kiradi. Daraxt yog‘ochidan yasalgan deka (qopqoq) qismi asosiy qism hisoblanadi. Dekaning ozroq qismi esa hayvon terisi bilan qoplanadi. Qopqoqning ustida turli naqshlar tushirilib tovushxonalar ochiladi. Deka (qopqoq) oralig‘ida uchtalik ichak torlar joylashadi. Asosan bu torlar 72-75 donani tashkil etadi. To‘g‘ri burchak tarafida torlar o‘tqaziladigan teshikchalar mavjud bo‘lib torlar o‘tqazilgadan keyin yopib qo‘yiladigan yog‘ochdan yasalgan maxsus bo‘lak mavjud bo‘ladi. Uchburchak shaklga ega tarafida esa maxsus kalit bilan burashga mo‘ljallangan torlar o‘tqazib tortiladigan yog‘och quloqlar mavjud bo‘ladi. Teri qoplangan joyida, torlar ostida uzun yog‘ochdan yasalgan xarrak joylashadi. Ushbu xarrakka qarama qarshi tarafda shayton xarrak joylashib torlar uning ostidan o‘tqaziladi.Shayton xarrak yonida Urb deb ataluvchi metaldan yasalgan moslamalar joylashgan ularning soni bittadan uchtagacha bo‘ladi. Urb moslamasi ijro vaqtida torlarni kichik sekundadan kichik tersiyagacha ko‘tarib tushirish imkonini beradi.

Sozgarlik inson madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, qadimdan insonlar o‘z hissiy kechinmalarini ifodalash uchun har xil cholg‘ular yasab ijro etib kelishgan. Natijada ajoyib musiqa cholg‘ulari vujudga kela boshlagan. Shular jumlasidan qonun cholg‘usi ham vujudga kelgan. Asrlar davomida cholg‘ular shakllanib borishi natijasidsa sozgarlik san’ati ham o‘z rivojini ega bo‘lgan. Bugungi kunimizga kelib sozgarlik san’atining o‘z mahoratli ustalari mavjud.

Sozgarlik har bir xalqning o‘ziga hosligini madaniy merosini ifoda etuvchi muhim unsurdir. Har bir xalqning o‘ziga hos musiqasi, raqsi, urf-odatlari mavjuddir. Shular bilan bir qatorda sozgarlik san’ati ham. O‘zbek sozgar ustalar o‘z ishlarini ustoz-shogirt an’analari bo‘yicha tarqatib asrlar mobaynida boyitib kelmoqdalar. Sozgar ustalar ishida an’anaviy tajriba va mahorat juda muhimdir. Sozgarlik san’ati shunaqa mukammallik talab etuvchi san’atlardan biriki biz o‘lchamlari va ko‘rinishi haqida biron bir aniq javob berolmaydigan cholg‘ularimizni yasab ularni ijroga tadbiq qilishdek qiyin ishni amalga oshiradi. Shunday ishlarni amalga oshirib kelayotgan ustalar bugungi kungacha bizga suratlarda va asarlarda tarifi keltirilgan cholg‘ularni yasab berib ular haqida tushunchaga ega bo‘lishimizga ko‘maklashib kelishmoqda. Qonun cholg‘usining yasalish jarayonida ham sozgarlik san’atining ajoyib mahsulini ko‘rishimiz mumkin. Cholg‘uga e’tibor qaratadigan bo‘lsa uning torlarining deka ustida anniq bir shaklda tortilganligi ohangdosh va quloqqa yoquvchi ovozini ko‘rishimiz mumkin. Bunday ajoyib cholg‘uni yasash uchun ajratiladigan vaqt va homashyolarning tanlanishi juda muhimdir. Sozgar ustalarning ajoyib mahorati natijasida shunday sozlarimiz vujudga kelmoqda. Shunday sozgar ustalardan andijonlik Abdumalik Madkarimov, Muhammadsodiq Mamadaliyev, surxondaryolik do‘mbira sozini yasovchi sozgar usta Normurod Shaydilov, chanqovuz yasovchi usta Jasur Ashurov, qashqadaryolik Elmurod Doniyev, Toshkentlik Habibullo Imomovlarning ishlari tahsinga sazovor desak mubololag‘a bo‘lmaydi. Sozgarlik kasbi juda kop kasblar bilan bog‘liqdir. Sozgarlik kasbining asosiy homashyosi yog‘och bo‘lsa,unga ishlov beruvchilar duradgorlar va naqqoshlardir. Bundan tashqari teri ishlatiladigan cholg‘ularda sozgar ustalar kosiblarga murojat qilishadi. Ko‘p musiqa cholg‘ulariga torlar kerak bo‘ladi buning uchun esa kerakli turdagi metal lozimdir. Aynan sozgarlik san’atigina manashunaqa juda kop kasblar bilan uzviy ravishda ish olib boradi. Sozgar ustalar esa asosan musiqachlar bilan hamkorlikda ishlashadi. O‘zlari ham mohir musiqachilar hisoblangan sozgar ustalar o‘zlari yasagan har bir cholg‘uni albatta ijro etib kamchiliklarini to‘g‘irlab boradilar. Guvohi bo‘lganingizdek bitta musiqa cholg‘usi yaralishi uchun faqatgina bitta inson mehnat qilmas ekan. Niholni to‘g‘ri o‘sishi uchun harakar qilgan bog‘bondan tortib uning soz bo‘lib

bizga yetib kelishigacha hizmat qilgan har bir inson mehnati bor ekan. Bugungi kunimizda vodiylik sozgar ustalarimiz tomonidan yasab kelinayotgan ajoyib qonun cholg‘ulari ijroga tadbiq qilinmoqda. Hattoki Turkiya davlatida yasalgan qonun cholg‘ularidan qolishmaydigan ushbu cholg‘ular ijrochilar mahoratini ochib berishga hizmat qilmoqda. Anashunday sozgar ustalarimizdan biri Azamat Islomov va Ahmadjon ko‘p yillardan buyon hozirda foydalanib kelayotgan qonun cholg‘usini yasash va tamirlash bilan shug‘ullanib kelmoqdalar.

Qonun cholg‘usi noxun va mediator yordamida tirnab chalish orqali ijro etiladi. Mediator uzunligi 30-40 mm qalinligi 1,5-2 mm eni 0,5-0,7 mm bo‘ladi. Noxun uzunligi 25-30 mm eni 10-15 mm bo‘lib ijrochining qo‘liga oson moslashtiriladigan qilib metaldan yasaladi. Barmoq va noxun orasiga mediator kirgizib qo‘yiladi.

Qonun cholg‘usi asosan ikki ko‘rinishda ijro etiladi:

1-o‘tirgan holatda tizzalar ustiga qoyilib.

2-qonun uchun yasalgan moslamaga qo‘yilib turgan holatda.

Azaldan cholg‘u ijrochiligiga bo‘lgan e‘tibor, mohir sozandalarning xalq qaxramonlariga aylanishi musiqaga insonlarning befarq bo‘lmaganligidan dalolat beradi. Rangbarang musiqa cholg‘ularidan chiqayotgan tovushlar insonni o‘ziga maftun etmay qolmaydi. O‘zbek musiqasining o‘ziga hos boy an’analari milliy cholg‘ulari va mohir sozandalarining ijrosida o‘z aksini topib kelgan. Uni tinglagan insonlar bunga befarq bo‘lisholmagan. Buyuk shoirlarimizdan biri bo‘lgan Furqat ham o‘z asarlaridan birida quyidagi satrlarni bitgan

Musilmon ichra nag‘ma ko‘p bor.
Chunonchi g‘ijjakku, tanburu,setor,
Dutoru, arg‘onu,qonun ila rud
Rubobu, doira, change noyu ud.

Qonun cholg‘usining ijrochiligi azaldan xalqimizning boy madaniy merosidan o‘rin olib kelgan. Buni qonun cholg‘usining qayta tiklanganidan keyin xalqimiz orasida yuqori saviyada qabul qilinishi va rivojlanib ketishi yaqqol misoldir. Bugungi kunga kelib cholg‘uning ansambl,orkestrlarda o‘z o‘rniga egaligi ijro san’atining rivojlanib borayotganidan dalolatdir. Ayni paytga kelib qonun cholg‘usini ta’lim jarayonlaring barcha tizimlarida ko‘rishimiz mumkin. Yakka ijroda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib borayotgan sahnalar ko‘rkiga aylanib ulgurgan ushbu cholg‘u inson qalblari tolalarini chertmasdan qolmaydi.

Qonun cholg‘usini ijro etishda ijrochidan o‘t hushyorlik talab etiladi. Sozanda ikkila qo‘lidan ham bir xil foydalanishi muhimdir.ijroni boyitish va chiroyli ohang hosil qilish uchun sozanda o‘ng qo‘lini teri qoplamali tarafiga yaqinroq joyda harakatlantirishi lozim. Ijro vaqtida sozanda asablarini bo‘sh

qo‘ygan holda bor diqqat e’tiborini ko‘rsatkich barmog‘iga qaratishi kerak. Ijrochi ijro vaqtida kuy va ohangdan kelib chiqib o‘z mahoratiga tayangan holda bezaklar berishi qochirim ,nolalar ishlatishi tinglovchida yanada qiziqish uyg‘onishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Muxtaram birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimovning 2002-yildagi ‘‘Musiqa madaniyatini rivojlantirish’’ to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq umumta’lim maktablariga musiqa cholg‘ularini yetqazib borish hamda Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 02.02.2022-yildagi 112-sonli ‘‘Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari’’ to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq umumta’lim maktablarida har bir maktab bitiruvchisi kamida bitta musiqa cholg‘usini chalishni bilishi kerak degan chora tadbirlari natijasida, sozgarlik ham yanada jonlandi va ushbu sohani tark etgan sozgar ustalar ham o‘z ishlariga qaytishiga sabab bo‘ldi.

Hozirgi kunga kelib san’atga bo‘lgan e’tibor orqali o‘zbek milliy musiqasi rivojlanishi natijasida milliy cholg‘ularimiz ham rivojlanib bormoqda. Milliy cholg‘ularimizni takomillashtirish va ijrosini taminlash yo‘lida olib borilayot samarali ishlar natijasida kelajak avlod uchun milliy musiqamiz va milliy cholg‘ularimizni mukammal ravishda qolishiga ishonamiz. Bugungi kun tinglovchilarini qiziqtirish uchun milliy musiqamizga bog‘lash uchun olib borilayotgan ishlar o‘z samarasini berib kelmoqda.

Milliy musiqamiz singari milliy sozlarimiz ham insoniyat tarixidagi muhim vositalar biri hisoblanadi. Sozgarlik san’ati esa jamiyatning rivojlanishi va birlashishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qonun cholg‘usi, o‘zining sozgarligi, chiuqur musiqiy ifodalash imkoniyatiorqali xalqimiz madaniyatidan muhim o‘rin egallab kelmoqda. Bu cholg‘u nafaqat milliy musiqalar balki zamonaviy musiqalarda ham o‘z o‘rniga egadir. Qonun cholg‘using jozibali ijrosi inson hissiyotlarini ifodalashda muhim bir vosita bo‘lib kelmoqda. Shunday qilib qonun cholg‘usi nafaqat bir musiqa asbobi, balki madaniy merosimizning ajralmas bir qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xoltojiyev A. “An’anaviy qonun cholg‘u va ijrochiligi”. Darslik. – Toshkent, 2005-yil.

2. Abdullayev S. “Qonun”. Darslik – Toshkent: A.Qodiriy nashriyoti, 2004-yil.

3. Zufarov T. “Soz va sozgarlik tarixi”. – Toshkent: 2014-yil.

4. Tashmatova A. “Ijrochilik san’ati tarixi” – Toshkent: Musiqa nashriyoti. 2017-yil

5. Toshmatov O‘, Beknazarov X. “Cholg‘ushunoslik”. Darslik. – Toshkent: “Turon-Iqbol” nashriyoti, 2018. – 160 b.

6. Beknazarov X. Q. et al. OILADA MUSIQIY TARBIYANING AHAMIYATI //Oriental Art and Culture. – 2024. – T. 5. – №. 2. – S. 643-646

7. Abdumanabovna X. F. CORRECT REPRODUCTION OF MUSICAL TEXT IN INSTRUMENTAL PERFORMANCE //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. C3. – S. 108-112.

8. Shermatov K. PERFORMANCE FEATURES OF CHANG INSTRUMENT AND CHANGSIMAN INSTRUMENTS //Teoreticheskiye aspekti stanovleniya pedagogicheskix nauk. – 2024. – T. 3. – №. 22. – S. 30-33.

“RUBOB YASASH VA IJRO ETISH SAN’ATI”

Xolmirzayeva Nigina Zoxiddin qizi
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Xalq ijodiyoti (cholg‘u ijrochiligi) mutaxassisligi
I bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: dotsent S.T.Turatov

Annotatsiya: O‘zbek milliy cholg‘ulari xalqimizning boy tarixiy va madaniy merosining ajralmas qismidir. Bu cholg‘ular musiqaning turli yo‘nalishlarida, jumladan xalq cholg‘u sozlarida, xalqning ijtimoiy va ma’naviy hayotini aks ettirib kelmoqda. Ushbu cholg‘ular ichida qashqar rubobi, o‘zining noyob ovoz tembri va bejirimligi bilan o‘zbek musiqa san’atida alohida o‘ringa ega.

Аннотация:Узбекские национальные инструменты являются неотъемлемой частью богатого исторического и культурного наследия нашего народа. Эти инструменты отражают социальную и духовную жизнь народа в различных направлениях музыки, включая народные инструменты. Среди этих инструментов кашгарский рубаб занимает особое место в узбекском музыкальном искусстве благодаря своему уникальному тембру и изяществу.

Abstract: Uzbek national instruments are an integral part of the rich historical and cultural heritage of our people. These instruments are used in various branches of music, including folk instruments, reflecting the social and

spiritual life of the people. Among these instruments, the Kashgar rubab, with its unique timbre and elegance, occupies a special place in Uzbek musical art.

Kalit so‘zlar: O‘zbek milliy cholg‘ulari, rubob cholg‘usi, musiqa an’analari, tarixiy va madaniy meros, cholg’u yasalishi, ijrochilik san’ati, xalq musiqa ijrochiligi, ovoz tembri, diapazon, o‘zbek musiqa san’ati, zamonaviy musiqa ijodi.

“Har bir xalq, jumladan, o‘zbek xalqining ham tarixi betakrordir”. Yurtboshimizning bu hikmatli so‘zlari tasdig‘ini milliy nomoddiy madaniy tariximizda ham yaqqol ko'ramiz.

Xalqning iste’dodi, mahorati, didi, shuningdek, tafakkurini belgilovchi, ming yillar davomida shakllanib, madaniyatimiz ko‘zgusi darajasiga yetgan nomoddiy madaniy merosimiz istiqlol yillarida o'z qadr-qiymatini topdi.

Xalqning madaniy urf-odat va an'analari asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga uzatilishi orqali saqlanib qolinganligi esa bizning eng katta yutug‘imizdir.

Nomoddiy madaniy merosimiz millatlararo madaniyat hamda madaniy boyliklarning almashinuvi va rivojlanishi hisobiga o‘zaro boyib, bu zamindagi barqaror taraqqiyotga munosib hissasini qo'shib kelgan.

O‘zbekistonimiz nomoddiy madaniy meros durdonalariga boy kam sonli davlatlardan. Mustaqillik yillarida ana shu bebaho boylikni asrash, targ‘ib qilish va kelajak avlodlarga yetqazish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Sababi, dunyo miqyosida madaniyatlarning umumlashuvi olomon madaniyati xavf solib turgan bir paytda har bir xalq urf-odatlari, marosim va udumlari haqida so‘z yuritishi hozirgi kunda dolzarb masala bo‘lib turibdi.

Aynan shunday vaziyatda yoshlarning ongida o‘zbek xalqining asrlar mobaynida sayqal topib o‘zgacha ahamiyat kasb etib, qadriyat darajasiga yetgan urf-odatlari, xalq ijodiyoti hamda ular bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarni shakllantirish asosiy vazifa sifatida qaralmoqda.

Davlatimiz tomonidan bu soha rivojiga kata ahamiyat berilmoqda va aynan davlatimiz rahbarining “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori g‘oyat keng qamrovli bo‘lib, avvalo nomoddiy madaniy merosimizni yanada yuksaltirishga chinakam dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Shunigdek, qaror asosida 2024-yildan boshlab, mustaqillik sharofati bilan nomoddiy madaniy merosimiz ham qayta tiklandi. Mazkur atama keyingi yillarda paydo bo‘lgan bo'lsa-da, biroq uning mohiyatida, tub ildizlarida xalqimizning og‘zaki ijod namunasi sifatida qarab kelinayotgan qadimiy folklor hamda milliy

hunarmandchilikka oid bilim va ko‘nikmalar, odat, marosim, bayramlar, shuningdek, ijro san'ati namunalari yotadi.

Bu tushuncha sohaga aylanib bugun dunyo bo‘yicha e'tirof etilayotgani globallashuv jarayoni bilan bog‘liq.Dunyo miqyosida madaniyatlarning umumlashuvi - olomon madaniyati xavf solib turgan bir paytda har bir xalq urf-odatlari, marosim va udumlari haqida so‘z yuritishi hozirgi kunda dolzarb masala bo‘lib turibdi. Buni his qilgan xalqlar hozirda o‘z milliy xususiyatlari va merosini saqlab qolish, uni muhofoza qilish va kelajak avlodga yetkazish borasida keng ko‘lamli kurash olib bormoqda.

Xususan, YUNESKO 1990-yillardayoq insoniyat nomoddiy madaniy merosini muhofazaga olish taklifi bilan chiqdi. Mazkur tashkilot shu bugungacha moddiy merosni muhofaza qilish borasida konvensiya va konsepsiyalar ishlab chiqqan bo‘lib, nomoddiy meros bo‘yicha ko‘tarilgan taklif bu sohadagi ilk qadamlardan bo‘ldi.

YUNESKO 2001-yilda nomoddiy madaniy meros ta'rifini kelishilgan holda ishlab chiqish maqsadida a'zo davlatlar va nodavlat tashkilotlari o‘rtasida so‘rov o‘tkazadi. Maxsus bir ta'rifga kelishilgach, 2003-yil 17-oktabr Parij shahrida Nomoddiy madaniy meros muhofozasi bo‘yicha Konvensiya qabul qilingan.

Davlatimiz ham 2008-yili ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilib, unga a'zo bo'ldi. Shu munosabat bilan nomoddiy madaniy meros masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktyabrdagi 222-son qaroriga asosan 2010-2020- yillarda nomoddiy madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturining qabul qilinishi o'ziga xos tarixiy voqea bo'ldi. Ushbu dasturni ijro etish maqsadida esa respublikamizning 38-ta shkilot va muassasalari biriktirildi.

Xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar respublika ilmiy-metodika markaziga davlat va nodavlat tashkilotlarning nomoddiy madaniy meros masalalari bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtiruvchi muassasa maqomi berildi.

Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida nomoddiy madaniy meros elementlarini to‘plash, hujjatlashtirish va muhofaza qilish, ularning saqlovchilarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, O‘zbekiston tarixi va madaniyatiga oid xorijiy davlatlardagi nomoddiy madaniy meros elementlarini yozib olish va saqlashga ko‘maklashish, shuningdek, insoniyat taraqqiyoti va jahon madaniyatiga munosib hissa qo‘shgan yurtimizning madaniy merosini YUNESKOning tegishli ro‘yxatlariga kiritish choralarini kuchaytirish bilan bog‘liq aniq vazifalar belgilab berilgan.Ushbu hujjatga

muvofiq, keyingi yillarda milliy madaniy merosimizga tegishli bo‘lgan o‘n beshta elementni YUNESKOning nomoddiy madaniy meros obyektlari reprezentativ ro‘yxatiga kiritishga muvaffaq bo‘ldik.

Joriy yilning 2-7-dekabr kunlari Paragvay davlatining Asunson shahrida bo‘lib o‘tgan YUNESKOning nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitasining 19-sessiyasi doirasida “Rubob yasash va ijro etish san’ati” rasman Insoniyatning nomoddiy madaniy meros obyektlari Reprezentativ ro‘yxatiga o‘n oltinchi element sifatida kiritildi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari ichida qashqar rubob cholg‘usi o’zining bejirimligi, ovoz tembrining jozibadorligi bilan alohida o‘rin egallaydi. Bu cholg‘uning yasalishi va ijrochiligi uzoq tarixga ega bo‘lib, o‘ziga xos usullarga asoslangan. Quyida rubob cholg‘usining yasalishi va ijrochiligi haqida batafsil ma’lumot berib o‘tamiz.

Rubob cholg’usi Markaziy Osiyo xalqlari o‘zbeklar, tojiklar, uyg‘urlar orasida qadimiy va ommalashgan cholg‘ulardan biri hisoblanadi. Qashqar rubobi qachon va qayerda paydo bo‘lganligi haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Shunga qaramay tarixiy manbaalarda “Rabob”, “Rebob”, “Rubob” cholg’usi haqida ayrim lavhalar uchraydi. Hususan, bularni Abu Nasr Forobiy, Abdulqodir Marog’iy, Darvesh Ali Changiy, Abdurauf Fitrat kabi allomalarning asarlarida kuzatish mumkin.

XVI-XVII asrlarda yashagan Darvesh Ali Changiyning “Tuxvat us surur” ya’ni “Yoshlikning tuxfalari” nomli musiqaga oid risolasida uzoq va yaqin o‘tmish cholg‘ulari va sozandalari haqida qimmatli ma’lumotlar keltiradi. O‘sha davrlarda tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qobiz, g‘ijjak sozlari keng tarqalgan cholg‘ulardan hisoblangan.

Bugungi kunda uyg‘ur xalq musiqa ijrochiligida rubob cholg’usining “Qo‘ychi rubob”, “Qashqar rubob”, “Do‘lon rubob”, “Qumul rubob” va “Bas rubob” deb nomlangan turlari mavjud. Uyg‘ur qashqar rubobi bu xalqning eng ommalashgan cholg‘usi sifatida yirik shaharlardan to kichik qishloqlarigacha keng tarqalgan. Qashqar rubobning kosasi asosan tut daraxtidan, dastasi esa o’rik daraxtidan yasaladi. Torlarini tortib turuvchi ilmoqlar cholg’uning kosa qismida joylashgan bo‘lib, ular ham yog’ochdan yoki metalldan ishlanngan bo‘lishi mumkin.

Qashqar rubobning dasta qismida asosan 24-ta metal pardalar joylashgan bo‘lib, ular rubob tovush qatoriga xromatik tarzda 0.5 ton oralig‘ida joylashgan va tartib bo‘yicha bosh qismidan kosa qismiga qarab sanaladi. Rubob kosasi odatda baliq teri bilan qoplanadi, hamda unga xarrak o‘rnatiladi.

Ma’lumotlarga qaraganda XIX asr oxiri XX asr boshlarida ham O’zbekistonda bu cholg‘u kam uchragan va dastasiga ichak bog‘langan diatonik tovushqatorli cholg‘ulardan biri hisoblangan.

Zamonaviy qashqar rubob *Konsertlarda ijro etiladigan qashqar rubob An’anaviy qashqar rubob*

2004-yili O‘zbekiston davlat konservatoriyasi qoshida o‘zbek xalq cholg‘ulari muzeyining rasmiy ochilishi Respublika madaniy hayotida unutilmas voqea bo‘ldi. Ko‘hna milliy tariximiz, milliy merosimiz, o‘ziga xos milliy musiqiy sozlarimiz, qolaversa xalq ijrochilik san’atini teran o‘rganishga bo‘lgan qiziqish bugungi kunning xarakterli xususiyatlaridan biridir. Muzeyning faoliyat ko‘rsatishi esa o‘zbek musiqa ijrochiligi san’atini o‘rganish shuningdek, kelgusida rivoj topishi uchun shart sharoitlar yaratib beradi. [4.8.]

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi qoshida ochilgan ushbu Xalq cholg‘ulari muzeyi va Ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi musiqiy merosni o‘rganish, saqlash va uni yangi texnologiyalar yordamida takomillashtirishga qaratilgan faoliyatlari bilan muhim rol o‘ynaydi. Rubobning turli turlari, masalan, Qashqar rubobining yasalish va ijro texnikasi yangilanib, musiqaning yangi qirralarini ochib berishda davom etmoqda. Shu bilan birga, musiqiy cholg‘ularni zamonaviy ijro va texnikalar asosida takomillashtirish o‘zbek musiqa san’atining rivojlanishiga xizmat qiladi va uning xalqaro miqyosda tanilishiga hissa qo‘shadi.

Mazkur muzeyning tashkil etilishiga o‘zbek musiqa fani va amaliyotining rivojlanishi asosiy turtki bo‘ldi. Bu murakkab jarayonda 1943-yili konservatoriya qoshida tashkil etilgan Ilmiy-tadqiqot tajriba laboratoriyasining hissasi cheksizdir. Bu jamoa hozirgi kunga qadar o‘z faoliyatini davom ettirib kelmoqda.

Laboratoriya xodimlarining asosiy vazifalari milliy cholg‘ularni yig‘ish, ularning ovoz tarovati va tembr xususiyatlarini o‘rganish hamda ijrochilik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda zamonaviy umumbashariy ijro standartlari talab darajasiga moslashtirishdan iboratdir. Ushbu laboratoriyada musiqa

cholg‘ulari yuqori malakali va mohir ustalar tomonidan yarim asrdan ortiqroq vaqt davomida ishlab chiqilgan va amaliyotda qo‘llanilayotgan ishonchli va sifatli texnologiyalar asosida tayyorlanmoqda. [4.9.]

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Milliy cholg‘u” IICHEL ustalari

Hozirgi kunda laboratoriyada Azamat Islomov, Baxtiyor Inoyatov va bir qator ustalar milliy sozlarimiz qatorida qashqar rubobini professional darajada yasab kelmoqdalar. Yangilik sifatida esa shuni aytib o‘tishim kerakki Azamat Islomov bugungi kunda qashqar rubobining diapazonini kengaytirish maqsadida pardalar qatorini 2taga ko'paytirib ijrochilik imkoniyatini yanada boyitdi. Ularning ishlarida qashqar rubob cholg‘usining zamonaviy ijro va yasash texnikalari, shu jumladan yangi pardalar kiritilishi orqali musiqiy diapazonni kengaytirish ishlarini amalga oshirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. B.Mirpayazav “Xalq cholg‘ulari” (Qashqar rubobi) T. 2019 y.
2. O.Nazarov “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” (Rubob) T. 2018 y.
3. X.Nurmatov “Rubob darsligi” T.1993 y.
4. A.Tashmatova “Xalq cholg‘ulari antologiyasi” T. 2014 y.
5. A.Tashmatova “Musiqiy cholg'ular muzeyi katalogi” T. 2006 y.
6. Q.Usmonov “Boshlang'ich rubob darsligi”T. 2004 y.
7. S.Usmonov “Rubob taronalari” T.1995 y.
8. M.Vaisov “An’anaviy rubob”T. 2022 y.

9. O‘.Toshmatov,N.Isakulova “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari” T.2024 y
10.O‘.Toshmatov,S.Turatov “Ko‘hna cholg‘ular ijrochiligi” T.2016
11. Sobirjon Turdibekovich Turatov. "Cholg‘u ijrochiligi ta’lim yo‘nalishida maxsus fanlarining axborot texnologiyalari bilan integratsiyalashuvi" Oriental Art and Culture, vol. 4, no. 3, 2023, pp. 676-680.
12.Javohir G. Cholg ‘u ijrochiligi fanini o ‘qitishda innovatsion yondashuv //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 6. – C. 180-184.
13. Yuldashev, Izzat. "Xorazm dutor ijrochiligi va unda ot jonzoti xususiyatlarining badiiy ifodasi." Academic research in educational sciences 2.4 (2021): 260-266.

O‘ZBEK MUSIQASHUNOSLIGIDA MONOGRAFIYA JANRI

N.Yu.A’zamjonova, M.B.Abdullayeva
Farg‘ona ixtisoslashtirilgan san’at maktabi
Musiqa – nazarayasi bo‘limi o‘qituvchilari

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek musiqashunosligida monografiya janrining rivojlanish bosqichlari berilgan. O‘zbekistonda monografiyalarning 50-2000-yillarda nashr qilingan monografiyalar taxlil qilinib, xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Monografiya, ocherk, ob’yekt, bastakor, musiqashunos.

Аннотация. В данной статье представлены этапы развития жанра монографии в узбекском музыкознании. Проанализированы монографии, изданные в Узбекистане в 50-2000-е годы, и сделаны выводы.

Ключевые слова: Монография, эссе, предмет, композитор, музыкант.

Abstract.This article presents the stages of development of the monograph genre in Uzbek musicology. Monographs published in Uzbekistan in the 50-2000s are analyzed and conclusions are drawn.

Key words: Monograph, essay, subject, composer, musician.

XX asrda sodir bo‘lgan ijtimoiy o‘zgarishlar madaniy – tarixiy hayotni ham keskin o‘zgartiradi. Bu o‘zgarishlar madaniyat va san’at arboblari, jumladan musiqashunoslar oldiga yangi vazifalar qo‘yadi.

Yuksak ma’naviyatli, madaniyatli, zamonaviy hayot talablariga javob beradigan barkamol insonlarni tarbiyalash borasida ommaviy musiqiy targ‘ibot muhim ahamiyatga ega. Asafyev aytganidek: “Albatta bunday targ‘ibot jonli,

yorqin bo‘lishi kerak, o‘tmish haqida gap ketganda ham so‘zlovchining nazari faqat oldinga, kelajakka qaratilgan bo‘lishi zarur”. Ushbu yuksak vazifalarini musiqashunoslik fani, jumladan monografiya janri bajaradi.

So‘nggi o‘n yilliklarda o‘zbek musiqashunosligi yangi o‘ziga xos yo‘lga chiqib oldi. Ushbu sohada turli janr va yo‘nalishlar rivojlana boshladi. Shular jumlasidan monografiya janri muhim o‘rin egallaydi. Ishimning asosiy g‘oyasi – o‘zbek musiqashunosligida monografiya janrini paydo bo‘lgan ilk davridan xozirgi kungacha kechayotgan rivojlanish jarayonini yoritish va baholi qudrat taxlil qilish.

Mazkur mavzu shu paytgacha kam o‘rganilgan muammolardan biri bo‘lib, yanada chuqur izlanishlar, ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi. Aynan shu janrni o‘rganib, uni tadqiq qilgan musiqashunoslarni ishlarini toppish ancha mushkul. Shuning uchun bu janrni shakllanishining ilk bosqichlarini yoritish, xozirgi kundagi monografiya janrining axvoli qay darajada ekanligini o‘rganish, xozirgi kungacha yozilgan va xozirda yaratilayotgan monografiyalarni o‘rganish, ularni taxlil qilib barcha yutuq va kamchiliklarini xolisona aniqlash dolzarb masalalardan biridir. Ushbu mavzuni o‘rganish jarayonida monografiya janri musiqashunoslikda ikki yo‘nalishda rivojlangano aniqlandi. Birinchisi – nazariy musiqashunoslikda tanlangan muammoni ilmiy tomondan yoritilishi, ikkinchisi aynan tarixiy musiqashunoslik bilan bog‘lanib, kompozitor xaqida monografik ocherklar, portretlar tarzida yoziladi. O‘zbek musiqashunosligining shakllanish jarayoni madaniy hayotdagi voqealarni qayd etishdan boshlanadi va nihoyat professional musiqiy ijtimoiy ilmiy fan paydo bo‘lishiga olib keladi. Musiqashunoslik, jumladan uning monografiya janri borliqni , musiqa madaniyatidagi jarayonlarni tasvirlabgina qolmay uni o‘zgartirishi, mukammalshtirishi zarur. Demak musiqashunoslik va monografiyalar uning bir qismi sifatida o‘ta qimmatli, muhim va dolzarb sohadir. Musiqashunoslik fan sifatida musiqaning ma’lum qonuniyatlarini, estetik, falsafiy qarshlarni ta’riflab ochib berish bilan birga ilmiy bilimlarni ommalashtiradi va targ‘ib qiladi. Bu sohadagi izlanishlar ilmiy g‘oyalarni, amaliy vazifalarni xal etishga yordam berishi kerak. Har qanday jiddiy izlanish o‘rganilayotgan ob’yektning istiqbolini aniqlab olmay turib amalga oshmaydi. Bunday izlanishlarni olib boradigan musiqashunos – mutaxassisga ma’lum talablar qo‘yiladi. Unga kerak bo‘ladigan xususiyatlar: ijodkorlik, badiiy talqin qilish qobiliyati, xodisalarni yorqin individual tarzda idrok etish. Ijodkorning hayotini, faoliyatini tasvirlash o‘ta murakkab vazifa. Ushbu vazifani monografiya janri bajaradi. Albatta monografiya yozishdan maqsad faqat tarjimai xol va hayotidagi xodisalarni va faktlarni ta’kidlash emas. Bu janrning maqsadi o‘rganish ob’yektini madaniy va

ijtimoiy hayotni unga ko‘rsatgan ta’sirini, milliy va butun dunyo madaniyatiga qo‘shgan xissasi, ijodining chuqur taxlilini qilish va mazmun mohiyatini yorotish. Bundan tashqari mazkur davrning ijtimoiy – siyosiy axvolini o‘rganilib, mintaqaning madaniy hayotiga ta’siri taxlil qilinadi. Ma’lum ijodkor yoki u yaratgan asarga ob’yaektiv baho berish uchun san’atning talablarini, muayyan davrda ijodlordan nima kutilayotganini, milliy madaniyatni rivojlash uchun nimalar kerakligini bilish lozim.

Monografiya – kompozitor, bastakor, musiqashunos, ijrochining ijodiy portretini tasvirlovchi janr xisoblanadi va ma’lum bir ob’yektga e’tibor qaratishni talab qiladi. Uning maqsadi – ijodkorni ijodiy yo‘lining davrlarini aniqlash, ijodining barcha qirralarini taxlil qilish va ochib berish.

Monografiya – “mono” – yunoncha “monos” – bitta yagona va “grafiya” – “grapho” – yozyapman so‘zlaridan olingan.[1]

O‘zbekistonda monografiya va monografik ocherklar janrida bir qator musiqashunoslar samarali ishlar olib borganlar. Ular Yan Pekker, Maxmud Axmedov, T.Vizgo, M.Kovbas, N.S.Yanov -Yanovskaya, R.Yunusov, T.Gafurbekov, V.Plungyan, I.Galushenko, S.Begmatov va boshqalar. Ushbu mavzuni o‘rganish mobaynida ayrim monagrafiyalarni o‘rganib taxlil qilishga xarakat qildik.

Taxlil qilingan monografiyalar tartibi quyidagicha:

1. Yan Pekker “V.A.Uspenskiy” (1953y)
2. Yan Pekker “G.Mushel” (1966 y)
3. T.Vizgo “Aleksey Kozlovskiy” (1966 y)
4. M.Axmedov “Yunus Rajabiy” (1967y)
5. M.Axmedov “Xoji Abdulaziz Abdurasulov” (1974 y)
6. V.Plungyan “Suleyman Yudakov” (1979 y)
7. M.Kovbas “Yelena Romanovskaya” (1982)
8. A.Lutfullayev “Axmad Odilov” (1998 y)
9. N.Yanov-Yanovskaya “Мутал Бурханов: Время, жизнь, творчество” (!999 y)
10. R.Yunusov “Faxriddin Sodiqov” (2005 y)

1940 – yillardan boshlab 2000-yilgacha bo‘lgan ayrim monografiyalarni taxlil qilish natijasida quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: 40-yillarda monografiyalarni toppish ancha murakkabdir. Mukammal monografiyalar 50-yillardan e’tiboran ko‘zga tashlana boshlaydi. Lekin 40-yillarda umuman

[1] Словарь иностранных словю М.1979

monografiyalar bo‘lmagan dwsak xato bo‘ladi. “Музыкальная критика в Узбекистане” monografiyasidagi ma’lumotlarga tayanadigan bo‘lsak, xatto 20-yillarda ham monografiyalarni uchratish mumkin. (Bu yerda Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li va Muhammad Yusuf Devonzodalarning “Xorazm musiqiy tarixchasi” kitobi nazarda tutilgan). Bundan tashqari 30-yillarda ijodiy portret janri paydo bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlar ham bor. Ammo aynan ma’lum insonga bag‘ishlangan monografiyalar asosan 50-yillarda yozila boshlagan degan xulosaga kelish mumkin. Ushbu kitobda ham bunday turdagi monografiyalar 50-yillarda yaratilganligi va bu monografiya V.Uspenskiyning hayoti va ijodiga bag‘ishlanganligi qayd etilgan.

Yillar bo‘yicha ko‘rib chiqilgan monografiyalarni izohlaydigan bo‘lsak, 40-50- yillarda kompozitorlarga, 80-90- yillarda kompozitor, bastakor, ijrochi, musiqashunoslarga. 200-yillarda ijrochi, bastakorlarga, ya’ni ushbu yillar davomida asosan professional ijodkorlar hayoti va ijodiga e’tibor berilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki monografiyalar tuzilish jihatidan deyarli bir biriga o‘xshash bo‘ladi.

Yillar o‘tgan sayin monografiyalar mazmuni, xajmi, mohiyati, matnning tili jihatidan ancha chuqurlashib boradi. Agar sobiq ittifoq davrida yozilgan monografiyalarda asosiy e’tibor ijodkorlarning ijodiy yo‘liga qartilgan bo‘lsa, 1990-2000 yillardagi monografiyalarda ijodi bilan bir qatorda ularning boshqa tomonlari qisman bo‘lsa ham ochib berilgan. Mazmun jihatidan ancha chuqurroq bo‘lganligi, tilning ilmiylashganligi ko‘zga tashlanadi. Bu yillardagi monografiyalarda matn mazmunini tasvirlovchi ko‘plab fotosuratlarni va ijodiy yo‘li bilan bir qatorda hayotiga ham katta e’tibor berilganligini ta’kidlash mumkin. Taxlillarda aytib o‘tkanimizdek ayrim monografiyalarda insonlarning hayoti va ijodidan tashqari ularning qilgan sayohatlari, o‘qituvchilik faoliyati, asarlarining taxlili keltirilgan.

Demak, yillar o‘tgan sari monografiya janri ancha ommalashdi va oldingi yillarga nisbatan mukammal darajaga yetdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asafyev B. “Избранные труды” том I. M.1952 y. 400 b
2. Axmedov M. “Yunus Rajabiy” T.1980 y. 145 b
3. Begmatov S., Zokirov A. “Muxtorjon Murtozoyev” T. 2006 y. 201 b
4. Pekker Yan “V.A.Uspenskiy” T.1953 y. 155 b
5. Yanov Yanovskaya N.S. “Mutal Burxonov” T. 1999 y. 195 b
6. O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi
7. Большая советская энциклопедия

THE HEART OF UZBEK MUSIC: DOIRA

Eshmurzayev Yusuf Meylikulovich
Lecturer of the Department of "Folklore and Ethnography"
Ergasheva Zilola Saydulloyevna
Lecturer of the Department of "Uzbek and World Philology"
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture
Zilolaergasheva7092@gmail.com

Abstract: The article provides a comprehensive analysis of the Uzbek national musical instrument kara. Doira, which has an ancient history, design and playing methods, is an integral part of Uzbek music. The article provides detailed information about the history, cultural significance, role in music and symbolic meaning of the circle. The unique shape and rhythmic possibilities of the circle further enhance its spiritual and social role in society. The special significance of the instrument in ceremonies, holidays and dance music testifies to its important role in ensuring the unity and harmony of the people. The circle, as an integral part of the Uzbek national culture and folklore, is of great importance in preserving the historical heritage and passing it on to new generations. The purpose of the article is to study the circle as a musical instrument, as well as its cultural and spiritual aspects.

Key words: doira, Uzbek national music, percussion instrument, musical genres, folklore, shashmaqam, dance music, cultural heritage, rhythmic instrument, rituals, holidays, symbolic meaning of music, national culture, historical heritage, folk music.

Аннотация: В статье дается комплексный анализ узбекского национального музыкального инструмента кара. Дойра, имеющая древнюю историю, конструкцию и методы игры, является неотъемлемой частью узбекской музыки. В статье дается подробная информация об истории, культурном значении, роли в музыке и символическом значении круга. Уникальная форма и ритмические возможности круга еще больше усиливают его духовную и социальную роль в обществе. Особая значимость инструмента в церемониях, праздниках и танцевальной музыке свидетельствует о его важной роли в обеспечении единства и гармонии народа. Круг, как неотъемлемая часть узбекской национальной культуры и фольклора, имеет большое значение в сохранении исторического наследия и передаче его новым поколениям. Целью статьи является исследование

круга как музыкального инструмента, а также его культурных и духовных аспектов.

Ключевые слова: доира, узбекская национальная музыка, ударный инструмент, музыкальные жанры, фольклор, шашмаком, танцевальная музыка, культурное наследие, ритмический инструмент, обряды, праздники, символическое значение музыки, национальная культура, историческое наследие, фольклорная музыка.

Anotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek milliy musiqa asbobi bo'lgan doira haqida keng qamrovli tahlil berilgan. Doira, o'zining qadimiy tarixi, qurilishi va chalinish usullari bilan o'zbek musiqasining ajralmas qismidir. Maqolada doiraning tarixi, madaniy ahamiyati, musiqadagi o‘rni va simbolik ma’nosi haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Doiraning o‘ziga xos shakli va ritmik imkoniyatlari uning jamiyatdagi ruhiy va ijtimoiy rolini yanada kuchaytiradi. Asbobning marosimlar, bayramlar va raqs musiqasida alohida ahamiyatga ega bo‘lishi, uning xalqning birligi va uyg‘unligini ta’minlashdagi muhim rolini ko‘rsatadi. Doira, shuningdek, o‘zbek milliy madaniyati va folklorining ajralmas qismi sifatida, tarixiy merosni saqlash va yangi avlodlarga yetkazishda katta ahamiyatga ega. Maqola doiraning musiqa asbobi sifatidagi, shuningdek, madaniy va ruhiy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan.

Kalit so’zlar: Doira, o'zbek milliy musiqasi, zarbli asbob, musiqiy janrlar, folklor, shashmaqom, raqs musiqasi, madaniy meros, ritmik asbob, marosimlar, bayramlar, musiqaning simbolik ma'nosi, milliy madaniyat, tarixiy meros, folklor musiqasi.

Introduction. Musical instruments that represent the rich culture and traditions of Uzbekistan are manifested in many genres and forms. One of them is the doira - a percussion instrument that is widely used as an integral part of national music. The doira is a musical instrument that is an integral part of the ancient and folk music of the peoples of the East. Its roots go back to very ancient times. From Uzbekistan to Tajikistan, Turkey, Egypt and other Eastern countries, the doira is of great importance and is used in many cultural and religious ceremonies, holidays and folklore events. A deeper reflection on the history and development of the doira, how it has changed in musical systems and cultural contexts, helps to understand how it was formed over the centuries and how it is played today. The doira plays an important role not only in creating the rhythmic basis of music, but also in expressing the spiritual state of the people, nature and the balance of life. In this article, we will provide detailed information about the history, construction, playing method and significance of the doira in music.

The drum has a very ancient history, its roots dating back to the pre-Christian era. In the musical culture of the peoples of Central Asia, the drum, which is part of the percussion group, is distinguished by its simple but unique shape and sound. The drum may differ in shape and material among Central Asian and other Turkic peoples, but their common purpose is to create a rhythmic core.

The history of the drum is very ancient. It was used in ancient Egypt, Mesopotamia, Iran, and India. In Egyptian and Mesopotamian cultures, rhythmic instruments, including instruments such as the drum, were used in religious ceremonies and collective celebrations. The earliest forms of these instruments are characterized by metal parts that produce sounds, especially "bells" and "rings".

Ancient paintings and monuments, especially in Egyptian and Mesopotamian cultures, depict musical instruments in the shape of a circle. These images indicate the religious and ritual significance of the instruments. The circle was used not only to create music, but also for spiritual and religious purposes.

The peoples of Central Asia - Uzbeks, Tajiks, Kyrgyz, Turkmens and others - have adopted the circle as an integral part of their musical and cultural heritage. In Uzbek folk music, the circle is a widely used instrument, playing a key role in ceremonies, weddings, holidays and other folk events. The circle plays an important role in creating a rhythmic effect, especially in dance music.

The way the circle is played and the shape are unique in each region of Central Asia. For example, in Uzbekistan, the circle is used as a small, fast-paced musical instrument, while in Tajikistan it has larger forms and unique playing methods. In addition, depending on the musical history and culture of each nation,

the circle is expressed in different forms and given different names. In Uzbekistan, it is called "doira", in Tajikistan, "daf", and in Turkmenistan, "dora".

The development of the drum is mainly associated with changes in musical systems and social life. Initially, the drum was played as a simple musical instrument, but over time its shape, material, and playing methods changed. For example, the first drums were made only of animal skin, but later they began to be made of metal and wood.

The shape and size of the drum changed depending on the purpose of its use. For example, large drums were used in ceremonies, while small drums were widely used in dance music. Its internal structure and playing methods also varied. Traditional methods of playing the drum are performed with the hands, wrists, and fingers, but modern methods include playing with a board or other percussion instruments.

Ayni paytda xalq iste’molida bo‘lgan doyraning umumiy diametri 36 santimetrdan 38 santimetrgacha bo‘lgan gardish[1] asosi bo‘lib, gardishning tashqi qismi membrana (toychoq, tuya, buzoq terisi) bilan qoplangan, uning tovush kuchlanishi maxsus qizdirishlar yordamida o‘zgartiriladi. Bundan tashqari, halqalar (16-30 tagacha) ichki tomondan (pastki - rezonansli teri bo‘ylab) o‘rnatiladi, bu esa doyra ritmiga o‘ziga xos musiqiy bezak beradi. Doyraning ovozi membranaga kuchli-kuchsiz zarb berish orqali o‘zgartiriladi. Bu cholg‘udagi tovushlar, asosan, teriga o‘ng va chap qo‘llar barmoqlari bilan urish orqali hosil qilinadi (ushbu tovushlarning o‘lchami, hajmi, uzun-qisqa, past-balandligi tembr, har xil eshitilishiga xizmat qiladi).

Avvallari doyrachilar cholg‘uda yanada jarangdor tovush hosil qilish uchun ikkala qo‘llarining to‘rtinchi barmoqlariga temirdan yasalgan noxun[2] taqib ijro

[1] Gardish – (forscha – chambarak) – bir tomoniga teri qoplanib, atrofiga xalqachalar o‘rnatiladigan, aylana qilib egilgan yog‘och doira. Ko‘pincha tokning zangidan yasaladi [85; 45-b.].

[2] Noxun – (forscha – tirnoq) – tanbur va doyra chalishda ishlatiladigan moslama. Tanbur noxuni barmoqning yuqori bo‘g‘ini shaklida bo‘lib, o‘ng qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘iga kiyiladi. Doyra noxuni uzunasiga kesilgan angishvana shaklida bo‘lib, bir yoki bir necha barmoqlarga bog‘lab qo‘yiladi [85; 128-b.].

qilganlar. Keyinchalik bu jarangdorlikka barmoqlar yordamida ham erishilganligi sababli noxunlardan foydalanishga ehtiyoj qolmagan. Shuningdek, oldin doyralar maxsus ipsiz (bintdan yoki oq surpdan ingichka arqon ko‘rinishida, ikki uchi bir-biriga bog‘lanadi) chalingan. Keyinchalik doirachilar ijro paytida qulay bo‘lishi uchun maxsus iplardan foydalana boshladilar. Doyra cholg‘usida sado beruvchi asosiy vosita bu albatta membrana ya’ni teri hisoblanadi. Bunda asosan, buzoq, tuya, toy terilardan foydalaniladi. Avvaldan ishlov berib, ivitilgan teri gardishning bir tomoniga maxsus yelim (sirach) yordamida qoplanadi. Terini gardishga qoplashda uning barcha tarafi bir xil maromda tortilganiga e’tibor berish lozim. Aks holda doyra ijro qilinganda terining har tarafi turlicha sado berishi mumkin.

Ushbu cholg‘uda ritmni past-baland tovushlar vositasida boshqarishning asosiy usuli zarba bo‘lib, u ikki qo‘l va barmoqlarda terining yuzasida yoki chetida zarb bilan urish jarayonida amalga oshiriladi. Ushbu ijro harakatining psixofiziologik, kasbiy va pedagogik xususiyatlari musiqiy ijroning ushbu sohasida hali musiqa pedagogikasi sohasida to‘liq o‘rganilmagan. Garchi bunga ehtiyoj allaqachon ortgan bo‘lsa ham, uni amalga oshirishga tayyorligi musiqa ijrochisi o‘z ijro (o‘yin) harakatlarining o‘ziga xos xususiyatini qanchalik chuqur anglashiga bog‘liq. Albatta, savolga to‘liq javob berish uchun maxsus murakkab ishlanmalar talab qilinadi. Bu yerda biz uning tadqiqot maqsadlari uchun talab qilinadigan jihatlariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Ya’ni, doyra cholg‘usini jro etishda tovush hosil qilishning asosiy usuli sifatida zarba “tashqi” ko‘rinishida oddiy ko‘rinadi, ammo “ichki” mazmunida bunday emas. Har qanday harakatda bo‘lgani kabi, unda ham ma’lum mantiqiy daqiqalarni ajratib ko‘rsatish mumkin: boshlang‘ich pozitsiyasi - o‘rnatish – ritm o‘lchovini belgilash - zarbaning o‘zi - boshlang‘ich pozitsiyasiga qaytish. Bu jonli harakatning faqat nazariy modeli ekanligi aniq - aslida bu mantiqiy nuqtalar bilan ajralib turmaydigan jarayon. Zarba jismoniy hodisadir, lekin boshqa tomondan, u yoki bu tarzda, unda psixo-energetik prinsip ham amalga oshiriladi, chunki bu harakatning ijrochisi albatta bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari faoliyatidir. Ularning doyra ijrochiligi metodik malakalarini takomillashtirish ma’lum his-tuyg‘ularni o‘z zimmasiga olgan bo‘lajak mutaxassis kadrlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Islomov D. “Moziydan sado” monografiya – Toshkent: “Ekstremum press” nashriyoti, 2019-y. 140 b.
2. Islomov D. “Maxsus cholg‘u” (An’anaviy doira ijrochilik usullari) – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti 2019-y. 222 b.

3. Ugli K.K.B. development of performance skills of future music teachers using percussion instruments //European International Journal of Pedagogics. – 2023. – T. 3. – №. 06. – C. 53-56.
4. Beknazarov K. Pedagogical conditions for developing musical competence of future music teachers using uzbek folk instruments //current research journal of pedagogics. – 2023. – T. 4. – №. 06. – C. 101.
5. Ganisherovich T. J. Coverage of chang instruments in historical and musical sources //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 3. – C. 30-33.
6. Жамилова Н.Н. Педагогические механизмы развития инициативности у студентов педагогических вузов: Дисс. … док. пед. наук. – Ташкент, 2019. – 202 с.
7. Кобилкориев К. Musiqiy ta’lim jarayonida doira ijrochiligini rivojlantirish //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 2/S. – С. 447-451.
8. Qobilqoriyev Q. “Doira cholg‘usining o‘zbek milliy musiqa madaniyatidagi o‘rni” Magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent: 2020-y. 116 b.
9. Qobilqoriyev Q.B. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining doyra ijrochiligi malakalarini takomillashtirish // Miasto Przyszłości Kielce. Vol. 46. – Polsha, 2024. – 926-928 b.
10. Qobilqoriyev Q.B. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining doyra ijrochiligi malakalarini takomillashtirish metodikasi: Diss. ... ped.fan.fal.dok. – Toshkent, 2025. – 136 b.
11. Симонов В.П. Диагностика личности и профессионального мастерства преподавателя. – Москва: Межд. пед. академия, 1995. – 192 с.
12. Юлдашев Иззат Икрамович. “Музыкальный фольклорный генезис в трудовой практике”. Проблемы современной науки и образования 1 (146) (2020): 102-104.
13. Yuldashev Izzat Ikramovich. “ANTIK DAVR OLIMLARINING SINKRETIK QARASHLARI”. Oriental Art and Culture 3.2 (2022): 26-31.

MILLIY CHOLG`U ANSAMBLLARI ORQALI O‘QUVCHILAR MUSIQIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH YO`LLARI VA ISTIQBOLLARI

Alimova Diloramxon Abidjanovna
Farg‘ona ixtisoslashtirilgan san’at maktabi
“Xalq cholg‘ulari ijrochiligi” bo‘limi bosh o‘qituvchisi
Xakimova Nozima Ilxomjonovna
“Musiqa nazariyasi” bo‘limi yetakchi o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, ma’naviy, barkamol, estetik va badiiy dunyoqarashi shakllangan, madaniyatli insonlar qilib tarbiyalash bugungi kunda ta’lim-tarbiya muassasalari oldida turgan dolzarb masalalardandir. Ushbu maqola bolalar musiqa va san’at maktablarida olib boriladigan ansambl va orkestr darslari orqali bolalarni ansambl bo‘lib ijro etish uslubini o‘rgatibgina qolmay, ularda nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zlashtirish shu jarayon orqali ko‘nikma va malakalarini hosil qilish bilan ularni g‘oyaviy, ma’naviy dunyoqarashlarini, estetik madaniyatini tarkib toptirishdan iboratligi haqidagi fikr va mulohazalar keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa ta’limi, ansambl to‘garaklari, bolalar ansambl jamoalari,ansambl rahbari, o‘quv-tarbiyaviy jarayon ma‘naviy dunyoqarash.

Аннотация: Воспитание подрастающего молодого поколения зрелыми, нравственно, всесторонне развитыми, эстетическими и художественными мировоззрениями, культурными людьми является одной из актуальных задач, стоящих сегодня перед образовательными учреждениями. В данной статье посредством ансамблевых и оркестровых занятий, проводимых в детских музыкальных школах и школах искусств, дети не только учатся выступать в ансамбле, но и приобретают теоретическую и практическую информацию, развивают в этом процессе

свои навыки и компетенции. Широко освещены мнения о содержании их идейного, духовного мировоззрения, эстетической культуры.

Abstract: Educating the younger generation with mature, morally, comprehensively developed, aesthetic and artistic worldviews, and cultured people is one of the urgent tasks facing educational institutions today. In this article, through ensemble and orchestra classes conducted at children's music and art schools, children not only learn to perform in an ensemble, but also acquire theoretical and practical information, and develop their skills and competencies in this process. Opinions about the content of their ideological, spiritual worldview, and aesthetic culture are widely publicized.

Yosh avlodni barkamollik sari yetaklashda tarbiyaning ko‘plab omillari qatorida musiqa alohida o‘rin tutadi. Musiqa o‘zining betakror tabiati bilan yoshlarning ma’naviy dunyosiga katta ta’sir etish kuchiga ega. Donishmand xalqimiz azaldan musiqa va qo‘shiqni o‘z ijtimoiy va madaniy hayotlarining muhim bo‘lagi deb bilgan. Oilada farzandni qo‘shiq aytishga, soz chalishga o‘rgatish ota-onalarning orzusi sanalgan, shu niyat bilan xonadonda biron cholg‘u soz saqlanishi odat qilingan. Kuy va ohangni bola qalbiga tez yo‘l topa olishi, ruhiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, xulq-odobi va yaxshi fazilatlarni shakllanib borishida katta ta’sir kuchiga ega bo‘lishi chuqur anglab yetilgan.

Shu bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 4038-sonli qarorida ham bu xususda ko‘plab chora-tadbirlar haqida aytib o‘tilgan. Jumladan: Keyingi yillarda mamlakatimizda xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san’at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbek xalq musiqa merosining shakllanishi va rivojlanish jarayonida ijrochilar faoliyatining bir qator o‘ziga xos amaliyot tizimlarini o‘tashi lozim

bo‘lgan amallar alohida e’tiborga molikdir. Musiqa ijrochiligi o‘zining ko‘p variantlilik xususiyati zaminida turli ijrochilar har bir sozandaning ustoz darajasidagi bilimi va amaliy talqini nihoyasida shaxsiy uslubi, ma’lum uslubga mansub ijrochilik yo‘lining avloddan avlodga o‘tishi orqali ijro maktablari yuzaga kelgan. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng madaniy jabhalarda katta o‘zgarishlar qatori milliy musiqaga, umuman, ajdodlarimiz qoldirgan madaniy merosga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu o‘rinda o‘quv yurtlari ansambl rahbarlari zimmasiga ham bir qator mas’uliyatli vazifalar yuklatilgan. Shulardan biri Davlat ta’lim standarti asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish, dars samaradorligini oshirish va puxta bilim berish. O‘quv yurtlari ansambl rahbarlari har kuni respublikamiz madaniy hayotidan voqif bo‘lmoqlari lozimligi bilan bir qatorda, oquvchilarga bilim berishning o‘ziga xos tomonlariga e’tiborni kuchaytirmoqlari kerak. Ansambllarni tashkil etish va uni boshqarish uchun rahbar o‘zbek xalq cholg‘u asboblarining tarixi, ularning ijro imkoniyatlari, diapazoni, shtrixlari, ansambldagi vazifasi va o‘rnini yaxshi bilishidan tashqari, xalq cholg‘ularidan birortasini mukammal egallagan bo‘lishi foydadan xoli bo‘lmaydi. Rahbar ansambl a’zolariga o‘rgatadigan asarini xalq cholg‘u asbobida chalib berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mashg‘ulot boshlashdan oldin cholg‘ularning soziga e’tibor qaratish lozim. Cholg‘u asboblarini kamerton yoki nay cholg‘usiga sozlash tavsiya etiladi.

Har bir cholg‘u o‘z shakli va konstruksiyasiga ega, hamda ijro uslublari turlichadir. Ijrochining texnikasini shakllantirish asosida qo‘l va barmoqlar harakati yotadi. Masalan, chang cholg‘usida ijro texnikasini shakllantirishda barmoqlar tezkorligi ustida ishlashning keragi yo‘q. Doira ijrochiligida esa, aksincha, qo‘l harakatlari boshqa ko‘rinishda bo‘ladi. Mizrobli cholg‘ular ijrochiligida chap qo‘l barmoqlarining harakati gorizontal ko‘rinishda, kamonli cholg‘ular ijrochiligida esa vertikal ko‘rinish kasb etadi. Har bir cholg‘uning ijro imkoniyatlari, uning ijrodagi o‘rni haqida ansambl a’zolari tasavvurga ega bo‘lishlari asar ijrosida katta samara beradi. Ansambl qatnashchilarining to‘g‘ri

joylashishini, o‘tirishini, musiqa asbobini to‘g‘ri ushlashini, chiroyli tovush hosil qilishini, shtrixlar, dinamik belgilarga e’tibor qilishini kuzatish va o‘z navbatida xatolarni tuzatib borish rahbarning asosiy vazifalaridan biridir. Rahbar jamoa qatnashchilarining ma’naviy-ma’rifiy, estetik tarbiyasiga katta e’tibor berishi, odob - axloq qoidalari asosida o‘z qobiliyatlarini takomillashtirib borishlarini kuzatib, ularga ko‘maklashib bormog‘i darkor. Qatnashchilarning umumiy sonidan qat’iy nazar, intizomning mustahkam bo‘lishi uchun ba’zi qatnashchilar mashg‘ulotga kelmagan bo‘lsa ham, jamoa o‘z mashqlarini belgilangan vaqtda, boshlashi yaxshi samara beradi. Rahbar ansamblga o‘rgatadigan asarini mukammal bilishi, uning yaratilish tarixi va boshqa kerakli ma’lumotlar, jumladan, o‘lchovi, usuli, dinamik belgilari, asarnig bastakori haqida tushuncha berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu ma’lumotlar qatnashchilarga chalinayotgan asar haqida tasavvur hosil qilishiga yordam beradi. Shuningdek, rahbar ijrochilik mahoratiga aloqador vazifalarni aniq belgilab berib, uning bajarilishini qat’iy talab qilishi lozim. Berilgan vazifalarning bajarilishini to‘g‘ri talab qilish, ijodiy birlik, muvaffaqiyatli ijro garovidir. Rahbar ansambl qatnashchilari bilan muomala qilishda, albatta, o‘z uslubini topishi kerak.

Mashg‘ulot vaqtida ijrochilardan birortasi adashib ketib noto‘g‘ri chalsa, ansamblni to‘xtatib qo‘yib unga tanbeh berish noo‘rin, balki ijro vaqtida ishora yoki so‘z bilan uning diqqatini jalb qilishi va qilgan xatosini yaxshi muomala bilan tushuntirishi lozim. Asarning yaxshi ijrosi har bir cholg‘uchining kayfiyatiga ham bog‘liq bo‘ladi. Ansambl ishtirokchilaridan birortasining kayfiyati yomon bo‘lsa, qolgan ishtirokchilarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Asar tanlashda ham rahbar ansambl ishtirokchilarining qobiliyatlarini inobatga olsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ma’lumki, har bir cholg‘uchi o‘ziga xos, bir-biriga o‘xshamaydigan musiqiy his-tuyg‘ularga ega. Rahbar ana shu his-tuyg‘ulardan ham foydalanishi mumkin. Asar haqida, asarning qaysi bo‘lagi, taktida qochirim, bezak, nola ishlatish lozimligi to‘g‘risida qatnashchilar fikrini

bilib, yagona bir qarorga kelishi va ansambl qatnashchilariga bu qarorga kelish sabablarini tushuntira bilishi lozim.

Mashg‘ulot vaqti chegaralangandir. Uni tejamli va samarali o‘tkazish uchun rahbar oldindan tayyorgarlik ko‘rishi kerak. Yakka ish rejalarini tuzishi shart. Bu reja rahbar e’tibor berishi lozim bo‘lgan barcha ishlarni qamrab olishi lozim. Reja tuza turib, rahbar mashg‘ulot jarayonining umumiy zanjirida qatnashchining tutgan o‘rnini aniq ko‘z oldiga keltirishi, uning maqsadi va boshqa mashg‘ulotlar bilan o‘zaro aloqasini aniqlashi shart. Mashg‘ulotning mazmunini, uni tashkil qilish shaklini va o‘tkazish uslubini aniqlashi kerak. Qatnashchilarga beriladigan musiqiy asarni o‘zi o‘rganishi, tegishli bo‘lgan hamma ma’lumotlar bilan tanishib chiqishi kerak. Shu vaqtning o‘zida qatnashchilarga beriladigan uy vazifalarini oldindan rejalashtirishi kerak. Rahbarning badiiy ish faoliyati izlanuvchanlikni talab qiladi.

Ana shu jarayonda rahbarning individual ish uslubi, uning mahorati shakllanadi. Mashg‘ulot jarayonida rahbar turli uslublardan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Og‘zaki tushuntirish, asarni ijro etish, kuylash, dirijorlik qilish va hokazo. Asar o‘rgatishda dirijorlik uslubidan foydalanish ko‘proq samara beradi. Chunki mashg‘ulot paytida rahbar chalinayotgan asarni bo‘lmasdan, to‘xtatmasdan dirijyorlik qilish orqali ta’sir qilishi mumkin. Yana katta ta’sirga ega bo‘lgan uslublardan biri, rahbarning ijrosidir. Bu uslub o‘rganuvchining ijroni tushunishiga, bilishiga ketadigan vaqtini qisqartiradi. Ammo eng keng tarqalgan, soddagina ta’sir kuchiga ega bo‘lgan uslub–bu og‘zaki, so‘z yoki kuylash bilan tushuntirishdir. Bu uslubni egallagan rahbar qatnashchiga eng qiyin, murakkab g‘oya va tushunchalarni o‘rgatishga erishadi. So‘z yordamida rahbar badiiy asarning mazmunini, musiqiy ijrochilik san’atining qonuniyatlarini, ijrochilik apparatining qo‘yilishini, texnik ijro uslublarini ochib berishi mumkin.

So‘z yordamida katta yutuqlarga erishish mumkin, albatta, uni bilib, meyorida ishlatilsa, lekin shu bilan birga, bu tushuntirishlar yordamchi xarakterga ega bo‘lishi kerak. Shuningdek, ijrochining emotsionalligiga ham e’tibor berish

kerak. Mashg‘ulot jarayonida rahbar emotsional kayfiyatga ham e’tibor bersa, katta yutuqlarga erishish mumkin. Rahbar bor kuchini ansamblda ijodiy muhitni hosil qilishga qaratishi kerak. Katta ixlos, zavq beruvchi kuch bu konsert sahnasidir. Cholg‘uchilar faqatgina mashg‘ulot xonalarida emas, balki har xil turdagi konsertlar, tanlovlarda ishtirok etishlari lozim. O‘z kasbiga qiziqish, muhabbat uyg‘otish uchun rahbar mashhur musiqachilar, ularning san’ati va hayoti haqida gapirib berishi lozim. Rahbar mashg‘ulot olib borish etikasiga ham alohida e’tibor qaratishi lozim. Mashg‘ulotlar har doim muntazam olib borilishi, rahbar kechga qolmasligi shu bilan birga, qatnashchilardan ham mashg‘ulotning o‘z vaqtida boshlanishini talab qilishi kerak. Ansambl a’zolariga baqirish, ularni haqoratlash, kamsitish aslo mumkin emas. Hamma qatnashchilarga bir xilda munosabatda bo‘lish kerak. Rahbar ansambl a’zolariga nisbatan yuqorida keltirilgan talablarga amal qilsa, kelajakda ijobiy natijalarga erishadi hamda katta hurmat va e’tiborga sazovor bo‘ladi.

Ansamblning yaxshi sadolanishida cholg‘ularning joylashishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ansamblda cholg‘ularni quyidagicha joylashtirishni tavsiya etamiz: doira, g‘ijjak, nay, qo‘shnay, qonun, chang, qashqar rubobi, afg‘on rubobi, tanbur, dutor, ud. Ansambl sozandalarining bunday joylashuvi bir-birlarini eshitib ijro qilishlariga yordam beradi. Chalinayotgan asar tezroq o‘zlashtirilishi uchun uni kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib o‘rgatish va asarning ijrosini sozandalarga nota bilan birga gramplastinkalardan, magnit tasmalariga yozilgan variantlaridan eshittirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Musiqa san’atining nazariyasi hamda amaliyotiga oid bunday talablar o‘z ildizlari bilan ko‘hna madaniyatimizning uzoq tarixiy davrlariga borib taqaladi. Mazkur masalalar milliy cholg‘u asboblarining tarixiga oid ma’lumotlarni tahlil qilish orqali oydinlashishi mumkin.

Asar o‘zlashtirilayotgan paytda ijrochining imkoniyatlariga mos bo‘lgan tezlikni tanlash va ijroning bir maromda bo‘lishga erishish kerak bo‘ladi. Musiqa asarining ustida to‘g‘ri ishlay bilish ijro mahoratini oshirishning omillaridan

biridir. Cholg‘u ijrochiligi sinflarining tajribasida ba’zi musiqa asarlarini o‘zlashtirish ishi konsert yoki yakuniy nazoratgacha yetib bormaydi. Bu asarlar sinf ishi sifatidagina o‘zlashtiriladi. Sinf ishidan asosiy maqsad musiqa asarining umumiy mazmuni bilan tanishish, unda ishlatiladigan ijro ko‘nikmalarini o‘zlashtirish va shular asosida bayon qilinmoqchi bo‘lgan musiqaviy kechinmalarni cholg‘u yordamida talqin eta bilishdir. Musiqa pedagogikasida bunday sinf ishlariga alohida e’tibor beriladi va u o‘quv jarayonining maxsus shaklini tashkil etadi. Ayni paytda, sinf ishi bilan notaga qarab chalish mashg‘uloti ma’lum darajada bir-biridan farq qiladi. Notaga qarab chalishda o‘quvchi material bilan bir marta epizodik tanishish imkoniyatiga ega bo‘lsa, sinf ishi jarayonida u asar bilan to‘laroq va asosli tanishib, o‘zlashtirishi mumkin. Sinf ishi bilan shug‘ulanadigan o‘quvchi, musiqa asarini bir necha bor takrorlashi tufayli o‘zi uchun shu asarning mohiyati, mazmuni, tuzilishi va boshqa sifatlarini to‘laroq ochishi mumkin. Shu asosda asarning ijodiy g‘oyasi va unda bayon etilayotgan badiiy fikrlar o‘quvchiga tobora tushunarli bo‘lib boradi

Sinf ishi uchun tanlanadigan repertuar o‘zining xarakteri, tuzilishi, mazmuni va boshqa ko‘rsatkichlari jixatidan rangbarang bo‘lishi zarur. Sinf ishida foydalaniladigan musiqa asarlarining murakkabligi esa o‘quvchining xaqiqiy imkoniyatlariga qaraganda ma’lum darajada qiyinroq bo‘lishi mumkin. Bu asarlar konsertda yoki yakuniy nazoratlarda ma’lum darajada ijro etilmasligini hisobga olsak, o‘qituvchi yuqorida aytilgan tavsiyalarni qo‘llashi to‘g‘ri bo‘ladi. Sinf ishi dastlabki paytda albatta o‘qituvchining ishtiroki va nazorati ostida o‘tishi kerak. Keyinchalik o‘quvchining tajriba va ko‘nikmalari ortib borgan sari o‘qituvchining ishtiroki kamayib boradi va xatto musiqa asarlari bilan tanishish o‘quvchining Bunda o‘qituvchi o‘quvchiga umumiy ko‘rsatmalar berishi bilan chegaralanadi.O‘qituvchi uchun muhimi, sinf ishi hamda musiqa asaribilan tanishish o‘quvchi tomonidan to‘g‘ri tashkil etilishidir. Sinf ishi uchun asarlarni o‘zlashtirish asosiy repertuardagi asarlar ustida ishlashdan farq qiladi. Asosiy repertuardagi qiyin o‘rinlar o‘quvchi bir necha bor takrorlasa va nihoyat uni yod

olsa, sinf ishidagi asarlar ijrosida u o‘z e’tiborini musiqa asaridagi badiiy obrazlarni yaxlitligicha talqin qilishga, asar shaklini o‘z ijrosi bilan umumlashtirishga qaratishi kerak. Bunda albatta, asardagi barcha ko‘rsatma va belgilarga to‘la rioya qilishga e’tibor berish kerak. Xuddi mana shunday ijro o‘quvchining rivojlanishiga yordam beradi.Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida sinf ishalaridan foydalanish o‘quvchining umumiy musiqiy rivojlanishi uchun asosiy omillardan biridir.Notaga qarab ijro qilish Notaga qarab ijro qilish murakkab jarayon bo‘lib, u maxsus mashqlar yordamida o‘zlashtiriladi. Notaga qarab ijro etish jarayonini kuzatadigan bo‘lsak, unda qo‘yidagi qismlarni ko‘rishimiz mumkin: -Nota ko‘rinishining o‘quvchi ongiga etib borishi;

-O‘quvchi ongida qanday harakatni amalga oshirish kerakligining aniqlanishi;-Kerakli harakatlar yordamida berilgan notaning ijro etilishi1. Notaga qarab ijro etish jarayonining qanchalik tez sodir bo‘lishi nota ko‘rinishini qabul qilib (anglab), kerakli harakatni amalga oshirish tezligiga bog‘liq. Agar jarayonining biror qismi yaxshi ishlamasa, notaga qarab ijro etishda ko‘zlangan natijaga erishish qiyin bo‘ladi. Notaga qarab ijro etishning murakkab taraflaridan biri shuki, musiqa asarining bir qismi ijro etilayotganda cholg‘uchi keyingi qismini ko‘rib, uning ijrosiga tayyorgarlik ko‘rishga tayyorlanadi. Tajribasiz o‘quvchilar ko‘p holda buning uddasidan chiqa olmaydilar natijada, ularning ijrolari uzilib qoladi. Diqqat-e’tiborni bir maqsadga qarata bilish notaga qarab ijro etishning muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishini ta’minlaydigan omillardan biridir. Cholg‘u ijrochiligi ta’limi o‘z oldiga o‘quvchining umumiy musiqiy qobiliyatini, professionalligini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib qo‘yar ekan, shubha yo‘qki, notaga qarab ijro yetish ana shu maqsadning amalga oshishida asosiy va maxsus vosita vazifasini bajaradi. Notaga qarab ijro etishning muhimligi tan olingan holda, amalda unga ba’zan keraklicha ye’tibor berilmaydi. Albatta, notaga qarab ijro etishga qancha ko‘p vaqt sarflansa, bu o‘z navbatida, ma’lum ijobiy natija berishi mumkin. Lekin bu Cholg'u ijrochiligida notaga qarab ijro qilish jarayonni tashkil qilishda ongli nazorat yo‘lga qo‘yilishi lozim. Tajribadan ma’lumki,

sozandaning notaga qarab ijro etish qobiliyati qanchalik rivojlangan bo‘lsa, uning ichki eshitish qobiliyati ham shunchalik rivojlangan bo‘ladi. Ya’ni bunday sozanda nota belgilariga ko‘zi tushishi bilanoq shu tovushni ijrosiz eshita oladi. Demak, sozandadagi «ko‘rish orqali eshitish» qobiliyati qanchalik rivojlangan bo‘lsa, uning notaga qarab ijro eta olishi ham shunchalik sifatli bo‘ladi1. Notaga qarab ijro etishning muhim shartlaridan yana biri ijrochining nigohi nota tekstidan uzilmasligidir. Cholg‘u torlari va pardalar joylashuvini yaxshi o‘zlashtirib olmagan o‘quvchilarning nigohlari dam nota tekstiga, dam cholg‘u grifiga ko‘chib turadi. O‘quvchi notaga qarab, uning balandligini belgilab olgandan so‘ng, nigohini cholg‘u grafikasidagi pardalarga ko‘chirishga majbur, chunki pardalarni yaxshi o‘zlashtirib olmaganligi sababli grifga qaramasdan barmoqlarni pardaga aniq qo‘ya olmaydi. Navbatdagi notani aniqlashda o‘quvchi yana nigohini nota tekstiga ko‘chiradi. Bunday vaziyatda ko‘p o‘quvchilar tekstning qaysi joyiga kelganliklarini yo‘qotib qo‘yadilar. Kerakli joyni topish uchun esa bir oz vaqt talab etiladi. Mana shu kamchiliklar natijasida o‘quvchining ijrosida noto‘g‘ri to‘xtashlar sodir bo‘ladi. Bu esa asarning uzluksiz ijrosiga putur etkazadi. Shu sababli ijrochi nigohining bir manbadan ko‘chishi qanchalik kam bo‘lsa, shunchalik ijro uchun foydali bo‘ladi.Notaga qarab ijro etishni amalga oshirayotgan paytda o‘quvchidan nota yozuvidagi barcha belgilariga qat’iy rioya qilishni birdaniga talab qilib bo‘lmaydi. O‘qituvchi bu jarayonda o‘quvchi birinchi navbatda e’tibor berishi kerak bo‘lgan narsalarni olindan tushuntirib, belgilab berishi katta ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, o‘quvchi asarlardagi yaxlit musiqiy fikrning boshlanishi va tugallanishiga birinchi navbatda e’tibor berishi kerak. Ya’ni asarda bayon etilgan tugal fikrning uzilib qolishi yoki tushunarsiz ijro etilishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Notaga qarab ijro etishni asarda bayon etilayotgan musiqiy fikrlar asosida tashkil qilish yaxshi natija beradi.

Ansambllarning kuchi va mohiyati o‘quv yurtidagi tutgan o‘rni albatta ansambl rahbarining tajribasi va mahoratiga bog‘liqdir. Hozirgi kunda viloyatlarda ansaml va orkestrlar soni nisbatan kamayib ketgan. Dirijyor sifatida

shuni ta’kidlab o‘tishim lozimki, BMSM lar orkestr va ansaml sinflarini shakllantirsa avvalgi mavqeini saqlab qolsa o‘sha maktabga kelayotgan o‘quvchilar sonini ko‘payishiga o‘z xissasini qo‘shgan bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev SH.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – halqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. (Prezident Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi). – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil, 4 avgust.
2. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Ma’naviyat. Toshkent 2008 yil. 143-bet.
3. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasidir. 5- yo‘nalish “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish”
4. 2022 yil 2-fevralda gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №PQ-112 “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori
5. U.Yunusov Xalq cholg`ularida ijrochilik Musiqa. Toshkent 2021 3.b
6. A.Odilov Xalq cholg`ularida ijrochilik tarixi O`qituvchi-1995. 5.b
7. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2-jildlik. 2 jild. T.: Ma’naviyat,1998 . 235-bet.
8. Семенов А. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвиша Али. - Т.,

III SHU’BA

O‘ZBEK MILLIY CHOLG‘ULARIDA KO‘P OVOZLI IJROCHILIK JAMOALARI TARKIBINI OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI

O‘ZBEKISTONDA XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRLARINING RIVOJLANISH JARAYONLARI

Shermatov Komiljon Erkinovich
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi
professori v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq cholg‘ularining rivojlanish bosqichlari hamda ko‘p ovozli ansambl va orkestrlarning tashkil topishi haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: cholg‘u ijorchiligi, ansambl, orkestr, ko‘p ovozli ijrochilik,

O‘zbek xalq cholg‘ulari professional orkestrlari respublikamizda o‘tgan asrning o‘ttizinchi yillari oxiridan boshlab shakllana boshlagan. 1928-yili Samarqand shahridagi musiqa va xoregrafiya ilmiy-tadqiqot institutida milliy cholg‘ularni yasash uslublari atroflicha ilmiy asosda o‘rganila boshlangan edi. V.A.Uspenskiy , N.N.Mironovlar boshchiligidagi bir guruh soha mutaxassislari , sozandalar shuningdek milliy cholg‘ular ustalari bo‘yicha jalb qilingan edilar guruhga taklif etilgan A.I.Petrosyanis o‘n ikki qatorli bir xil temperasiya asosida o‘zbek milliy cholg‘ularini rekonstruksiya qilish guruhiga rahbarlik qila boshladi. U rus xalq cholg‘ulari orkestri tashkilotchisi V.Andreev g‘oyalari va tajribasiga tayangan holda izlanishlarini olib bordi. A.I.Petrosyans va guruhdagi hamfikr mutaxassislar bu boradagi ilk izlanishlari , tajriba sinovlari muvafaqiyatli chiqdi. Undan ilhomlangan guruh a’zolari endi yangi qayta yaratilgan cholg‘ular asosida ularning oiladosh cholg‘u asboblarini barpo etish ustida ilmiy asoslangan izlanishlar olib borishda o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida taniqli moxir xalq cholg‘ulari ustalaridan Shorahim Shoumarov, Usmon Zufarov, Matyusuf Xarratov, yosh istedodli ustalardan Sirojiddin Muxiddinov, Abdunabi Abdugafurov va boshqalar ham jalb qilindilar , natijalar ijobiy bo‘lgach , xalq cholg‘ulari orkestri tuzish asosiy maqsadlardan biriga aylandi. 1936-yili o‘zbek

davlat filarmoniyasiga asos solinib , ko‘plab tuzilanayotgan badiiy jamoalar qatori, 98 kishilik katta ashula va raqs ansambli ham, O‘zbekiston xalq artisti To‘xtasin Jalilov raxbarligida o‘z faoliyatini boshlaydi.

Yosh kompozitor, keyinchalik O‘zbekiston xalq artisti, diyorimiz madhiyasining mualliflaridan biri Mutal Burxonov filarmoniya badiiy jamoalari artistlariga musiqa nazariyasidan dars bera boshlaydi. Tez orada orkestr ijrochiligining ko‘p qirralarini o‘zida jam qilgan, O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri tuziladi. Yangi jamoa tarkibiga milliy sozlar bilan birga fortepiano, truba va trambon kabi cholg‘ular ham kiritiladi. Yangi musiqiy jamoa o‘zining ijrochilik mahorati yuksakligi tufayli, musiqa shinavandalari va mutaxassislarning nazariga tushadi 1938-yilning noyabr oyida, yuqorida qayd etilgan orkestr asosida o‘n ikki qatorli bir tekis temperatsiyali orkestri tashkil topadi. Orkestr bosh dirijiori va badiiy rahbari rtib professor Ashot Ivanovich Petrosyans tayinlanadi. 1948-yilda Toshkent Konservatoriyasida xalq cholg‘ulari fakultetining tashkil etilishi hamda bastakor va kompozitorlarning ommaviy musiqa janrlarga murojaat qilishlari orkestrning ijodiy kamolatida muhim ahamiyat kasb etdi. Natijada milliy dasturga asos solindi. Tinglovchilarning taxsinlariga sazovor asarlar yaratildi. 1949-yil noyabrida kompozitorlarning 3 anjumanida orkestr chiqishlari kata muvaffa-qiyatlarga erishildi. Orkestr 1951-yil noyabrida o‘zbek adabiyoti va san’ati dekadasi qatnashchisi sifatida Moskvada konsertlar berish sharafiga muyassar bo‘ldi. Shundan so‘ng u Ukraina, Latviya, Litva, Estoniya, Ozarbayjon, Armanistan, Gruziya kabi davlatlarda Rossiyaning Sankt-Peterburg, Kaluga, Murshansk, Qozon va boshqa shaharlarda O‘zbek milliy musiqa san’atini va kompozitorlar asarlarini ijro etdilar. 1957-yilda orkestrning yoshlar tarkibi xalqaro tanlovda qatnashib laureate bo‘lishdi. 1966-yili orkestrga O‘zbekiston xalq artisti ustoz san’atkor To‘xtasin Jalilov nomi berildi. Orkestr dasturining boyishi va ijrochilik mahoratini oshishida unga dirijiorlik qilgan; L.Sustonova, X.Izamov, A.Leviev, N.Alimov, S.Karimov, S.Jalil, F.Nazarovlar shuningdek 1958-yildan orkestr jamoasining badiiy rahbari va bosh dirijori O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Said Alievning hissalari bor. 1976-yildan orkestrga O‘zbekiston xalq artisti Farrux Sodiqov badiiy rahbar va bosh dirijior, jamoa ijrochilikda erishgan yutuqlari uchun 1980-yilda “Davlat orkestri”, 1991-yilda “Akademik orkestr” unvoniga sazovor bo‘ldi. Orkestr konsertlarida ko‘plab yakkaxon xonandalar, O‘zbekiston xalq artistlari: Saodat Kabulova, Farrux Zokirov, Muyassar Razzoqova, Nasiba Abllayeva, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar: Avaz Rajabov, Nasiba Sattorova, Yunus To‘rayev, Baxrom Mavlonov shuningdek yakkaxon sozandalardan Mirza Toirov, Shukrulla Axmadjonovlar qatnashib orkestrning obro‘siga obru qo‘shdilar. Hozirda orkestr

tarkibi o‘zgarib bu ustozlarni qilgan mexnatlarini davom ettirmoqdalar. O‘zbekiston radiosi qoshidagi xalq cholg‘ulari ansambli asosida yangi orkestr tuzildi. 1957-yil may oyida jamoa o‘z faoliyatini boshladi orkestr rahbari Yunus Rajabiy, tayinlandi, bosh dirijor lavozimiga O‘zbekiston xalq artisti Doni Zokirov taklif etildi. Orkestrning ijrochilik yo‘lini shakllantirishda, dasturni boyitishda O‘zbekiston xalq artisti, kompozitor Doni Zokirovning xizmatlari beqiyosdir. Kompozitorlardan Muxtor Ashrafiy , Sulaymon Yudakov, Sobir Boboyev, Mutal Burxonov, Sayfi Jalil, Fattox Nazarov, Boris Gienno, Mardon Nasimov, To‘lqin Toshmatov, Mustafo Bafoev, Farxod Alimov, Xabibulla Raximov va boshqa ijodkorlarning asarlarini radio magnit tasmasiga yozishga erishildi. Bu asarlar radio oltin fondida saqlanmoqda. 2014-yilning oktyabr oyida ikki profisseonal jamoalar negizida yagona o‘zbek xalq cholg‘ulari Davlat akademik orkestri tashkil etildi. 2019-yilning 25-aprelida xalq cholg‘ulari orkestrining 80-yilligi munosabati bilan munosib ravishda kata konsert o‘tkazildi. Ushbu orkestr ko‘plab konsertlar beradi yurtimizning turli viloyatlarida ijodiy safarlarda bo‘ladi. Orkestrning barcha sozandalari moxir ijrochi hisoblanadi. Bu ijrochilarning barchasi respublika va xalqaro tanlovlar laureate bo‘lishgan. “Sug‘diyona” o‘zbek xalq cholg‘ulari kamer orkestri barchamiz uchun eng ulug‘ bo‘lmish Vatanimiz Mustaqillikka erishgan 1991-yili tashkil etilgan. Jamoa bosh dirijor va badiiy rahbar professor Feruza Abduraximovadir. Shu o‘tgan davrda orkestr bir qancha chet mamlakatlarda bo‘lib o‘z ijrochilik maxorati bilan tinglovchilarni maftun etib kelmoqda. Shubhasiz Respublikamizdagi bu ijodiy jamoalar O‘zbekiston kompozitorlarini yangi davr talabiga to‘la javob bera oladigan asarlarini, bizgacha etib kelgan xalq durdona musiqa merosini “Shashmaqom” singari milliy boyligimizni keng tinglovchilar ommasiga yetkazish yo‘lida tinmay faoliyat ko‘rsatmoqdalar.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. K.Azimov “Методика работь с оркестром Узбекских народньх инструментов” Г 1988.
2. F.Karamatov “Узбекиская инструментальная музъка” М.Музъка” 1987.
3. A.Odilov “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi” T. “O‘qituvchi” 1995.
4. Т.Възго Музикалънъ инструменты Средней Азии Т.1980.
5. Ganisherovich T.J. Tarixiy va musiqiy manbalarda chang cholg'ularining yoritilishi //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 3. – S. 30-33.
6. Javohir G. Cholg ‘u ijrochiligi fanini o ‘qitishda innovatsion yondashuv //Oriental Art and Culture. – 2023. – Т. 4. – №. 6. – С. 180-184.

O‘ZBEK MUSIQA MADANIYATIDA DUTOR CHOLG‘USINING O‘RNI

Zuparova Fotima Rixsiyevna
“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya *– O‘zbek musiqa madaniyatida munosib o‘ringa ega dutor cholg‘usining ijrochiik tarixi, bugungi kunda faoliyat yuritib kelayotgan musiqiy jamoalardagi o‘rni, yasalishi, sozgar ustalar hususida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar – sozgar, dutor, san’at, cholg‘u, xarrak, tut, kuy.

Аннатосия – Будет рассказано об истории исполнения инструмента дутара, занимающего достойное место в узбекской музыкальной культуре, его роли в действующих сегодня музыкальных коллективах, его создании и мастерах, игравших на нем.

Ключевые слова – мастер, дутар, искусство, инструмент, харрак, тут, мелодия.

Abstract – The performance history of the dutar instrument, which holds a worthy place in Uzbek musical culture, its role in musical groups operating today, its creation, and the masters who played it will be discussed.

Keywords – sozgar, dutor, art, musical instrument, kharak, tut, tune.

Dutor chertib chalinadigan, qo‘sh torli musiqa cholg‘usidir. U O‘zbekistonda va qo‘shni mamlakatlarda yashayotgan o‘zbek, tojik, turkman va qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalgan.

Dutor chalish san’atini puhta egallagan sozandalar ijrochiligi hamda kasbiy va havaskorlik ijodi namunalari avloddan-avlodga o‘taverib sayqallashgan. O‘zbekistonda azaldan o‘tiroq holda yashagan aholi orasida dutorni maromiga yetkazib ijro etish an’anaga aylana borgan.

Sharqning musiqiy cholg‘u sozlari eng qadimiy o‘ziga xos va jonli san’atdir. Bizgacha yetib kelgan qadimiy tasvirlar, arxeologik topilmalar va o‘rta asrlardagi cholg‘u sozlarning tavsiflari ularning qadim-qadimlardan buyon mavjud ekanligini tasavvur qilish imnonini beribgina qolmay, shu bilan birga u yoki bu musiqiy sozlarning o‘zbek xalqi ajdodlari orasida azaldan taomilda bo‘lganlagi xususida ham ma’lumotlar beradi.

O‘zbek xalqining asosiy cholg‘ularidan biri – dutor musiqiy madaniyatimiz tarixi bilan chambarchas bog‘liq san’at ramzidir.Dutor xususidagi dastlabki ma’lumotlarni biz Mavlono Zaynulobidin al – Husayniyning Alisher Navoiyga bag‘ishlangan “Musiqiy ilm va amaliyot qonuni” risolasida uchratamiz.

Boshqa xalqlarda bo‘lgani kabi, o‘zbeklarda ham turli xududlarning mahalliy sheva guruhlarida dutorning tarkibiy qismini tashkil qiluvchi atamalar turlicha ifodalanadi. Uning ayrim qismlarining nomlari mahsus tub ma’noga ega. Masalan:”quloq”, “xarrak”, “kosaxona”, va x.k. atamalarda ana shunday ma’no mavjud.

Qadim zamonlardan buyon ustalar dutorni asosan tut daraxtidan yasaganlar. Bu to‘g‘rida Darvesh Ali o‘zining “Risolai musiqi” asarining dutor ta’rifiga bag‘ishlagan qismida quyidagicha yozadi: “Dutorlarning ko‘pchiligi tut yog‘ochidan ishlanadi, torlari esa ipakdan eshiladi. Shuning uchun ham cholg‘uning tovushi shirador va mayin, bu hol tut va ipakning bir – biriga ohangdoshligi, ko‘rinmas rishtalar bilan bog‘liqligi va nihoyat bir vujudning mahsullari ekanligining natijasidir”.

Bizning davrimizda ham dutorlar asosan tut daraxtining turli navlaridan yasalib kelinadi. Tut daraxti navlari har xil ataladi. Masalan: Farg‘ona “bedana tut”, “marvarid tut”, “xas tut”, “qora tut”, “shotut”, “oq tut”, “xo‘roz tut”, “xashaki tut”, “qo‘noq tut” deyilsa, Samarqand - Buxoro tomonlarda “baliq tut”, “xashaki tut”, “oq tut” deb ataladi. Bitta tut navining o‘zi turli shevada turlicha nomlanadi. Farg‘ona vodiysida “bedana tut” deyilsa, Toshkentda xuddi shu nav “baliq” yoki “balx” tut deb ataladi. Faqat kamdan – kam hollardagina, asosan Samarqand – Buxoroda dutor dastasining olma yoki yong‘oq daraxtidan yasalganini ko‘ramiz. Andijonlik bastakor Mirzajon Tilla o‘g‘li bergan ma’lumotlarga ko‘ra dutor kosaxonasining tol daraxtidan yasalish xollari ham mavjud ekan. Amma cholg‘uning sozi kuchli bo‘lsa-da, lekin tembri ko‘ngildagidek nafis va jozibador bo‘lmas ekan. Dutor yasovchi ustalar boshqa xom ashyolardan ham foydalanishgan ekan. Masalan:dutorning asosiy qismlari tutdan, “quloq”, “dasta”, “xarrak” va “shayton xarrak” kabi kichik bo‘laklarini o‘rik daraxtidan yasashgan.

Dutorni yasash jarayonida eng muhim omillaridan biri – xom ashyo tanlash, uni o‘ziga xos maxsus sharoitda meyorida quritish va yog‘ochga ishlov berish hisoblanadi. Agar tanbur yasash uchun yillik qati enlik daraxt tanlab olinsa, dutor esash uchun ensiz qatli daraxt tanlab olinadi. Usta Abduqahhor Mo‘min o‘g‘lining aytishi bo‘yicha yillik qatining enliligi daraxt naviga bog‘liq bo‘ladi. Oftobro‘ya, quruq joyda o‘sgan daraxtning yillik qatlari qisilgan, ensiz bo‘ladi, enli qatli daraxtlaroftob nuri kam tushadigan va ancha sernam joylarda o‘sadi. Dutor, tanbur yasash uchun tanlab kesilgan daraxt ko‘pincha 4 yildan 20 yil, xatto undan ham ko‘proq vaqt mobaynida quritilishi mumkin, bunda har bir ustaning o‘ziga xos quritish usullari mavjud. Masalan: Usta Tosh va Usta Usmon o‘z xom ashyolarini tunika tom ostida quritishgan. Toshkentlik Usta Rahim, Usta Qahhor, Usta Mahkam, Usta Rahmatilla, Qo‘qonlik Usta Mo‘ydinjon va boshqa ko‘pgina

ustalar shoxlari kesib olingan daraxt tanasini uylarining chordoqlarida yoki oftob nuri tushmaydigan maxsus binolarda quritishgan. Samarqandlik B.Tolmasov esa daraxt tanasini ochiq havoda, quyosh nuridan to‘silgan “dor”ga osib qo‘yish yo‘li bilan quritishni afzal ko‘rgan. Buxorolik usta Narzulloning xom ashyoni yo‘nishga tayyorlash usuli alohida e’tiborga loyiq. U yog‘ochni uch yil muddatga yerga ko‘mib qo‘yadi. Bunda yog‘och ko‘zi biron sababga ko‘ra, tana po‘stlog‘idan shilinib qolsa usta o‘sha joyini somonli loy bilan shuvab , keyin ko‘mar ekan. Ayrim ustalar xom ashyoni balchiqqa ham ko‘mishar ekan.

Dutorning xarrak va qulog‘ini tut va o‘rik daraxtidan tashqari yong‘oq daraxtidan ham yasaydilar. Cholg‘uning asosiy qismlaridan bo‘lmish qovurg‘ani esa yarim doira shaklida bukish murakkab bo‘lganligi uchun, ustalar o‘zlari yasagan maxsus qoliplardan, ayrimlari esa qovurg‘alarni bukish uchun moslab qo‘lda yasalgan elektr stanogidan foydalanishadi.

Ustalar tomonidan yaratilgan cholg‘u ijroga tayyor bo‘lganida, dastlabki muomala uni sozlashdan iborat bo‘ladi. Dutor kuylari ijro etish joylari va sharoitiga qarab turlicha sadolanishi mumkin. Bu holat dutor ijrochiligida aloxida hisobga olingan. Yaqin yillargacha Farg‘ona vodiysi , Samarqand – Buxoro va Toshkent vohalarida erkaklarning maxsus xonalarida to‘plpnib, ko‘ngilochar kechalarida (bunday kechalar Toshkent va uning atroflarida “to‘kma”, “gap”, “mehmonxona bazmi”, Buxoro – Samarqandda “gashtak”, Farg‘ona vodiysida “gap”, “ziyofat”, Xorazmda “o‘tirishma”, “ziyofat” deb ataladi) dutorda baland bo‘lmagan pardalarda kuylar, ashulalar ijro etilgan. Buning sababi dutor past sozlanganda mayin va nafis eshitiladi, unda ijro etilayotgan musiqiy ohanglar ta’sirchan va samimiy ifodalanadi. Cholg‘u musiqasi bilan bir qatorda dutor ijrochiligida cholg‘u – ashula musiqasi turlari ham keng tarqalgan janr hisoblanadi.

Raqs kuylari ijro qilinayotganda esa cholg‘u sozi baland pardalarga sozlanadi. Masalan, ayol kishi raqsga tushayotganda davradagi ayollar o‘sha kuy usuliga monand ravishda chapak chaladilar va bunda tabiiy ravishda o‘z – o‘zidan dutorning tovush kuchi pasayib, uning dinamikasini kuchaytirish zarurati tug‘iladi. Dutor torlarining sozlanishi , unda ijro qilinadigan cholg‘u kuylari, ashula, qo‘shiq va raqslarga jo‘r bo‘luvchi turlariga qarab el orasida turlicha atamalar bilan nomlanadi.

Bulardan keng tarqalgan sozlanish kvarta intervali oralig‘ida bo‘lib, Farg‘ona vodiysi va Toshkent voliyatida “Tanovar soz” deb nomlanadi va shu nomdagi cholg‘u yo‘llarida qo‘llaniladi. Ushbu tupkum o‘z ichiga tanovarning taxminan 12 variantini birlashtiradi. Bundan tashqari Andijon viloyatida “Qari navo” soz, Buxoroda “buxorcha”, Xorazmda “Aliqambar” duzum,

“Miskin”duzum(Aliqambar shu kuyni yaratgan Qambar bobo va Miskin dutor maqomini yaratgan Miskin bobo ismlariga nisbatan berilgan) nomlari bilan ataluvchi sozlanishlar ham kvarta orlig‘idadir.

Dutor ijrochiligida kvinta oralig‘idagi soo‘lanish keng qo‘llaniladi. U Farg‘ona vodiysida “mayda soz”, “Ushshoq soz” va “Ufori soz” deb nomlanadi. Namanganda esa dutor pardalarida parda bo‘ylab barmoqlarning birin – ketin joylashishidan kelib chiqqan holda “to‘rt barmoq soz” deb ham ataladi. Bunda ijrochi barmoqlarining har qaysisi (2 pardadan 5 pardagacha) alohida pardani egallaydi va oxrigi barmoq turgan pardada torlarning sozlanishi oktava nisbatiga to‘g‘ri keladi. Mazkur sozda dasta qisqarishi holati yuz berib, tonika tovushi 5-pardadan boshlanadi. Kuylar ijro qilinganda kvarta sozlanishiga qaraganda cholg‘u menzurasi hisobiga kichik diapozondagi kuylar ijro qilinadi. Ushbu soz va raqs kuylarini qopqoqqa, kosaxonaga chertib chalinganda ohang yo‘nalashi yanada jozibaliroq bo‘ladi.

Cholg‘u musiqasi turiga tegishli bo‘lgan unison soz, Farg‘ona – Toshkentda “qo‘shtor”, Andijonda “qo‘shtor”, “qo‘shsoz”, “mashshoqisoz”, Buxoro, Samaqand va Xorazmda “qo‘shtor”, “jufttor” kabi nomlar bilan ataladi. Bulardan tashqari dutor torlarining bir – biriga nisbatan oktava oralig‘ida sozlanishi Farg‘ona vodiysida “sim soz ”,”bayot soz”, Buxoro va Samarqandda “bayot soz”, Xorazmda “bayot duzum” deyiladi. Hozirgi davrda amaliyotda deyarli qo‘llanilmaydigan sekunda, tersiya intervallari orlig‘idagi sozlanishlar ham tarixda qo‘llanilgani ham ayrim ma’lumotlarda mavjud.

Dutor cholg‘usining organologik sifatlari mazkur cholg‘u musiqasining o‘ziga xos turlarida namoyon bo‘ladi. Cholg‘uning sozlanishi va cholg‘u janri o‘rtasidagi o‘zaro aloqa ijrochilik muhiti, cholg‘u sozining madaniy hayotidagi o‘rni, asarning mazmuni, shakli, kuyning difpazoni, yuqorigi va pastki torlarning oraliq munosabatlari, ohangdoshligi kabi omillarda o‘z aksini topgan. Mazkur omillar an’anaviy musiqa turlari, ularning o‘ziga xos taovatini tushunishda va cholg‘uning organoligik jihatlarini yoritishda katta ahamiyatga egadir.

Keyingi yillarda ansamblning asosini dutor cholg‘ulari tashkil qiluvchi jamoalar ko‘paymoqda. O‘zbekiston filarmoniyasi qoshidagi G‘.Toshmatov nomidagi “Dutorchilar” ansambli, jamoaning tashkil etilganiga 46 yil bo‘ldi. O‘zbekiston – Yaponiya markazi qoshida yapon volontyorlaridan iborat “Dutorchilar” ansambli va O‘zbekiston davlat konservatoriyasi qoshida talaba qizlardan tashkil topgan “Nozanin” dutorchi qizlar ansambli rahbari professor Ro‘zibixon Xodjiyeva . O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti qoshida dosent Xurshid Beknazarov rahbarligidagi talaba qizlardan iborat “Dutorchilar” ansambllarini mamnuniyat bilan tilga olishimiz mumkin.

Dutor ohanglarining rang – barangligi va boyligi xalqimizning turmush tarzi, madaniyati qirralarini o‘zida aks ettirgan bo‘lib, Sharq xalqlari musiqiy tafakkurining nafis jilolarini o‘zida mujassamlashtirgan. Yuksak estetik fazilatlarga, mohirona ijrochilik an’anlariga ega bo‘lgan va o‘ziga xos milliy tarovatni yorqin ifodalab kelayotgan dutor musiqasi maxsus tadqiqot obyekti sifatida e’tibordan chetda qolmasligi lozim.

O‘zbek xalqining an’anaviy ijrochiligida keng tarqalib, alohida e’tiborga loyiq bo‘lib kelgan dutor chalish san’atining turli tuman uslublarini o‘rganish va kelajak avlodga o‘rgatish asosiy maqsadimiz bo‘lib qolmog‘i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. J.Rasultoyev “O‘Zbek dutor ijrochiligi” Toshkent “O‘qituvchi” 1997 y.
2. F.Zuparova “Ansaml sinfi” Toshkent “Fan ziyosi”2022 y.
3. O‘.Toshmatov, X.Beknazarov. “Cholg‘ushunoslik” darslik. Toshkent: “To‘ron-Iqbol” nashriyoti 2018.160 b.
4. Tashmatov U. Characteristics of the investigation of crimes dangerous to human life and health arising as a result of medical services //international scientific research of problems of science and education. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 18-24.
5. Beknazarov K. Developing music competence of future music teachers through national instruments //Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2025. – C. 107-113.
6. Shermatov K. Performance features of chang instrument and changsiman instruments //Teoreticheskiye aspekti stanovleniya pedagogicheskix nauk. – 2024. – T. 3. – №. 22. – S. 30-33.

MILLIY CHOLG‘ULAR IJROSIDA MUSIQIY MEROSNING TALABALAR XISSIY JARAYONLARIGA TA’SIRCHANLIGI

Beknazarov Xurshid Qaxramonovich
“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya – Ushbu maqolada musiqiy meros, milliy cholg‘ular haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan bo‘lib, milliy cholg‘ular ijrosida musiqiy merosning talabar xissiy jarayonlariga ta’siri hususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar – madaniyat, san’at, musiqa, pedagog, cholg‘u, ta’lim, tarbiya

Аннатоция – В статье представлена информация о музыкальном наследии и национальных инструментах, а также обсуждается влияние музыкального наследия на эмоциональные процессы учащихся при игре на национальных инструментах.

Ключевые слова – культура искусство, музыка, педагог, инструмент, образование, обучение

Abstract – This article provides information about musical heritage and national instruments, and discusses the impact of musical heritage on students' emotional processes when performing national instruments.

Keywords – culture, art, music, pedagogue, instrument, education

Buyuk olimlar, davlat arboblari musiqa insonlarning ongi va ruhiyatiga chuqur ta’sir qiluvchi, ularda yuksak ma’naviy madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish vositasi sifatida qarab alohida e’tibor berganlar. Shu boisdan musiqa azaldan kuchli vosita sifatida ta’lim va tarbiyaning barcha tizimlarida keng qo‘llanilgan.

Yunon faylasufi Platonning (er. avv. V asr) fikricha, davlatning kuch-qudrati unda qanday musiqa, qaysi ohang va qay ritmda yangrayotganligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Platon va uning izdoshlari davlat uchun insonni yuksaklikka ko‘tarishga yordam beruvchi musiqa kerak deb hisoblaganlar [2].

Dunyoda qadim tarixga va juda boy musiqiy merosga ega xalqlardan biri bu o‘zbek xalqidir. Buni birgini musiqiy cholg‘ular misolida ham ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek halq cholg‘ularining tarixiy ildizlari qadim-qadim davrlarga borib taqalishiga arxeologik qazilmalar natijasida topilgan madaniy boyliklar,

terrakota[1] lardagi tasvirlar ham guvohlik berib turibdi.

Tarixda ko‘pgina allomalar fanning turli sohalarida ijod etish bilan birga musiqa ilmiga ham alohida e’tibor berganlar. Masalan: Arestotel, Pifagor, Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy, Marog‘iy, Jomiy, Navoiy, Kavkabiy, Husayniy, Darvesh Ali Changiy, Komil Xorazmiy va boshqalar.

Abu Nasr Farobiy ellin falsafasi nomyondalari (grek olimlari)ning asarlarini batafsil o‘rganish asosida O‘rta Osiyoda birinchi bo‘lib musiqa nazariyasini yaratgan olim hisoblanadi. Uning “Musiqa haqida katta kitob”i nafaqat mukamal musiqa nazariyasi, balki cholg‘ushunoslik bo‘yicha ham ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilk manbadir. Ushbu yirik risolaning ikkinchi kitobi musiqa cholg‘ulariga bag‘ishlangan. Ushbu manbada eng mukammal cholg‘ulardan biri sifatida ud keltiriladi.

Birinchi bo‘lib inson ovozini eng mukammal cholg‘u sifatida e’tirof etgan Farobiyning fikrini Ibn Sino va ash Sheroziylar ham yana bir bora ta’kidlangan. Ularning fikricha birinchi navbatda inson ovoziga eng yaqin cholg‘ular damli (puflab chalinadigan) cholg‘ular bo‘lsa, keyingi o‘rinda torli-kamonli cholg‘ular, undan keyin esa ud va tanbur cholg‘ulari turadi.XV-XVII asrlarda musavvirlar tomonidan mahorat bilan ishlangan miniatyuralar ham o‘sha davr musiqa cholg‘ulari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarni beradi.

Darvesh qiyofasida O‘rta Osiyoga kelgan mojor (venger) Vamberi ham g‘ijjak, dutor cholg‘ulari to‘g‘risida alohida fikr bildirgan. Ayniqsa, u xon saroyidagi musiqa cholg‘ulari va sozandalarning mahoratiga yuksak baho beradi.

Musiqa merosimizga doir tarixiy manbalar yetarlicha bo‘lsada bugungi kun yoshlari uchun ularni jamlab, o‘zbek tilida chop etish zarurati tug‘ilmoqda. Ko‘p yillar avval musiqashunos oli Ishoh Rajabov “Maqomlar” kitobida “Umuman musiqa madaniyatiga doir tarixiy materiallar turli tillarda yozilgan manbalarda va boshqa xarakterdagi asarlarda sochilgan holdadir. Bu materiallarni to‘plab, O‘rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati tarixini yaratish esa juda murakkabdir” [3] degan edi. Bugungi kunda ilmiy izlanish olib borayotgan yoshlar oldidagi katta ishlardan biri sifatida boy merosimiz haqida yozilgan bitiklarni aslidan o‘zbek tiliga tarjima qilib o‘quvchilarga yetkazish masalasini ko‘rib chiqish zarur.

Bugungi kunga qadar bizgacha yetib kelgan milliy cholg‘ular xalqimiz tomonidan turli marosim va bayram tadbirlarida keng qo‘llanilib kelinmoqda.

[1] Terrakota (ital. terra — yer, tuproq, cotta — qizdirilgan) —tor ma’noda — loydan ishlanib xumdonda pishirilgan sirlanmagan va rang berilmagan mayda haykalchalar; keng ma’noda — loydan tayyorlanib, maxsus xumdonlarda qizdirilgan badiiy va amaliy ahamiyatga ega sirlangan sopol buyumlar (idishlar, ko‘za, haykalcha, o‘yinchoq, koshinvab.).

Bularga misol tariqasida doyra, nog‘ora, karnay, surnay, nay, qo‘shnay, ud, qonun, tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak kabi cholg‘ularni sanab o‘tish mumkin.

Cholg‘ular jo‘rligida qo‘shiq, o‘yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarida ijro etilgani bizga ma’lum. Bayramlar ko‘pincha yil fasllari bilan ham bog‘liq bo‘lgan. O‘rta Osiyoda “Navro‘z”, “Lola sayli”, “Hosil bayrami”, “Qovun sayli”, “Uzum sayli” kabi mavsumiy bayramlarda keng tarqalgan. Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholg‘u ansambllari, xonanda va sozandalar hamda raqqosalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay, doyra, nog‘ora va chindavul kabi urma zarbli musiqa cholg‘ulari keng qo‘llanilgan. Milliy cholg‘ular bilan yoshlarni milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularda hurmat, milliy g‘urur, vatanparvarlik ruhini shakllantirishga erishish mumkin. Bu kabi ishlarni amalga oshirishda asosiy vazifa pedagoglar zimmasida bo‘lib, umumta’lim maktablarining “Musiqa madaniyati” fani orqali nafaqat milliy cholg‘ularimizni tanishtirish, qiziqtirish balki, ularda ijro etish ko‘nikmalarani shakllantirish mas’uliyati ham mavjud. Bu kabi milliy cholg‘ularni asrab avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish uchun respublikamizdagi barcha bolalar musiqa va san’at maktablari, ixtisoslashtirilgan musiqa va san’at maktablari, bolalar ijodiyoti markazlaridagi musiqa to‘garaklarida tegishli ishlar amalga oshirilmoqda. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini yetuk kadr sifatida tayyorlash uchun ham milliy cholg‘ular muhim ahamiyat kasb etida. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi nazariy bilimlarga ega bo‘lib qo‘shiq aytishi va o‘quvchilarga o‘rgata olish bilan birga cholg‘ularda ijrochilik ko‘nikmasiga ham ega bo‘lish zarur. Ayniqsa milliy cholg‘ular vositasida musiqiy kompetentligini rivojlantirish bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi uchun muhim jihatlardan sanaladi.

Musiqa o`qituvchisi cholg‘uda yaxshi ijro etishi juda muhimligi quyidagida belgilanadi. Birinchidan: Jonli ijro etish – sinfda kayfiyatni yaxshilaydi.

Ikkinchidan: Jamoa bo`lib (xor) ijro etayotganda hohlagan epizodni yoki (taktik) jumlani qaytarish mumkin.

Uchinchidan: Cholg‘uda ijro eta oladigan musiqa o`qituvchisi o`z tarbiyalanuvchilariga musiqani o`zi ijro etish naqadar qiziqarliligini va muhimligini amaliyotda ko`rsatib o`tadi. [4]

Yuqorida qayd etilganidek milliy cholg‘ularimiz turli va salmoqli bo‘lsada bugungi kunda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari ko‘proq dutor, rubob, doyira, g‘ijjak, nay kabi milliy cholg‘ularimizni o‘rganishga qiziqish bilirishmoqda. Bu cholg‘ularning har biri bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini pedagog sifatida shakllanishida o‘z o‘rniga ega. Bahrom Madrimov tadqiqotida “O‘quvchilar

hayotida musiqa ta’limi alohida o‘rin egallaydi. Ularda musiqaga bo‘lgan qiziqish shu davrda nihoyat darajada jadallashadi. Bu esa o‘quvchilarning intelektual, estetik va ma’naviy olamini boyitish, rivojlantirishga xizmat qiladi” [5] degan fikrni ilgari suradi. To‘g‘ri, agar o‘quvchilarga maktablik davrida milliy musiqamizga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirilmasa ular har xil OAV orqali bizga yod bo‘lgan musiqa janrlarini o‘zlashtiri boshlaydi. Bu esa bolaning tarbiyasiga o‘z tasirini ko‘rsatadi. Shuning uchun bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini oliy ta’lim muassasalarida kuchli mutaxassis sifatida tayyorlash juda ham muhim. Zero o‘quvchilar o‘zimizning sof san’atimiz qolib, boshqa yod unsurlarni o‘rganishiga xojat qolmasin. Yetarli bilimga ega bo‘lmagan uquvchiz pedagog jamiyat uchun qanchadan-qancha yoshlarni ongini, ma’naviyatini buzishi mumkin. Shu kunga qadar umumta’lim maktablarida o‘tiladigan “Musiqa madaniyati” fanida o‘quvchilarga musiqa ilmining boshlang‘ich bosqichlaridan saboq birib kelingan bo‘lsa, bugungi kunga kelib o‘quvchilardan milliy cholg‘ularni o‘rganish, ularda kuy ijro etish mahoratlarini egallash talab etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-112-sonli qarorida 7 ta; dutor, do‘mbira, doyra, tanbur, rubob, g‘ijjak, nay cholg‘ulari o‘rganish uchun tavsiya etilgan bo‘lib, o‘quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqib, ushbu ro‘yxatda keltirilmagan boshqa musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish ko‘nikmalari o‘rgatilishini ham tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Ularni nazariy va amaliy bilimlarini oshirib, cholg‘uda ijro etish mahoratini shakillantirish bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari oldida turgan vazifalardan sanalganligi bois ulardan chiqur bilim bilan birga cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha ko‘nikmaga ega bo‘lish, dars jarayonida darslikda berilgan ma’lumotlar bilan cheklanmasdan o‘z ustida izlanib har bir dars mashg‘uloti uchun o‘quvchilarning qiziqishidan kelib chiqib yangiliklar topishi, kuy va qo‘shiqlarni o‘rgatishi talab etiladi. Bolalar musiqa va san’at maktablari hamda umumta’lim maktablarida milliy cholg‘ularimizni o‘rgangan yoshlar o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib 9-sinfdan so‘ng ixtisoslashtirilgan musiqa va san’at maktablarida, 9,11-sinfdan keyin esa musiqa va san’at kollejlarida tahsil olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Keyingi bosqich esa oliy ta’lim muassasasi bo‘lib, bunda ma’lum bilim va ko‘nikmagan ega bo‘lgan o‘quvchi endi musiqa san’atiga doir bilimlarini yanada oshirishi, kelajakda yetuk mutaxassis bo‘lib chiqishi talab etiladi. Har bir sohada bo‘lgani kabi, san’at sohasidagi bu uzviylik negizida ta’lim muassasalarida amaliy bilimlar bilan hamohang nazariy bilimlarga alohida ahmiyat berilganligini, ular bir-birini to‘ldirib, bo‘lajak san’at va madaniyat xodimini yetuk kadr bo‘lishini ta’minlaydi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda ularning dastlabki, ya’ni maktab davridagi olgan musiqiy ta’limi, musiqiy

didi, musiqiy tarbiyasi hamda musiqiy dunyoqarashi muhim urinda turadi. Bu jarayonning yillar davomida tug‘ri olib borilishi va musiqiy tarbiyaning tug‘ri yo‘lga quyilganligi, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining amaliy kompetensi-yalarini rivojlantirishda asos bo‘la oladi [6].

Talaba-yoshlarni yengil-yelpi, mazmun jihatidan o‘ta sayoz, ohang nuqtai nazaridan milliy, xalqchillikdan yiroq bo‘lgan “zamonaviy musiqiy asarlar”dan ko‘ra milliy musiqiy merosga jalb etish muhim tarbiyaviy tadbirdir [7].

Biz bu darajaga yetishmiz uchun oila, maktabgacha ta’lim muassasasi, maktablarda uzluksiz ta’lim tizimida milliy san’atimiz, an’analarimizni yoshlarga singdirmog‘imiz zarur. O‘z madaniyatini yuqoriga ko‘targan millat yuksaklarga ko‘tariladi, hurmat qozonadi. O‘zligini yuqori o‘ringa ko‘targan davlatlardan Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Ozarbayjon va yana ko‘pgina davlatlarni rivojlanish bosqichlari, ta’lim tizimi o‘rganilsa ular o‘z ildizini, an’analarini ta’limga singdirganligini, shu orqali yoshlarni o‘z millatiga, davlatiga sodiq vatanparvar qilib tarbiyalaganligini ko‘rish mumkin. Ta’lim davlatning rivojlanishi uchun eng asosiy vazifani bajarishini hisobga olsak bugungi kunda ta’limga qaratilgan etibor eng to‘g‘ri yo‘ldir. Ayniqsa milliy cholg‘ularimizni umumta’lim maktablarida o‘qitilishi o‘quvchilar uchun juda katta imkoniyatni yaratdi. Bu vazifalar zimmasiga yuklangan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari milliy cholg‘ularni o‘rganib o‘z musiqiy kompetentliklarini rivojlantirib borishlari lozim. “Musiqa madaniyati” fan o‘qituvchisi kamida 3 ta milliy cholg‘ularda ijro etish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi uchun “Musiqa ta’limi” ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejasida cholg‘u ijrochiligi bilan bog‘liq fanlarni sifatli o‘tilishini qayta ko‘rib chiqish lozim. Shunday mas’uliyatli kasb egasi bo‘lmish o‘qituvchilar o‘quv-chilar uchun o‘rnak bo‘la olishi kerak. Alisher Navoiy ta’kidlaganidek “Inson zebi ziynati bilim va odobidir. Bularni shogirdlarga singdirgan ustozlargina chinakam ustozdirlar” [8]. Shunday ekan har jabhada o‘rnak bo‘la olgan ustozlar tinimsiz izlanish, o‘z ustida ishlashi, ta’limda sodir bo‘layotgan ilmiy yangiliklardan, axborot texnologiyalardan habardor bo‘lib borishi lozim. Binobarin, bugungi kunda yetarlicha shart-sharoitlar yaratilgan ekan yoshlarni tarbiyalab izidan iqtidorli o‘quvchilarni ergashtira olgan bilimli, jonkuyar ustozlar ko‘payaversin. Buning uchun. Yaratilgan shart-sharoitlar esa dars jarayonlarini samarali.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-112-sonli Qarori. 2022 yil 2 fevral
2. Qodirov R.G‘.Musiqa pedagogikasi. Toshkent: Musiqa nashriyoti, 2018.-616 b.
3. Rajabov I. Maqomlar. Toshkent: San’at, 2006, -402 b.
4. Karimova D.A., Namozova D.T. Musiqa o‘qitishda innovatsion-pedagogik texnologiyalar o‘quv qo‘llanma. N., -2014.128 b.
5. Madrimov B.X. Xorazm musiqa folklori vositasida o‘quvchilarni estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari (5-7-sinflari misolida) 2008
6. Matyoqubov Izzat “Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish” Dis. ped. fan. dok. (PhD) Toshkent, 2022 – 178 b
7. Ismoilov Q. “Talabalarni xalq qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyalash” 35-bet
8. G‘ulomov S., Bulatov S. Sharqona “Ustoz-shogird” odobi Toshkent: 2000, -48 b.
9. O‘.Toshmatov, X.Beknazarov. “Cholg‘ushunoslik” darslik. Toshkent: “To‘ron-Iqbol” nashriyoti 2018.160 b.
10. Beknazarov X. Q. et al. OILADA MUSIQIY TARBIYANING AHAMIYATI //Oriental Art and Culture. – 2024. – T. 5. – №. 2. – C. 643-646.
11. Beknazarov K. Developing music competence of future music teachers through national instruments //Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2025. – C. 107-113.
12. Abdumanabovna X. F. Correct reproduction of musical text in instrumental performance //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. C3. – S. 108-112.
13. 8. Shermatov K. Performance features of chang instrument and changsiman instruments //Teoreticheskiye aspekti stanovleniya pedagogicheskix nauk. – 2024. – T. 3. – №. 22. – S. 30-33.
14. Rashidov Q. Ancient and modern performance styles of changkovuz //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 5 SPECIAL. – C. 55-57.
15. Rashidov Q. The role of the dombira in the performance of the uzbek schools of the art of penity (surkhondarya and kashkadarya) //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 129-135.
16. Абдуллаев Ш. Б. Кашкарский Рубаб: История И Развитие //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2024. – T. 5. – №. 1. – C. 13-15.

17. Ganisherovich T. J. Coverage of chang instruments in historical and musical sources //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 3. – С. 30-33.

O‘ZBEK ESTRADA SAN’ATIDA MILLIYLIK MASALALARI

Faxriddin Abduvohidov
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti dotsenti, san’atshunoslik
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston estrada san’atidagi milliylik masalalari chuqur tahlil etilgan. Milliylik tushunchasi, uning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati hamda o‘zbek qo‘shiqchilik san’atining tarixiy ildizlari haqida ma’lumot beriladi. Mustaqillikdan so‘ng milliy estrada san’atiga bo‘lgan davlat e’tibori, milliy qadriyatlarni tiklash yo‘lidagi harakatlar, estrada san’atining tarbiyaviy ahamiyati hamda yosh avlod ongida milliylik g‘oyalarini shakllantirishdagi roli yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Milliylik, estrada san’ati, qo‘shiqchilik, san’at, musiqiy san’at, ijrochi, xonanda, ma’naviyat, an’ana, urf-odat, qadriyat, ko‘chirma qo‘shiqlar, tarbiyaviy ahamiyat, Sharq musiqasi, maqom*

Аннотация. *В статье всесторонне рассматриваются вопросы национальной самобытности в узбекском эстрадном искусстве. Даётся определение понятию национальной идентичности, раскрывается её социально-духовное значение, а также приводится информация об исторических истоках узбекского песенного искусства. Освещаются внимание государства к национальной эстраде после обретения независимости, усилия по возрождению национальных ценностей, воспитательная роль эстрадного искусства и его значение в формировании идей национальной идентичности в сознании молодёжи.*

Ключевые слова: *Национальная самобытность, эстрадное искусство, песенное искусство, искусство, музыкальное искусство, исполнитель, певец, духовность, традиция, обычаи, заимствованные песни, воспитательное значение, восточная музыка, маком*

Annotation. *The article provides a comprehensive analysis of issues related to national identity in Uzbek pop music. It defines the concept of national identity, explores its social and spiritual significance, and presents information about the*

historical roots of Uzbek vocal art. The article highlights the government's attention to national pop music after the country gained independence, efforts to revive national values, the educational role of pop art, and its importance in shaping ideas of national identity in the minds of young people.

Keywords: *National identity, variety art, song art, art, musical art, performer, singer, spirituality, tradition, customs, borrowed songs, educational value, eastern music, makom*

Milliylik – tarixan tashkil topgan barqaror ijtimoiy – etnik birliklarni, ya'ni millatlar va elatlarni boshqa ijtimoiy guruhlardan farqlovchi tomonlar, xususiyatlar, ma'naviy – ruhiy va madaniy qirralar hamda tafovutlar majmuyi hisoblanadi.

Milliylik - jamiyat hayotining eng muhim omillaridan biridir. Chunki jamiyat va umuman insoniyat millatlar va elatlardan iboratdir. Har bir millatning o'z urf-odati, tarixan shakllangan ko'nikmalari milliylikni yuzaga keltiradi.

O'zbek xalqi tarixida qo'shiq va musiqaning milliy mafkura, inson tarbiyasi va uning kamolotida juda muhim o'rin egallaganligi o'z tasdig'ini topgan. Haqiqatdan ham, o'zbeklar qo'shiq va musiqiy cholg'ularni o'zlarining ijtimoiy – madaniy hayotidagi muhim ahamiyatga molik zarurat sifatida qaraganlar. Oilada dunyoga kelgan har bir bola qo'shiq aytish yoki biror bir cholg'udan foydalanishni bilgan hamda qadimdan har bir o'zbek oilasi milliy milliy musiqaga havas bilan qarab, biror – bir cholg'uni albatta oilasida saqlaganlar.

Har bir millat o'zining milliy an'ana va xususiyatlariga ega. O'zbek xalqi ham ko'p yillik tutqunliklarga, milliy urf – odatlarga qilingan tahdidlarga qaramay milliy qadriyatlarini, an'analarini saqlab qoldi. Mustaqillika erishgach esa eng avvalo milliy an'analarni tiklash, milliy san'atni, xususan qo'shiqchilik san'atini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Qo'shiq (ashula) – keng ma'noda she'riy musiqaviy san'atning alohida bir janri. Musiqa shakli she'riy shakl singari ko'pincha bandli tuzilishga ega bo'ladi. Mazmuniga ko'ra qo'shiqlar lirik, vatanparvarlik, hajviy, qahramonlik mavzusida bo'lishi mumkin. Ijrochilar tarkibiga ko'ra qo'shiqlar yakkaxon, xor hamda cholg'u asboblari jo'rligida va jo'rsiz bo'lishi mumkin. Yevropada XIX asr oxiri XX asr boshlarida ushbu janr konsert, estrada va ommaviy qismlarga bo'lindi. "Ularning ichida ommaviylari yetakchi o'rinni egalladi. O'zbek va ayrim xalqlarda qo'shiq va ashula bir – biridan farq qiladi: birinchisining diapazoni tor

kuylardan iborat bo‘lsa, ikkinchisining ohang diapazoni keng, shakllangan; uning murakkabroq turlari (masalan, katta ashula) og‘izaki an’anadagi professional ijodiyotga taalluqliqlidir"[1].

Qo‘shiqning milliyligi an’analarga asoslanganligida, mazmunida, talqindagi samimiylik, noziklik va nafislikda, ichki kechinmalarni yoritib berishda, ovoz pardalarini ishlatishda, qochirimlarda, ma’no va mazmunni chuqur yetkazib berishda, ritm va usulni saqlashda, so‘z bilan musiqa, ijro bilan harakatning uyg‘unligida namoyon bo‘ladi.

Aytishlaricha, insonga jon musiqa orqali ato etilgan ekan. Go‘zal kuy ta’sirida ilk bor odamzotning vujudiga cheksiz ruhiy qudrat, ma’naviy ozuqa kirib borgan. Tabiatga quloq berib ko‘rilsa, tong nasimining, daraxt barglarining shitirlab o‘ynashida, toshdan-toshga urilib oqayotgan sharsharaning sho‘xliklarida, tog‘u-toshlar ichra kezib yurgan shamolning “ohu-zori”da ham musiqa tinglagandek bo‘lamiz. Shunda tabiatning buyuk bastakorligi qarshisida bosh egamiz. Inson ana shu tabiat bilan yonma-yon yasharkan, vujudiga singan musiqa uni har lahzada yangi ohang, go‘zal kuy yaratishga undayveradi. Bunda esa insonga avvalo o‘sha kuyni his eta oluvchi va undan ilhomlanuvchi buyuk qalb darkor.

Qo‘shiq qadim – qadimdan xalqimizning sevimli san’at turi hisoblanib kelingan. Qo‘shiq tinglamaydigan, hirgoyi qilib yurmaydigan, biror qo‘shiqni qalbiga jo qilib olmagan odam topilmasa kerak. ko‘rinib turibdiki, qo‘shiqchilik zamondoshlarimizning madaniy didi va ma’naviyatini shakllanishida, yuksalishida katta ahamiyatga ega. Binobarin, qo‘shiqning badiiy – estetik imkoniyatlari uning she’ri, ohangi va ijrochi iqtidori bir bus-butunlikka erishgandagina namoyon bo‘ladi.

Xonanda esa yuqoridagi shartlarni bajara olishi, haqiqiy iste’dod egasi bo‘lish bilan bir qatorda bastakor va shoir fikrlarini o‘z ichki dunyosi, kechinmalari bilan boyitib, qo‘shiqni ma’naviy, ijodiy erkinlik ila kuylashi, sahna madaniyatiga, nutq mahoratiga ega bo‘lishi hamda o‘z ijodiga tanqidiy yondashishi lozim.

Mustaqillik yillarida o‘zbek xalqi hayotida ro‘y bergan eng katta o‘zgarishlardan biri – ma’naviy sohada sodir bo‘ldi. Zero, har qanday jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy voqelik uning keng xalq ommasi tomonidan ma’naviy jihatdan mushohada etilishi bilan izohlanadi. Shuning

[1]O‘zbekiston ensiklopediyasi, Toshkent, 1990 yil, 5007 – 508 betlar.

uchun ham, mustaqillikning ilk kunlaridanoq bir tomondan, jamiyat a'zolarining o'zlarida ma'naviy – ruhiy poklanishga bo'lgan qiziqish va intilishlari, ikkinchi tomondan esa, bunday ijobiy harakatni qo'llab quvvatlash ma'nosida ijtimoiy fan olimlari, madaniyat va san'at arboblarining keng xalq ommasi orasida olib borgan ma'rifatchilik – ilmiy harakatini munosib baholash mumkin.

O'zbekiston hukumati mustaqillik yillarida bu boradagi mavjud muammolarni hal etishda madaniyat va san'at, xususan qo'shiqchilik san'atiga alohida e'tibor qaratdi. Milliy mafkuraning asosini ma'naviyat tashkil etar ekan, unda ma'naviy hayotning barcha komponentlari, adabiyot, san'at, ayniqsa, milliy qo'shiqchilikning o'rni va roli ortib boraveradi.

Zamonaviy o'zbek musiqasining tarkibiy qismiga aylanib ulgurgan estrada san'ati tarixan juda qisqa muddat ichida ana shuday butunlikka erishish natijasida shakllandi va ma'lum natijalarga erishdi. Xususan, bugungi kunda estradaga oid qo'shiq janrlari yurtimizda o'tkazilayotgan Mustaqillik, Navro'z va boshqa ommaviy xalq bayram tantanalari, shuningdek, maxsus tanlovlar, qolaversa, ko'cha – kuyda sadolanayotgan musiqaning salmoqli qismini tashkil qilmoqda.

O'tgan vaqtlarga nazar tashlab, o'zbek estradasining rivojlanishida va yuzaga kelishida mohir ovoz sohibi Botir Zokirovning o'rni beqiyosligiga barchamiz amin bo'lamiz. Undan so'ng esa, Ra'no Sharipova, Yunus To'rayev, Yevgeniy Shiryayev, "Yalla" guruhi, Mansur Toshmatovlarning ham milliy estradamiz rivojlanishidagi hissalari katta.

Keyinchalik esa, yangi chehralar, yangi ovoz sohiblari namoyon bo'lib, estrada yulduzlari porlay boshladi. Yoshlarga o'rnak bo'ladigan darajada ijod qilgan va tarbiyaviy ahamiyat kasb eta oladigan qo'shiqlar kuylaganlardan Yulduz Usmonova, G'ulomjon Yoqubov, Kozim Qayumov, Kumush Razzoqova, Nasiba Abdullayevalarni ta'kidlash mumkin. Ularning ijrosidagi qo'shiqlar hamon insonlar qalbini larzaga soladi va sevib tinglanadi.

Yillar o'tgani sayin ularning izidan yana bir qator iste'dod sohiblari ko'zga ko'rina boshladi. G'iyos Boytoyev, Ravshan Komilov, Mavluda Asalxo'jayeva, Mahmud Namozov, Ozoda Nursaidova va boshqalar shular jumlasidandir.

Mustaqillikning ilk davrlardan boshlab, san'atning boshqa sohalari kabi estrada qo'shiqchiligi san'atiga davlatimiz va muhtaram Prezidentimiz tomonidan jiddiy e'tibor qaratildi. 1995 yildan boshlab "O'zbekiston – Vatanim manim" mavzusidagi qo'shiqlar ko'rik tanlovini keng miqyosda o'tkazish yo'lga qo'yildi. Buning natijasida bir qancha mustaqillikni madh etuvchi qo'shiqlar yaratildi. Bu tanlovda nafaqat o'zbek san'atkorlari balki, respublikamizdagi barcha millat va

elat vakillari, xususan, rus, qozoq, turkman, uyg‘ur, koreyslar va boshqa millat vakillari ham o‘z tillarida Vatanni madh etuvchi qo‘shiqlar kuylashib xalqqa tanildi. Bu tanlovda nafaqat san’atkorlar, balki shoirlar bastakorlar va boshqa ijodkorlarning mehnatlari, xizmatlari xalqimiz hamda davlatimiz tomonidan yuksak baholandi. “O‘zbekiston – Vatanim manim” qo‘shiq festivalining tashkil etilishi, Mustaqillikni, Vatanni anglash, uni ulug‘lash yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Mamlakatimiz va xalqimiz hayotida qo‘shiq bayrami odat tusiga kirdi.

Qolaversa, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ongida milliy istiqlol g‘oyalarining shakllanishida estrada san’atining imkoniyatlaridan unumli foydalanishning ommabop shakillari izlab topildi. Har yili o‘tkaziladigan bitiruvchilar kuni so‘ngi qo‘ng‘iroqqa bag‘ishlangan tadbirlar, “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” sport musobaqalarining tantanali ochilishi marosimlarida milliy san’atimiz yutuqlari asosida vatanparvarlik ruhini yoshlarga singdirishning badiiy uslublari ishlab chiqildi.

Milliy estrada san’atini rivojlantirishga doir hukumat qarorlaridan beri bir muncha ijobiy ishlar o‘z samarasini berdi. O‘tgan yillar davomida o‘zbek estradasi o‘z qiyofasiga, o‘z nufuziga ega bo‘ldi. Uning nufuzi, ovozi keng dunyo miqyosiga ko‘tarildi. O‘zbek san’atkorlarini ham dunyo xalqlari taniy boshladi.

Bu qisqa vaqt ichida faqatgina qo‘shiqchilik san’ati bobida qanchadan – qancha ovozlar, bastakorlar, shoir va san’atkorlar ixtiro qilindi. Sobiq sho‘rolar davrida bunday tadbirlar uyushtirish u yoqda tursin, milliy madaniyat va an’analar haqida gapirishning o‘zi muammo edi...

O‘zbekistonda istiqlol sharofati bilan ajdodlarimiz yeta olmagan va orzu qilgan ayyomlari, yubileylar va tantanalarni o‘tkazish an’anaga aylandi. Bunga shaxsan Prezidentimiz Islom Karimov bosh – qosh bo‘ldilar.

O‘zbek zamonaviy estradasi tarixiga Mustaqillikdan so‘ng tarixiy voqealarga aylangan tadbirlar, konsertlar, chet el sahnalarida millat dovrug‘ini yoyishdek sharafli sanalar ko‘p bo‘ldi. Bunga misol qilib Muyassar Razzoqovaning Italiyada, Yulduz Usmonovaning Gollandiya, Sultonposhsha O‘dayevaning Turkiyada o‘tkazilgan festivallarida qatnashib erishgan yutuqlarini keltirish mumkin. Bu bilan cheklanmay, dunyo sahnalaridagi ko‘plab tadbirlar “Osiyo dousi”, “Sharq ovozi” kabi Qozog‘iston, Turkiya mamlakatlaridagi tadbirlarga Kumush Razzoqova, Ravshan Nomozov, Ma’mura Qurbonova, Davron G‘oipov kabi xonandalarimiz qatnashib, ijodlari xalqaro darajada yuksak baholanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil

5-aprelda imzo chekkan “O‘zbeknavo” estrada gostrol birlashmasini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni tufayli birlashma estrada san’atida muhim burilish, yangilanish yuzaga keldi.

Hukumatimiz tomonidan san’at ahli va xonandalarning, estrada qo‘shiqchilarining har bir chiqishlari e’tibordan chetda qolayotgani yo‘q. Ular rag‘batlantirilib kelinmoqda. “E’tirof” ko‘rik tanlovining joriy yilda tashkil etilishi san’atning barcha sohalari kabi o‘zbek estrada qo‘shiqchiligi rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishi shubhasiz.

Sharq mamlakatlari, xususan o‘zbek milliy musiqa va qo‘shiqchilik san’atining noyob namunalarini keng targ‘ib qilish, milliy musiqa va ijrochilik an’analarini asrab avaylash va rivojlantirish ijodiy hamkorlik, madaniy va ma’rifiy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda kengaytirish maqsadida “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalini o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Bu festival Sharq va G‘arb san’atining o‘zbek san’ati bilan uyg‘unlashuvini va o‘zaro hamkorligini kengaytirdi. Maqom an’analari bilan estradaning rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston san’atini jahonga tanitishda qo‘shiqchilik - musiqiy san’atning o‘rni ham baland bo‘ldi. Bunga, O‘zbekiston kompozitorlari asarlarining yirik va nufuzli xorijiy ansambllar repertuaridan o‘rin olishi, yetuk san’atkorlarimiz – Turg‘un Alimatov, AQShda, Abduhoshim Ismoilov AQSH, Fransiya, Germaniyada, Munojat Yo‘lchiyeva Fransiyada, Yulduz Usmonova Gollandiya, Germaniya, Turkiyada, Nasiba Abdullayeva va “Yalla” ansambli AQShda, Milliy simfonik orkestr Turkiyada, “So‘g‘diyona” o‘zbek xalq cholg‘ulari kamer orkestri Ispaniya, Gollandiya, Germaniyada muvaffaqiyat qozongan gostrol va konsertlari yorqin misoldi.

Ushbu konsert dasturlarida jahon musiqa san’atining durdonalari bilan birga o‘zbek milliy musiqa va qo‘shiqchilik san’ati orqali Vatanimizni dunyoga tanitish bilan birga, milliy san’atimizning boy va sermazmun jihatlari namoyish etishdi.

Bugungi o‘zbek estrada qo‘shiqchiligi san’ati hozirda yosh avlod ta’lim - tarbiyasiga ham bevosita katta ta’sir ko‘rsata oladigan ma’naviyat sohasiga aylanib bormoqda. O‘zbekistonning buyuk kelajagini yoshlarimiz barkamolligida ko‘rayotgan yurtboshimiz 1998-yili Navro‘z bayramini o‘tkazish bo‘yicha mas’ul ijodiy guruh bilan uchrashuv paytida: “O‘zbek estrada musiqasi qanday bo‘lishi kerak?”, “XXI asr O‘zbekiston bunyodkor yoshlari mumtoz musiqiy merosimiz bilan bir qatorda estrada musiqasidan qanday ozuqa olishi

kerak?”[1] – kabi muhim savollarni o‘rtaga tashlashi va mutaxassislar e’tiborini shu nuqtalarga jalb etishi bejiz emas.

O‘zbek milliy estradasining rivojlanishida uning o‘ziga xosligi, o‘z uslubi, yo‘nalishi, milliyligi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir xalqning o‘z milliy urf-odatlari, marosimlari, an’analari bo‘lgani kabi milliy kuyi, qo‘shiqlari, raqsi ham bo‘ladi. Shu orqali u o‘zga xalq madaniyatiga o‘zini, o‘zligini, milliyligini namoyish etadi va o‘zgachaligi bilan ajralib turadi. Tan olish kerakki, milliy kuylarimizdagi ohanrabolik, qo‘shiqlardagi ma’no-mazmun va raqslardagi jozibadorlik o‘zga yurt xalqlari havas qilsa arzigulik darajada maqomga ega. Xususan, “O‘zbegim yoshlari” guruhining turli xil chet el mamlakatlari festivallarida qatnashib, muvaffaqiyat bilan qaytayotganlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ularning milliy kuy va qo‘shiqlardan tashkil topgan ko‘rinishlari, “Buxorocha”, “Xorazmcha”, “Surxondaryocha”, “Andijoncha” raqslari va urf-odatlarimiz, an’analarimiz, milliy taomlarimizni milliy liboslarda taqdim etishlari ko‘plab chet el san’at shaydolarini lol qoldirdi. Ularda O‘zbekistonga bo‘lgan qiziqish, hurmat va e’tibor yanada ortdi. San’atimiz va san’atkorlarimiz esa tasannolar bilan baholandi. Bu esa o‘zbek san’atining naqadar go‘zal va betakrorligidan, tarixiy va milliylikka yo‘g‘rilganidan dalolat beradi. Chet elliklarning o‘zbekcha raqs tushishga intilishlari-yu qo‘shiqlarimizni qalbdan berilib, zavq bilan tinglashlari beixtiyor qalblarni jo‘shqinlantirib yuboradi. Shu bilan birgalikda o‘z san’atimizga bo‘lgan hurmat va muhabbat tuyg‘usini yanada kuchayishiga sababchi bo‘ladi. Baski, san’atimiz shu qadar kuchli qudratga, jalb etuvchanlik qobiliyatiga ega ekan, biz undan oqilona, aql bilan foydalanishimiz, o‘z iste’dodimiz va mahoratimiz orqali uni yanada yuksak darajalarga ko‘tarishimiz darkor. Bu vazifa esa faqatgina xonandalarning emas, balki barcha san’atkorlarning, barcha san’at ixlosmandlarining oldida turgan yuksak va sharafli vazifadir. Shu jumladan, estrada qo‘shiqchilarining ham.

Asta sekinlik bilan o‘zbek estrada qo‘shiqchiligi ham shu tariqa o‘zgarib bordi. Aynan shu yosh ijodkorlar qatorida turli xil o‘zgacha uslbda qo‘shiq aytish, milliylikdan yiroqlashib, o‘zga millat madaniyatiga intilish boshlandi. Undan keyingi estrada qo‘shiqchilari va bugungi kun estradasi esa o‘sha intilishning eng rivojlangan namunasidir.

Bugungi kunda ba’zi yosh xonandalarimiz o‘tmish qo‘shiqlarini ijodiy o‘zlashtirib, qaytadan ijro etmoqdalar. Aslida esa, retroga aylangan qo‘shiqlarning asl shakli ham hamon tinglovchi e’tiborida. Uning nazaridan

[1] Mullajonov D. Milliy estrada musiqasi. Estrada san’ati. – T.: 2001. 135 b.

chetda qolmaydi. Biroq qo‘shiqning yangicha ovozda yangicha talqini yanada ko‘p muhlislarni o‘ziga jalb etishi, shu jumladan, yosh avlodni chorlay olishi tabiiy. O‘z davrida xit bo‘lgan va yillar davomida sevib tinglanib, hozirda ham ehtiyoj sezilayotgan qo‘shiqlar o‘zbek estradasi tarixida minglab topiladi. Ular har bir davrga ta’tigulik, har bir davrga mos o‘lmas asarlar bo‘lib, bundan keyin ham yashab qoladi. Shu kabi san’at namunalarini ijodiy o‘zlashtirib, ijro etgan va muvaffaqiyatga erishgan xonandalar talaygina. Jumladan, ilk bora Botir Zokirov ijro etgan “Ra’no”, “Majnuntol” qo‘shiqlarini keyinchalik “Yalla” guruhi va yana boshqa ko‘plab yosh xonandalar qaytadan ijro etishdi. Uning “Arab tangosi”ni esa yosh estrada xonandasi Abdulla Qurbonov sevib nola qildi. “Yalla” guruhining ham “Dor o‘ynang” qo‘shig‘i qaytadan Rayxona , “Na Vostoke” qo‘shig‘i esa Shahzoda tomonidan, “Emina”si Isroil Saidumarov tomonidan bo‘lsa, “Toshkentim onam” qo‘shig‘i “Shod” guruhi tomonidan, “Torimning siri” qo‘shig‘i Rashid Holiqov tomonidan va yana “Yumalab-yumalab” qo‘shig‘i “Bayram” guruhi tomonidan zo‘r mahorat bilan ijro etilib, tomoshabinlar qalbidan chuqur joy egalladi. Undan tashqari, Kumush Razzoqovaning “Meni esla” qo‘shig‘ini Gulnora Karimova, Sanobar Rahmonovaning “Erta tong bilan” qo‘shig‘ini Ziyoda, Yulduz Usmonovaning “Mayda-mayda” qo‘shig‘ini esa “A’lo” guruhi qizlari yangi talqinda xalqimizga armug‘on qildilar.

O‘z davrida o‘zbek filmlarida ijro etilgan talaygini qo‘shiqlar hozirda ham estrada xonandalarimiz e’tiboridan chetda qolgani yo‘q. “Maftuningman” filmida Klara Jalilova tomonidan ijro etilgan “Do‘ppi tikdim” qo‘shig‘i avvaliga Dilnoza Ismiyaminova, so‘ng esa Rayxona tomonidan o‘zgacha muhabbat bilan talqin etildi va tomoshabin olqishiga sazovor bo‘ldi.

Yangilik yaratishni, izlanishni istaydigan xonandalar hozir ham mavjud. Ammo ularning yangiliklari odob chegarasidan tashqariga chiqqan, izlanishlari natijasi esa ko‘ngilxushlikdir. Aytayotgan qo‘shiqlari esa milliylikdan ancha yiroqlashib ketib, chet el xonandalarining qo‘shiq kuylarini ko‘r-ko‘rona o‘zlashtirayotganlari ham yo‘q emas. Qo‘shiq she’rida esa “uyat so‘zlar” ham uyalib qoladigan so‘zlardan foydalanib, kerak bo‘lsa, shu so‘zlarni bir, ikki marotaba emas, o‘n, o‘n besh martalab takrorlaydiganlarni aytmasa ham bo‘laveradi. Beixtiyor esa, o‘zbekcha ibo, hayoga mos maftunkor so‘zlar, milliy ruh jamlangan, eng asosiysi, milliy cholg‘u asboblaridan taraluvchi milliy musiqamiz qayerda qoldi, degan savol tug‘iladi. Vaholanki, javobi barchaga ma’lum bo‘lsada. O‘zbek estradasida milliylik muammosi eng avvalo chet el qo‘shiqlari musiqalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bemalol ko‘chirish natijasida avj olmoqda. Aksariyat estrada xonandalari turkcha, inglizcha, ruscha va hindcha ijro

etilgan qo‘shiqlar musiqasidan osongina foydalanib, achinarlisi hattoki, she’rini ham tarjima qiladilar-u, ijro etib ketaveradilar. Ana sizga tayyor mahsulot, mana sizga pul topishning oson yo‘li. Milliy san’atning esa og‘riqli nuqtasi, dardi va yig‘isidir. Uning yosh to‘kishiga esa quyidagi ijodkorlarning shafqatsiz ijrosi sababdir. Avvaliga Mavluda Asalxo‘jayeva va Ravshan Komilovlar hindcha qo‘shiq musiqasidan foydalangan holda “Jonimmisan?” qo‘shig‘ini ijro etishdi. Keyinchalik esa, yoshi o‘tgani sayin dangasalashib, shunday ko‘chirmakashlik yoqib qoldimi, Mavluda Asalxo‘jayeva qayta-qayta turkcha qo‘shiq musiqalaridan foydalanib, “O‘x-O‘x”, “Titrashib” va yana boshqa qo‘shiqlarni ijro etdi.

Kattalardan o‘rnak olgan holda Radius 21 ruscha qo‘shiqdan foydalanib, “Qora bumer” qo‘shig‘ini, Indi hindcha qo‘shiq musiqasi asosida “Bugun esa” qo‘shig‘ini, Ziyoda inglizchadan “Shirinligidandey” qo‘shig‘ini, Yodgor Mirzajonov turkchadan “Go‘zalim” qo‘shig‘ini, Anvar Sanayev hindcha film qo‘shiqlaridan o‘zlashtirib, “Muhabbat”, “Go‘zalim” qo‘shiqlarini, Dilnoza Ismiyaminova ham hindchadan “Tavba-tavba”ni, Sayyora Qoziyeva esa shu tildagi qo‘shiqdan “Shoshma-shoshma” qo‘shiqlarini xalqimiz e’tiboriga havola etdilar.

Bunday ijod namunalaridan zavqlanib bahramand bo‘lganlar ham bor, qo‘shiqning asl chet elcha shaklida tinglab, huzur qilganlar ham talaygina. O‘zbekchalashtirilgan qo‘shiqlardan ko‘ra o‘zga millat qo‘shiqlarini zavqlanib ham tingladilar. Chunki ko‘chirma qo‘shiqlarning asl namunasi ta’sirliroq edi-da. Qo‘shiq musiqasini chet eldan o‘zlashtirgani kamdek, uning matniga ham hech qanday e’tibor qaratilmagan. Qofiyasi tushar ekan, deb ma’nosiz, “shunchaki” she’rlar yozib qo‘yilgan.

Ayrim yoshlar bizning zamonamizdagi qo‘shiqlarga tanqid ko‘zi bilan qaraydi, ularda zavq bo‘lmagan deyishadi, lekin yanglishadilar. Havoyi shoirlar ham ko‘payib ketgan. Navoiy, Bobur, Mashrab, Fuzuliy u yoqda tursin, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov singari zamonamizning yirik shoirlarining g‘azaliga ham qarashmaydi. Ular go‘yo eskicha tuyuladi, tushunishni istashmaydi. Agar mag‘zini chaqqanlarida edi, chiroyli qo‘shiqlar yaratgan bo‘lardilar. Aslida, g‘azalni anglamoq, so‘ngra uni boshqalarga yetkazmoq kerak.”[1]

Hofizning gaplarida haqiqat va jon bor. Ammo xonandalarimiz orasida milliy she’riyatimizga nazar tashlab, turli xil g‘azallarni qo‘shiq qilib ijro

[1] K a r i m o v a D. “Fahriddin Umarov: San’atkor hammasiga chidashi kerak...”, “Jannatmakon” jurnali, 2005 yil, aprel-may soni, 42 – 43-betlar.

etayotganlari ham yo‘q emas. Jumladan, “Nola” guruhi Lutfiyning “Sensan sevarim” g‘azalini yuksak mahorat bilan ijro etib, tinglovchilarni lol qoldirgan bo‘lsa, yosh iste’dodli xonanda Ziyoda Furqatning “Sayding qo‘yaber sayyod” g‘azalini o‘zgacha bir nafosat bilan kuylab, kishi qalbini larzaga soldi. Undan tashqari, yana ko‘plab xonandalar shoirlar ijodidan o‘rin egallagan ta’sirli g‘azallarni kuylamoqdalar. Abdulla Shomag‘rupov, Sobirjon Mo‘minov, Ozodbek Nazarbekov, Firdavs Fazliddinov, Aziz Rajabiy, Avazbek Olimov va yana boshqalar shular jumlasidandir.

O‘zbek estradasida milliylikning uchqunlari bor, ammo u olovga aylanolmayapti. Milliy urf-odatlarga, an’analarga, liboslarga, musiqaga tayangan holda yuzaga kelgan kliplar ham sanoqli. Aksariyat kliplarda yarim yalang‘och qizlarning aqlga sig‘maydigan harakatlari tasvirlangan. Ularning shu behayo kiyinishi esa bizning dolzarb muammolarimizdan yana biridir.

Estradamiz xonandalaridan biri Ulug‘bek Rahmatullayev milliy kiyinishdan ancha yiroqlashib ketgan qizlarni tanqid qilib, “Mini yubka” deya kuyladi. Qo‘shiq matni muallifi Doniyor Mirzo bo‘lib, u bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biri – milliy kiyinishdan yiroqlashgan qizlar haqida haqqoniy va ishonarli she’r yoza olgan. Ushbu qo‘shiq ba’zi qizlarning nafsoniyatiga tekkan bo‘lsa-da, ammo yoshu-qari tomonidan iliq kutib olindi. Ayniqsa to‘ylarda, qirq yoshdan oshgan erkaklar xonandadan shu qo‘shig‘ini ijro etishini so‘raganlar va tasannolar aytganlar. Qo‘shiq va unga ishlangan klip muntazam ravishda radio va televideniye orqali namoyish etildi. Hatto matbuotda ham uni tahlil qilib, ijobiy baholadilar. Qarabsizki, tanqidiy qo‘shiqning darrov ikkinchi qismi ham qisqa muddat ichida vujudga keldi. U esa “Mini yubka-2” deb ataldi. Uning ham muallifi Doniyor Mirzodir. Qo‘shiqni Ulug‘bek Rahmatullayev bilan birgalikda Iroda Iraliyeva ijro etdi.

Qo‘shiqda bir o‘zbek yigiti o‘zbek qiziga to‘g‘ri ma’noda kiyinish odobidan tanbeh bermoqda. Qiz esa unga javoban, zamonga qarab kiyinishini, uzun ko‘ylak olib bermasa, kaltasida yurishini ta’kidlamoqda. Mana shu yerda tanqid qilayotgan yigitning mag‘lub bo‘lishi ko‘rinadi va ma’naviyatning noto‘g‘ri targ‘iboti sodir bo‘ladi. Bunda o‘zbek qizining milliylikdan yiroqlashib, behayo kiyimlarni kiyishi zamon talabi ekanligi ochiqdan-ochiq namoyon bo‘lgan. Aslida esa zamonni milliylikdan yiroqlashganlarning o‘zi o‘zgartirmoqda. To‘g‘rirog‘i, zamon emas, insonlar o‘zgarmoqda. Bu ham zamonning emas, insonlarning talabidir.

Qo‘shiq klipida hattoki, qizning o‘z kiyib yurgan kiyimidan uyalmasligi, aksincha yuksak g‘ururda ekanligi tasvirlangan. O‘zbek qizlaridagi ibo-hayo, kamtarlik, andisha va tarbiya qo‘shiq va klipda zarracha ham tasvirlanmagan.

Shu kabi muammolardan kelib chiqib, milliy estradamizga katta e’tibor qaratish, har qanday qo‘shiq va kliplarni xalq e’tiboriga havola etavermaslik kerak. Qat’iy tekshiruvlardan o‘tgandan so‘ng ular namoyish etilishi darkor. San’atkorlar oldidagi oliy maqsad pul yoki obro‘-e’tibor topish emas, ijod bo‘lgandagina o‘zbek milliy estradasi gullab-yashnashi mumkin. Buning uchun esa eng avvalo tinmay izlanish, ijod qilish, barchaga o‘rnak bo‘ladigan, ma’naviy ozuqa berib, tarbiya maktabi vazifasini o‘taydigan va asrlarga ta’tiydigan san’at asarlari yaratish kifoyadir.

Binobarin, Alloh bergan noyob iste’doddan unumli, oqilona va aql bilan foydalanib ijod qilgan san’atkorgina yuksak cho‘qqilarga, yulduzlik darajasiga erishishi mumkin!

Milliy istiqlol g‘oyasiga sodiqlik, milliy mustaqillikning qadriga yetish, milliy urf –odatlarning ahamiyatini tushunish osonlik bilan amalga oshmaydi. Milliy istiqlol g‘oyasi bir tomondan qo‘shiqchilik san’atimizdagi turli bachkanaliklardan, g‘oyaviy sayoz asarlarning barham topishiga sababchi bo‘lsa, ikkinchidan u mazkur san’atda ilg‘or g‘oyalarni, ezgu fikrlarni tarannum etadi, fuqarolarda shu Vatan va millatga sadoqat, faxr hamda g‘urur hissini uyg‘otadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Umarov M.U. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. T.: Yangi asr avlodi. 2009.
2. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 2000.
3. Ibrohimov.O. O‘zbek xalq musiqasi. 1 jild. – T.: Ibn Sino nashriyoti. 1994.
4. Qodirov M.X. O‘zbek xalq tomosha san’ati. – T.: O‘qituvchi. 1981.
5. Hamidova SH.T. Estrada janrlari. T.: O‘zDSI. 2009.
6. Bekov O., Mullajonov D. Milliy estrada san’ati. // O‘zbekiston san’ati (1991-2001 yillar). – T.: Sharq nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2001.
7. Ibrohimov O. O‘zbek xal musiqasi. 1 jild. – T.: Ibn Sino nashriyoti. 1994.
8. Meliyev S. Musiqa va ma’naviyat. // “O‘zbeknavo”: ustozlar, yuduzlar, shogirdlar, T.: CHo‘lpon nashriyoti. 2000.

9. Jabborov A. Musiqiy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompazitorlarining ijodiyotida. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1999.

O‘ZBEK ESTRADA QO‘SHIQCHILIGINING BADIIY-ESTETIK JIHATLARI

Kamola Abzalova
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti magistranti

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek estrada qo‘shiqchiligi san’atining badiiy-estetik jihatlari chuqur tahlil etilgan. Milliylik va estetik didning yo‘qolib borayotgan holatlari, yosh xonandalar orasida badiiy mas’uliyatning pasayishi, sahna madaniyati va tarbiyaviy ta’sirning zaiflashuvi asosiy muammolar sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada san’atkorlar zimmasidagi burch va mas’uliyat, san’atning tarbiyaviy qudrati va jamiyatdagi o‘rni keng tahlil qilinib, o‘zbek estrada san’atini milliy ruhda rivojlantirish zarurligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Kuy qadri, milliylik va zamonaviylik, estrada san’ati, ijro, milliy qadriyatlar, estetik did, urf-odatlar, milliy musiqa, ijrochilik madaniyati*

Аннотация. *В статье глубоко анализируются художественно-эстетические аспекты узбекской эстрадной музыки. Указываются проблемы утраты национальности и эстетического вкуса, снижение художественной ответственности среди молодых исполнителей, ослабление сцены и воспитательного воздействия. В статье подробно рассматриваются обязанности и ответственность артистов, воспитательная сила искусства и его роль в обществе, подчеркивается необходимость развития узбекской эстрады в национальном духе.*

Ключевые слова: *ценность мелодии, национальность и современность, эстрадное искусство, исполнение, национальные ценности, эстетический вкус, обычаи, национальная музыка, культура исполнения*

Annotation. *The article presents a deep analysis of the artistic and aesthetic aspects of Uzbek pop music. It highlights problems such as the loss of national identity and aesthetic taste, the decline in artistic responsibility among young performers, and the weakening of stage presence and educational influence. The article also thoroughly examines the duties and responsibilities of the artists, the*

educational power of art, and its role in society, emphasizing the necessity to develop Uzbek pop art in the national spirit.

Keywords: *The value of a melody, nationality and modernity, pop art, performance, national values,aesthetic taste, customs, national music, performance culture*

San’at maydonida so‘z qadrini, kuy qadrini to‘g‘ri anglab yetmay obro‘ uchun, pul topish uchun estrada janrida ot qamchilayotgan yosh san’atkorlarning hatti-harakatlari va ijodlari xonandani taajjubga solgan shekilli, ularga aytmoqchi bo‘lganlarini “Millat ko‘rki” nomli maqolasida ochiq oydin aytib o‘tadi. “ Milliylik va zamonaviylikni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ymaslik zarur. Nima, “Munojat” eskirib bugungi zamonga to‘g‘ri kelmay qoldimi? Yoki yuz yillar burun o‘tib ketgan Motsart musiqasi zamondan ortda qoldimi? Yo‘q shunchaki bugun urf bo‘lgan kuy-qo‘shiqlarni zamonaviy ohanglar deb aytamiz, xolos. Ularning qanchasi zamonlar sinovidan o‘ta oladi, buni hech kim bilmaydi. Xorij musiqalariga o‘zbekcha so‘z qo‘yish yaqinda urf bo‘lgan hodisa emas. Yaxshini o‘zlashtirishning turlicha yo‘llaridan biri, xolos. Bitta yoki ikkita musiqaga o‘zbekcha so‘z qo‘yib ko‘rishni qoralay olmayman. Ijodkorlar shu yo‘l bilan xorij san’atining sirlaridan yaxshiroq xabardor bo‘lishi tabiiy. Lekin shu ishga ruju qo‘yish, faqat shu ish bilan shug‘ullanishni ijodiy o‘g‘irlik deb baholash kerak”.[1] Qaysidir o‘rinda xonandaning so‘zlarida ma’lum ma’no mujassamdek. Zotan, tinimsiz ijod qilayotgan, yetuk xonanda repertuarida turli millatlarga xos musiqa ohangidagi qo‘shiqlarni bo‘lishi salbiy natijalarni bermaydi, balki xonanda iste’dodi va mahoratini belgilab beradi. Bu o‘rinda xonanda haq. Afsuski, xorijda qandaydir yangi musiqa va ohang yaralishini intiqlik bilan kutib o‘tiradiganlar ijodini xorijiy musiqalarisiz tasavvur etolmaydiganlar ham oramizdan ko‘plab topiladi.

Darhaqiqat, keyingi vaqtlarda yetarli bilim va tajribaga ega bo‘lmagan “bastakor” va musiqiy bezakchilarning estrada san’atiga kirib kelishi oqibatida professional darajada bo‘lmagan qo‘shiqlar sahna yuzini ko‘rmoqda. Bir – biriga o‘xshash, bir – birini takrorlash, zerikarli yoki yolg‘on kayfiyat ularning belgisidir.

Shu ma’noda Ali Niyozimbetovning Samandar Hamroqulovning “Asal”, Diyorbek Mahkamovning “Menga tanho sen kerak”, Sarvar Rahmatxo‘jayevning

[1] Nazira Qurbon. Qo‘shiqda g‘oya bor..., O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2005-yil 16-fevral soni.

Shahzoda ijrosidagi “Siz o‘zingiz”, Abduvali Rajabovning bir qancha qo‘shiqlariga bastalagan kuylar bir – birini takrorlaydi.

Qo‘shiqning matni va musiqasi badiiy jihatdan yaxlit, yoqimli, diltortar bo‘lsayu, ijrosi maromiga yetmasa, uni professional darajaga yetgan asar deb bo‘lmaydi. Qachonki, matn, musiqa va ijro mushtarak bo‘lgandagina, qo‘shiq muvaffaqiyat qozonadi. Demakki, ijro madaniyati ham san’at va san’atkor uchun muhim omillardan hisoblanadi.

Ijrochilik madaniyati – milliy an’analarga tayanish, shoir va bastakor his tuyg‘ularini qalban his qilib kuylash, so‘zlarning mantiqiy urg‘ularini ochib berish, pauzalar, qochirimlar, usul va ritmlarni saqlashda namoyo bo‘ladi. Bu o‘rinda xonandalardan nafaqat ijrochilik, balki, ijodkorlik ham talab etiladi.

Agar chinakam qo‘shiq orqali inson ko‘ngli ko‘tarilsa, his – hayajonlar, xonandaning oh – vohlari va kechinmalarining ifodasi bo‘lgan qo‘shiqlar tinglovchilarning ko‘nglini cho‘ktiradi.

Aytish joizki, bugungi kunga qadar “O‘zbeknavo” estrada birlashmasidan ko‘plab xonandalar ro‘yxatdan o‘tib qaysidir ma’noda, o‘zi tanlagan janrda “baholi qudrat” ijod qilishmoqda. Ularning deyarli hammasi o‘z yakkaxon konsertini tashkil qilgisi keladi. To‘g‘ri, buning yomon tomoni yo‘q, lekin avvalo o‘sha san’atkor bunga ijodiy tayyor bo‘lishi zarur. Ilgari mashhur qo‘shiqchilar uzoq ter to‘kishar, pishiq tayyorgarliklardan so‘ng konsert dasturlarini tashkil qilish uchun kirishar edi. hozir-chi? Noo‘rin bo‘lsa ham aytish lozimki, hozirgi ko‘pchilik san’atkorlar hali tayyor bo‘lmagan ko‘shig‘i bilan konsert berishga oshiqadilar. Ko‘cha ko‘yda osilgan afishalarni ko‘rib, televideniye va radiolarda berilayotgan reklamalar kishini taajjubga soladi. Ko‘pchilikka hali tanish bo‘lmagan qo‘shiqchilar konsert qo‘yishyapti. Ba’zi nomerlarni umuman qo‘shiqqa o‘xshamaydi. “Seni sevaman yor, sevaman faqat Ollohim muhabbatimdan ayirma” deya munojot etsa, birida “Kunduz tunimning yo‘qdir ma’nosi, hayotda sensiz yashashning yo‘qdir foydasi...” deya fig‘on qiladi. Ayrim qo‘shiqlar esa mutlaqo tushunarsiz.

Saviyasi past qo‘shiq matni haqida tanqidiy mulohazalar mavjud. Darvoqe qo‘shiq matnlarini kim yozyapti, dersiz? Har bir ovoz yozish studiyasi o‘z “shoir”iga ega. Qanday buyurtma bo‘lsa, o‘shanday qilib yozib berishadi. Savod-saviyasi hamin qadar qo‘shiqchilar shunday “shoir”ga buyurtma beradi. Maqsad-to‘y qo‘shiqlari, to‘yda aytiladigan qo‘shiqlarini ko‘paytirishi kerak. Ana gap qayerda! Musiqasi yaxshi bo‘lsada aslida bemani bo‘lgan qo‘shiqqa birov e’tibor

berarmidi. Sochimdan ko‘p oshig‘im, sen bo‘lmasang boshqasi... deya ayol kishi kuylab tursa, bu holat albatta millatimiz manaviyatika keskin ta’sir o‘tkazadi.

Kuniga “birrov” 7-8 ta to‘yga borishni bilgan “mashhur” qo‘shiqchi millat ma’naviyatini ham o‘ylasin-da. Nahot bugungi kunda mashhurlikka intilayotgan ko‘pgina qo‘shiqchilar faqat to‘y uchun ijod qilishsa. Pul topish ilinjida san’atning bunday usulidan foydalanishni qanday baholash mumkin.

Shoir Abdulla Oripov ham ayrim g‘arib va nochor qo‘shiqlar haqida shunday kuyunib yozgan edi: “G‘arib qo‘shiqlar! Ularning tinglovchilarga mening dil – dildan rahmim keladi. Chunki bunday qo‘shiqlar o‘zining chuchmal ohangi, poyma – poy so‘zlari bilan asablarni beomon arralaydi, milionlab tinglovchilarni bir nafas bo‘lsa ham g‘oyat noqulay ahvolga solib qo‘yadi, didsiz, farosatsiz ashulachining dastidan dod deging, dunyodan bosh olib chiqib ketging keladi. Xo‘sh, ashulaning she’rini yozgan shoir nazmboz tovlamachi ekan, uning musiqasini yozgan bastakor allaqanday ohangfurush ekan, ijrochi bez terishdan boshqa ishga yaramaydigan o‘tkinchi savodsiz kimsa ekan, million – million xalqda nima ayb! Nega ulug‘ did va farosat egasi bo‘lgan kattakon bir xalq bunaqangi masxarabozlikni tinglashi kerak!”.[1]

Juda ko‘p sayoz qo‘shiqlarni paydo bo‘lishiga, birinchi navbatta, yomon she’rlar sabab bo‘lmoqda. Ba’zi qo‘shiq so‘zlarini hatto matbuotda e’lon qilib ham bo‘lmaydi. Bular g‘oyatda siyqa, g‘aliz gaplarning qofiyalashtirilgan tizimlaridangina iboratdir. Agar bu qo‘shiqlarning matnini kuysiz, ohangsiz o‘qiladigan bo‘lsa, san’at va nafosatga butunlay aloqasiz holatlarga duch kelish mumkin.

Quruq gap, poeziyadan yiroq so‘zlar, milliyligimizdan yiroq oldi – qochdi gaplar inson ma’naviyatiga qanday qilib ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin? Afsuski, estrada qo‘shiqchiligida sevgi muhabbat mavzusi oddiylashib, qadri topora pasayib, ba’zi o‘rinlarda toptalib ham qolmoqda. “Gapning lo‘ndasi, estrada qo‘shiqchiligimiz muhabbat jazavasini eslatadi. Yomg‘irdan so‘ngi qo‘ziqorindek ko‘payayotgan rasmiy, norasmiy estrada guruhlari muhabbat mavzusini go‘shtga yopishgan aridek talamoqdalar”[2].

Xo‘sh, yengil-yelpi qo‘shiqlarning manbai nimada? Masalaga chuqurroq yondoshish lozim. Jumladan, avvalo xonandaning ijtimoiy kelib chiqishi bunda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki qo‘shiqchining savodi, mutolaa bilan

[1] Feruza Asqar. Musiqa va inson ma’naviyati. – T.: 2000. 67 – bet.
[2] Toshtemirov O‘. Shukurov R. Muhabbat jazavasi yoki muqaddas tuyg‘uning bugungi qadri. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2005-yil, 18-fevral.

bog‘liq. Ehtimol, yangilishdir, lekin matbuot nashirlaridan bexabar (umrida durustroq asar o‘qiy olmagan) “xonanda”dan nima kutish mumkin. Ehtimol, kassik adabiyotimiz namunalarini tushunib, mag‘zini anglab yetish bir qadar mushkuldir. Ammo, yosh qo‘shiqchilar orasida zamonaviy o‘zbek she’riyati namunalarini ham izohli lug‘at yordamida o‘qiydiganlar ham oz emas. Shuningdek, kuylaganida sof o‘zbek tilini buzib (allaqanday xorijlik o‘zbekcha qo‘shiq aytayotgandek) talaffuz qilishayotganligi kishini tashvishga soladi. Shu o‘rinda kuy bastalashga chog‘langan bastakolardan ham she’rlarning mazmuniga jiddiy e’tibor qaratishlari talab qilinadi.

Muhabbatni barcha zamonlarda ulug‘ mutafakkir shoirlar kuylab kelishgan, Xo‘sh, bugungi qo‘shiqlarning she’rini kimlar yozmoqda? Muhammad Yusuf ta’biri bilan aytganda, o‘rtamiyona qo‘ziqorindek xonandalar ko‘payayotganligiga ayrim “shoirchalar” ham sababdir.

Darhaqiqat, “zakaz”ga she’r yozadigan “shoirchalar” juda ko‘payib bormoqda. Yuqorida keltirilgan misollar ham aynan o‘shalarning biznesga aylantirgan “ijodi”ga bevosita bog‘liqdir.

Shu kabi she’riy zamini zaif qo‘shiqlar, she’rini ham musiqasini ham o‘zi yozadigan, o‘zi ijro qiladigan “universal xonandalar” safi kengayib bormoqda.

Qo‘shiq she’riga e’tibor qaratmay, ruscha, inglizcha so‘zlardan foydalanib qo‘shiq ijro etayotgan xonandalarimiz esa o‘zbek estradasida milliy til muammosini keltirib chiqarmoqdalar. Xususan, “Bojalar” guruhi “Anhor” qo‘shig‘ida, Davron Ergashev “Egov - egov”, “Men seni sevaman” yoki “Zakonniy” kabi qo‘shiqlarida, Radius 21 esa “Yor manikimikan?”, Shohruhxon bo‘lsa “Moda”, “Qalam qoshli yor” va yana boshqa qo‘shiqlarida ruscha so‘zlardan foydalanishgan.

Bugungi kunda mazmunsiz qo‘shiqlarni berilib tinglayotgan yoshlar ham talaygina. Hech qanday milliylikni, o‘zbekcha ruhni o‘zida mujassamlashtirmagan qo‘shiqlarni tinglab borayotgan yosh avlod san’atning shu turi orqali kelajakda qanday inson bo‘lishini rejalashtirib olyaptimi yoki yetarli xulosalarga ega bo‘lyaptimi? Xullas, anig‘i noma’lum. Biroq o‘zbek yoshlarining og‘zidan tushmay, xirgoyi qilayotgan qo‘shiqlari orqali tarbiyasi buzilayotgani barchaga birdek ma’lumdir. Yosh avlodning tarbiyasida san’tning o‘rni beqiyosligi hech kimga sir emas.

Tarixdan ma’lumki, hoh bastakor, hoh xonanda bo‘lsin, o‘z zamonasida yaratilgan yaxshi she’rlar yoki o‘tmish shoirlarning sara she’rlarini kuyga solib

aytganlar, xonandaning didi va iste'dod xususiyatiga qarab ma'lum she'rlar ikkinchi umrini yashay boshlagan va avloddan avlodga o'tib kuylab kelingan.

Bizning asrimizda "zamonaviy qo'shiqlar" atamasi paydo bo'ldiki, uning aksariyati zamonaviy shoirlar she'rlariga bastalangan qo'shiqlar yoki o'zini qo'shiq yozishga safarbar aylagan shoirlar nazmini ohanglashtirish tamoyili avj oldi. Agar avvallar shoirlarning barcha she'rlari emas, qo'shiqbop va o'z ruhi, mazmuni jihatidan kuyga solishga "tayyor" she'rlar tanlab olinsa, endi oldindan o'z oldiga qo'shiq yozishni maqsad qilib olib asar yaratadigan "qo'shiqchi - shoirlar" paydo bo'ldi.

Natijada she'riyat bo'stonida o'zining ovozi va soziga ega bo'lmagan, bir qator she'riy to'plamlar nashr etib, nom chiqarmagan shoirlar guruhi - "qo'shiqchi shoir"lar shakllana boshladi.

Didsiz qo'shiqlarning ko'payish sabablari bir talay. Oxirgi paytlarda xonandalarning o'zlari shoir bo'lib qolishyapti. To'g'ri ulkan qo'shiqchi san'atkor poetik salohiyatga ham ega bo'lib, bir – ikki jozibali she'rlar yozishi mumkin. Biroq bu tajribada kam uchraydigan holat. Hozir ma'lum vaqt o'tishi bilan o'zini xonanda sifatida el orasida tanitib olgach, o'zi ham she'r yozib, ham musiqa to'qiydigan va o'zi ijro etadigan san'atkorlar ko'payib bormoqda. Xonanda sifatidagi shuhrati kamlik qilganday ham shoir, ham bastakor sifatida namoyon bo'lish istagi yengil – yelpi noprofessionalqo'shiqlar paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Ayni damda o'zbek estrada san'atida g'arb estrada san'atiga taqlidchilik alomatlari uchrab turibdi. Bu esa o'zbek estrada san'atini tanazzulga olib keluvchi og'riqli nuqtadir. Shuni unutmaslik lozimki, taqlid haqiqiy san'at bo'la olmaydi, balki oddiygina nusxa ko'chirishdir xolos.

Bugungi kun estrada san'atiga umrida qo'shiq aytib ko'rmagan yosh yigit qizlar kirib, behosdan bu janrda qo'shiq aytib qolishmoqda. Kuyi boshqa xalqniki, so'zi tushunarsiz, yarim-yortisi o'zimizniki. Endi ovozni umuman aytmasa ham bo'ladi. Balki bu "qo'shiq"ni hayosiz so'zlargina ba'zi yoshlarni o'ziga tortar. Bunday san'atning ertasi yo'q deyish mumkin. Afsuski, san'atni "shou biznes"ga aylantirgan, shu yo'l bilan pul topishni maqsad qilgan, ertasi yo'q, ba'zi san'atkorlar bu san'at muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Dilorom Omonullayeva o'zbek estradasidagi turk, eron, hind, arab kuylari qorishmasidan vujudga kelayotgan musiqalarga o'z munosabatlarini shunday bildiradi: "Biz shu millat ijodkorimizmi, boshqa xalqlardan "o'g'irlab" emas, balki o'rnak bo'lgulik musiqalar yaratmog'imiz kerak. Afsuski, bunday

o‘g‘rincha musiqalardan yaratilayotgan qo‘shiqlar radiolarda, televideniyaning ayrim kanallarida hech qanday to‘siqsiz berib borilmoqda. Bu sohaga mas’ullar esa mudrab o‘tirishibdi.”[1] Bu so‘zlardan o‘zbek estradasiga achinish hissini tuyish qiyin emas. Sababi boshqa millat musiqasi o‘zbek musiqasiga qaysidir ma’noda o‘z hukmrongligini o‘tkazib oldi. Aslini olganda musiqa, kuy, ohang inson uchun ilohiy bir ne’mat. U koinot va tabiat bilan bog‘liq tushuncha. Agar Alloh o‘z bandalariga bir haftada yetti kunni ravo ko‘rgan bo‘lsa, musiqiy tovushlar ham shunga monand yettita. Musiqa universal san’at. Kino, teatr san’atining bir turi bo‘lsa, ular musiqa va ohangsiz hech qanday joziba kasb etmaydi. Musiqa hayotni ta’riflaydi, shuningdek, hayot ko‘zgusi hisoblanadi.

Afsuski, yosh estrada xonandalari xorij kuylari va musiqa asboblari ohanglaridan foydalanishga, ba’zilari esa chet el musiqalarini qanday bo‘lsa shundayligicha ko‘chirishga harakat qilishmoqda. Achinarlisi shundaki, aksariyat yosh tinglovchilar tomonidan qo‘llab – quvvatlanayotgan “xit”larning ko‘pchiligini “o‘zlashtirma”, to‘g‘rirog‘i o‘g‘irlangan musiqa asosiga qurilgan, oldi – qochdi so‘zlardan iborat bo‘lgan qo‘shiqlar tashkil etadi.

Masalan, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Ilhomjon Farmonovning “Soatlar qilar chiq-chiq”, qo‘shig‘ining musiqasi Ingridning “To madgomy”sidan, Shahzodaning “Umidvor”i Madonnaning “Frozen”idan, Yodgor Mirzajonovning “Go‘zalim”i eronchadan o‘zgartirishsiz ko‘chirib olingan. Bu kabi misollarni juda ko‘plab keltirish mumkin. Bunday ko‘chirma ohang va kuylardan milliylikni izlash mumkin emas.

Shu xususda O‘zbekiston xalq artisti Farrux Zokirov matbuotda shunday fikrlarni bildiradi: “...milliy o‘zbek estradasi faqatgina bizga xos va mos. Undan ortig‘i bo‘lishi mumkin emas. Aks holda katta xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz. Milliy estrada deb ayuhannos solgan bilan bo‘lib qolmaydi. Buning uchun juda ko‘p izlanish, o‘rganish kerak bo‘ladi. Taqlid, ayniqsa xavfli sanaladi... Milliy musiqa asboblarimizning jozibali sadolarini estrada ohanglari bilan uyg‘unlashtirish o‘rniga turli xil ajnabiy ohanglar bilan qorishgan “Zamona modasi” rusumidagi qo‘shiqlar yaratsak, buning nimasi milliy?”[2].

Sayoz, mazmun, ohang, ijro jihatidan sayoz bo‘lgan qo‘shiqlar musiqadan chalasavodlik va yaxshi she’rni tanlay bilmaslik hamda kuy, qo‘shiqdan ma’naviy chayqovchilik yo‘lida foydalanish oqibatida xalqning qo‘shiq va musiqaga bo‘lgan cheksiz mehr – muhabbatini suiiste’mol qilish natijasida

[1] Burxonova O. Musiqa-ilohiy ne’mat. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2006-yil 18-iyul soni.
[2] Hamrayev J. Omad hamisha ham kelavermaydi. Darakchi gazetasi, 201-yil, 22-noyabr.

paydo bo‘lmoqda. Bundan tashqari, ayrim kompozitorlar tomonidan yaratilgan qo‘shiqlarning ommaviy tus olmasligiga sabab, birinchidan, bu qo‘shiqlarda xalq musiqiy merosidan yaxshi foydalanmaslik, ikkinchidan, yaxshi, go‘zal, mazmunan baqquvvat, g‘oyaviy teran she’r tanlay bilmaslik, uchinchidan, kompozitorlik iste’dodining yuqori professonal darajada emasligidadir.

Qo‘shiqchilikda yangilik, kashfiyot, yangi ohang va zarb bo‘lmas ekan, bunday qo‘shiqlar uzoq umr ko‘rmaydi, tinglovchilarning g‘ashiga tegadi, ma’naviyatini haqorat qiladi.

Bugungi kunda ekran orqali namoyish qilinayotgan ko‘pgina kliplar o‘ta bachkana va ayanchli, xatto bir – birigam o‘xshash, mazmunan bir-birini takrorlaydi ham: “Yigit o‘z savganiga emas “noiloj” boshqasiga uylanadi. Umr yo‘ldoshi bilan keta turib bexosdan sevgilisini turtib ketadi (tasodifni qarang) keyin mashinadan tusha solib o‘z-o‘zini yumdalay ketadi. Yoki yigit goh unisi bilan, goh bunisi bilan hayotiy munosabatda namoyon bo‘laveradi”. Bu nima degani? Tomoshabinga bunday sayoz, saviyasi past, mantiqsiz qo‘shiq zamiriga yaralgan xuddi shunday kliplar nima bera oladi? Unutmaslik kerakki, yaxshi qo‘shiq insonni ezgulikka chorlovchi bebaho tarbiya vositasi, qo‘shiq ma’naviyat mehvari. Unga yuzaki, ma’suliyatsiz yondashish o‘zbek madaniyati va estrada san’atining saviyasi pasayib ketishiga olib keladi.

Unutmaslik kerakki, qo‘shiq faqat matn, ohang va ovozdan iborat emas. U xalqning ma’naviy boyligi, quvonchu armonlari hisoblangan. Har bir qo‘shiq yurakdan chiqqan, yurakdan kuylangan. Hofizlar ham eng izzatli, hurmatli kishilar, el ardog‘idagi san’atkorlar oz emas, albatta. Ammo ayrim san’atkorlar tomonidan aytilayotgan mazmunsiz poyintar-soyintar so‘zlar tizmasidan iborat, qo‘shiq deb aytishga arzimaydigan matn ijrochilarini eshitib tajublanasan kishi. Afsuski, bunday sayoz qo‘shiqlar katta-katta sahnalarga ham yo‘l topmoqda. Estrada janrida aytilayotgan shunday qo‘shiqlar to‘g‘risida ko‘p e’tirozlar bo‘layotganligiga qaramay ular ko‘paysa ko‘payyaptiki, lekin kamaymayapti.

Keyingi paytlarda estradaga endigina qadam qo‘ygan yoshlar tezroq yulduzga aylanish xomxayolida, o‘zlarini turli yo‘nalishlarga urmoqdalar. Hali o‘zbek estradasi ularni qabul qiladimi-yo‘qmi, hech kim bu haqda o‘ylayotgani yo‘q. Avvalo har bir estrada yulduzi bo‘laman degan san’atkor eng avvolo soz chalishni bilishi, maktab ko‘rgan va ustoz tarbiyasini olgan bo‘lishi kerak, bularsiz yulduz bo‘lish qiyin. E’tiborlisi shundaki bugungi yoshlarga barcha imkoniyatlar yaratilgan. Saroylar, maydonlar, sahnalar ularning xizmatida. Lekin bir narsa, ya’ni kasb mahorati ularda hali yetarli darajada deb bo‘lmaydi. Ular

elektron “yurak” va apparaturalar yordamida qo‘shiq aytishmoqchi bo‘lishyapti. Vaholanki, qo‘shiq yurakda-qalbda paydo bo‘ladi.

Bu borada O‘zbekiston bastakorlar uyushmasi raisi Rustam Abdullayevning bildirgan fikr-mulohazalari e’tiborlisi “Hozirgi yoshlar mehnat qilishni xoxlamaydi. Ularga qo‘shiq bir soniyada yaralsayu, tezroq shuhrat keltirsa. Lekin mashaqqatsiz bu amalga oshmaydi. Har qanday uch birlik-shoir, bastakor, xonanda mahsulidir”.[1] Afsuski, bugungi kunda xonandalarning o‘zlari she’r yozishni xatto musiqa bastalashni ham urf qilib olishdi. Yozganlari she’r yoki musiqa talablariga javob beradimi, yo‘qmi?-o‘ylab ham ko‘rishmaydi. Bu jarayon esa nafaqat estrada san’atiga, balki madaniyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatyapti. Shu o‘rinda Xitoy faylasufi Konfusiyning qo‘shiq haqidagi “Dunyodagi har qanday xalqning aytgan qo‘shig‘ini keltiring, men uni eshitib, u xalqni qanday idora etish mumkinligini aytib beraman”[2] degan so‘zlari yodga tushadi. Nahot “Shashmaqom”dek, Xorazm maqomlaridek asl san’atning poydevori bo‘lgan muqaddas zaminimizda hozirda yengil-yelpi qo‘shiqlar kundan-kunga bolalab ketyapti. Unutmaslik kerakki, haqiqiy qo‘shiq-inson yuragidan otilib chiquvchi sehrli navo. Bu dildan chiqmasa, dillarga yetib borolmaydi.

Bugun estrada qo‘shiqchiligidagi matn muammosida faqat shoirlarni ayblash noto‘g‘ridek nazarimizda. Masala san’atkorning didi, saviyasida. O‘ziga xos badiiy jihatdan yuksak she’riy qo‘shiq tanlay bilgan san’atkor doimo xalq olqishiga sazovor bo‘lgan. Bugungi estrada ijrochiligida so‘zni to‘g‘ri qo‘llash, talaffuz, mantiq masalalarida kamchiliklar ko‘zga tashlanadi.

Sahna bu-muqaddas joy. San’at yo‘liga kirib kelayotgan har bir xonanda buni avvaldan bilishi lozim. Zero, sahnada turgan, ushbu sahnani zabt etgan yulduzga qarab yosh xonanda taqlid qiladi, unga o‘xshashga intiladi.

Afsuski, yoshlar orasida yuzaki, chuchmal, past saviyali, mantiqsiz “qo‘shiq”lar aytib estradamiz nufuziga putur yetkazayotganlar ham yo‘q emas. Eng tashvishli tomoni shundaki, bunday “qo‘shiq”lar yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, ularda estradaga, umuman qo‘shiqchilikka nisbatan noto‘g‘ri fikrlarni uyg‘otmoqda.

Bugungi kunda yosh estrada xonandalari orasida inson ongini zabt etishning turli yo‘llari va usullari ko‘payib bormoqda. Yarim yalang‘och qo‘shiqchilarning jazavaga tushib qo‘shiq aytishlari ham ana shu ongni zaharlashga qaratilgan

[1] Sa’dullayev S. Qo‘shiq-xalq mulki. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2011-yil, 10 – dekabr soni.
[2] O‘sha manba.

qurollar bo‘lishi mumkin, eng yomoni-ular tarbiyasi bo‘sh, o‘zini va boshqalar sha’nini yaxshi anglamagan yoshlar orasida tez shakllanadi”.[1] Zotan, bugungi kun yoshlari ana shunday yarim yalang‘ochlarga ergashmoqda. Oddiy insonlar uyoqda tursin, ma’naviyat kishisi sanalgan san’atkorlardan ibo-hayo uzoqlashib boryapti, eng achinarlisi ham shunda.

San’atda milliylikdan uzilib hech narsaga erishib bo‘lmaydi. Chunki san’atkor ijodini tushunib qabul qiladiganlar uning o‘zi bilan bir jamiyatda yashab, bir tilda gaplashayotgan hamyurtlari, millatdoshlaridir. Nafaqat millatdoshlarning, balki o‘zga millat vakillarini ham hayajonga sola oladigan ohanglarni topsang, bu baxting. Qolaversa, o‘z millating uchun tushunarsiz bo‘lgan ijoding boshqa millatlar o‘rtasida qadr topadi, deb o‘ylashning o‘zi kulgili.

Xo‘sh san’atkor e’tibor berishi lozim bo‘lgan eng muhim jihatlar nima? “Sahna madaniyati. Ayni san’atkorlarimizda yetishmayotgan eng muhim jihat ham ana shu. San’atkor faqat ashulachi emas, u xalq dardi, g‘amini o‘zida his qila olishi kerak. Eng muhimi san’at tarbiya vositasi ekanligini unutmaslik kerak. Bugungi kunda konsert zallarida sahna madaniyatining asl qiyofasini uchratish qiyin bo‘lib qoldi. Muqaddas sahnada qo‘shiq kuylayotgan qo‘shiqchining kiyimidan tortib, hatti-harakatlarigacha yevropalashib borayotganligi kishini tashvishga soladi. Xo‘sh, bundan qanday tarbiyaviy ozuqa olish mumkin? Yarim-yalang‘och badan-u turli xil hayosiz qiliqlar bugungi kun yoshlariga nima beradi? Bu haqda jiddiyroq o‘ylab ko‘rish lozim. To‘g‘ri, bugun zamonaviy qo‘shiqchilikka kirib kelmagan musiqiy yo‘nalishlar qolmadi, hisob. Eng yomoni, ular yoshlarni eroncha, turkcha, hindcha va boshqa millatlarning musiqa elementlarini singdirishga xizmat qilyapti. Esdan chiqarmaslik kerakki, o‘zbek san’ati katta ummon. Bu san’at dunyodagi barcha mamlakatda ham topilavermaydi. Haqiqatdan ham o‘zbek san’atiga teng keladigan purma’no san’atni topish mushkul. Tarixiy qadriyatlar va an’analar zamirida vujudga kelgan o‘zbek san’ati hech qachon o‘zligini yo‘qotmaydi. Bugungi kunda ko‘pchilik yoshlar estrada san’atining “suvini loyqalatishga” harakat qilyapti. Suv bir aylanib tiniganidek zamon, davr, yilning o‘tishi bilan ushbu muammoga ham yechim topiladi.

Hozirgi qo‘shiqchilik san’atimizni yanada rivojlantirishda, uning jamiyat hayotidagi barkamol avlod tarbiyasidagi, kishilar ma’naviy boyligini oshirishdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish uchun mutassadi mutaxassislar yanada

[1] Nazira Qurbon. Qo‘shiqda g‘oya bor..., O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2005-yil 16-fevral soni.

faollashishlari zarur. Zero, qo‘shiq ko‘ngil mulki. Shunday ekan, u jamiyat e’tiboridan, mutassadilar nazoratidan xoli tarzda ko‘pchilikka eshitilaversa, xom-xatala, saviyasiz qo‘shiqlar yanada ko‘payib ketadi.

Bugungi kunda ustoz-shogird an’anasini davom ettirish, yoshlarga e’tiborni kuchaytirish-o‘ylaymanki yaxshi natijalar beradi. Ayniqsa yosh san’atkorlar ilk bor tomoshabinlar huzuriga ustozi hamrohligida chiqsa, muqaddas sahnaning sir-asrorlarini tezroq anglashda zamin hozirlanadi.

Dunyodagi har bir millatning o‘ziga xos urf-odatlari, tili bor. Xuddi shunga o‘xshash san’at ham millatning yuzidir. Har qanday xalq ana shu hech kimga o‘xshamas, ota-bobolardan meros qolgan o‘zining qadriyatlari bilan obro‘-e’tibor topadi. O‘zbekning o‘z qo‘shiqlari, o‘z estradasi bor. Ularni boshqa millatlar san’atidan ajratish oson. Chunki bu san’at o‘zbekniki, u asrlar davomida shakllanib taraqqiy topib kelmoqda. Shuning uchun ham bu qadimiy san’atimizni ko‘z qorachig‘idek asrashga, uni buzishga urinayotganlardan himoya qilishga harakat qilamiz. Achchiq bo‘lsa ham aytish keraki, ilgari o‘zbek estrada san’atida qattiq silkinishlar, yo‘qotishlar ro‘y berdi. Vaqt odil hakam. O‘zi-o‘ziga keragini qoldiradi. Nokeragi hayot sahnasidan tushib qolaveradi. Hayriyatki oxirgi paytlarda san’atimizda yaxshi tomonga biroz bo‘lsada o‘zgarishlar bo‘y ko‘rsata boshladi. Shungacha ko‘pchilik san’atkorlar “tadbirkor”ga aylanib qolgan edilar. Ular bozor nimani so‘rasa shuni yetkazib berishga otlanishdi. Natijada milliylik qolib ketib san’at rastalarini xorijiy tushunarsiz qo‘shiqlar bosib ketdi. Nazarimizda bu haqiqiy san’at emas.

Unutmaslik kerakki, haqiqiy san’at har qanday jamiyatda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan. Lekin hamma san’atkor ham bu ma’suliyatni anglayvermaydi. Eng asosiy muammo ham shunda. Agar u shu ma’suliyatni his qilsa, shundagina o‘ylab ish qiladi, muomulasi, yurishi, kiyinishini tartibga soladi.

Yana bir haqiqat bor. Bu milliyligimizni qog‘ozga tushmagan qonuniyatlaridandir. Shulardan biri bu ibo-hayo masalasi. Uyat o‘limdan qattiq biz uchun. Bu narsalar millatning qonida bor, ota-onalarimiz bizni shunday tarbiyalashgan. Uyati bor, g‘ururi bor kishi bachkana harakatlardan o‘zini tiyadi. Kimlargadir taqlid qilib yarim-yalang‘och sahnaga chiqish yoki o‘zimizga xos bo‘lmagan yurish-turishlar bilan odamlar hurmatini qozonib bo‘lmaydi. Yengil-yelpi, g‘oyasiz qo‘shiqlar bilan ham obro‘ topish mushkil. Bular tomoshabinlar yoki qo‘shiq tinglovchilari didiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. San’atkor insonlar qalbidagi milliy ruhni tarbiyalovchi qo‘shiqlar aytsagina, xizmatiga beqiyos savoblar yog‘iladi.

Dunyo qo‘shiqdan yaralgan. Tiriklik, hayot qo‘shiq bilan hamohang. Kalomda ohang, so‘zda sehr bor. Ana shundan inson qo‘shiqqa ilhaq bo‘ladi, qo‘shiqqa intilib yashaydi. Onalarning tong saharda kech oqshomda aytgan allalarida hayot falsafasi bor, uni eshitgan murg‘ak go‘dak hali atrofdagilarni tanimasdan, dunyoni hali to‘g‘ri anglamasdan turib onasi aytgan allaning ma’nosini uqqanday, onasining dardini tushunganday jimgina tinglaydi. Shundan inson quvonchi kunida ham qayg‘uli damlarida ham qo‘shiqqa suyanadi, undan barham topadi, qo‘shiq tinglab rohatlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Umarov M.U. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. T.: Yangi asr avlodi. 2009.
2. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 2000.
3. Ibrohimov.O. O‘zbek xalq musiqasi. 1 jild. – T.: Ibn Sino nashriyoti. 1994.
4. Qodirov M.X. O‘zbek xalq tomosha san’ati. – T.: O‘qituvchi. 1981.
5. Hamidova SH.T. Estrada janrlari. T.: O‘zDSI. 2009.
6. Bekov O., Mullajonov D. Milliy estrada san’ati. // O‘zbekiston san’ati (1991- 2001 yillar). – T.: Sharq nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2001.
7. Ibrohimov O. O‘zbek xal musiqasi. 1 jild. – T.: Ibn Sino nashriyoti. 1994.
8. Meliyev S. Musiqa va ma’naviyat. // “O‘zbeknavo”: ustozlar, yuduzlar, shogirdlar, T.: CHo‘lpon nashriyoti. 2000.
9. Jabborov A. Musiqiy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompazitorlarining ijodiyotida. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1999.

XALQ MUSIQA MADANIYATI SHAKLLANUVCHI, RIVOJ TOPUVCHI JONLI JARAYONDIR

Sevar Samatovna Malikova
O‘zDSMI “Vokal” kafedrasi professori,
pedagogika fanlari nomzodi, professor
samatovnasevara@gmail.com

Annotatsiya: O‘zbek milliy musiqa san’atining azaliy an’analari Sharq xalqlari madaniyatida shakllanib rivojlandi hamda butun bashariyatga ijodiy ta’sir etib, fanda o‘z ijobatini topdi, O‘zbek milliy musiqa madaniyati tarixini o‘rganishda musiqa ijrochiligi, xalq musiqa madaniyati shakllanib, rivoj topuvchi jonli jarayon ekanligi, o‘tmishning buyuk musiqashunoslaridan meros qolgan ilmiy yutuqlari ushbu maqolada tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: zakiy shoir, sozanda, musiqiyshunos, salaflar, nota yozuvi, dutor maqomlari, yetti turkum, kuy va so‘z, matnlar, olti yarim maqom, tanbur maqomlari, robob, vorisiylik rishtalari.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik muhit, tabiiy sharoitning qulayligi sabab, bu yerlarda insoniyatning ilk manzillari paydo bo‘ldi va ibtidoiy jamoa tuzumining shakillanishiga imkon berdi. Shu zaminning ajralmas qismi bo‘lgan O‘zbekiston hududida juda qadim zamonlardanoq odamzod istiqomat qilib kelgan. Arxeolog olimlar fikriga ko‘ra bu zaminda million yildan beri odam yashab kelmoqda.

O‘zbek xalqining musiqa merosi boy an’analarga va qadimiy tarixga egadir. Uning davrlar osha rivoji, xalq musiqasi va mumtoz musiqasi negizida rivoj topib kelganligi amaliyotdan ma’lumdir. Butun dunyoda va bizning zaminimizda ham musiqa san’ati insoniyatning ma’naviy boyligi, estetik dunyoqarashi va kelajak kamolotini belgilovchi mezonlardan biri sifatida ardoqlanib kelinadi. Unda har bir xalqning milliy an’analari, urf-odatlari, marosim va qadriyatlari munosib o‘rin olgan. Musiqa ijrochiligi, xalq musiqa madaniyatining shakllanib, rivoj topuvchi jonli jarayon ekanligi hammaga ma’lum. Uning namoyandalari bo‘lmish sozanda, xonanda va bastakorlar xalq madaniyatining o‘ziga xos mutasaddilari sifatida ardoqlanib kelingan. Bu borada o‘tmish risolalarda ham tarixiy muammolar zikr etib kelingan. Jumladan, Abu Nasr Farobiyning “Katta musiqa kitobi”, Zaynullobiddin Husayniyning “Qonuni ilmi, amali musiqi”, Abdurahmon Jomiyning “Risolai musiqiy”, Alisher

Navoiyning “Majolis un-nafois”, Darvesh Ali Changiyning “Musiqiy risola” lari bunga yorqin misoldir.

Musiqa madaniyati tarixi mavzusiga doir Sobiq Ittifoq davrida yaratilgan asarlar ko‘lami nihoyatda kengdir. Ular orasida o‘zbek xalq musiqasi tarixini o‘rganishda Bekjon Rahmon o‘g‘li va Muhammad Yusuf Devonzoda (Xarratov)ning 1925 yil Moskvada arab alifbosida nashr etilgan “Xorazm musiqiy tarixchasi” risolasi muhim ahamiyatga ega. Ushbu risolada Xorazm musiqachilari ijodi, Xiva xonligi hududiga Shashmaqomning kirib kelishi, Muhammad Rahimxon Feruzning musiqa san’atini rivojlantirish borasidagi harakatlari haqida qimmatli ma’lumotlar beriladi.

Qirq olti yildan ziyod (1864–1910) hukumat tepasida turgan shoir, bastakor va musiqiyshunos Muhammad Rahimxon Feruz (1846–1910) homiyligi va rahnamoligida Xorazm Olti yarim maqomi bir butun majmua sifatida xatga tushirildi. XX asrning 20-yillariga kelib noyob iste’dod sohibi, zakiy shoir, sozanda va musiqiyshunos, qo‘li gul san’atkor Muhammad Komil Devoniy (1887–1938) o‘z salaflari ishini davom ettirib, xuddi shu nota yozuvi vositasida Xorazm mumtoz musiqasining qadimiyroq qatlami bo‘lmish dutor maqomlarining yetti turkumini kuy va so‘z matnlari bilan Olti yarim maqom (Tanbur maqomlari)ga qo‘shib yozib oldi. Xorazm musiqashunoslarining juda katta tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan bu topig‘i o‘zbek musiqasi tarixining zarhal sahifalaridan biridir.

O‘z davrida tanbur chizg‘ilarining qaytadan kashf qilinishi zamonaviy o‘zbek maqomshunosligining yangi bosqichga ko‘tarilib borayotgani dalilidir. Keyingi yillarda maqomshunoslik borasida jiddiy izlanishlarga yo‘l ochildi. Zamonaviy ilmlarga tayangan yangi avlod vakillari maydonga chiqa boshladi. Shular qatorida navqiron maqom ustozi Rustam Boltayev va musiqashunos Botir Rahimovlarning nomlarini qayd etish mumkin. Ular Xorazm tanbur chizg‘ilari ustida uzoq yillar ilmiy va ijodiy izlanishlar olib borib, mazkur yozuvlardagi nota matnlarini zamonaviy takt tizimiga o‘girishga va ijrolarini tiklashga muyassar bo‘ldilar. O‘z vaqtida ulug‘ ustozlar qo‘li bilan bitilgan mo‘tabar nota yozuvlarining keng ilmiy muomalaga joriy etilishi umumbashariy miqyosga molik tadbirdir. Vaholanki, u bir vaqtlar deyarli uzilish arafasiga yetib qolgan jonli udumlarning vorisiylik rishtalarini tiklashdagi amaliy ahamiyati bilan bir qatorda, o‘tmishning buyuk musiqashunoslaridan meros qolgan ilmiy yutuqlarni zamonaviy fan taraqqiyoti xizmatiga jalb etish imkoniyatini ham tug‘diradi.

Musiqa san’atining azaliy an’analari Sharq xalqlari madaniyatida shakllanib rivoj topganligi hamda butun bashariyatga ijodiy ta’sir etganligi, fanda o‘z ijobatini topgan. Shuningdek, o‘zbek milliy musiqa madaniyati tarixini

o‘rganishda Abdurauf Fitratning ham hissasi salmoqli bo‘lib, muallifning mazkur masalaga bag‘ishlangan asar va maqolalarida o‘zbek mumtoz musiqasi, uning uslublari va ularning turk, arab, fors musiqalaridan farqi, “Sharq musiqasi” nazariyasi va uning asoslari to‘g‘risidagi tahliliy fikr-mulohazalari bayon etiladi. Musiqiy risolalar, odatda, nazariy yo‘nalishga qaratilgan bo‘lib, ularda umumiy qonun-qoidalar mavhum riyoziy tilda bayon etiladi. Ijodiyotning nozik sifatlari, xususan, el-elatlarning kuy va ashulalariga xos jihatlar, ko‘pincha nazariy qarashlardan tashqarida qoladi. Shuning uchun qo‘shimcha ma’lumotlar, garchan asosiy musiqiy risolalarga nisbatan ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lsa ham, o‘tmish tarixini o‘rganishda nazariy qonun-qoidalarni to‘ldirib, ma’lum davr musiqiy hayoti haqida kengroq va atroflicha taassurot paydo etish imkoniyatini beradi.

“Bizning cholg‘ularimizning eng kattasi tanburdir, deb yozadi Fitrat. Shashmaqom kuylari tanburdagina ijro etiladir. Tanbur tut yog‘ochdan yasaladir. Sopi kichginasida sakkiz detsimetr, kattasida to‘qqiz detsimetrdir. Kosasi kattasida 13/32 santimetr, kichginasida 10/29 santimetr bo‘ladir. Kosaning yuzini tut yog‘ochidan yupqag‘ina bir taxta bilan qoplaydirlar. Biroq bu taxtani pishib, tusi qaytqancha olovg‘a tutadirlar; qizarib tusi qaytqandan so‘ng, kosaga yopishtiradilar. Tanburning sariq simdan uch tori bo‘ladir. O‘rta torining ikki yon toridan ozgina yo‘g‘on bo‘lushi matlubdir” (12:26). E’tibor berilsa, Fitrat tanburning qanday yasalishi, uning o‘lchamlari, qismlari haqida aniq va mufassal fikr yuritgan. Eng muhimi, bu cholg‘u asbobining tayyorlanish jarayoni ham o‘ziga xos izchillikda, har bir detal va harakatlari bilan tushuntirib berilgan.

Fitrat rubob haqida to‘xtalarkan, avvalo, bu cholg‘u asbobining qadim tarixi, paydo bo‘lishi, u haqidagi asarlar bo‘yicha qimmatli ma’lumotlarni beradi. Jumladan, uning ta’kidlashicha, Hindistondan o‘zi olib kelgan “Sorang” nomli cholg‘u asbobi rubobga yaqin ekan. Olim shu asosda o‘rgangan manba Darvesh Aliyning “Risola” asaridagi ma’lumotlarga asoslanib, uning Balxda yasalgani, Muhammad Xorazmshoh zamonida rivoj topganini ilmiy asoslaydi. Olim bu cholg‘uning gavdasi to‘rt qismdan iboratligi, har bir qismning tuzilishi, o‘lchovlarini aniq ko‘rsatadi va yozadi: “... ichakdan yasalgan besh tori borkim, “skripka” torlariga o‘xshab, yo‘g‘onlikda farqlidir. Bundan boshqa o‘n ikkita “tor osti” torlari bor. Bular tanbur simidandir. Cholg‘uvchi rubob chalganda, bularni chertmaydir. Bularning xizmati asl torlarga chertish ta’siri bilan titrab, asl tor tovushiga o‘zlarining mungli, titrak tovushlarini qo‘shmakdir” (12:28). Bu qomusiy ijodkor va olimning rubob cholg‘usi haqidagi bugungi musiqashunoslik uchun ahamiyatli fikrlaridir. U nihoyatda zukko va musiqani qalban kuchli his qiluvchi mutahassis sifatida rubobning xususiyatlarini g‘oyat teran ochib bergan.

Xususan, undan chiqadigan kuylarning asosiy torlar va “tor osti” torlarning vazifasining aniq ochib berilishi istagan shu soha mutahassisini hayratga solishi tabiiy.

Shu asosda Fitrat qo‘biz, karnay, surnay, nog‘ora, doira, chang kabi o‘nlab cholg‘u asboblarining tuzilishi, shakli, ohang chiqarish usullari, o‘lchovlari va vazifalari haqida mufassal fikr yuritgan. Keiyngi izlanishlarimizda bular haqidagi mulohazalarimizni davom ettiramiz, albatta.

Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining holis va haqqoniy tarixini tiklashi milliy o‘zlikni anglashi, milliy iftixorni tiklash milliy g‘oya va milliy mafkurani shakllantirish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov o‘zlarining “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” degan risolasida ta’kidlaganlaridek, xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi ma’naviy uyg‘onishning yana bir bitmas-tuganmas manbaidir. Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g‘oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo‘lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag‘rikenglik hayot bo‘ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me’yorlarga aylandi. Xatto, bu hududlarni bosib olganlar ham Markaziy Osiyo halqlarinng madaniyati oldida bosh egibgina qolmay, uning eng qimmatbaho an’analarini, shu hududda mavjud bo‘lgan davlatchilik an’analarini avaylab qabul qilganlar.

Xulosa qilib aytganda musiqada uslub tom ma’noda turli-tuman, bir hisobda ayricha tushunchalar doirasini vujudga keltirsa-da, bunda deyarli barcha tarkibiy vositiarning uzviy bog‘liqligini, tizimiyligini nazarda tutish darkor. Xuddi shu boisdan o‘zbek mumtoz musiqa san’ati, ijodiyoti bilan tanishish, uni o‘rganish hamda amaliy o‘zlashtirish borasida uslubning o‘rni va ahamiyati benihoya katta.

Yuqorida ta’kidlanganidek, o‘zbek halq musiqasining tarixiy rivojlaiishida mazkur mahalliy uslublarning kelib chiqishi juda ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lgan. Shu jumladan, millatimiz shakllanishining tarixan uzun jarayoni serurug‘ va ko‘p turkiy tili qadimiy davlatning o‘zaro birikib kettanligi, xalq hayotining uzoq-yaqin o‘tmishida ro‘y bergan tarixshumul ahamiyatga molik katta ijtimoiy-siyosiy voqeliklar (masalan, hozirgi O‘zbekiston davlatchilik nuqtai nazardan qadimgi zamon va O‘rta asrlarda bir qator katta-kichik podsholiklar, saltanatlar, xonlik va amirliklarga kirgani yoki ichidan bo‘linib ketgani), yerli aholining turmush tarzi, qishloq va shahar madaniyatining o‘zaro o‘zgarib turgan muvozanatlari bog‘bonchilik, chorvachilik, kasb-xunarmandchilikning o‘rni, iqtisodiy ichki va tashqi savdo-sotiq ishlarning rivojlanish darajasi, boshqa millat va elatlar bilan

o‘rnatilgan iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy aloqalari, qo‘ni-qo‘shnichilikning o‘zaro tarixi ahamiyatlidir.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligida musiqa san’atida jiddiy o‘zgarishlar va yangilanishlar yuz berdi. Yevropalik musiqa bilimdonlari Buxoro amirligi va Xiva xonligida mumtoz musiqa va xalq og‘zaki namunalarini o‘rganish va ularni notalashtirish, xalq musiqa cholg‘ularini to‘plashga e’tibor qaratdi. Turkiston shaharlarida musiqiy jamiyatlar tuzilib, havaskorlar jalb etildi. Rus musiqa bilimdonlari tomonidan o‘zbek xalq qo‘shiqlarini o‘rganilishi, ularning notalashtirilishi, xorij matbuotida nashr ettirilishi kabi holatlar o‘z davrida musiqa san’atining rivojiga munosib hissa qo‘shdi. Ayni paytda, Buxoro va Xorazm hududida hamda Farg‘ona vodiysida o‘zbek musiqa san’ati an’analarini saqlab qolish uchun zaruriy chora-tadbirlarning olib borilishi o‘zbek mumtoz musiqasi an’analarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Абсалямова, Н. Культуре тюрков жить в веках [Текст] / Н. Абсалямова, Э. Джилкибаев // Казахстанская правда. - 2002. - № 020 (23669).- 31 янв. - b. 12.

2.Абдурашидов, А.А. Танбур и его функция в изучении ладовой системы Шашмакома [Текст]: автореф. дис. ... канд. иск.:17.00.02 / Абдурашидов Абдували Абдулмажидович; Институт искусствознания им. Хамзы. - Ташкент, 1991. – 26 b.

3.Abdullayeva O. Ansambl cholg‘ularini o‘rganish. – Toshkent.: 2006

4. Begmatov Soibjon “Hofizlik san’ati” o’quv uslubiy qo’llanma -“Musiqa” nashriyoti – Toshkent.: 2007.

5.Jo‘rabek Yarashev Jadid va ma’rifatparvarlarning san’at va musiqaga munisabati haqida. Passport: http://sjifactor.com/passport.php?id=22230.

6.O.Ibrohimovhttps://qomus.info/encyclopedia/cat-f/fargona-toshkent-musiqa-uslubi-uz/

7.Karimov I.Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik.–Toshkent: O‘zbekiston. 1993.

8. Кыргыс, З. Тувинское горловое пение: этномузыковедческое исследование [Текст] / З. К. Кыргыс. - Новосибирск: Наука, 2002. - 236 Кремлёв Ю.А. Интонация и музыкальный образ. - Москва.: Искусство, 2000. -178 с.

9. Malikova S. O‘zbek mumtoz musiqa madaniyati rivojlanish tendentsiyalari: kecha, bugun, istiqboli Monografiya hmand ziyosi nashriyoti 2024. 140 b.

10.Xayrullayev M.M.Uyg‘onish davri va Sharq mutafakkirlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1971.
11.Фахриддин ар-Рази. Собрание наук (Джаме ул-улум ва мазмоъ ул-фунун). / Пер. с перс. А.А.Семёнова / Под редактsией А.А.Семёнова. – Москва.: Изд-во восточной литературы, 1995. – 184 с.
12.Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. www.Ziyouz.com
13.O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati. Xalqaro konferensiya materiallari. 2014-yil, 15-16-may, Samarqand. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014.
14.R.Yunusov. O’zbek xalq musiqa ijodi. Toshkent.: 1992. 4-6 b.

«ВОЛШЕБНЫЙ» НАЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШУКРУЛЛО АХМЕДЖАНОВА (к 85-летию со дня рождения)

Седых Татьяна Томовна доктор философии по искусствоведению (PhD), доцент кафедры «Инструментального исполнительства» Государственного института искусств и культуры Узбекистана

Аннотация: В статье рассматривается творческая и педагогическая деятельность одного из музыкантов, специалистов старшего поколения, Заслуженного артиста Узбекистана, доцента Шукрулло Ахмеджанова.

Ключевые слова: музыка, искусство, Устоз-шогирд, музыкант-исполнитель, ансамбль, музыкальные инструменты, най, репертуар.

XXI в., его первая четверть, осуществила инновационные открытия во всех сферах деятельности человека. Активно развиваются все виды и жанры музыкального искусства, композиторское творчество, концертная, научно-исследовательская деятельность. «Действительно, воспитание молодёжи в духе национальных и общечеловеческих ценностей остается для нас вопросом, никогда не теряющим свою актуальность и значимость» [1.106].

Одним из важных направлений музыкального искусства, влияющих на духовное развитие и воспитание молодого поколения, является инструментальная музыка. В жизни каждого народа создаются музыкальные инструменты, раскрывающие звучание народного,

национального мелоса, его тембровую красочность. По классификации музыкальные инструменты распределены на ударные, струнные, духовые. В частности, духовые разделяются на деревянно-духовые (флейтовые), медно-духовые (тростовые, мундштучные) и язычковые.

Важно отметить, что из глубины веков, претерпевая климатические изменения и другие сложности многовекового развития, в наш современный мир народные музыкальные инструменты привнесли уникальность музыкального инструментария. «Национальные особенности каждого народа отражаются в культуре. Узбекистан – многонациональная страна с древнейшей культурой» [2.19]. Ценность представляют следующие факты: «…основоположник музыкальной науки в Средней Азии и отдельных странах зарубежного Востока Абу Наср Фараби (870-950) играл на флейтовом инструменте – нае» [3.3]. Звучание этого волшебного инструмента описано в произведениях Алишера Навои.

Музыкальный духовой инструмент най, звучащий по всем странам Востока, имеет свои разновидности. Созданный из камыша называется камиш най, из дерева – най деревянный, также он изготавливается из бамбука, латуни и металла. На нае имеется одно отверстие для вдувания воздуха с определенной силой. С помощью шести пальцев, определенные другие шесть отверстий закрываются, от этого зависит высота и точность интонирования звука. Во время исполнения мелодической фразы, можно применять различные виды трелей и других музыкальных украшений. Протяжные мелодии даже на одном звуке обогащены богатой сменой нюансов. Пассажи на нае напоминают порывы ветра и другие яркие образы. Звук может быть тихим и громким в зависимости от силы дыхания исполнителя.

Теперь становится понятно, почему най, звуки которого доносились из ежедневно звучащего в доме радиоприёмника, привлек внимание маленького Шукрулло. Многие годы учёбы посвятил он изучению и навыкам игры на уникальном инструменте, став одним из ярких музыкантов своего поколения. Заслуженный артист Узбекистана (2003), Шукрулло Ахмеджанович Ахмеджанов родился 28 апреля 1940 года в Ташкенте в многодетной семье. Отец – Дадажанов Ахмаджон, работавший в средней общеобразовательной школе, стремился детям дать образование, вырастить честных и достойных людей. Мама – Хабиба-опа занималась воспитанием трех сыновей (Мансура, Абдуллы, Шукрулло) и двух дочерей (Насибы и Раъно). Хабиба-опа любила петь детям колыбельные и другие песни,

прекрасно справлялась с домашним хозяйством. Именно пение мамы, её голосовое дыхание, помогли Шукрулло в освоении дыхания при исполнении на нае.

Недалеко от дома, где проживал Шукрулло с родителями, находился Дом Культуры имени Ахуна Бабаева, информируя красочными афишами о концертах и других мероприятиях. Будучи школьником, однажды спросив разрешение и получив одобрение отца, он осмелился зайти в Дом Культуры на концерт, потом на репетицию ансамбля народных узбекских инструментов, которым руководил Гаффар Ибрагимов. Первоначально ему предложили учиться на рубабе, который он послушно изучал. Но тембр «волшебного» ная оказал большое влияние и Шукрулло усердно стал изучать полюбившийся инструмент.

Окончив среднюю общеобразовательную школу в 1958 году, Ш.Ахмеджанов поступил в Ташкентское государственное музыкальное училище имени Хамзы Хаким заде Ниязи, на отдел народных инструментов. Начались годы серьезной учебы, изучение разных музыкальных дисциплин, таких как сольфеджио, гармония, история музыкальной литературы. Большой удачей были годы учебы в классе прославленного наиста, Заслуженного артиста Узбекистана, профессора Мирзы Хакимовича Таирова, который «открыл дорогу» молодому музыканту в мир «высокого» музыкального искусства. Науфаль Хамиджанович Адигамов оказал большое воздействие на становление дисциплинированной личности.

По предмету «Дирижирование» Шукрулло был распределен в класс Заслуженного работника культуры Узбекистана, руководителя студенческого оркестра народных инструментов «Дружба» Тома Александровича Хомякова. С увлечением изучая основы дирижерской техники, работы с оркестром, творческие отношения Устоз-шогирд (Учитель - ученик) переросли в многолетнюю крепкую дружбу. Будучи студентом четвёртого курса Ш. Ахмеджанов, начинает работать в должности музыканта оркестра в музыкально-драматическом театре имени Мукими.

С отличием окончив музучилище имени Хамзы, Шукрулло в 1962 году поступил в Ташкентскую государственную консерваторию имени Мухтара Ашрафи. Продолжал учебу по наю у М.Х.Таирова. По дирижированию Шукрулло был распределен в класс Заслуженного артиста Узбекистана и Каракалпакстана, профессора Мардона Насимова. Талантливый

Ш.Ахмеджанов посещает занятия Ашота Ивановича Петросянца и других маститых педагогов. В студенческие годы, он был призван в армию, где прослужил три года. Демобилизовавшись, он продолжает учиться в консерватории и работать в оркестре музыкально-драматического театра имени Мукими. Репертуар театра обогатил мастерство исполнения, повышая и раскрывая его профессиональные качества. По окончании консерватории он получил Диплом, присвоена квалификация – солист-инструменталист, музыкант, дирижёр оркестра. В беседе с автором этих строк, Ш.Ахмеджанов высказал слова глубокой благодарности в адрес педагогов, научивших его этому сложному виду искусства. «Я благодарен судьбе, что мне довелось учиться у педагогов, которые дали не только знания по предметам, но и стали моими большими друзьями по жизни».

Скромный, ответственный Шукрулло своим талантом привлек внимание маститых музыкантов. Так, в 1974 году Ш.Ахмеджанов был приглашен профессором Каримом Турсунмурадовичем Азимовым на педагогическую работу в Ташкентский государственный институт культуры имени А.Кадыри.

Молодой педагог кафедры «народных инструментов» сразу снискал уважение профессорско-преподавательского состава и студенческой молодежи. Согласно требованиям вуза, он ежегодно проводил классные концерты, писал методические статьи, участвовал с докладами на научных конференциях, участвовал в праздничных концертных программах. Став старшим преподавателем, в совершенстве владея полюбившимся инструментом, обладая большим опытом исполнительской деятельности, Шукрулло Ахмеджанов щедро раскрывает секреты исполнения на инструменте, передавая свои глубокие знания студенческой молодежи.

Многочисленные ученики очного и заочного отделений обучения, проживают и работают по всему Узбекистану, в самых отдаленных районах, продолжают школу Ш.Ахмеджанова и традиции своего Устоза. Среди учеников следует назвать Гаффурова Мирмухсина Камолиддиновича, ректора филиала Ферганского Государственного института искусств и культуры Узбекистана, а также Обидова Саидазима, Султанова Баходира, Мамарасулова Исмоила.

Но в 1988 году судьба резко изменилась. Наряду с педагогической деятельностью, его манило исполнительское творчество. Ш.Ахмеджанов был приглашен музыкантом в оркестр узбекских народных инструментов

имени Тохтасина Джалилова, под руководством Народного деятеля искусств Узбекистана, профессора Фарруха Садикова, от которого перенял много глубоких и профессиональных знаний. Ф.Садиков, как руководитель, своим трудом способствовал развитию узбекского музыкального искусства не только в Узбекистане, но и на международном уровне.

Насыщенная концертная деятельность в оркестре, в еще большей степени раскрыла мастерство, талант Артиста – Шукрулло Ахмедожанова. В репертуаре оркестра звучали произведения композиторов Узбекистана, русская и зарубежная классическая музыка.

Следует отметить, что с 2010 по 2015 годы Ш. Ахмеджонов по совместительству работал в Государственной консерватории Узбекистана. Он обучал студенческую молодёжь искусству игры на «волшебном» нае, под руководством заведующего кафедрой «народных инструментов» профессора Анвара Лутфуллаева.

Отрадно, что и сегодня мы имеем возможность с упоением слушать архивные записи 1988-х – 2015-х годов оркестра узбекских народных инструментов имени Т. Джалилова, с звучанием «волшебного» ная в исполнении Заслуженного артиста Узбекистана Шукрулло Ахмеджанова, педагогическая и творческая деятельность которого является примером для профессорско-преподавательского состава, творческой молодежи и большой слушательской аудитории нашего Нового Узбекистана.

ЛИТЕРАТУРА

1. Мирзиёев Ш. Обеспечение верховенства закона и интересов человека – гарантия развития страныи благополучия народа// Уверенно продолжим путь национального развития на новом этапе. Том 1. – Ташкент: ИПТД «Узбекистан», 2018. – 368.

2. Сайфуллаев Б. Система музыкального образования в Узбекистане// Musiqa. №1.март. www.konservatoriya.uz. 2018. – 100с.

3. Кароматов Ф. Узбекская инструментальная музыка. Издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма. – Т.: 1972. – С.

4. Абдурахимова Ф. Роль культуры национального инструментаризма в развитии музыкальной исполнительской среды Узбекистана // Согдиана: измерения мастерства. Toshkent. NISHON-NOSHIR. 2013. – С. 25.

5. Седых Т. Музыкант. Педагог // Учитель Узбекистана № 2022 г. – С.3.

O‘ZBEK MILLIY MUSIQA IJROCHILIGIDA DUTOR CHOLG‘USINING O‘RNI

Asqarova Mohinabonu Qo‘ldosh qizi
O‘zDSMI Xalq ijodiyoti (cholg‘u ijrochiligi)
mutaxassisligi 1-kurs magistranti
Toshmatov O'rozali G'afurovich
"Cholg'u ijrochiligi" kafedrasi professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy cholg‘ularimizdan biri dutorning ijro uslubini o‘rgatish hamda an’anaviy maqom san’atini rivojlantirish, ularni kelajak avlodga yetkazish, shuningdek, dutor cholg‘usida o‘quvchilarning ijro mahoratini oshirish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa, maqom, an’ana, dutor, nota, zarblar, bezak.

Mumtoz musiqamiz amaliyoti va ravnaqiga nazar solar ekanmiz, biz buyuk madaniyat sohiblari avlodi ekanligimizni koramiz. Biz yosh avlod vakillari otmishda yaratilgan merosni oqib, ardoqlab, ijro etib, idrok qilib ozlashtirsak, zamonaga munosib san'atkor bolib yetishishimiz mumkin.

O’zbek milliy cholg’ulari ijrochiligi san’ati o’z taraqqiyotini ko’p asrlik an’analar merosi asosida rivojlantirib kelmoqda.Bunga moddiy madaniyatimiz yodgorliklari,tasviriy san’at asarlari,jumladan devoriy rasmlar ,adabiyotlarni bezab turgan miniatyuralar,Shashmaqom va nomoddiy boyliklarimiz asos bo’lib xizmat qiladi.Oldimizdagi asosiy vazifalardan biri bu nomoddiy, ma’naviy boyliklarni saqlab qolish va kelajakda ularga tayangan holda rivojlanishlar va yangiliklarga asos solishdir. O’zbek xalqi buyuk tarixi ,juda boy madaniyat va ma’rifat egasi bo’lishi bilan bir qatorda milliy musiqiy merosga ega xalqdir.

Maqomlarimiz asrlar osha yashab kelayotgan ekan, ularni kelajak avlodlarga qoldirish, umrboqiy qilish uchun katta mehnat va fidokorlik talab qilinadi.

O‘zbek an'anaviy ijrochiligidagi yana bir muhim omil bu – uning tabiiyligini ifoda eta bilish va musiqiy asarni milliy bezaklar bilan ijro etishidadir. Mustaqillik yillari davomida milliy mumtoz san’atimizga bo`lgan ahamiyat yanada kuchaydi.

Musiqa san’atida cholg’u ijrochiligi azal-azaldan o’zining serqirraligi bilan ajralib turadi.Cholg’ular rang-barangligining asosiy sabablaridan biri ijrochilikning ushbu turiga xalq orasida keng qiziqish bo’lsa kerak. Har bir xalq

madaniy amaliyotida o’z yurtining milliy an’analaridan kelib chiqib,ruhiyatiga mos holda yuzaga kelgan cholg’ulari mavjud.Ular qaysidur ma’noda xalqning ma’naviy jihatlarini ham o’zida aks ettiradi. Shu bois,musiqiy cholg’ular har bir xalqning milliy g’ururi sifatida ta’kidlab o’tiladi.Milliy cholg’ular ijrochiligimizda dutor juda xalqchil bo’lganligi sababli uning sadolanishi,nola qochirimlari,rang-barang milliy bezaklarga boyligi,ijro jihatdan biroz murakkab bo’lishiga qaramay xalqimiz orasida sevimli sozlar qatoridan joy olgan.Dutor nafaqat o’zbek xalqi orasida, balki, markaziy osiyo xalqlari,tojik,uyg,ur va qardosh xalqlarda ham keng tarqalgan cholg’u xisoblanadi. Dutor O‘zbek milliy madaniyatining asl ko‘zgusidirki, uning dardli ohanglari tarix silsilasida ortda qolgan necha-necha asrlardan omon qolgan ma’naviyatimiz va qadriyatimiz haqida kuylayotganday bo‘ladi go‘yo. Ayniqsa, xotin-qizlarning o‘tmishdan momolardan, onaxonlardan bir an’ana sifatida me’ros bo‘lib o‘tib kelayotgan hunar sifatida qadrlanadi.Har bir cholg`uning rivojlanishida mohir ijrochining ehtiyojidan kelib chiqqan holda asarlar bastalanar ekan,sozandalar orasida raqobat bo’lar ekanki, ijrochilik evolyutsiyasi to’xtamaydi.Bu borada Yunus Rajabiy,Turg’un Alimatov,Abdulaziz Xodjayev, Hamdam Murodov,Abdumutal Abdullayev,Toir Qo’ziyev va shular kabi qator ajoyib mohir sozandalarni eslab o’tishimiz joiz.

Dutor so‘zi forscha “Ikki tor” ma’nosini anglatadi. Dutor torli chertma cholg‘u bo‘lib, o‘zbek, tojik, uyg‘ur, turkman, qoraqalpoq xalqlarida keng tarqalgan. Biroq, o‘zbek dutori nafis va muloyimligi bilan bosqalaridan farqlanib turadi. Dutor cholg‘usining kosa qismi tut, dasta qismi o‘rik yog‘ochidan yasaladi. Dutorning uzunligi o‘rtacha 1 metr atrofida bo‘lib, uning turiga qarab qisqa yoki uzunroq bo‘ladi. Bu sozning kosa qismi boshqa sozlarga nisbatan kattaroq, dastasi esa, ingichka va uzun bo‘ladi. Torlari ikkita, ip yoki kanobdan tortiladi. Ushbu torlar kvarta, kvinta, ba’zan unisonga sozlanadi. Dastasidagi bog‘lamlari dutorning pardalarini ajratib turadi.

Dutor o‘ng qo‘l bilan torlarini chertish, chap qo‘l barmoqlari bilan pardalarini bosish yordamida chalinadi. Dutor ijrochiligida yakkanavoz va jo‘rnavozlik sozandadan o‘ziga xos ijro mahoratini talab qiladi. Dutor zarblari yakka zarb, qo‘shzarb, bilak zarb, teskari zarb, bidratma kabilardan iborat.

Yakka zarb – oddiy zarblardan biri bo‘lib, ijrochi dutorni ilk o‘rganish jarayonida o‘zlashtiradi. Bunda o‘ng qo‘l barmoqlari (bosh barmoqdan tashqari) harakati pastga va tepaga yo‘naltiriladi.

Terma zarb (tanovor zarb) – bu zarb eng ko‘p tarqalgan bo‘lib, asosan bosh va ko‘rsatkich barmoqlar yordamida chertiladi. Bunda, qol pastga harakat

qilganda avval ko‘rsatkich, keyin bosh barmoq, qo‘l yuqoriga harakat qilganda esa aksincha bo‘ladi.

An’anaviy dutor ijrochiligida zarblardan tashqari tovushlarni sadolantirish maqsadida turli bezak va jilolar, ya’ni, qochirimlar ham mavjud. Ular sozandalar tilida qochirim, nolish, miyang, kashish, to‘lqinlatish kabi nomlar bilan ataladi. Har bir bezak kuy uchun o‘ziga mos jozibani hadya etadi va qaysi ijrochilik maktabiga xos ekanligidan darak beradi.

Bugungi kunda dutor ijrochiligi mutahxassislik darajasiga erishgan bo‘lib, uning ilk saboqlari Bolalar musiqa va san’at maktablarida, so‘ngra, Iqtisoslashgan san’at maktablarida, pofessional darajada esa O‘zbekiston davlat konservatoriyasida va Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati insitutida o‘rgatiladi. Bundan tashqari Respublikamizning shahar va tumanlardagi madaniyat markazlarida, “Barkamol avlod” bolalar maktablarida havaskorlik asosida “Dutor ijrochiligi” to‘garaklari faoliyat olib bormoqda. Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning 02.02.2022-yilda qabul qilingan “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida” PQ-112-sonli qarorida quyidagilar bayon etiladi: “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida: o‘quvchilarga mazkur qarorga 1-ilovadagi ro‘yxatda keltirilgan milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko‘nikmalari o‘rgatiladi hamda bu haqida ularning ta’lim to‘g‘risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritiladi”.

Darhaqiqat,o’zbek xalqi ma’naviyatining boyligi beqiyos.Shuning bilan birga u turli xildagi mukammal milliy cholg’ularga ega. Har bir cholg’uning o’z dunyosi, falsafa va tarixi bor. Ularning tarixi-xalq tarixidir. Shu bois til ojiz qolgan paytda cholg’ular tilga kirar ekan,tarixning mislsiz sozlar nola qilar ekan.Shuning uchun bo’lsa kerak, uzoq o’tmishdan cholg’ular xalq tomonidan ardoqlanib kelinadi.

O‘sib kelayotgan yosh avlodning ta’lim-tarbiyasini milliy an’analarimizga monand holda shakllantirishda ularga musiqiy cholg‘ularni o‘rgatish g‘oyat muhimdir. Zero, musiqa asboblarining sehrli ovozi bolaning ruhiyatiga chuqur kirib borib, uning ongida shakllanayotgan barcha hislarni ezgulik hislariga aylantiradi. Shunday ekan yosh avlodni tarbiyalashdek mas’ulyatli ishda madaniy qadriyatlarimizni o‘rgatuvchi sohalarga ko‘proq murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Biroq, ayrim yoshlarimiz bilim olish, hunar o‘rganish bilan bir vaqtda ijtimoiy tarmoqlardagi turli zararli illatlarga yetaklovchi axborotlarni ham o‘zlashtirmoqdalar, vaqtini behuda band qiluvchi o‘yinlarga tobe bolib qolmoqdalar. Natijada ta’lim va tarbiyaning izchil rivojlanishiga to‘siq bo‘lmoqda. Yoshlar orasida ota-onasiga, o‘z yaqinlariga nisbatan hurmatsizlik,

jamiyatga nisbatan loqaydlik, milliy an’analarimizni mensimaslik, har ishda o‘z mafaatdorligini ustuvorligi kabi insoniylikka yot bo‘lgan xislatlar shakllanib qolmoqda. Zero, inson xulq-atvori bilan go‘zaldir. Agarki kishi o‘ta bilimli va salohiyatli bo‘lib, unda tarbiyasizlikning kichik bir ko‘rinishi namoyon bo‘lsa, uning ziyoliligi befoydadir. Musiqa inson tarbiyasini yuksaltiruvchi omillardan biridirki, ayniqsa, milliy cholg‘ularni o‘rganish insonga ezgu fazilatlarni, Benazir xulq-atvorni tuxfa etadi.

Yosh avlodga dutor va shu kabi milliy cholg‘ularni o‘rgatishning mazmun-mohiyati quyidagichadir: Yoshlarning irodasini mustahkamlaydi, ma’naviyatini yuksaltiradi, estetikasini shakllantiradi, umuminsoniylik, vatanparvarlik hissini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Ijrochilik salohiyatiga, ko‘nikmalariga ega bo‘lgan inson qaysi soha vakili bo‘lsa ham, unda madaniyatli shaxsga xos hislatlar namaoyon bo‘lib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017.

2. Begmatov S. Mumtoz xonandalik san’ati mezonlari.. Guliston, 1995.

3.U.Yunusov Xalq cholg’ularida ijrochilik Toshkent 2024

4. O.Matyaqubov Og`zaki an’anadagi professional musiqaga kirish T.1983.

5.Z.Turapov Xalq cholg’ularida ijrochilik “O’zbekiston” 2024

KO‘P OVOZLI IJRO TARKIBINI RIVOJLANTIRISH VA OPTIMMALLASHTIRISH

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Cholg‘u ijrochilik” fakulteti “Orkestr dirijyorligi” yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
Mamirjonova Feruzabonu Abdullajon qizi
Ilmiy rahbar: O‘zRes san’at arbobi, professor
F. R. Abdurahimova

Annotatsiya: O‘zbek milliy cholg‘ularida ko‘p ovozli ijrochilikni rivojlantirish va orkestr va ansambl jamoalar tarkibini optimallashtirish, musiqiy asarlarning sifatini yaxshilash va ijro jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada O‘zbek milliy cholg‘ularida ko‘p ovozli ijro jamoalar tarkibini optimallashtirishning ilmiy asoslari, metodikasi va amaliy yondoshuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, "Navro‘z Sadolari" xalqaro festivalining va "Sog‘diyona" milliy cholg‘ular kamer orkestrining ijro jarayonlaridagi ishlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Xalq cholg‘ulari, ko‘p ovozli ijrochilik, orkestr tarkibi, ansambl, optimallashtirish, repertuar, “Sog‘diyona” orkestri, “Navro‘z sadolari” xalqaro festival, pedagogika, jo‘rnavozlik, yakkanavozlik, kompozitor.

Аннотация: Развитие многоголосного исполнения в узбекской национальной музыке и оптимизация состава оркестров и ансамблей имеет важное значение для повышения качества музыкальных произведений и эффективности исполнительского процесса. В данной статье анализируются научные основы, методика и практические подходы к оптимизации состава многоголосных музыкальных коллективов в узбекской национальной музыке. Также рассматривается вклад международного фестиваля "Навруз Садолари" и работы камерного оркестра "Согдиона" в исполнение музыкальных произведений.

Ключевые слова: Народные инструменты, многоголосое исполнение, состав оркестра, ансамбль, оптимизация, репертуар, оркестр "Согдиона", международный фестиваль "Навруз Садолари", педагогика, многоголосие, солирование, композитор.

Annotation: The development of polyphonic performance in Uzbek national music and the optimization of the composition of orchestras and ensembles is crucial for improving the quality of musical works and enhancing the effectiveness of performance processes. This article analyzes the scientific foundations, methodology, and practical approaches to optimizing the composition of polyphonic musical ensembles in Uzbek national music. Additionally, the role of the "Navroʻz Sadolari" international festival and the "Sogdiana" national folk instrument chamber orchestra in the performance of musical works is discussed.

Keywords: Folk instruments, polyphonic performance, orchestra composition, ensemble, optimization, repertoire, "Sogdiana" orchestra, "Navroʻz Sadolari" international festival, pedagogy, harmony, solo performance, composer.

Oʻzbek milliy cholgʻulari nafaqat oʻziga xos musiqiy anʼanalari, balki oʻziga xos ijro texnikalari va vositalariga ham boydir. Oʻzbek xalq musiqasi asosan monofonik xarakterga ega boʻlsa-da, koʻp ovozli ijrochilikning rivojlanishi, ayniqsa, orkestr va ansambl shakllarida oʻziga xos muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda milliy orkestrlar tarkibining optimallashtirilishi, ularning samarali ishlashini taʼminlash, ijro jarayonlarida ovozlarning uygʻunligi va dinamikasini yaxshilash zarurati yuzaga kelgan. Ushbu maqolada Oʻzbek milliy cholgʻularida koʻp ovozli ijrochilik jamoalar tarkibini optimallashtirishning ilmiy asoslari, metodikasi va amaliy yondoshuvlari tahlil qilinadi.

Oʻzbek musiqasida koʻp ovozli ijro eng asosan orkestrlar, ansambllar va kamer orkestrlari orqali amalga oshiriladi. Har bir musiqiy asar, qoʻshiq yoki musiqiy dastur ijrosi koʻp jihatdan jamoaning tarkibiga bogʻliq boʻlib, bu tarkib oʻzaro uygʻunlik va musiqaning dinamik rivojlanishini taʼminlaydi. Oʻzbek milliy cholgʻulari orkestrlarida koʻp ovozli ijrochilik tizimi asosan qoʻshiq va instrumental ijroning anʼanalari, shuningdek, maʼlum musiqiy janrlar va uslublarning taʼsiri ostida rivojlanmoqda.

Oʻzbek xalq cholgʻularida jamoaviy orkestr ijrochiligi bu boradagi asosiy yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Koʻp ovozli xalq cholgʻulari orkestri qadimiy hamda zamonaviy umuminsoniy anʼanalar negizida paydo boʻlgan, Oʻzbekiston madaniyati jamoa ijrochiligining yangi shaklidir. Yangilik, anʼanaviy cholgʻular konstruktsiyasini oʻzgarishi; yozma anʼanalarga asoslangan koʻp ovozli ijrochilikning paydo boʻlishi, yangi taʼlim tizimi, kompozitorlik ijodiyoti hamda yangi ohang tafakkurining yuzaga kelishida oʻz ifodasini topdi.[1]

[1] Liviyev A. “Oʻzbekiston respublikasida xalq cholgʻulari ijrochiligi madaniyati”. T., 2010.

Ko‘p ovozli ijrochilikning tarkibiy elementlari orasida har bir musiqa asari uchun ovozlarning kengligi, balans, mos kelishuv va dinamik tartibni saqlash muhim omillardir. Orkestr tarkibi esa alohida yondoshuvlarni talab qiladi, chunki har bir cholg‘u asbobi o‘zining maxsus ijro texnikasi va o‘ziga xos tovush xususiyatlariga ega.

Ko‘p ovozli orkestrlar yoki ansambl tarkibining optimallashtirilishi, musiqiy asarlarni ijro etishda ovozlar o‘rtasida uyg‘unlik va balansni ta’minlash uchun muhimdir. Buning uchun bir nechta ilmiy yondoshuvlar mavjud:

Tarkibiy tahlil: Orkestr yoki ansambl tarkibini optimallashtirishda musiqiy asarning strukturasi va uning har bir qismidagi instrumentlarning roli tahlil qilinishi kerak. Bu tahlil jamoa ichida har bir cholg‘u asbobining o‘rni va ijrochi mas’uliyatini aniqlashga yordam beradi.

Dinamika va balans: Ko‘p ovozli ijroda har bir ovozning o‘ziga xos dinamikasi bor. Ovozlarning balansini optimallashtirish uchun orkestrdagi har bir cholg‘uning tovush kuchini va rangini hisobga olish zarur. Bu jarayon orkestrni samarali ishlashiga yordam beradi.

Funktsional taqsimot: Ko‘p ovozli orkestrda cholg‘ular o‘rtasidagi funksional taqsimot muhim rol o‘ynaydi. Kengroq o‘ylash va taqsimlash (masalan, solistlar va kvartetlar o‘rtasidagi ajratish) orkestrning maksimal samaradorligini ta’minlashga imkon beradi.

Amaliy jihatdan, O‘zbek milliy orkestrlarida ko‘p ovozli ijro jamoalarini optimallashtirish quyidagi amaliy usullar orqali amalga oshirilishi mumkin:

Repertuarni moslashtirish: O‘zbek milliy cholg‘ulariga xos musiqalar orasida ko‘p ovozli ijro talab qiladigan asarlarni aniqlash va ular bo‘yicha maxsus dasturlar tayyorlash. Bunday dasturlarni tuzishda, musiqiy asarlarning ijro uslubi va uslublariga mos keluvchi orkestrlar tarkibini hisobga olish zarur.

Mashg‘ulotlar va ovozlarni tartibga solish: Ovozlarni to‘g‘ri balanslash uchun orkestrning repetitsiyalarini samarali o‘tkazish muhimdir. Bu jarayonni jamoaning individual o‘ziga xosligi va ijro texnikasi asosida tashkil etish kerak. Har bir repetitsiya jarayonida orkestr a’zolarining o‘rni va funksiyalari qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Texnik va musiqiy moslik: Har bir asbobning o‘ziga xos texnik imkoniyatlari va musiqiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, jamoa tarkibini optimallashtirish kerak. Masalan, orkestrda cholg‘ularni 3 qatlamga ajratish mumkin: yuqori qatlam kuy yo‘lini ijro qiluvchi cholg‘ular (nay, chang, prima, g‘ijjak) o‘rta qatlam asosiy kuyga jo‘rnavozlik qiluvchi cholg‘ular (dutor, qashqar rubob, afg‘on rubob, g‘ijjak alt) quyi qatlam bu asarning fundament vazifasini bajaruvchi cholg‘ular (dutor bas, g‘ijjak qobuz bas, qobuz kontrabas).

O‘zbek milliy cholg‘ularining ko‘p ovozli orkestr va ansambllar festivali bo‘lgan “Navro‘z Sadolari” xalqaro musiqiy tadbiri ko‘p ovozli ijrochilikning rivojlanishida juda katta hissa qo‘shmoqda. Ushbu festival O‘zbekistonda va butun dunyoda milliy musiqaning yangilanishi, global musiqiy hamkorlik va madaniy almashuvning mustahkamlanishi uchun muhim platformadir. “Navro‘z Sadolari” festivali nafaqat milliy cholg‘ulari ansambl va orkestrlarini bir joyga to‘plab, musiqaning o‘ziga xosligi va noyobligini dunyoga tanitishga yordam beradi, balki barcha ishtirokchilarni bir-biriga o‘xshamagan musiqiy madaniyatlar va uslublar bilan tanishtiradi. Festivalning asosiy koordinatori, taniqli musiqa mutaxassisi va pedagog Firuza Abdurahimova Ravshanovna, o‘zining katta tajribasi va ilmiy yondoshuvlar bilan musiqiy jamiyatda katta hurmatga sazovor bo‘lgan shaxsdir. Uning boshchiligida festival doirasida ko‘p ovozli orkestr va ansambl ijrochiligi sohasida muhim metodik ishlanmalar va ijro texnikalari takomillashmoqda. Firuza Abdurahimova O‘zbek milliy musiqasining o‘ziga xosligini saqlab qolgan holda, uni zamonaviy orkestr va ansambl shakllariga moslashtirishda asosiy rolni o‘ynamoqda. Uning tashkilotchilik faoliyati, bir tomondan, xalqaro miqyosda O‘zbek musiqasini targ‘ib qilishga yordam beradi, ikkinchi tomondan esa, O‘zbekiston musiqiy jamoalari uchun yangi pedagogik yondoshuvlarni taqdim etadi.

“Sog‘diyona” milliy cholg‘ular kamer orkestri O‘zbekistonning yetakchi musiqiy jamoalaridan biridir. Orkestr o‘zining ijro texnikasi va repertuari bilan nafaqat O‘zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham tanilgan. Kamer orkestri doimiy ravishda o‘quv jarayonlarida orkestr va ansambllarga namunaviy tarzda ishlashni rivojlantiradi. Bu orkestrning asosiy maqsadi nafaqat yuqori darajadagi ijrochilikni ta’minlash, balki yosh musiqachilarga ham mustahkam ijro etish malakalarini o‘rgatishdir. Orkestrda yirik asarlar, jumladan, ko‘p ovozli kompozitsiyalar va an’anaviy O‘zbek musiqasining orkestrga moslashtirilgan shakllari ijro etiladi. “Sog‘diyona” orkestri o‘quv jarayonlarida musiqiy asarlarni jamoa sifatida ijro etishning asosiy qoidalarini ko‘rsatib, nafaqat musiqaning texnik jihatlariga, balki estetik va dinamik jihatlarini ham rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. O‘quv jarayonlarida har bir asbobning o'ziga xosligini hisobga olib, orkestr a’zolari o‘rtasida musiqiy uyg‘unlik va to‘g‘ri balansni ta’minlashga yordam beradigan metodikalar ishlab chiqilmoqda. Bu metodikalar, shuningdek, orkestrning samarali ishlashini ta’minlash uchun har bir musiqiy asar uchun maxsus yondoshuvlarni taklif etadi.

Orkestrni boshqarishda ishlatiladigan pedagogik uslublar ham jamoaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. “Sog‘diyona” orkestri pedagogik jarayonlarni interaktiv va zamonaviy texnologiyalar yordamida olib boradi, bu esa

yosh musiqachilarga ta’limning yuqori sifatini ta’minlash imkonini beradi. Ularning ijro etish texnikasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondoshuvlar, musiqiy asarlarning to‘g‘ri tahlili va individual yondoshuvlar asosida ishlash muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbek milliy cholg‘ularida ko‘p ovozli ijrochilik jamoalar tarkibini optimallashtirish nafaqat musiqiy asarlarning sifatini oshirish, balki milliy musiqaning rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi. Ovozlarning to‘g‘ri balanslashuvi, dinamik moslashuvlar va orkestrning samarali ishlashi musiqiy ijro jarayonida muhim rol o‘ynaydi. "Navro‘z Sadolari" festivali va "Sog‘diyona" orkestrining o‘quv jarayonlaridagi ishlari, nafaqat O‘zbek milliy cholg‘ularining rivojlanishiga, balki butun dunyoda musiqiy madaniyatning o‘zaro boyishiga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayonni ilmiy va amaliy jihatdan yanada rivojlantirish, O‘zbek milliy orkestrlarining yuqori darajada ishlashiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdurahimova, F. R. “O‘zbek milliy cholg‘ulari va ularning ko‘p ovozli ijrochiligi”. T. 2020
2. Yunusov, U. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ansambllar va orkestr tarkibi”. T. 2018
3. Toshmatov O‘. Beknazarov X. Cholg‘ushunoslik. – T.: Darslik 2015.
4. Petrosyants A.I.."Инструментоведение".– T.: "O'qituvchi" nashriyoti 1980
5. Odilov A. “Cholg’ushunoslik”. – Samarqand 2012.
6. Rahimov SH. “Cholg‘ushunoslik”.– T.: “Musiqa” nashriyoti 2010.
7. O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Milliy cholg‘u ilmiy ishlab chiqarish экспременталь laboratoriyasi” arxiv hujjatlari.
8. Umarov Sh. “Dirijorlik”. –T.: O‘quv qo‘llanma 2019.
9. https://www.lex.uz/uz/docs/-5849580
10. "Navro‘z sadolari" xalqaro festivalining dasturi. T. 2021.

G‘IJJAKCHILAR KVARTETIDA KO’P OVOZLI IJROCHILIK IMKONIYATLARINI OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI

O’zbekiston davlat san‘at va madaniyat
instituti Xalq ijodiyoti (cholg‘u ijrochiligi)
magistratura bo‘limi 2-kurs talabasi
Fazliddin Abdusalomov
Ilmiy rahbar: dotsent **S.T.Turatov**

Annotatsiya: Mazkur maqolada o’zbek milliy cholg‘ularidan biri bo’lgan g‘ijjak asbobi asosida tuzilgan kvartet tarkibida ko’p ovozli (polifonik) ijrochilik imkoniyatlari yoritiladi. G‘ijjakchilar kvartetining akustik, texnik va ijrovi jihatlari tahlil qilinadi hamda ansambl tarkibini optimallashtirish bo’yicha takliflar beriladi. Amaliy tajriba va tahlillar asosida polifoniya elementlarini g‘ijjak jamoasiga moslashtirish yo’llari ko’rsatib o’tilgan

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности многоголосного (полифонического) исполнения в квартете, составленном на основе узбекского национального инструмента — гиджака. Анализируются акустические, технические и исполнительские аспекты квартета гиджачистов, а также предлагаются рекомендации по оптимизации состава ансамбля. На основе практического опыта и анализа раскрываются пути адаптации элементов полифонии к специфике исполнения на гиджаке.

Annotation: This article explores the possibilities of polyphonic performance within a quartet formed using the Uzbek national musical instrument — the gijjak. It analyzes acoustic, technical, and performance aspects of the gijjak quartet and provides recommendations for optimizing ensemble composition. Based on practical experience and analysis, the article outlines ways to adapt polyphonic elements to the gijjak’s unique characteristics.

Kalit so‘zlar: g‘ijjak, kvartet, ko’p ovozli ijro, polifoniya, ansambl, milliy cholg‘u

Ключевые слова: гиджак, квартет, многоголосие, полифония, ансамбль, национальный инструмент

Keywords: gijjak, quartet, polyphonic performance, polyphony, ensemble, traditional instrument

Kirish

Musiqa san’atining rivojlanishida ansambl ijrochiligi muhim o’rin tutadi. Ayniqsa, ko’p ovozli ijro (polifoniya) san’atning badiiy ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, ovozlar uyg‘unligini yaratadi va eshituvchini chuqur musiqiy hissiyotlar olamiga yetaklaydi. O’zbek xalq musiqa madaniyatida milliy cholg‘ular asosida tashkil etilgan ansambllar, xususan, torli cholg‘ulardan iborat guruhlar muhim o’rin egallaydi. An’anaviy cholg‘u ijrochiligimiz yakka va jamoaviy ijro ko’rinishlarida rivojlanib kelgan bo’lsa-da, zamonaviy bosqichda ko’p ovozli ansambllar tashkil etish zaruriyati sezilmoqda. Ayniqsa, kvartetlar shaklida ijro etilayotgan milliy cholg‘ularning badiiy imkoniyatlarini kengaytirish, xorijiy musiqiy shakllar bilan uyg‘unlashtirish hamda xalqaro sahnada namoyon etish uchun polifonik yondashuvlar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ko’p ovozli ijrochilikda ansambl a’zolari o’rtasida uyg‘unlik, partituradagi ovozlar balansi va musiqiy fakturaning mukammalligi doimo ustuvor vazifa bo’lib kelgan. Mazkur maqolada g‘ijjakchilar kvartetida ko’p ovozli ijrochilik imkoniyatlarini tahlil qilish, bu borada amaliy tajriba va nazariy qarashlarni umumlashtirish, shuningdek, ansambl tarkibini optimallashtirish bo’yicha tavsiyalar berish maqsad qilingan.

G‘ijjak cholg‘usining tarixi, texnik va tembr imkoniyatlari

G‘ijjak — torli, kamonli cholg‘u bo’lib, o’zining tembr rang-barangligi, ovoz ohangining ta’sirliligi va ifoda imkoniyatlari bilan ajralib turadi. G‘ijjak sozi o’zbek xalqining sevimli cholg‘ularidan bo‘lib, ming yildan ziyodroq davr mobaynida insonlarga ma’naviy meros sifatida xizmat qilib kelmoqda. Uning kelib chiqishi X-XI asrlarga borib taqaladi. O‘sha davrning mashhur faylasuf olimi Abu Nasr Forobiy ixtiro qilgan kamonli cholg‘u “G‘ipchak” deb nomlangan va ikki torli bo‘lgan. G‘ijjak Bobur zamonasiga kelib, uch torli cholg‘u sifatida shakllandi. “Boburnoma”da aytilishicha, o‘z davrining mashhur sozandasi Qulmuhammad Udiy g‘ijjakka uchinchi torni taqib, yuqori ijrochilik mahoratini namoyish etgan.[1] XX asrning 36-yillaridan boshlab O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, professor Ashot Ivanovich Petrosyants rahbarligida o‘zbek xalq cholg‘ularini nota yozuvi asosidagi ijrochilikka moslandi. Bu o‘z o‘rnida o‘zbek professional musiqa ijrochiligida muhim qadam bo‘idi. 1943-yilda maxsus eksperimentai laboratoriya tashkil etildi va cholg‘ularni takomillashtirish bo‘yicha ishlarni davom ettirdi. Boshqa milliy sozlarimiz qatorida g‘ijjak sozi

[1] Toshmuhamedov M. "Giijak darsligi". Toshkent: "O'qituvchi", 1995, 3-bet.

ham muvaffaqiyat bilan takomillashtirildi, ya’ni rekonstruksiya qilindi.[1] G‘ijjak sozi torlar soni, tuzilishi, sozlanishi va ijro texnikasi jihatidan skripka, alt kabi cholg‘ular bilan umumiylikka ega bo‘lsa-da, milliylik elementlarini o‘zida saqlab qolgan. G‘ijjakning ovoz diapazoni va tembr imkoniyatlari ansambl tarkibida uning ko‘p funksiyali ijrosini ta’minlaydi. Bu cholg‘u nafaqat asosiy kuy chizig‘ini, balki garmonik to‘ldirish va oraliq ovozlarni ham ijro eta oladi. Shu sababli, g‘ijjak ansambl va orkestr tarkibida turli funksiyalarni bajarish salohiyatiga ega.

O‘zbekistonning turli hududlarida turli xil nomlar bilan tanilgan. U o‘zining tembri boyligi, ifodaviy kengligi va cho‘zilgan tovush olish imkoniyati bilan ajralib turadi. G‘ijjakning tembri ko‘proq inson ovoziga yaqin bo‘lib, bu esa uni ansamblda yetakchi cholg‘u sifatida ishlatishga imkon beradi. Ayniqsa, bir nechta g‘ijjakchidan iborat jamoada tovushlarning uyg‘unligi, rolikli ijro texnikasi, pizzikato va glissando kabi ifoda vositalari orqali boy musiqiy palitra yaratish mumkin.

G‘ijjakning torlar diapazoni ko‘plab kuylarni turli ohanglarda ijro etish imkonini beradi. Bu esa uni ko‘p ovozli ijrochilikda alohida o‘rin egallashiga sabab bo‘ladi. Har bir g‘ijjakchi muayyan ovoz qatlamini ijro etgan holda, musiqiy fakturani boyitadi va umumiy musiqiy matnga chuqurlik bag‘ishlaydi.

II. Kvartet shaklidagi ansambl tarkibi va polifoniya imkoniyatlari

Kvartet — to‘rt nafar ijrochidan iborat ansambl bo‘lib, har bir a’zo o‘zining mustaqil partiyasini ijro etadi. G‘ijjakchilar kvarteti uchun eng maqbul tarkib: 1-g‘ijjak (melodiya), 2-g‘ijjak (kontrapunkt), alt-g‘ijjak (garmoniya), va g‘ijjak bas (**garmonik poydevor**) hisoblanadi. Ko‘p ovozli ijro — bu bir vaqtning o‘zida bir nechta musiqiy chiziqlarni uyg‘un holda ijro etish bo‘lib, bu har bir ijrochidan mustaqil, biroq moslashuvchan ijroni talab etadi. Bunday ijrochilikni amalga oshirish uchun ijrochilarning bir-biri bilan tinglash malakasi, dinamikani nazorat qilish va tembr muvozanatini saqlash ko‘nikmalari yuqori bo‘lishi zarur.

Kvartet — to‘rt ijrochidan iborat ansambl shakli bo‘lib, unda har bir a’zo mustaqil partiya ijro etadi. G‘arbiy musiqa tajribasida bu shakl polifoniyaning eng mukammal ko‘rinishi hisoblanadi. O‘zbek milliy cholg‘ulari asosida tuzilgan kvartetlarda ham bu shaklni muvaffaqiyatli qo‘llash mumkin.

[1] A.I.Petrosyans. “Cholg‘ushunoslik” (Инструментоведение) Toshkent G‘ofur G‘ulom, 1990, 5-bet

G‘ijjakchilar kvartetida odatda quyidagi ovoz qatlamlari mavjud:

1-g‘ijjak: Asosiy kuy yoki yetakchi ovoz (melodiya)

2-g‘ijjak: Kontrapunkt yoki ikkilamchi kuy

3-g‘ijjak yoki alt: Akkompanement (ritmik yoki garmonik asos)

4-g‘ijjak bas yoki kontrabas (bas yoki ostinato qatlam)

Bu kabi qatlamli ijro — har bir cholg‘u bir vaqtning o‘zida mustaqil, ammo bir-biriga uyg‘un ovoz olib borishini ta’minlaydi. Bunda kompozitsion fikrlash, ijro texnikasi va ansambl uyg‘unligi muhim rol o‘ynaydi.

III. Ijrochilikdagi muammolar va yechimlar

Ansambldagi ovozlar balansi, bir ovozning boshqalar ustidan ustuvor bo‘lishi yoki yo‘qolib qolishi ko‘p ovozli ijrochilikda eng asosiy muammolardan biridir. Garmonik uyg‘unlik buzilishi, vaqt muvofiqligi (ritmik aniqlik) va tembrda notekislik kvartetning badiiy sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, g‘ijjakning konstruktsiyasi va sozlanishi (yog‘och sifati, torlarning holati, kamon sifati) ham muhim ahamiyatga ega. Ijrochilarning texnik darajasi, musiqiy eshituvlari va ansambl madaniyati muammolarni keltirib chiqaruvchi omillar sirasiga kiradi. G‘ijjakchilar kvartetida ko‘p ovozli ijro jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar:

- Har bir ijrochining o‘z partiyasini mustaqil va bir vaqtning o‘zida uyg‘un ijro etishdagi murakkabligi
- Tovushlar balandligi va dinamika muvozanatini saqlash
- Texnik noaniqliklar, ayniqsa, tez tempdagi polifonik fragmentlarda

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar muhim:

- Ansambl bo‘lib mashq qilish jarayonini ko‘paytirish
- Har bir ijrochini nafaqat o‘z partiyasini, balki boshqa partiyalarni ham eshitishga o‘rgatish
- Dastlabki bosqichda oddiy polifonik mashqlar orqali bosqichma-bosqich murakkab fakturalarga o‘tish

Amaliy tajribadan kelib chiqib, kvartet ijrosida boshlang‘ich bosqichda ikki ovozli mashqlar, so‘ngra uch va to‘rt ovozli asarlarga o‘tish yo‘li samarali natija beradi.

IV. Tarkibni optimallashtirish: taklif va tavsiyalar

Kvartetning mukammal ishlashi uchun birinchi navbatda ijrochilarning partiyalarni to‘liq tushunishi va o‘zaro muvofiqlikda ishlashi lozim. Har bir cholg‘uning funksiyasi aniq belgilanishi, musiqiy materiallar yaxshi tanlangan bo‘lishi va bastakorlik yechimlari o‘zaro uyg‘un bo‘lishi kerak. Shuningdek, kvartet repertuarini shakllantirishda milliy kuylarning ko‘p ovozli muvofiqlashtirilgan variantlaridan foydalanish, zamonaviy musiqa dasturlarida aranjirovka qilish, tinglovchining estetik ehtiyojlariga mos asarlar tanlash kerak. Ijrochilarning birgalikdagi mashg‘ulotlari, yozuv asosida tahlil qilish va o‘zaro baholash tizimi optimallashtirishning samarali yo‘llaridan biridir.

Kvartet tarkibini optimallashtirishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:
Tovush balandligi va tembr uyg‘unligi: Har bir g‘ijjakning tembri uyg‘unlashtirilgan bo‘lishi lozim. Buning uchun tor sozlanishida aniqlik, kamon ishlatishda bir xil texnika bo‘lishi zarur.
Ijrochilar roli aniq taqsimlanishi: Har bir ijrochi o‘zining qaysi qatlamda ishtirok etishini va musiqiy vazifasini tushunishi kerak.
Boshqa cholg‘ular bilan uyg‘unlashtirish: G‘ijjak kvarteti tarkibiga doira, rubob, tanbur kabi cholg‘ularni qo‘shish orqali tembriy xilma-xillik yaratish mumkin. Yuqoridagi tavsiyalar ansambl tarkibini nafaqat texnik jihatdan, balki badiiy ifoda jihatidan ham optimallashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ijrochilar orasidagi o‘zaro eshituv va uyg‘unlik rivojlanadi.

Xulosa

G‘ijjakchilar kvartetida ko‘p ovozli ijrochilik imkoniyatlarini ochib berish, ularni metodik asosda rivojlantirish, amaliy tajriba asosida takomillashtirish O‘zbekiston musiqa san’ati taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur maqolada bayon etilgan tahlil va takliflar ijrochilik sifatini oshirish, milliy cholg‘ular asosida jahon andozalariga mos ansambllar shakllantirish uchun xizmat qiladi. G‘ijjakchilar kvartetida ko‘p ovozli ijrochilik imkoniyatlarini ochib berish, nafaqat ijro san’atining yangi bosqichga ko‘tarilishi, balki milliy cholg‘ular asosida zamonaviy polifoniya elementlarini joriy qilishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada bayon etilgan nazariy va amaliy tavsiyalar orqali ijrochilik jarayoni optimallashtiriladi va yangi ijodiy imkoniyatlar ochiladi.

Kelajakda ushbu sohada ilmiy-amaliy izlanishlar, xorij tajribalarini o‘rganish va milliy maktablarga moslashtirish, shuningdek, g‘ijjakchilar ansambli asosidagi ko‘p ovozli asarlarni yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Toshmuhamedov M. "G‘ijjak darsligi". Toshkent: “O‘qituvchi”, 1995, 3-bet.
2. A.I.Petrosyans. “Cholg‘ushunoslik” (Инструментоведение) Toshkent G‘ofur G‘ulom, 1990, 5-bet
3. G‘ijjak sinfi darsligi/Q.Nazirov. Oliy musiqa ta‘limi muassasalari uchun darslik. - Toshkent: “Musiqa”, 2013. 52 b.

TALABA KONSERT FAOLIYATI XUSUSIDA

Nilufar XUDOYQULOVA,
O‘zDSMI “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi o‘qituvchisi
xbnn4@mail.ru

Annotasiya. *Mazkur maqolada talaba konsert dasturi xususida fikr yuritilgan. Bundan tashqari maqolada talaba konsert faoliyati va konsert oldi hayajonini engish uslublari haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Musiqiy tarbiya, konsert repertuari, interpritatsiya, ijro dasturi, fiziologik holat, piano, agogika, dinamika.*

О КОНЦЕРТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТА

Нилуфар ХУДОЙКУЛОВА,
преподаватель ГИИКУз кафедры «Инструментальное исполницельство»
xbnn4@mail.ru

Аннотация. *В данной статье рассматривается студенческая концертная программа. Кроме того, в статье рассказывается о студенческой концертной деятельности и способах преодоления предконцертного волнения.*

Ключевые слова: *Музыкальное воспитание, концертный репертуар, интерпретация, исполнительская программа, физиологическое состояние, пиано, агогика, динамика.*

Nilufar KHUDOYKULOVA,
lecturer of the State Institute of Culture
and Arts of the department
"Instrumental performance"
xbnn4@mail.ru

ON THE CONCERT ACTIVITY OF THE STUDENT

Abstract. *This article discusses the student concert program. Additionally, the article discusses student concert activities and ways to overcome pre-concert excitement.*

Keywords: *Musical education, concert repertoire, interpretation, performance program, physiological state, piano, agogics, dynamics.*

Zamonaviy musiqiy ta'limning asosiy tendensiyalardan biri – talaba yoshlarning musiqiy, ijodiy tafakkur va qobiliyatlarini yanada boyitish, kasbga doir bilim va malakalarini oshirib salohiyatli kadrlarni tayyorlashdir. Ayni paytda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot jarayonida musiqa madaniyati sohasini yanada rivojlantirish va kasbiy mahorati yetuk bo'lgan soha mutaxassislarini tayyorlash borasida konseptual reja va olib borilayotgan ishlar fikrimizga asos bo'la oladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalq ta'limi tizimi, xususan musiqa ta'limiga oid bir qancha Farmon va Qarorlari[1] qabul qilindi. Bu hujjatlar biz pedagoglar uchun yosh avlodni zamon talablari darajasida barkamol qilib tarbiyalashda muhim manba bo'ladi.

[1] Xususan, 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-sonli Farmoni, 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3504-sonli Qarori, 2017-yil 31-maydagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3032-sonli Qarori, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy talim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori 2024-yil 15-noyabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-391-sonli Qarori va b.

Respublikamizni yanada rivojlantirish jarayonlariga hissa qo‘shadigan omillardan biri musiqa san’ati va uning ta’limidir. Yoshlarning ma’naviy va madaniy dunyosini takomillashtirishda musiqiy ta’limning muhim tarkibiy qismilaridan biri cholg‘u ijrochiligi san’atidir. Zero, bu san’at turi bilan yoshlar musiqiy ta’lim tarbiyasi, ruh va ong salohiyatiga sezilarli ta’sir o‘tkazib, ularning jamiyatimizda barkamol inson sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga yordam beradi.

Ma’lumki, musiqiy ta’lim yo‘nalishidagi oliy ta’lim tizimida yetuk musiqachini tarbiyalashda ijro dasturi cholg‘uchining qobiliyati, musiqiy-badiiy didi va yuksak aql-idrokini belgilovchi o‘ziga xos sifatlovchi vositadir. Cholg‘u ijrochilik ta’limida repertuar tanlash jarayoni har bir talabaga individual yondashgan holda amalga oshiriladi va bu jarayon, o‘z navbatida, haqiqiy mutaxassis va ijrochi (musiqachi)ni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda talabalar dasturini tanlashda zamonaviy pedagogikada ularga ko‘proq erkinlik berish tendensiyasi kuzatilmoqda. Zero, har bir talaba individual xususiyatga ega. Ijro dasturini tanlashda nafaqat pianistik va musiqiy ko‘nikma, balki ijrochining o‘zlashtirish qobiliyati, psixo-emotsional holati, ma’naviy fazilatlari, xarakter xususiyatlarini e’tiborga olish zarur. To‘g‘ri tanlangan ijro dasturi talabaning musiqiy tafakkurini rivojlantirib, mashg‘ulotlarni mustaqil o‘zlashtirishga va ijodiy izlanishga undaydi.

Ijrochi musiqiy asarni o‘rganib, uni musiqa mutaxassislari va keng tinglovchilarga maromida yetkazib berishdagi faoliyati mashaqqatli mehnat bilan kechishi ma’lum. Bunda ko‘p yillik musiqiy ta’limning ijobiy natijasi, yetuk ijrochiga xos bo‘lgan sifatlarni mukammal egallaganligi, musiqiy didning shakllanganligi, ijrochining repertuari orqali namoyon bo‘ladi. Cholg‘u ijrochisi uchun muntazam konsertlarda ishtirok etish esa o‘ziga xos hisobot ko‘rsatkichidir.

Konsert repertuari musiqiy ta’limning eng asosiy tarkibiy qismidir. To‘g‘ri tanlangan repertuar talabaning musiqiy tafakkurini rivojlantirib, mashg‘ulotlarni mustaqil o‘zlashtirishga va ijodiy izlanishga undaydi. Demak, talabalar ijro dasturini shakllantirishda pedagog jiddiy yondashuv orqali asarlarni har bir shogirdiga oldindan loyiha sifatida tayyorlab olishi zarur.

Zamonaviy musiqiy ta’lim milliy va jahon san’atining yuksak badiiy namunalari asosida tarbiya topgan madaniyatli va bilimli shaxs tarbiyasini ilgari suradi. Pedagogik ta’lim jarayoni orqali esa o‘quvchi-talaba har xil uslub, janr va shakldagi musiqiy asarlarni ijro etish uslubiyotini o‘zlashtiradi, ma’lum bir kompozitor uslubining o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishadi, nazariy hamda tarixiy ma’lumotlar orqali bilim boyligini kengaytiradi. Bunda ma’lum bilim va malakaga ega bo‘lgan talabaga beriladigan ijro dasturi uning iqtidorini,

kompetentlik darajasini yanada o‘stirib olishga imkon beradigan maqsadga xizmat qilishi lozim. Buning uchun fan bo‘yicha qo‘yilgan talablar ketma-ketligini to‘g‘ri taqsimlash, bosqichma-bosqich tamoyil ustuvor bo‘lishi kerak. Shu jumladan, o‘quv va konsert dasturiga zamonaviy mualliflarning musiqiy asarlarini kiritish talabaga zamonaviy musiqa namunalaridan voqif bo‘lishi va ularni ijro etish uslublarini o‘zlashtirishga keng imkon beradi. Musiqiy asarlar o‘zining boy, serqirra kompozitsiyasi ijrochining talqini (interpretatsiyasi)[1] [1. 53] estetik xususiyatlari va kompozitorning badiiy g‘oyasiga individual yondashuvi ila tinglovchiga taqdim etiladi. Tabiiyki, ma’lum musiqiy asarni har bir ijrochi o‘zidan kelib chiqib, xos va mos tarzda ijro etadi. Musiqiy asar matnini puxta tahlil qilish, muallif va asarga xos bo‘lgan uslubni bilish, asar shakl qonuniyatlarini idroklash, badiiy ifoda vositalari (temp, dinamika, registr, tembr, ritm, garmoniya, lad, kuy, intonatsiya)ning o‘zaro bog‘liqligini anglagan holda tinglovchiga “havola” etish mantiqsiz ijroning oldini oladi. Bunday tahliliy faoliyat natijasida musiqiy did, badiiy saviya shakllanib cholg‘uchi ijroda o‘zining individual talqiniga ega bo‘ladi.

Xilma-xil badiiy xususiyatlarga ega bo‘lgan musiqiy asarlar ustida ishlash ijodiy faoliyatdir. Ma’lumki, asarni o‘zlashtirish musiqiy matn bilan tanishish, uni batafsil tahlil qilish, ifoda vositalari orqali badiiy obraz ustida ishlash kabi uch asosiy bosqichlardan iborat. Talabalar bilan musiqiy asar ustida ishlashning birinchi bosqichida kompozitor hayoti va ijodiy faoliyatini, asar yaratilishining tarixiy davriga oid ma’lumotlarni, uni zamonaviy texnologik vosita va dasturlar ko‘magida (MP3, video) yoki o‘qituvchi ijrosida asarni tinglash kabi jarayonlar orqali yaxlit tushunchaga ega bo‘lishga xizmat qiladi.

Kun sayin sayqallangan jumlalar, epizodlarni birlashtirib yaxlit, aniq musiqiy obraz, asar xarakteri, dinamik ketma-ketlik ustida ishlash murakkab va mashaqqatli, shu bilan birga, qiziqarli ijodiy jarayondir. Albatta, u ijrochining mahorati va fortepiano cholg‘usini yaxshi “his” qila bilish qobiliyati bilan bog‘liq. Ijrochining badiiy ifoda vositalarini qo‘llash malakasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ya’ni turli xil *forte*, bir-biriga o‘xshamas *piano* kabi ifoda vositalarini amalda qo‘llash orqali u asarning mohiyati va xususiyatiga qarab ohang yo‘llarini boyitadi, mazmunini to‘ldiradi.

Talabaning konsertda o‘z dasturi bilan ishtirok etishi unda ruhlanish, zavq-shavq bilan birga kuchli xavotir va hayajonli tuyg‘ular, aniqroq aytganda kuchli stress ruhiy holatida kechadi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, konsert oldi

[1] Interpretatsiya (lot. Interpretio – tushuntirish, talqinlash) – musiqa asarining ijodiy ijro etilishidagi talqin.

hayajonlar nafaqat o‘quvchi-talabalar uchun, balki mohir ijrochilar uchun ham tabiiy holdir. Hayajonli holat ayrim vaziyatlarda ijobiy ta’sirga ham ega. Masalan, u musiqiy asar ijrosining yorqin emotsional boyligini tinglovchilarga yetkazishda o‘ziga xos o‘ringa ega.

Ma’lumki, hayajon psixo-emotsional holat bo‘lib, u ruhiy kechinmalar bilan bog‘liq. Sahna oldi hayajonli holat esa ko‘proq tajribasizlik, ishonchsizlik oqibatida yuzaga keladi. Ijroda o‘ziga ishonch hissini shakllantirishda konsert oldi mashg‘ulotlarning ahamiyati katta. Bu borada umumijrochilik amaliyotida bir qator buyuk pedagog va cholg‘u ijrochilarning malakasidan kelib chiqib, ushbu jarayonni “yengib” o‘tishning bir qancha samarali usullari shakllangan. Misol uchun, ijro dasturidagi asar lavhalarini kattalashtirilgan oynaga qarab ijro qilish, ya’ni asarning *agogika, dinamika,* ifoda vositalari kabi nyuanslarini sekin sur’atda bo‘rttirib ijro etish usuli bilan yaxshi natijaga erishish mumkin. Bunday usul asarning har bir o‘ziga xos jihatlarini tafsiliy ravishda, ijro apparatini to‘liq boshqargan holda mashq qilish imkonini beradi va o‘z navbatida ijrochining o‘ziga ishonchi yanada ortadi. Bundan tashqari, konsert oldi mashg‘ulotlarida qo‘l va bosh miyani haddan ziyod toliqtirish cholg‘uchining psixofizik holati tarang bo‘lishiga olib kelishi mumkinligini yodda tutish lozim. Mashhur rus pianinochisi G.Neygauz (1888–1964) ta’kidlaganidek, “sahna oldi mashg‘ulotlarida asarni hissiyotlarsiz, quruq, befarq ijro etish bilan ijrochi o‘zini emotsional toliqtirmasligi kerak” [2.273]. Zero, bor kuch va mahorat sahna uchun saqlanishi muhim.

Sahna hayajonini yengishda eng asosiy jihatlardan yana biri ijro etilayotgan asarning barcha texnik murakkabliklari va mantiqiy asosi bekam-ko‘st o‘zlashtirilgan va avtomatizm darajasiga yetkazilgan bo‘lishidir. Bunday darajaga har kunlik tinimsiz mehnat bilan erishiladi. Albatta, asarning butun mazmun-mohiyatini faqat texnik mahoratni benuqson ijro etish bilan ko‘rsatib berib bo‘lmaydi. Har bir musiqiy kompozitsiyada kompozitorning ma’lum bir g‘oyasi yotadi. Ijrochi ana shu g‘oyani tinglovchilarga yetkazib berish uchun doimiy izlanish va mantiqiy reja asosida uni amalga oshirishi kerak.

Konsert oldidan ijrochi o‘zini konsert kayfiyatiga moslab asarni o‘ziga xos hissiy jihatlari bilan qayta-qayta ijro etishi ham foydadan xoli emas. Sahnada, xususan konsert vaqtida turli xil kutilmagan holatlar yuzaga kelishi mumkin. Muhimi, ijrochi asar musiqa yo‘nalishini saqlagan holda, kayfiyatni tushirmasdan asar ijrosini davom ettirishi kerak. Zero, cholg‘u ijrochisining eng asosiy vazifasi kompozitor g‘oyasini, asarning musiqiy hissiyotini mazmunli va texnik jihatdan ravon ijrosi orqali tinglovchi bilan aloqa o‘rnatib, uning emotsional holatini shakllantirishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://president.uz/uz/lists/view/3864
2. Madaniyat va san’at atamalarining izohli lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
3. Нейгауз Г.Г. Об искусстве фортепианной игре. – М.: Музыка, 1987.
4. Djamalova D. Fortepiano. – T.: Musiqa, 2018.
5. Rajabova D. Fortepiano mashg‘ulotlari (Fortepiano ta’limi metodikasi) – T.: O‘qituvchi, 1994.
6. Xudoyqulova N. Fortepiano. O‘quv qo‘llanma.- T.: Donishmand ziyo, 2023.

HISTORY AND EVOLUTION OF THE PRODUCTION OF UZBEK FOLK MUSICAL INSTRUMENTS

Xasanova Kamila Bahromovna
Magistr of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture,
TV Film Directing Department’s
e-mail: rishtonceramics@gmail.com

Abstract: The article focuses on the history and evolution of the craftsmanship of Uzbek folk musical instruments, which are an essential part of Uzbekistan's cultural heritage. It examines the main stages of the craft's development, from ancient times when instruments were made from natural materials to the modern era, where traditional techniques are combined with innovations. Special attention is given to the influence of the Great Silk Road on the diversity of instruments, as well as the role of craftsmen in preserving and passing down artisanal traditions. The article also analyzes the manufacturing techniques, materials, and decorative elements characteristic of Uzbek instruments. Their significance in rituals, celebrations, and epic storytelling is emphasized. The current state of the craft is discussed in the context of globalization and efforts to preserve cultural heritage.

Keywords: Uzbek musical instruments, history, evolution, craftsmanship, Great Silk Road, dutar, tanbur, doira, traditions, cultural heritage, manufacturing techniques, decoration, modernity.

